

133⁶

A.M. ALIMOV

3.

GLOBALLASHUV VA MINTAQAVIY IQTISODIY INTEGRATSIYA JARAYONLARI

TOSHKENT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

A.M. ALIMOV

**GLOBALLASHUV
VA MINTAQAVIY IQTISODIY
INTEGRATSIYA JARAYONLARI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan 5A230001- Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va
mamlakatshunoslik (mintaqalar va mamlakatlar bo'yicha) bo'yicha
ta'lif oluvchi talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya
etilgan*

TOSHKENT – 2016

UO'K: 339.924 (075)

KBK 65.5

A-50/

A-50 A.M.Alimov. Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 276 bet.

ISBN 978-9943-11-354-1

O'quv qo'llanma «Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari» fanining muhim masalalari, o'qitishning interfaol va zamonaviy pedagogik uslublariga asoslangan holda qisqa va tushunarli tilda bayon etilgan. Unda xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiyasiga asoslangan holda jahon iqtisodi globallashuvi va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning muhim nazariy va amaliy jihatlari, ularning mohiyati, asosiy yo'nalishlari, global va hududiy iqtisodiy integratsiyalashuv shakllari, rivojlanish tendensiyalari va xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Mazkur o'quv qo'llanmaning mundarijasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tasdiqlagan O'zbekistonda uzlucksiz ta'lif davlat standarti tizimiga to'la mos keladi va oliy o'quv yurtlarining iqtisodiyot yo'nalishida ta'lif olayotgan bakalavr, magistrlariga, katta ilmiy xodim, mustaqil tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilari va jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasiga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

UO'K: 339.924 (075)

KBK 65.5

Taqrizchilar:

A.V.Vaxobov – i.f.d., prof.;

Sh.Ermamatov – i.f.n., dotsent.

ISBN 978-9943-11-354-1

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016.

KIRISH

Hozirgi vaqtida jahon iqtisodiyoti o‘z taraqqiyotining globallashuv bosqichi yangi to‘lqini bilan tavsiflanadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, o‘z tarixi, madaniyati va an’analarini hurmat qiluvchi hamda boshqa mamlakatlar oldidagi majburiyatlariga rioya qiluvchi teng huquqli sherik sifatida, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashishning o‘z yo‘lini tanlab oldi va undan og‘ishmay bormoqda.

Mustaqilligimizning 25-yillik davri mobaynida O‘zbekiston jahon xo‘jaligidagi o‘zining munosib o‘rnini topishga muvaffaq bo‘ldi. Oxirgi-yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish borasida qo‘lga kiritilgan natijalar Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Juhon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan yuksak baholanmoqda.

Globallashuv sharoitida milliy iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, «Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari» fani har mamlakat iqtisodiyoti va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida yetuk mutaxassislarni tayyorlashda, O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash jarayonida mamlakatning jahon xo‘jaligiga samarali integratsiyalashuvini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiyaga asoslangan holda jahon iqtisodi globallashuvi va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning muhim nazariy va amaliy jihatlari: ularning mohiyati, asosiy yo‘nalishlari, global va hududiy iqtisodiy integratsiyalashuv shakllari, rivojlanish tendensiyalari va xususiyatlari ko‘rib chiqilgan.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya xo‘jalik hayoti baynalminalashuvi, liberallashuvi va transmilliylashuvi jarayonlarining chuqurlashuvi natijasidir. Bu mehnat taqsimoti va davlatlar o‘rasidagi o‘zaro mustahkam aloqalarning rivojlanishi, ularning o‘zaro moslashuvi va birlashuvi jarayonidir. Milliy iqtisodiyotlar rivojlanishi

jahon xo'jaligi tizimida raqobat kurashining kuchayishi va qarama-qarshilikning chuqurlashuviga asoslanadi. Bu to'qnashuvlar yechimi mintaqaviy integratsiyaning rivojlanishi shakllarida o'z aksini oladi.

Kursning asosiy maqsadi – jahon xo'jaligi globallashuv va mintaqaviy integratsiya jarayonlarining asosiy qonuniyatlarini va tendensiyalarini, global va mintaqaviy iqtisodiyotning shakllanish va rivojlanish tendensiyalarini tahlil etish asosida O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish omillati va istiqbollarini o'rgatishdan iborat. Mintaqaviy integratsiya jarayonlarining rivojlanishi asosan 3 ta yirik mintaqada kuzatiladi: G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Tinch Okeani havzasasi. Jahonning alohida mintaqalaridagi integratsion rivojlanish tajriba-sini o'rghanish, Markaziy Osiyoning yosh mamlakatlari, xususan O'zbekiston uchun katta ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

O'quv qo'llanmasining asosiy vazifalari – zamonaviy jahon iqtisodiyotining rivojlanish qonuniyatlarini va tendensiyalarini, xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanish xususiyatlarini o'rghanish; jahon mintaqalari mamlakatlarining o'zaro iqtisodiy bog'liqligining ziddiyatlari va muammolarini tahlil qilish; O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ko'tarish omillarini aniqlash qobiliyatini hosil qilishdan iborat. Shu bilan birga ushbu kurs doirasida xalqaro iqtisodiy integratsiya, shu jumladan, mintaqaviy integratsion jarayonlarning xususiyatlari, tamoyillari, nazariy asoslari, ularning mexanizmlari chuqurroq va kengroq o'rganiladi.

Mazkur o'quv qo'llanmasining mundarijsi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tasdiqlagan O'zbekistonda uzlusiz ta'lif davlat standarti tizimiga to'la mos keladi. Uning muallifi fikrlarini aniq va mantiqiy izchillikda ifodalashga, uslubiy yondashuv va atamalarining bir xilligiga erishishga harakat qilgan. O'rorganilayotgan kurs predmetining tezkor o'zgaruvchanligi biroz qiyinchilik tug'diradi, bu esa jahon iqtisodiyotida kechayotgan globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari to'g'risidagi yangi axborotlarga ega bo'lib borishni, qo'shimcha adabiyotlardan va iqtisodiy ma'lumotlardan tizimli foydalanishni talab qiladi.

“O'quv qo'llanma boblarining so'ngida tayanch iboralar va nazorat savollari keltirilgan, ilovada jahon iqtisodiyoti globallashuvi

va integratsiyalashuvining zamonaviy tendensiyalarini aks ettiruvchi statistik ma'lumotlar berilgan. Bu talabalarning nazariy bilimlarini har tomonlama chuqur tahlil etish, olgan bilimlarini mustaqil tarzda sinab ko'rish imkonini beradi.

O'quv qo'llanmani tayyorlash jarayonida xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari, xorij va mamlakatimizda nashr etilgan ilmiy risolalar, ilmiy jurnallardagi maqolalardan imkon qadar foydalanildi.

Mazkur o'quv qo'llanmasi oliy o'quv yurtlarining iqtisodiyot yo'nalishida ta'lim olayotgan bakalavr, magistrlariga, katta ilmiy sodim, mustaqil tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilari va jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasiga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Muallif ushbu o'quv qo'llanmasini nashrga tayyorlashda ko'rsatgan beg'araz yordamlari uchun shogirdlari A.Muxsinov, S.Sh.Tashtayevalarga tashakkur izhor etadi.

BIRINCHI BO'LIM.

JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA OMILLARI

I BOB. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI: NAZARIY ASOSLARI VA HARAKATLANTIRUVCHI KUCHLARI

1.1. Globallashuv jahon iqtisodiyoti baynalminalashuvining eng yuqori bosqichi sifatida

Globallashuv zamonaviy jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi eng asosiy jarayonlarning biri bo'lib, xo'jalik hayoti baynalminalashuvining yuqori bosqichi hisoblanadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi, tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning boshqa shakllari rivojlanishi natijasida milliy iqtisodiyotlarning o'zaro aloqasi va bir biriga beg'liqligi tobora kuchaymoqda. Hozirgi davrda tashqi omillarni hisobga olmasdan davlatlarning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mumkin emas.

Ma'lumki, mamlakatlar iqtisodiyotlarining bir-biriga bog'liqligi kuchayishi, tashqi iqtisodiy aloqalarning milliy iqtisodiyotlarga ta'sirining ortishi, katta-kichik davlatlarning xalqaro munosabatlardagi ishtiroki faollashuvi xo'jalik faoliyatining baynalminallashuvidir. Iqtisodiyot baynalminallashuvi bir qator bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, dastlabkisi xalqaro iqtisodiy hamkorlik hisoblanadi va bunda tashqi savdoning roli g'oyat muhimdir. Davlatlar o'rtaсидаги xalqaro xo'jalik aloqalarining me'yoriy-huquqiy ta'minlanishi, qayta ishlab chiqarish jarayonlarining milliy chegaralardan tashqariga chiqishi xalqaro iqtisodiy hamkorlikdir.

Baynalminallashuvning keyingi bosqichi «xalqaro iqtisodiy integratsiya» atamasi bilan bog'liq. Bu davr xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, kapital harakati jo'shqinligining kuchayishi, ilmiy-texnik rivojlanish umumbashariy xarakterga ega

bo'lganligi, milliy iqtisodiyotning ochiqligi va erkin savdo darajasi ertishi bilan izohlanadi. Integratsiya (integratio) so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, ma'lum bir qismlarning umumlashishi, yagona bir shaklga kelishi va birlashishini anglatadi. Mintaqalar doirasida ayrim mamlakatlar iqtisodiyotlarining o'zaro yaqinlashib, bir-birini to'ldirishi hamda baynalminallashuv jarayonida yagona bir ishlab chiqarish va boshqarish tizimida faoliyat yuritishi mintaqaviy integratsiya deb ataladi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya mehnat taqsimoti asosida ma'lum bir davlatlar xo'jaliklarining birlashishi hamda o'zaro aloqalarining samarali rivojlanishi oqibatida milliy iqtisodiyotlarga turli shakl va darajada ta'sir o'tkazishi mumkin. Xalqaro iqtisodiy integratsiya xo'jalik munosabatlari baynalminallashuvining yangi va shu bilan birga murakkab bosqichi bo'lib, jahon iqtisodiyotining yuqori, samarali va kelajakka yo'naltirilgan rivojlanish nuqtasi hisoblanadi. Bunda faqatgina milliy xo'jaliklar birlashibgina qolmasdan, balki iqtisodiy muammolarning yechimi hamkorlikda hal etilishi ta'minlanadi. Shu o'rinda aytish joizki, iqtisodiy integratsiya mamlakatlarni birgalikda faoliyat yuritishga yetaklovchi jarayon sifatida quyidagilarda namoyon bo'лади:

- turli mamlakatlarning milliy xo'jaliklari o'rtaсидаги hamkorlik hamda ularning to'liq yoki qisman umumiylashuvi;
- mamlakatlar o'rtaсида tovar, xizmat, kapital va ishchi kuchi barakat idagi to'siqlarning qisman yoki to'liq bartaraf etilishi;
- yagona bozor yaratish maqsadida ma'lum bir davlatlar bozorlarining bosqichma-bosqich birlashuvi;
- turli mamlakatlarga taalluqli bo'lgan xo'jalik subyektlari o'rtaсидаги farqlarning birin-ketin bartaraf etilishi;
- har bir hamkor davlatda iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi chet el subyektlarining kansitilishiga yo'l qo'ymaslik.

Iqtisodiy integratsiya jarayonlari ikki tomonlama, bir nechta mamlakatlar va hududlararo bo'lishi mumkin. Hozirgi zamonda integratsion birlashmalarning asosiy masalalaridan biri ularning hududiy darajada rivojlanishini ta'minlash hisoblanadi. Bu masalada odatda davlatlararo boshqaruv tizimi joriy etilib, yakka umumiyl mintaqaviy xo'jalik majmui tashkil etiladi. Hozirgi bosqichda xalqaro aloqalar tizimining barcha jahbalarida izhil o'zgarishlar

sodir bo‘lmoqda. Uning aksariyati globallashuv jarayonlarining rivojlanishi bilan bog‘liqdir.


Baynalminalashuv jarayonlarining rivojlanish bosqichlari 1.1-rasmda aks ettirilgan. Globallashuv baynalmilatlashuvning eng yuqori bosqichi bo‘lib, shu nuqtayi nazardan bu faqatgina inson va tovarlar harakatining kuchayishigina emas, balki ko‘p jihatdan bilimlar va ma’lumotlar almashuviga asoslanadi. Globallashuvga atroficha ta’rif berilganda, aholining erkin migratsiyasi, tovar va xizmatlar, texnologiya va ma’lumotlarning milliy chegaralardan to’siqsiz erkin o’tishi, xorijiy investitsiyalar hajmining kengayishi, hududiy va ixtisoslashgan bozorlarning o’zaro integratsiyalashuvi, ekologik, demografik muammolarning umumbashariy masalaga aylanganligi tushuniladi.

Aksariyat ekspertlar fikriga ko‘ra, hech bir jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va boshqa soha yoki harakatlarni globallashuvdan tashqarida, atroficha ko‘rib chiqib bo‘lmaydi. Yuqorida ta’kidlanganidek, jahon iqtisodiyotining globallashuvni jamiyat hayoti hamda faoliyatidagi turli soha va jabhalarni bir-biriga ta’sir etishi hamda bog‘liq bo‘lib qolishining kuchayyotganini anglatadi.

Globallashuv – bu iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishdagi jamiyat taraqqiyotining murakkab bosqichi hisoblanadi. Globallashuv o‘zining boshlang‘ich bosqichidanoq barqaror rivojlanishga yangi tahdidlarni vujudga keltirdi. Ular bir qarashda G‘arbiy davlatlardan boshqa barcha mamlakatlarga taalluqli bo‘lib ko‘rinadi, aslida bu chaqiriq yer yuzidagi aksariyat insoniyatga tegishli. Bu esa jahonda sodir bo‘layotgan barcha voqeа-hodisalar hamda jahon tizimini barqarorlashtirish bo‘yicha olib borilayotgan harakatlarda hamma davlatlarning mas’uliyatini oshirishga da’vat etadi.

Globallashuv jahon xo‘jaligida barcha hudud va sohalarni o‘z ichiga qamrab olib, milliy xo‘jaliklar rivojlanishidagi tashqi va ichki omillar muvozanatini birinchisining foydasiga hal etadi. Bugungi kunda ishlab chiqarish omillariga, asosan texnologiya va kapitalga doimiy talab mavjudligidan kelib chiqqan holda, hech qanday mamlakat o‘z milliy iqtisodining hajmi (yirik, o‘rta, kichik) ya rivojlanganlik darajasidan (rivojlangan, rivojlanayotgan yoki o‘tish davridagi) qat’i nazar o‘zini-o‘zi to‘liq yoki yetarlicha ta’minlay

oladi, deb ta'kidlab boilmaydi. Juhon xo'jaligi tizimidagi asosiy ishtirokchilarning xatti-harakati va olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini hisobga olmasdan, hech bir mamlakat o'zining iqtisodiy rivojlanish strategiyasini maqsadli shakllantirib, samarali amalga oshira olmaydi.



1.1.1 rasm. Xo'jalik faoliyatining baynalminallahuv bosqichlari

Globallashuv tushunchasi ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda uchraydi. Lekin hech birida ushbu terminga aniq va to'liq ta'rif berilmagan. Maxsus adabiyotlarda mualliflar ushbu tushunchani turlicha talqin qiladilar. Masalan, AQShdagi Kaliforniya universiteti sotsiologgi, professor M.Kastels globallashuvni «yangi kapitalistik iqtisodiyot» deb ta'riflab, uning quyidagi asosiy ko'rinishlariga e'tibor qaratgan: informatsiya (ma'lumot), bilim va informatsion texnologiya ishlab chiqarish darajasi hamda raqobat o'sishining asosiy manbai sifatida¹.

Ayrim tadqiqotchilar globallashuvni oddiy jarayon ko'rinishida, tor ma'noda tasavvur qilishmoqda: dunyo bo'yicha iste-

¹ Postindustrial dunyo va globallashuv jarayoni. Juhon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar M.2000 №3 - 91 bet.

molchilar xohishlari yaqinlashganligi va taklif etilayotgan mahsulot turlarini umumiylashganligi sababli jahon mahsulotlari milliy mahsulotlarni bozordan siqib chiqarmoqda².

Mazkur kurs doirasida biz, jahon iqtisodiyotining globallashuviga deb, turli mintaqqa, mamlakat tarmoq va sohalarda kechayotgan jarayonlarning bir-biriga bog'liqlik darajasining kuchayishi tufayli bosqichma-bosqich jahon xo'jaligining yagona tovar, xizmatlar, kapital, ish kuchi, ma'lumot va bilimlar bozoriga aylanib borayotganligini tushunamiz.

Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotidagi turli jabhalarni qamrab olmoqda, ya'ni:

- tovarlar, xizmatlar, texnologiyalar, intellektual (aqliy) mulk obyektlarining milliy, xalqaro va jahon savdosi;
- ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati (tabiiy resurslar ishchi kuchi, kapital va texnologiyalar);
- xalqaro moliya-kredit va valyuta operatsiyalar ko'lamining kengayishi (beg'araz moliyalashtirish va yordam, xalqaro iqtisodiy munosabatlar subyektlariga kredit va zayomlar, qimmatbaho qog'ozlar savdosi, maxsus moliya mexanizmi va vositalari);
- ishlab-chiqarish, ilmiy-texnikaviy, texnologiya va information hamkorlikning chuqurlashuviga;
- o'zaro tovar almashuvidan ishlab chiqarish baynalminallashuviga o'tilishi ya'ni bir nechta mamlakatlarning ishlab chiqaruvchilari ma'lum bir tayyor mahsulot yaratishda turli shakl va bosqichda ishtiroy etishlari va pirovard natijada ishlab chiqarish baynalminallashuvining institutsional shakli sifatida transmilliy korporatsiyalarning vujudga kelishi;
- kapital baynalminallashuviga ya'ni mamlakatlar o'rtasida xalqaro kapital harakatining jadallahuviga (bevosita xorijiy investitsiyalarning tashqi savdo va ishlab chiqarishga nisbatan tez sur'atlar bilan oshib borayotganligi), fond bozori rivojlanish darajasining o'sishi;
- xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiya doirasida texnologik bilimlar, ilmiy-texnika va ishlab chiqarish vositalari almashuvining kuchayishi;

² Р.Кох Менеджмент и финансы от А до Я - СПб «Питер» 1999 г. - С 65

- xalqaro hamkorlikni samarali amalga oshirishni ta'minlovchi global moddiy, informatsiyaviy, tashkiliy-iqtisodiy infratuzilmani yaratish;

-xalqaro savdo tizimidagi an'anaviy odatlarni sifat va ko'lam jihatdan o'zgartirish va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi asosida tovar almashuvining baynalminallashish darajasini kuchaytirish, xalqaro hamkorlikning eng asosiy yo'nalishi sifatida moddiy ishlab chiqarishga nisbatan tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan xizmatlar sohasini rivojlantirish;

- ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining atrof muhitga ta'sirining kuchayishi va mazkur yo'nalishda xalqaro hamkorlikning kengayishi;

- va nihoyat, ishchi kuchi xalqaro migratsiyasi ko'lanining haddan ziyod kengayishi. Rivojlanayotgan mamlakatlardan oqib kelayotgan ishchilar rivojlangan mamlakatlarda past yoki umuman malaka talab etmaydigan ishlarga jalb etilmoxdalar. Shu bilan birga yuqori malaka talab etmaydigan, kam ish haqi to'lanadigan ish o'rinalarini to'ldirish uchun xorijiy ish kuchidan foydalanayotgan mamlakatlari immigratsiya miqdorini kerakli darajada ushlab turishga harakat qilmoqdalar. Hozirgi kunda telekommunikatsiya texnologiyalari sohasining rivojlanishi immigratsiya jarayonlariga yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Masalan biron bir Yevropa, Shimoliy Amerika yoki Yaponiya kompaniyasi osonlik bilan dunyoning istalgan mamlakatidagi kompyuter mutaxassisiga ma'lum bir dastur yaratish yuzasidan o'z joyidan turib topshiriq bera olishi mumkin.

Globallashuv va integratsiyalashuv – bu murakkab jarayon bo'lib, quyidagi darajalarda kuzatilmoqda:

- mintaqalar, mamlakatlari (makrodarajada);
- tovar, kapital, mehnat va valyuta bozorlari (mezodarajada);
- ma'lum kompaniya va korporatsiyalar (mikrodarajada).

Mamlakatlari va mintaqaviy integratsion birlashmalar savdoni erkinlashtirish, investitsion va migratsion cheklovlarni olib tashlash hamda erkin savdo yoki umumiylar bozor hududini barpo etish hisobiga o'z chegaralaridan tashqarida iqtisodiy faollikkaga intilishlari globallashuvning makroiqtisodiy darajasida ko'zga tashlanmoqda.

Kompaniyalar o‘z faoliyatini kengaytirgan holda, ichki bozor-dan tashqariga yo‘nalganligi orqali globallashuv mikroiqtisodiy darajada namoyon bo‘lmoqda. Aksariyat yirik transmilliy korporatsiyalar hozirgi davrda global sharoitda faoliyat yuritmoqdalar. Ular har qanday chegara va milliylikdan qat’iy nazar, har doim iste’molchilarning talabini qondirishga intiladilar. Shu tufayli ular iste’molchilar talabi yuqori bo‘lgan barcha bozorlarni egallab olmoqdalar.

Globallashuv sharoitida kompaniyalar xalqaro darajadagi iste’molchilar, texnologiyalar, xarajatlar, strategik raqobatlar haqida bosh qotiradilar. Ular o‘zlarining maqsad va rejalarini doirasida ishlab chiqarish va sotuv bo‘limmalarini turli mamlakatlarga joylashtitib, global sharoitda vaziyatni o‘zları uchun yengillashtirmoqchi bo‘ladilar. Transmilliy kompaniyalar va firmalarni tashkil etish va rivojlantirish esa turli xildagi to’siqqlarni yengib o’tishga imkoniyat yaratadi (ya’ni, transfer narxlar, qayta ishlab chiqarishga qulay sharoit, milliy bozor muhitini yaxshi o’rganish, qo’shimcha daromad va boshqalar hisobiga).

Hozirgi davming dolzarb masalasi erkin va samarali tadbirkorlik faoliyatini olib borish, global tovar va xizmatlar, kapital, ishchi kuchi bozori ishtirokchisiga aylanish, mamlakatlarni yagona jahon iqtisodiy xo‘jaligi majmuiga birlashtirish uchun umumashariy iqtisodiy, huquqiy, informatsion va madaniy muhitni yaratishdan iborat.

Bu vaziyatda, globallashuv jarayonining asosiy subyektlari sifatida transmilliy korporatsiyalar ichki xo‘jalik faoliyatiga nisbatan o‘zlarining tashqi iqtisodiy faoliyatlariga alohida e’tibor qaratib va globallashuvning moddiy asosi va harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqdalar.

Bugungi kunda turli mamlakatlarda xo‘jalik muhitining xilmassisligi globallashuv jarayonlarining yanada avj olishiga to’sqinlik qilayotgan omillardan biridir.

Kapital aylanmasining intensivlashuvi va savdo tizimining umumiylashuvi yagona iqtisodiy xo‘jalik muhitini vujudga keltiradi. Xalqaro iqtisodiy tizimini tashkil etuvchi 200 dan ortiq mamlakatlar milliy xo‘jaliklarining har biri o‘ziga xos xususiyatga egaligi tufayli jahon yalpi ichki mahsuloti rivojlanish ko’rsatkichlari barqaror emas.

Texnologiyalar bilan ta'minlanganligi nuqtayi nazaridan, mamlakatlar orasidagi farq oshib borayotganligi sababli jahon iqtisodiy muhiti xilma-xilligicha qolmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda texnologiyalarining 4-5-avlodi qo'llanilsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 2-3- avlodi, qoloq yoki o'tish davridagi mamlakatlarda esa samoatlashuv davrining boshidagi texnologiyalardan foydanilmoqda. Asosan rivojlangan mamlakatlar yuqori texnologiyalarga egaligi sababli ilm talab tovar va xizmatlarni past va o'rta darajada rivojlangan mamlakatlarga eksport qilib, katta foyda olmoqdalar.

Globallashuvning zamonaviy jahon iqtisodiyotidagi asosiy ziddiyatli jihat belgisi integratsiya va avtonomizatsiya jarayonlarning uyg'unlashuvidir³. «Neysbitt paradoksi» muallifi fikriga ko'ra, ushbu jarayon bir tomondan siyosiy mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish, ikkinchi tomondan iqtisodiy uyushma va birlashmalar tashkil etilishiga olib kelmoqda⁴.

Xulosa o'mida shuni ta'kidlash joizki, jamiyat qanchalik boy va baquvvat bo'lsa, shunchalik uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darjasini yuqori bo'ladi, qanchalik resurslar oqilona va maqsadli ishlatisa, shunchalik integratsion aloqalarning imkoniyatlaridan foydalanish va global bozor sharoitiga moslashuv darjasini yuqori bo'ladi.

1.2 Global jarayonlarning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri

Jahon xo'jaligi zamonaviy globallashuvining asosiy xususiyatlaridan biri kapital, tovar va xizmatlar, ishchi kuchining erkin harakatida inson intellektual qobiliyatidan unumli foydalanish imkoniyatlarining ortishida namoyon bo'ladi. Ushbu omil ta'sirida rivojlanayotgan mamlakatlarning globallashuv afzalliklaridan foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini oshirish imkoniyatlari paydo bo'lib, shu bilan birga iqtisodiy siyosat yuritganda, uning e'tiborga olinmasligi salbiy oqibatlarga olib keluvchi natijalarni keltirib chiqarishi mumkin.

³ Иванов Н. Глобализация и проблемы оптимальной стратегии развития (Мировая экономика и международные отношения) М.2000 й. №2 - 15 бет.

⁴ Na'sbitt Global Paradox N.Y.1994 p.11

Xalqaro kapital migratsiyasi. So‘nggi-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar taraqqiyoti natijasida bevosita investitsiyalar, portfel investitsiyalar va bank ssudalaridan iborat kapitallar xalqaro harakatining kuchayishi globalashuvning diqqatga sazovor xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Moliyaviy resurslar xalqaro oqimining o‘sish sur’atlari xalqaro savdo hajmining o‘sish sur’atlarini sezilarli darajada ortda qoldirmoqda. Ayniqsa, bevosita xorijiy investitsiyalar oqimining jadallahib borayotgani diqqatga sazovordir.

Xalqaro kapital harakati uning barcha ishtirokchilariga daromad keltiradi. Xorijiy investorlar xalqaro miqyosdagi bozorlarga kirish orqali tavakkalchilikning diversifikatsiyasiga erishib, jahon miqyosida daromad olish imkoniyatini qo‘lga kiritadilar. Odatda investitsiya qabul qiluvchi davlatlarda foiz stavkalari darajalari yuqori bo‘lib, bu investorlarning o‘z kapitallarini yuqoriq foyda miqdorini ta’minlovchi hududlarga yo‘naltirishiga turki bo‘ladi.

Ma’lumki, o‘tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida milliy xo‘jalik tizimini takomillashtirish, shuningdek ishlab chiqarish va eksportning diversifikatsiyalashuviga erishish maqsadida mavjud tarmoqlarni rivojlantirish va yangilarini yaratishga ehtiyoj baland. Bir vaqtning o‘zida, mazkur guruhgaga kiruvchi aksariyat mamlakatlar ushbu maqsadlarga erishishda ichki moliyaviy resurslarning cheklanganligi bilan bog‘liq o‘xhash muammolarga duch kelmoqdalar. Bunday sharoitda jahon kapital bozoriga chuqur integratsiyalashuv ushbu mamlakatlar uchun iqtisodiyotni isloh qilish va o‘sish sur’atlarini jadallashtirish, moliyaviy tizimni barqarorlashtirish hamda milliy valyuta va bank tizimini mustahkamlash kabi masalalarni hal qilishda investitsiyalarni keng jalb qilish orqali jahon moliya bozotlari afzalliklaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Investitsiya jalb qilish natijasida iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirish kapitalning qaysi shakida kirib kelishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondoshilganda, odatda bevosita xorijiy investitsiyalarning yuqori darajadagi afzalliklarga ega ekanligi etirof etiladi. Bevosita xorijiy investitsiyalar ko‘rinishidagi xalqaro kapital harakatida ishtirok etish ustuvorligini belgilovchi omillardan biri - bu transmilliy kompaniyalarning intellektual mulki bo‘lmish ilg‘or texnologiyalarning jahon bozorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri

sotilmasligi bo'lib, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari bunday imkoniyatga faqatgina bevosita xorijiy investitsiyalarni jalg etish orqaligina ega bo'lishlari mumkin. Bu jihatdan bevosita xorijiy investitsiyalarning o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun afzal xususiyatlari: hamkor transmilliy kompaniyalarning mavqeい, ularning xomashyo yetkazib beruvchilar bilan aloqasi, tayyor mahsulot sotuv kanallari, jahon bozori doirasida marketning tadqiqotlari, boshqaruv malakasi va ishlab chiqarish sirlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash dasturlaridan iborat bo'lib, bu va boshqa omillardan oqilona foydalanish milliy iqtisodiyot samaradorligi va raqobatbardoshligi darajasining oshishiga olib kelmoqda. Mamlakatda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning tashkil etishi erkin raqobat muhitini yaratish orqali tovar va xizmatlar sifatini oshirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va avvallari bozorning mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan monopolashtirilgan tarmoqlarida tovar va xizmatlar sifat standartlarining oshishiga olib kelishi mumkin.

Tovar va xizmatlar erkin savdosi globallashuvning muhim jihatidir. Ma'lumki, milliy iqtisodiyotning nisbiy afzalliklarga ega tarmoqlarda ixtisoslashuvi va xalqaro savdoda ishtirok etishi aholi daromadlari va farovonligi oshishining qo'shimcha manbai bo'lib hisoblanadi. Fan-texnika yutuqlaridan foydalanish natijalari xalqaro savdo orqali boshqa mamlakatlarga bilvosita va to'g'ridan-to'g'ri tarqaladi. To'g'ridan-to'g'ri tarqalish fan-texnika yutuqlarini o'zida mujassam etgan texnologiyalarning jahon bozorida sotilganida va boshqa mamlakatlar ulami xarid qilganida sodir bo'ladi. Bilvosita tarqalish yangi texnika va texnologiya ishlab chiqilgan mamlakat eksport tarmoqlari samaradorligi oshganida va tovarlar sifatining yaxshilaniganida ro'y beradi.

Erkin savdo milliy ishlab chiqaruvchilar tovar va xizmatlari sifatining yaxshilanishi orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishi, import orqali ishlab chiqaruvchilar soni kam bo'lgan yoki xorijiy tovar sifati darajasiga yetmagan iqtisodiyot tarmoqlarida raqobat muhitini vujudga keltirib, tovar tannarxining pasayishini ta'minlaydi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning kuchli raqobat mavjud jahon bozorlariga chiqishi ham tovar va xizmatlar sifatining oshishi va tannarx pasayishining muhim omili bo'lib hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari ta'sirida raqobat kuchayib, mehnat

resurslarining ma'lumoti va malakasi, ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarish tizimi, ilmiy-texnik ustuvorlik hamda sifatli infratuzilmaga talab oshadi. Faqatgina ishlab chiqarish omillari sifatini oshirish, ishlab chiqarishni tashkil etish, faol axborot almashinuvini ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish hamda iqtisodiy strategiyalarni o'z vaqtida tuzatib borish orqali mavjud ustuvorliklarni asrab qolish, ularni rivojlantirish va pirovard natijada mamlakatning iqtisodiy o'sishiga erishish mumkin.

Globallashuv narx-navo va iste'mol tovarlari sifati unifikatsiyasini tezlashtiradi, global raqobat esa ularning doimiy takomillashuvini talab qiladi. Iqtisodiy yopiqlik, proteksionizm, qolaversu jahon bozorlari global raqobatining mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir etmasligi resurslarning optimal taqsimlanishi va foydalanilishiga to'sqinlik qilib, iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytiradi.

Globallashuv jarayonlari inson salohiyatini oshirishda ham qulay sharoitlar yaratib bermoqda. U izlanish va tadqiqotlar, ta'llim va tajriba sohasida xalqaro malaka oshirish, qo'shma loyihamalar va xorijda tajriba almashinishning jadallahuvi natijasida o'zini milliy iqtisodiyotning muhim innovatsion omili sifatida namoyish etmoqda. Internet va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi xo'jalik subyektlarining faoliyat doirasini kengaytirmoqda. Xo'jalik yurituvchilar uning yordamida nisbatan kam xarajatlar evaziga zarur axborotlarga ega bo'lmoqdalar. Shuningdek, ular boshqaruv jarayonida yangi sifat darajalariga erishish, xo'jalik yuritish salohiyatining oshishi, talab va taklif o'zgarishlariga xos qarorlarni o'z vaqtida qabul qilish imkoniyatga ega bo'lmoqdalar.

Globallashuv jarayonlari jahon xo'jaligida ishtirok etuvchi har bir mamlakat iqtisodiyotiga ma'lum miqdorda ta'sir etadi va undan qayta ta'sirlanadi. Bozorning turli ishtirokchilari o'z manfaatlari yo'lida harakat qilib, zanjirsimon jarayonni vujudga keltiradilar. Ularning faoliyat yuritish uslubi doimiy tarzda o'zgarib turishi sababli, jahon xo'jaligi subektlarining bir-biriga bog'liqlik darajasi oshib bormoqda. G.Fisherning ta'kidlashicha, jahon xo'jaligida global o'zgarishlar tarqalishining o'ziga xos mexanizmi mavjud. Bunga «Buyuk turg'unlik davri» misol bo'lib, inqiroz bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'pincha zanjirsimon shaklda tarqalgan: bozorning torayishi, kapitalning boy berilishi-talabning

qisqarishi, ishlab chiqarishni qisqartirish – davlat tomonidan import qiluvchilarga nisbatan bojhona to'siqlarining o'rnatilishi-xalqaro savdo hajmining kanayishi savdo-sotiq bo'yicha hamkor mamlakatlarda ishlab chiqarishning pasayishi va hokazo⁵.

Bundan tashqari, bozor ishtirokchilari ko'pchilik mamlakatlarda tarqalgan biznes yuritish tamoyillarini qayta shakllantirmoqdalar. Ular faoliyat maydonida go'yoki o'zlarining tashkiliy va texnik to'rlarini yoyib tashlamoqdalar. Bu kabi korporativ to'rlar bilan birgalikda diasporaviy, diniy, mafiozli va megapolisli to'rlar ham shakllangan bo'shib, ular tovar va pul oqimi bilan hamohang ravishda trans-milliylashuv va bog'liqlik darajasining yanada kuchayishiga olib kelmoqdalar. Mahalliy hukumatlarning xalqaro miqyosida amalga oshiradigan vazifalari o'zgarmoqda. Nodavlat birlashmalarining xalqaro munosabatlarga shiddat bilan kirib kelishi davlatlar hukumatlarining xalqaro miqyosdagi yakka hokimligiga to'sqinlik qilib, siyosiy hokimiyatni iqtisodiyotdan tortib to diniy va madaniy masalalargacha jamiyat fikri bilan murosa qilishga majbur qilmoqda⁶.

Globallashuv sharoitida bu kabi jarayonlarning sodir bo'lishi shubhasiz, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlariga tegishli iqtisodiy siyosat olib borishni taqozo etmoqda. Bu vaziyatda milliy iqtisodiy siyosatning vazifasi nafaqat jahon xo'jaligi jarayonlarida ishtirok etishdan olinadigan nafni maksimallashtirish, balki ushbu holatda kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavfni ham minimallashtirishdan iboratdir.

Albatta, aksariyat rivojlangan mamlakatlar ham globallashuv jarayonida munosib siyosat yuritish ustida bosh qotirib, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshirishning turli chora-tadbirlarini ishlab chiqmoqdalar. Globallashuv sharoitida amalga oshiriladigan chora - tadbirlarning bozor tamoyillariga qat'iy amal qilishi muhim ahamiyatga egadir.

Xususiylashtirish. Globallashuv sharoitida xususiylashtirish va unga xos mulkchilikning milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirishdagi o'rni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'z daromadini maksimallashtirishdan manfaatdor mulkdorlar sinfining shakllanishi iqtisodiyotda raqobat muhitini yaratish, tovarlar sifatini

⁵ Фишер Г. Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы. Автореферат докторской диссертации. – М., 2000. +12 с.

⁶ Игорь Пугач «Экономическое Обозрение» лекция, 1998 год.

oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalg etishda eng muhim omil bo'lib hisoblanadi⁷.

Barqaror iqtisodiy muhitda xususiy mulkchilik iste'molchilar talabiga munosib javob beradi, raqobatbardoshlik ustuvorliklariiga faol ta'sir o'tkazadi, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurishga sababchi bo'ladi, iqtisodiy o'sish sur'atlariga hamohang faoliyat olib boradi hamda ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtiradi. Xususiy korxona rahbari har qanday sharoitda faoliyat bilan bog'liq mas'uliyatni to'la qonli ravishda o'z zimmasiga oladi. Korxonaning yuqori daromadli faoliyat yuritishidan bиринчи о'rinda manfaatdor hisoblangan rahbar ichki imkoniyatlarni to'g'ri baholash, strategiyani aniq belgilash, kutilishi mumkin bo'lgan xavfni puxta anglab yetish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda taraqqiyot yo'nalishi korxona salohiyatini to'liq anglab yetish imkoniyatiga ega bo'lмаган yuqori tashkilotlar tomonidan emas, balki bevosita mutasaddi rahbar tomonidan belgilanadi.

Resurslarning mutanosib ravishda taqsimlanishi, ishlab chiqarish vositalaridan eng samarali va tejamkor holda foydalanilishi xususiy mulkchilikka xos xususiyatlardandir.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga to'siq bo'lib hisoblangan muammo, bu-moliyaviy tizimga ishonchsizlik oqibatida fond bozorining to'la qonli ravishda shakilanmay qolishi, korxonalar rentabellik darajasining pastligi va qimmatli qog'oz egalarida haqiqiy mulkchilik hissining yo'qligidir. Makrodarajadagi moliyaviy barqarorlik (byudjet tanqisligining qisqarishi, foiz stavkalari real qiymatining ijobiy o'zgarishi, inflyatsiya darajasining pasayishi), ishlab chiqarish likvidlik darajasining oshishi, sohalarda tarkibiy jihatdan qayta tashkillashtirish natijasida korxonalar moliyaviy axvolining yaxshilanishi hamda investitsiyalar samaradorlik darajasining o'sishi ko'p jihatdan investision faollikning oshishi va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning eng muhim omili bo'lib hisoblanadi⁸.

⁷ «Национальный семинар по наращиванию потенциала в Центральной Азии для регулирования процесса глобализации» ЭСКАТО, Центр экономических исследований Республики Узбекистан, 2003 год.

⁸ «Национальный семинар по наращиванию потенциала в Центральной Азии для регулирования процесса глобализации» ЭСКАТО, Центр экономических исследований Республики Узбекистан, 2003 год.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakat xo‘jaligining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi darajasini oshirish jarayonida ichki imkoniyatlarning cheklanganligi hamda tashqi qarzning idora etib bo‘ladigan darajadagi me’yorini ta’minlash sanoat siyosatini olib borishda mavjud resurslardan oqilona va samarali tarzda foydalanishni taqozo etmoqda. Tashqi savdoni erkinlashtirish sharoitida moliyaviy qiyinchilikka uchragan barcha sohalar uchun subsidiyalar ajratish davlat byudjeti uchun mushkul hisoblanadi. Shu sababli qaysi tarmoqlar raqobatda yutib chiqa oladi, qaysi tarmoqlarga davlat tomonidan subsidiyalar ajratilishi kerak va qaysi tarmoq ishchilarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bilan kifoyalanib qolish kerakligi chuqur tahlil qilinmog‘i lozim. Bundan tashqari global raqobat va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi sharoitiga milliy iqtisodiyotning moslashuvi natijasida yuz beradigan tarkibiy o‘zgarishlar mavjud tizimni qayta shakllantirishga turtki bo‘lishi hamda davlatning hal qiluvchi loyihalarga homiylik qilishini taqozo etishi mumkin. Umuman olganda, xususiy tadbirorlikka davlat aralashuvini imkon qadar qisqartirish zarur. Globallashuv sharoitida davlat faol mulkdorlik hissidan voz kechib, samarali iqtisodiy siyosat olib borishi va islohotlarning huquqiy asosini ta’minlab berishi kerak.

Monetar siyosat. Globallashuvning zamonaviy bosqichida monetar siyosat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida muhim o‘rin egallaydi. Oqilona monetar siyosat makroiqtisodiy barqarorlikni, bank tizimiga ishonch oshishini, moliya bozorlarining kengayishi va mustahkamlanishini, qulay investitsiyaviy muhit vujudga kelishini va mamlakatga xorijiy investitsiyalarning keng qamrovli kirib kelishini ta’mintaydi. Shubhasiz, bu chora-tadbirlar majmuasi iqtisodiy qayta qurish jarayonlarini tezlashtirib, milliy xo‘jalik tizimining raqobatbardoshlik darajasini oshiradi va pirovard natijada mamlakatning globallashuv jarayonlarida faol ishtirok etishi evaziga yutuqqa erishishini ta’minlaydi.

Ta’kidlash joizki, globallashuv sharoitida barqaror pul bozorining shakllanishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u markaziy bankning maqbul hamda har tomonlama ishonchli va samarali pul-kredit

siyosatini olib borishni ta'minlaydi⁹. Banklar tomonidan belgilangan foiz stavkalari va olib borilayotgan valyuta siyosati ko'p tomonlama iqtisodiy rivojlanishni belgilab beradi. Masalan, foiz stavkasining haddan tashqari ko'tarilib ketishi bank daromadlarining kamayishi va uning natijasida kredit operatsiyalari miqdorining qisqarishiga olib keladi. Valyuta kursini boshqarish natijasida monetar siyosatda qattiq shartlarning vujudga kelishi ichki aktivlar narxlarining bir xil holatini ta'minlasa, shu vaqtning o'zida kelajakda valyuta kursining pasayishi milliy iqtisodiyot uchun xavfli hisoblangan tashqi qarzning oshishiga sabab bo'ladi.

Moliyaviy sektorni isloh qilish. Rivojlangan va ma'lum muvozanatga ega moliyaviy tizim globallashuv sharoitida iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan qayta qurilishi va milliy xo'jalik raqobathardoshlik darajasining oshishida iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini kengaytiradi, jamg'arishning samarali tarzda investitsiyaga aylantirilishini ta'minlaydi.

Mamlakat moliyaviy tizimining erkinlashtirilishi natijasida belgilangan maqsadlarga erishish bir qator shartlarga bog'liq bo'lib, ular sirasiga makroiqtisodiy va institutsional islohot o'tkazish hamda umumiylar barqarorlikni ta'minlash kiradi. Shu bilan birga iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ham islohot o'tkazmay turib, moliyaviy tizimni erkinlashtirib bo'lmaydi. Aks holda maqsadga muvofiq bo'limgan kapital harakati, foiz stavkalarining oshib ketishi hamda moliyaviy korporatsiyalarning qisqa vaqt ichida tushkun ahvolga tushib qolishiga olib keluvchi jarayonlar avj olishi mumkin.

Globallashuv sharoitida mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi ko'p jihatdan moliyaviy siyosatga bog'liq. Erkin moliyaviy siyosat bozor mexanizmlarini har qancha ishga solsa, global raqobat uning vazifasi nechog'liq murakkab ekanligini ko'rsatadi. Bunday vaziyatda tashqi va ichki o'zgarishlarga mos valyuta siyosatini yuritish ma'qul sanaladi. Marshal-Lerner teoremasiga ko'ra eksport-import va tashqi qarzga xizmat ko'rsatishda valyuta kursining munosib ravishda optimal tanlanishi mamlakat milliy manfaatlariga mos keladi. Globallashuv sharoitida jahon xo'jaligiga sezilarli ta'sir

⁹ Георг Фишер, «Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы», М. 2000 год.

ko'rsatishga qodir mamlakat va mintaqalardagi moliyaviy vaziyatni doimiy tarzda o'rganib turish mamlakat moliyaviy tizimiga mas'ul rahbarlarning eng muhim vazifalaridan biridir. Moliyaviy tizimni erkinlashtirish jarayonlari to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan banklar va korxonalarda tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish, milliy iqtisodiyotda huquqiy va raqobatbardosh muhit yaratish hamda mazkur masalalar yechimini ta'minlovchi boshqaruv va nazorat tizimini joriy etish bilan birgalikda olib borilishi iqtisodiy islohotlarning ko'zlangan maqsadlarga erishishini kafolatlaydi.

Mamlakatda bir necha valyuta ayrboshlash kurslarining mavjudligi monetar siyosat olib borishda o'ziga xos qiyinchiliklar tug'diradi, eksport va import operatsiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi va pirovard natijada kapitalning chetga chiqib ketishiga olib keladi. Har xil valyuta kurslari, shuningdek, iqtisodiy agentlarga «yolg'on» ma'lumot berib, ishlab chiqarish resurslarining samarasiz ravishda taqsimlanishiga olib keladi. Masalan, bu holat mamlakat uchun norentabel deb topilgan import o'rnnini bosuvchi ishlab chiqarishning oshishiga turki bo'llishi mumkin. Valyuta kursini unifikatsiyalashtirish tashqi savdo siyosatida muhim ahamiyatga ega, chunki milliy valyutaning devalvatsiyasi eksport hajmini sun'iy ravishda oshiradi, shuningdek, import imkoniyatlarini cheklaydi. Aksincha, milliy valyuta ayrboshlash kursining oshib ketishi eksport mahsulotlarining raqobatbardoshlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etadi va eksport hajmining qisqarishiga olib keladi. O'z navbatida bu o'zgarishlar mamlakat tashqi savdo aylanmasining salbiy balansiga olib keladi.

Fiskal siyosat. Globallashuv sharoitida yuqori soliq to'lovlarini nafaqat milliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining raqobatbardoshlik darajasini pasaytiradi, daromadlarning yashirilishi va noqonuniy iqtisodiyotning shakllanishiga olib keladi, ishlab chiqarish va eksport tarkibi diversifikatsiyalashuv jarayonini susaytiradi, balki kapital va malakali ishchi kuchining keng miqyosda chetga chiqib ketishiga ham olib keladi. Ushbu muammolarning ijobil hal qilinishi fiskal siyosat olib borishning qay darajada maqbul ekanligiga ham bog'liqdir. Ma'lumki, soliq tizimi to'lov va imtiyozlar yordamida siyosat olib borish yo'li bilan iqtisodiy taraqqiyot omiliga aylanishi mumkin.

Erkin raqobat muhiti va huquqiy asoslangan xo‘jalik tizimini yaratish uchun soliq yuki va undagi imtiyozlar turli tarmoq va sohalarga nisbatan mutanosib ravishda taqsimlanishi lozim. Buning uchun sohalar orasida solishtirma tahlil olib borilib, ularning qay birida soliq to‘lovi oshirilishi evaziga boshqa sohalarga imtiyoz berilishi samarali ekanligi aniqlanadi.

Shu tarzda globallashuv jarayonlarining mamlakat iqtisodiyotiga o‘tkazayotgan ta’siri kuchayib borayotgan bir paytda soliq tizimi fiskal siyosat vazifasigina emas, balki rag‘batlantiruvchi omil sifatida to‘lovlarning pasaytirilishi va soliqqa tortish tiziminining soddalashtirilishi orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshlik darajasining oshib borishiga xizmat qilishi kerak bo‘ladi.

Investitsiya siyosati. Globalashuv sharoitida iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishlab chiqarish va eksportning diversifikatsiyasiga erishish orqali mamlakatning jahon xom ashyo bozori nobarqaror konyunkturasiga bog‘liqlik darajasini pasaytirish va aholi daromadlari oshishini ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida faol investitsiya siyosati hamda investorlar uchun qulay muhitni yaratish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Jamg‘arish va investitsiyaning maqbul me’yori milliy iqtisodiyotning uzoq kelajakdagi raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omil bo‘lib borayotganligi sababli ularning o‘rni va ahamiyatini aniqlash o‘ta muhimdir. Qolaversa, investitsiya siyosati iqtisodiy siyosatning boshqa turlari qatorida eng murakkablaridan biri bo‘lib, uni amalga oshirish butunlay mamlakat ixtiyoridagi mavjud resurslar va ularning sifatiga bog‘liq.

O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida investitsiyalarga bo‘lgan talab yuqori bo‘lib, unga iqtisodiy taraqqiyotning mezoni sifatida qaraladi. Investitsiya siyosati asosan mamlakat qiyosiy afzalliklarga ega yoki ustuvorlikka erishishi mumkin bo‘lgan tarmoq va sohalarga resurslarning yetib borishini ta’minlashi, milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga yo‘naltirilishi zarur. Shuningdek, jamg‘armani rag‘batlantiruvchi qulay investitsiyaviy muhit yaratish hamda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerakki, bu o‘z navbatida iqtisodiyotning turli sohalarida – soliq-byudjet, pul-

kredit va tashqi iqtisodiy faoliyatda majmuaviy dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilishini taqozo etadi.

Tashqi savdo siyosati. Globallashuv jarayonlarining mamlakat tashqi savdosi shart-sharoitlariga, rivojlanish istiqbollariga ko'r-satadigan ijobiy ta'sirlarini maksimallashtirish va uning tahdidlarini minimallashtirishda milliy iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham amalga oshiriladigan majmuaviy islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, valyuta bozorini erkinlashtirish orqali eksport-import operatsiyalari rag'batlantirilsa, erkin raqobat muhitida ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali tashqi savdoning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini oshirish mumkin. Mamlakatda oqilona sanoat siyosatining olib borilishi esa strategik muhim eksport tovarlarining jahon bozori konyukturasi o'zgarishlariga bog'liqlik darajasini bir qadar kamaytirishga olib kelishi mumkin.

Tayanch iboralar: jahon iqtisodiyoti, milliy iqtisodiyot, XMT, mintaqaviylashuv, globallashuv, baynalminallahuv, integratsiya-lashuv, xalqaro iqtisodiy hamkorlik, xalqaro iqtisodiy integratsiya, TMK, tashqi savdo siyosati, investitsiya siyosati, monetar siyosat, fiskal siyosat, valyuta siyosati, xususiy lashtirish, kichik biznes.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy belgilari nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Baynalminallahuv jarayonining rivojlanish bosqichlarini tavsiflang?
3. Nima uchun globallashuv ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi jamiyat taraqqiyotining murakkab bosqichi hisoblanadi?
4. Globallashuv jahon iqtisodiyotining qaysi jabhalarida namoyon bo'limoqda?
5. Globallashuv va integratsiya-lashuv darajalariga tavsif bering?
6. Globallashuv jarayonlarining yanada avj olishiga qanday omillar to'sqinlik qilmoqda?
7. Jahon xo'jaligi globallashuvining milliy iqtisodiyotlarga ta'siri yo'nalishlarini tavsiflang.
8. Globallashuvning iqtisodiy-tashkiliy, texnologik, ijtimoiy-ma'daniy va siyosiy jihatlarini tavsiflang.

II BOB. GLOBALLASHUV VA XALQARO SAVDONINIG ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

2.1 Globallashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlar xususiyatlari

Globallashuv jarayonlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ushbu sharoitdagi xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanish tendensiyanining quyidagi jihatlarini ko'rib chiqish mumkin.

Ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy va texnologik nuqtayi nazariidan globallashuv natijasida yangi yuqori texnologik ishlab chiqarish usuliga o'tilishi va yangi texnologiyalarning tez va keng tarqalishi orqali ishlab chiqarish ko'lamining keskin kengayishi, yuz beradi ya'ni tovar, xizmat va kapital harakati oldidagi to'siqlar imkon qadar bartaraf etiladi.

Transport va aloqa tizimi sifatining keskin yaxshilanishi, tovar va xizmatlarning tez tarqalishini ta'minlaydi. Hozirgi kunda ma'lumot almashimuvি deyarli bir zumda amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy imkoniyat va shartnomalar haqidagi ma'lumotlar jahon uzra tezlik bilan uzatilmoqda. Eksport va import tovarlarini bir joydan ikkinchi joyga yetkazib berish uchun esa bir necha kun yoki xافتalar talab etiladi xolos. Agar Yer kurrasining bir bozorida o'zgarish sodir bo'lsa, bir-ikki daqiqada u dunyoning boshqa joylarida ma'lum bo'ladi. Bu asosan fond birjalari, valyuta va tovar bozorlari, shuningdek ilmiy yangiliklar va ularni hayotga tatbiq etilishi voqeliklariga xos bo'lishi mumkin. Shulardan kelib chiqib, hozirgi davrda bir-biridan uzoqda bo'lgan hamkorlar uchun masofa jiddiy muammo emasligini ta'kidlash joiz.

Yangi texnologiyalarning joriy etilishi tufayli transport va telekommunikatsiya chiqimlari qisqardi, qayta ishlash, saqlash va ma'lumotlardan foydalanish xarajatlari sezilarli darajada pasaydi. Bu esa milliy bozorlarning global integratsiyalashuviga yengillik yaratadi. Misol uchun, London va Nyu-York o'rtaсидаги uch daqiqalik telefon suhbati 300 dollardan (1930-yil) 1 dollarga (1998-yil)

tushganligi yoki bir birlik ma'lumotni kompyuterda qayta ishlash qiyomi 20 yil davomida (1975-yildan 1995-yilgacha) har yili 30 %ga kaimayib borganligi o'tgan asr oxirlarida e'tirof etilgan edi. Globallashuv jarayonlarining institutsional jihatlariga kelsak, ishlab chiqatish, xo'jalik faoliyatini yuritishning xalqaro miqyosdagi tashkiliy shakli bo'lgan transmilliy korporatsiyalar (TMK) o'z faoliyatlarini asosan bir davlatning chegarasidan tashqariga chiqqan holda olib boradilar va xalqaro iqtisodiy – moliyaviy aloqalari orqali yagona bozor muhitini yaratadilar.

Bundan tashqari davlatlararo va nodavlat tashkilotlarning xalqaro darajaga chiqishi natijasida BMT, XVF, Jahon savdo tashkiloti, Butunjahon banki kabi xalqaro tuzilmalarning global ahamiyati bir qadar oshdi hamda ko'p millatli kompaniya va integratsion birlashmalar global iqtisodiyotning asosiy ishtirokchilariga aylandilar.

Globallashuv natijasida jahon xo'jaligining iqtisodiy liberallashuv darajasi ham oshib bormoqda. Natijada tovar va xizmatlar savdosi, kapital bozori va boshqa iqtisodiy munosabatlar erkinlashtirilib, proteksionizm siyosati ko'lami ancha qisqartirildi. Endilikda jahon savdo tizimi yanada takomillashtirilib, erkin muhit yaratish borasida faol harakatlar olib borilmoqda.

Globallashuv jarayonlarining tashkiliy jihatlaridan yana biri moliyaviy-iqtisodiy resurslarning tez suratlarda o'sishi, kapital harakatining baynalminallashuvi, valyutalararo shartnomalar amalga oshirish muddatining qisqarishidir. Bundan tashqari xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan ishtirokchi davlatlarga yagona makroiqtisodiy siyosat mezonlarining tatbiq etilishi, soliq, hududiy, agrar, antimonopol va bandlik siyosatiga bo'lgan talablarning yagonalashuvi sodir bo'lmoqda. Unifikatsiya va standartlashtirish jarayonlarining kuchayishi natijasida barcha mamlakatlar uchun texnologiya, ekologiya, moliya tashkilotlarining faoliyatiga, buxgalteriya, va statistik hisobotlarga yagona talablar qo'yilmoqda. Maorif va madaniyat sohalariga ham bu kabi talablar joriy etilmoqda.

Transport-aloqa uslubi va ishlab chiqarish, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, moliyaviy ma'lumotlar almashuvining tezlashuvi, ma'lumotlarni qabul qilish, uzatish va qayta ishlash tizimida yangi texnologiyalarning vujudga kelishi hamda rivojlanishi natijasida moliya, nou-hau, malakali xizmat va tovarlar bozorlarini o'zida

birlashtirgan global tarmoq yuzaga kelishiga imkon yaratildi. Internet va elektron pochtaning yaratilishi axborot-telekommunikatsiyalari xizmatiga yetarli qulayliklar yaratdi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, turli mamlakatlarda joylashgan ishlab chiqarish obyektlarini markazlashgan holda boshqarish va turli muammolarni yechish imkonini beruvchi va qisqa muddatda ma'lumot almashinuvini ta'minlovchi tizimning tashkil topishi, menejment va marketing, moliyaviy va investitsiyaviy vositalarni boshqarish sohalaridagi inqilob bo'lib, yangi savdo-sotiq (elektron savdo) majmuasini yuzaga keltirdi. Elektron va plastik kartochkalar, uyali aloqalar tizimlarining kompyuterlashtirilishi moliyaviy ma'lumotlarni olish, shartnomalar tuzish, va mamlakatlarning joylashuvidan qat'iy nazar hisob-kitoblarni bir zumda amalga oshirish imkoniyatini bermoqda.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvining siyosiy jihatlariga aholi, tovar, xizmatlar va kapitalni davlat chegaralaridan o'tish jarayonining erkinlashtirilishi hamda «sovuv» urushning barham topganligi, Sharq va G'arb orasidagi kelishmovchiliklarning bir qadar hal etilganligini kiritish mumkin.

Ijtimoiy va madaniy sohalarda globallashuv natijasida milliy urf-odatlar va an'analar ahamiyatining susayishi, xalqaro migratsiyaning kuchayishi sodir bo'ldi. Erkin savdo tizimi va bozor iqtisodiyotini ta'riflashda global yagona fikrning vujudga kelishi bu borada g'arb va sharq yo'nalishidagi tafovutlarning barham topishi bilan birga ularning o'mniga umumbashariy bozor xo'jalik tizimi haqida yagona qarashlar o'rnatishiga olib keldi. Ta'lim, san'at, madaniyat va ommaviy axborot vositalari globallashgan birlamchi qatlamning shakllanishi, asosiy muloqot vositaiga aylanib borayotgan ingliz tili orqali ijtimoiy, madaniy, siyosiy va o'zaro aloqalarning yo'lga qo'yilishi xalqaro munosabatlar tizimi uchun yengillik yaratmoqda.

Masofali ta'lim tizimining rivojlanishi bilan ta'lim sohasida chegaralar yengib o'tildi. Malakali mehnat resurslari tayyorlovini erkinlashtirish «inson kapitali»ning qayta ishlovida davlat nazoratinining kamayishiga olib keldi.

Globalashuv jarayonining ko'rib o'tilgan jihatlari uning ijobiy tomonlarini belgilab beradi, ya'ni ushbu jarayon inson imkoniyat-

tarini kengaytiradi, hayotiy faoliyatning barcha tomonlarini qamrab oladi va yashash uchun qulay sharoitlar yaratadi. Jalon iqtisodiyotining globallashuvi insoniyatga taalluqli umumiy muammolarni samarali hal etishga asos yaratadi.

Hozirda jahon xo'jaligining globallashuv jarayoni turlicha baholanmoqda. Bu xususda faqatgina olimlar, mutaxassislar yoki ekspertlarga emas, balki oddiy fuqarolar ham o'z fikrlariga egadirlar. Globallashuv jarayoni asosan rivojlangan mamlakatlar tomonidan ma'qullanilib, rivojlanayotgan mamlakatlarda unga xavotirlik nazari bilan qaraladi. Bunga sabab globallashuv foydalarning mamlakatlararo teng taqsimlanmasligida bo'lib, ushbu jarayonda kim yutadi-yu, kim yutkazadi? - degan savol barchani qiziqtiradi.

Hozirda globallashuv jarayoni avvalambor, sanoati rivojlangan mamlakatlarga foyda keltirsa, uning ma'lum qismi rivojlanayotgan mamlakatlarning ilg'or guruhiga ham tegishlidir. Ushbu jarayon birinchi navbatda mazkur davlatlar iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Mazkur vaziyatdan kelib chiqib, har bir milliy iqtisodiyotga globallashuv jarayonining ta'sir etishi uning jahon xo'jaligida egal-lagan o'mni va mavqeiga bog'liq holda foydaning asosiy qismi rivojlangan davlatlar hissasiga to'g'ri kelishi e'tirof etilmoqda.

Globallashuv foydasining notekis taqsimlanishi mintaqaviy, milliy va global miqyosda ma'lum ziddiyatlar keltirib chiqarmoqda. Bu masalada asosiy muammo davlatlarning daromadlarini oshirish yoki tenglashtirish emas, balki ularni to'g'ri tomonga yo'naltirishdir. Mazkur jarayonda tez rivojlanayotgan mamlakatlar yetak-chilar qatoriga qo'shib, qoloq mamlakatlar ahvoli yanada nochorlashib boraveradi. Oqibatda globallashuv jahoning yangi modelini yaratib, unda resurslarning 80 foizini «oltin milliard» doirasidagi mamlakatlar boshqarmoqda. Jahondagi aholining beshdan biri istiqomat qiladigan (AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarining 70 foizi). rivojlangan mamlakatlar hissasiga jahon yalpi milliy mahsulotining deyarli 85 foizi, jahon savdosining 84,2 foizi to'g'ri keladi.

Mutaxassislar va ekspertlar globallashuvdan G'arb dunyosida istiqomat qiluvchi aholining 14,5 foizi, shu bilan birga Xitoy,

Hindiston, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mintaqalari aholisi qisman foyda ko'rishlarini ta'kidlamoqdalar. Shu bilan birga, MDH davlatlari, Afrika, Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari katta iqtisodiy zarar ko'radigan hududga aylanib qolishlari mumkinligini taxmin qilmoqdalar¹⁰.

Globallashuvning salbiy oqibatlari ko'proq o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida kuzatilmoqda. Ularning aksariyati baynalmillashuv jarayonida jahon bozoriga asosan xomashyo va mehnattalab mahsulotlar yetkazib beruvchilar bo'lib, shu bilan birga sanoati rivojlangan mamlakatlarning yanada taraqqiy etishiga hissa qo'shgan holda, past va nobarqaror jahon narxlari kon'yukturasiga bog'liq ravishda daromad oladilar.

Yuqorida bir necha bor ta'kidlanganidek, globallashuv jarayonlarida ishtirok etishdan asosan rivojlangan mamlakatlari foyda ko'rib, ular yanada ko'proq daromad ko'rish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish maqsadida, ular yuqori qo'shimcha qiymat keltiradigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslangan holda ko'p mehnattalab va atrof muhitga ziyon yetkazuvchli mahsulotlarni rivojlanayotgan mamlakatlarga joylashtirishga urinmoqdalar. Lekin rivojlangan davlatlarda ham ishsizlik va moliya bozorlarida muammolar kelib chiqishi ehtimoldan holi emas va 2008-yildan boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi buning yaqqol isboti bo'lganligini e'tirof etish mumkin.

Globallashuv afzalliklarining nomutanosib taqsimlanishi faqatgina davlatlar orasida emas, balki ma'lum bir sohalar bo'yicha kuzatilayotganligini ham e'tirof etish joizdir. Eksport bilan bog'liq bo'lgan va tashqi savdodan foyda ko'rayotgan sohalar boshqalarga nisbatan katta hajmdagi kapital tushumi va yuqori malakali ish kuchi jaib qilinishi bilan ajralib turadilar. Foyda ko'rmaydigan sohalar ochiq bozor sharoitida tobora avj olib borayotgan erkinlashuv oqibatida raqobatga bardosh bera olmay globallashuv jarayonida milliy yoki jahon iqtisodiyotidagi ilgari egallagan mavqelarini boy bermoqdalar. Oqibatda bunday sohalardan malakali ishchi kuchi va kapital ko'chishi kuzatilib, xo'jalik yuritish sharoitlari yomonlashmoqda. Mazkur holatning oldini olish va

¹⁰ «Постилдустриал дунё ва глобализув жараёни». Жаҳон Иктисодиги ва халқаро муносабатлар М. 2000 – №3 – 93 бет.

utarni global sharoitga moslashtirish uchun xalqaro darajada kerakli chora-tadbirlar belgilanishi kerak bo‘ladi. Agarda bunday ishlar amalga oshirilmasa, aksariyat hollarda ishchilar xizmat joylarini yo‘qotib, ishsizlik ko‘payadi yoki boshqa sohani egallash maqsadida ko‘pchilik xizmatchi-ishchilar qayta malaka oshirishlariga to‘g‘ri keladi. Bu esa qisqa muddatda katta ijtimoiy xarajatlar evaziga amalga oshirilishi mumkin.

Globallashuv oqibatida vujudga kelayotgan yana bir muammo milliy iqtisodiyotlar boshqaruvi nazoratining boshqa mamlakatlar, transmilliy korporatsiyalar va xalqaro tashkilotlar vakolatiga o‘tib borayotganligidadir. Globallashuvning bu jihatni ayrim mainlakatlarning milliy mustaqilligiga tahdid solmoqda. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar siyosiy-iqtisodiy hayotini korporativ kapital boshqarayotganligi sir emas. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, jahonda integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishi, moliya bozorlarining globallashuvi milliy chegaralarning yo‘q qilinishiga va ayniqsa moliyaviy sohada davlat mustaqilligining susayishiga olib kelishi mumkin.

Ishchi kuchining jadal sur’atlar bilan harakatlanishi jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning keskinlashuviga sabab bo‘lmoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 1995-yili jahonda o‘z mamlakatidan tashqarida 125 mln. aholi faoliyat yuritgan, bo‘lsa bugungi kunga kelib, bu raqam 3-4 martaga oshgan. Arzon ishchi kuchining rivojlangan mamlakatlarga oqib borishi natijasida, u yerning mehnat bozorida raqobat bir qadar kuchayib doimiy istiqomat qiladigan ishchilar uchun bandlik muammosi paydo bo‘la boshladi. Bu esa xalqlar o‘rtasidagi etnik tizolarga sabab bo‘lmoqda.

Globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotlarning bir-biriga bog‘liqlik darajasi tobora oshib borayotganligi sababli bir davlatdagi barqarorsizlik boshqa davlatlarga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Masalan, 1997-yildagi Tailandda sodir bo‘lgan moliyaviy inqiroz barcha Janubiy-Sharqiy Osiyoni, 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi deyarli barcha mamlakatlarni qamrab oldi.

Yuqorida qayd etilgan globallashuvning salbiy oqibatlari mamlakatlar o‘rtasida kutilmagan noroziliklarni keltirib chiqarishi tabiiy bo‘lib, ushbu muammoni global siyosiy hamkorlik samaradorligini oshirish va yangi betaraf xalqaro tashkilotlarni yaratish orqali hal

etish mumkin. Bu borada har bir davlat ushbu sharoitga ko'nikma hosil qilib, jahon iqtisodiyotida o'z mavqeini egallashi uchun samarali harakatlar qilishi zarur. Fikrimizcha, mamlakatlar hukumati alohida e'tiborni tashqi iqtisodiy aloqalar samaradorligi va global muhitdagi o'zgarishlarga qaratib, mazkur jarayonlarni boshqarish uchun aniq maqsadlar asosida faoliyat yuritmog'i kerak.

2.2 Globallashuv va liberallashuv – xalqaro savdoning zamonaliv rivojlanish tendensiyasi sifatida

XXI asr bo'sag'asidagi jahon xo'jaligi – o'z miqyosi va rivojlanishi xususiyatiga ko'ra globaldir. U to'liq ravishda bozor iqtisodiyotining tamoyillariga, xalqaro mehnat taqsimotining obyektiv qonuniyatlariga, ishlab chiqarishning baynalmunallahuviga asoslanadi.

Globallashuv ikkinchi jahon urushidan keyingi o'n-yilliklarda jahon xo'jaligi rivojining yetakchi tendensiyalaridan biriga aylanib, ko'plab davlatlarning birin-ketin yopiq milliy xo'jalikdan tashqi bozorga yuz tutgan iqtisodiy ochiq tipdag'i xo'jalikka o'ta boshlaganligi bilan tavsiflanadi.

Ikkinci jahon urushidan g'olib va yanada boyib chiqqan AQSh dunyoning eng ilg'or savdo mamlakati sifatida «Erkin savdo», «Ochiq iqtisodiyot» shiori ostida yangi iqtisodiy tartib o'matish taraddudiga tushdi. Bunday tamoyil hukmron iqtisodiyotning boshqa davlatlarga qarshi quroli Amerika korporatsiyalarining tutib bo'lmas ekspansiyaga intilishlari edi.

Ammo XX asrning so'nggi o'n yilliklarida dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy holatning o'zgara borishi bilan ochiq iqtisodiyot haqidagi tezis bir tomontlamalik tavsifini, ya'ni amerika ekspansionizmining manfaatlariga yo'naltirilganlikni yo'qota bordi va obyektiv omillar ta'siri doirasida, jahon xo'jalik aloqalarining baynalmilallahuvi asosidagi jarayonga aylandi.

Jahon iqtisodiyoti baynalmunallahuvi miqyosi va tavsifiga, uning ochiqlik darajasining oshishiga katta ta'sir ko'rsatgan va ko'r-satayotgan asosiy omillar qaysilar?

Ochiq iqtisodiyotni shakllantirishda, birinchi navbatda har bir davlat hukumati katta rol o'yaydi. Aynan mutasaddi davlat

organlari tovar va xizmatlar eksportini rag‘batlantirib, importni tartibga solib, tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishiga keng yo‘l ochib eldan investitsiyalar, texnologiyalar, ishchi kuchi va axboroi oqib kelishini yengillashtirgan mustahkam huquqiy asos yaratishlari mumkin.

Mamlakatlarning ochiq iqtisodiyotga o‘tishlari transmilliy korporatsiyalar (TMK) faoliyati bilan yanada tezlashdi. Yangi bozorlarni o‘zlashtirishga intisib, turli mamlakatlarda ko‘plab filiallar, shu’ba korxonalari tashkil etib, TMK lar davlatning proteksionistik to‘siqlarni aylanib o‘tgan holda xalqaro iqtisodiy ayrboshlashni baynaalmallallashtirdilar.

XX asrning ikkinchi yarmida transport, axborot-aloqa vositalarining sezilarli rivojlanishi ham milliy iqtisodiyotlar ochiqlik qorajasining o‘sishida, aholi harakatchanligining oshishida katta rag‘batlantiruvchi rol o‘ynadi.

Bosqichma-bosqich uzoq vaqt mobaynida davlatlarni bir-biridan ajratib turgan savdo-iqtisodiy, valyuta-moliyaviy to‘siqlar olib tashlandi. Xalqaro ayrboshlashning erkinlashtirilishi milliy xo‘jaliklarning tashqi sharoit va ta’sirlarga moslashuvini yengillashtirdi, ularning xalqaro mehnat taqsimotida yanada faolroq ishtirok etishiga imkon yaratdi.

60-yillardan boshlab liberallashuv jarayonlari qator rivojlayotgan mamlakatlarda ham avj ola boshladi. Shu o‘rinda avvalambor «ochiq iqtisodiyot» tushunchasi mazmun-mohiyatiga oydinlik kiritishimiz kerak bo‘ladi.

Bitinchidan, «Erkin savdo» va «ochiq iqtisodiyot» tushunchalarini farqlash lozim. «Erkin savdo» haqidagi tezis A.Smit siyosiy iqtisodiyotidan boshlangan bo‘lib, zamonaviy amerika iqtisodchilarining kashfiyoti emas. «Ochiq iqtisodiyot» tushunchasi ishlab chiqarish omillari, axborot, milliy valyutalar o‘zaro almashuvining erkin harakatini o‘z ichiga olgan tovarlar savdosi sifatida «erkin savdo» tezisidan kengroq tushunchadir.

Ochiq iqtisodiyotning vujudga kelishi jahon xo‘jaligi rivojlanishining obyektiv tendensiyasi bo‘lib, uning tamoyillariga mos ravishda harakat qilish, bu-jahon bozori standartlarini tan olish, uning qonuniyatlari asosida harakat qilish demakdir.

Ochiqlik milliy iqtisodiyotning yaxlitligini, jahon xo'jaligiga, jahon bozoriga chuqur integratsiyalashgan yagona iqtisodiy majmuani nazarda tutadi. Ochiq iqtisodiyot, bu-turli hamkorlikdagi tadbirkorlik shakllaridan faol foydalanish, erkin tadbirkorlik zonalari tashkil qilish, tashqi savdoda davlat yakka hokimligini yo'qotish (aksariyat sohalar bo'yicha), xalqaro mehnat taqsimotida mamlakatning nisbiy ustunliklaridan samarali foydalanishdir.

Iqtisodiyotning eng muhim o'chovlaridan biri ma'lum iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va xalqaro raqobatbardoshlilik doirasida (soha va makroiqtisodiy darajada) kapital qo'yilmalar, texnologiyalar, axborot oqimini rag'batlantiruvchi qulay investitsiyaviy muhitdir. Ochiq iqtisodiyot milliy bozorning chet el kapitali, tovarlari, texnologiyalari, axborotlari, ishchi kuchining oqimi uchun maqsadga muvofiq darajada yo'naltirilganligini nazarda tutadi.

Ochiq iqtisodiyotning afzalliklari quyidagilardir:

-ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va koperatsiyalashuvining chuqurlashishi;

-resurslarni tejamkorlik bilan samaradorlik darajasiga qarab taqsimlash;

-xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimi orqali jahon tajribasining tarqalishi;

-jahon bozorida munosib o'rinnegallash uchun milliy ishlab chiqaruvchilar orasida raqobatning kuchayishi.

Milliy iqtisodiyot ochiqlik darajasini belgilovchi asosiy indikatorlardan biri eksport va importning mamlakat yalpi mahsulotiga nisbatini ifodalaydi. Ularning kombinatsiyasi alohida olingan davlatning jahon bozori bilan aloqasining miqyosi haqida ma'lumot beradi. Mamlakat eksportining YaIMga munosabati eksport kvotasi deb yuritiladi:

$$Ek = E/YaIM \times 100\%,$$

bu yerda:

Ek - eksport kvotasi

E - eksport hajmi.

Agar $E_k = 10$ foizdan yuqori bo'lsa, iqtisodiyotning ochiqligi yetarli darajada hisoblanadi. Mamlakat importining YalM munosabatidan kelib chiquvchi ko'rsatkich import kvotasidir:

$$I_k = I/YalM \times 100\%,$$

bu yerda:

I_k - import kvotasi

I - import hajmi.

Iqtisodiy ochiqlikning kompleks ko'rsatkichlaridan biri sifatida odatda tashqi savdo kvotasi ko'rsatiladi:

$$TS_k = TS/YalM \times 100\%,$$

bu yerda:

TS_k - tashqi savdo kvotasi

TS - tashqi savdo aylanmasining hajmi

Bu ko'rsatkichning kamchiligi unda kapital eksporti yoki importi kattaligining hisobga olinmaganligidir.

Mamlakat ichki bozorining hajmi, uning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, shuningdek mamlakatning xalqaro ishlab chiqarishda qatnashuvining miqyosi milliy iqtisodiyot ochiqligi va uning tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanish darajasiga ta'sir qiluvchi omillardir.

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlar har doim ham milliy iqtisodiyot ochiqligining darajasini to'liq ifoda etavermaydi. Masalan, tashqi savdo kvotasi ma'lum ma'noda milliy iqtisodiyot ochiqligini namoyish qilsada, uni jahon xo'jaligi bilan bog'liqlik holatini to'la qonli ko'rsata olmaydi. Tashqi savdo kvotasi asosan davlatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki darajasini belgilaydi xolos.

Shunday qilib, baynalminallahuv alohida milliy iqtisodiy tizimlarning oshib borayotgan o'zaro aloqa va bog'liqligini tavsiflovchi jarayondir. XX asr o'rtalaridan boshlab tovar ayirboshlash baynalminallahuvi kapital va ishlab chiqarishning baynalminallahuviga aylandi, fan-texnika inqilobi (FTI) ta'sirida jahon iqtisodiyoti rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasi keskin kuchaydi. Yirik

miqyosdagi ixtisoslashgan ishlab chiqarish uchun ichki bozorlar doirasi torlik qila boshladi va u obyektiv ravishda milliy chegaralardan chiqa boshladi.

FTI ta'sirida ishlab chiqarish baynalminallashuvi shunday holatni yuzaga keltirdiki, milliy iqtisodiyotlar yanada chuqurroq jahon xo'jaligiga integratsiyalashdilar. Ishchi kuchi harakati, malakali kadrlar tayyorlash, mutaxassislar bilan almashuv jarayoni yanada baynalminal xarakterga ega bo'la boshladi. Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi chuqurlashishi jahon savdosining erkinlashuviga, miqdoriy chegaralarning bekor qilinishiga va bojxona stavkalarining pasayishiga turki bo'ldi. O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab dunyoda mavjud bo'lgan ikki qaramaqarshi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum qarshiligining barham topishi va jahon savdosida yangi ishtirokchilarning paydo bo'lishi global iqtisodiyot tamoyillarini yanada rivojlantirdi.

Xalqaro savdo rivojining istiqbolli shakllanishi qonuniyatlarini o'rghanish shuni ko'rsatmoqdaki, jahon xo'jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyasi sifatida globallashuv kapital, tovar va xizmatlarning yagona planetar bozorini tashkil qilish va alohida davlatlarni yagona jahon xo'jaligi majmuiga birlashtirishga yo'naltirilgan jarayondir. Bu esa global iqtisodiyot masalalarini xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi majmui sifatida o'rghanish zaruriyatini keltirib chiqaradi va xalqaro savdo munosabatlarning yangi, yuqoriqoq darajasidir.

Globallashuv fenomenini ikki tomonlama ko'rib chiqish mumkin. Makroiqtisodiy darajada globallashuv davlatlar va alohida mintaqalarning o'z chegaralaridan tashqarida iqtisodiy faoliyat ko'rsatishga bo'lgan umumi intilishlari bo'lib, ularning asosiy ko'rinishlari quyidagilar: liberalizatsiyalashuv, savdo va investitsiya viy to'siqlarning olib tashlanishi, erkin tadbirkorlik zonalarini tashkil etish va h.k.

Mikroiqtisodiy darajada globallashuv deganda korxona faoliyatining milliy bozor chegaralaridan tashqarida kengayishi tushuniladi. Tadbirkorlik faoliyatining millatlararo yoki ko'pmilliy yo'nalganligidan farqli ravishda globallashuv jahon bozori yoki «jahon uchligi» (Shimoliy Amerika, G'arbiy Yevropa, Yaponiya) bozorlarini o'zlashtirishda yagona yondoshuvni anglatadi.

Jahon xo‘jaligi rivojlanishidagi oxirgi o‘n-yilliklar tendensiyasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab mamlakatlarning hukumatlari proteksionizm siyosatidan voz kechib, ochiq, liberal savdo siyosatini qo‘llashga o‘tmoqdalar.

Liberallashuv va globallashuv jarayonlari xalqaro savdo rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Dunyodagi barcha mamlakatlар (shu jumladan eng qoloq mamlakatlар ham) ishchi kuchi, tabiiy, moliyaviy, ishlab chiqarish, xom-ashyo resurslariga ega dirlar. Ularni oqilona ishlatib, har bir mamlakat milliy bozor yoki jahon bozori uchun tovarlar va xizmatlar ishlab chiqishi va sotishi mumkin. Globallashuv «Nisbiy ustunlik» nazariyasiga asoslangan bo‘lib, uning tom ma’nosи har qanday davlatning gullab-yashnashi uchun mamlakat hukumati mavjud resurslarni qanday qilib boshqa mamlakatlarga nisbatan yaxshiroq va arzonroq ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlarni yaratishga yo‘naltirishi bilan bog‘liq masalaning hal etilishini anglatadi.

Tayanch iboralar: ochiq iqtisodiyot, erkin savdo, milliy iqtisodiyotning liberallashuvi, qulay investitsiyaviy muhit, milliy iqtisodiyotning ochiqlik darajasi.

Nazorat savollari

1. «Ochiq iqtisodiyot», «Erkin savdo» va «milliy iqtisodiyotning liberallashuvi» tushunchalari mohiyatini tavsiflang.
2. Ochiq iqtisodiyot afzallikkali nimalarda namoyon bo‘ladi?
3. Milliy iqtisodiyot ochiqlik darajasini belgilovchi ko‘rsatgichlar tizimini tavsiflang.
4. Globallashuvning zamонавиј bosqichida xalqaro savdo rivojlanishining xususiyatlari qanday?
5. Hozirgi davrda xalqaro savdo liberallashuviga qanday omillar ta’sir ko‘rsatmoqda?

III BOB. GLOBAL MINTAQAVIY VA MILLIY MOLIYA BOZORLARI

3.1 Jahon moliya tizimi globallashuvining mohiyati va uning oqibatlari

Zamonaviy sharoitda globallashuv jahon iqtisodiyoti va milliy xo‘jaliklar o‘sishining muhim rag‘batlantiruvchi omiliga aylandi. Mazkur jarayon shaxsiy muloqot hamda inson shaxsining ijodiy salohiyati namoyon bo‘lishi uchun qo‘sishimcha imkoniyatlar yaratdi. U obyektiv xarakterga ega bo‘lib, sayyorada inson hamda moddiy va tabiiy resurslarning notekis taqsimlanishi bilan asoslanadiki, ulardan yanada unumli foydalanish uchun xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiyani chuqurlashtirish zaruriyatini belgilab beradi.

Yuqorida qayd etilganidek, jahon iqtisodiyotining globallashuvi integratsiyalashuvga nisbatan kengroq jarayon bo‘lib, u yaxlit jahon xo‘jaligi mexanizmining to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘limgan qismlari o‘zaro bog‘liqligini ham nazarda tutadi.

Globallashuvning iqtisodiyot liberallahuviga ta’siri mam-lakatlarning o‘zaro bog‘liqligi va xalqaro davlatlararo va nodavlat tashkilotlarda ishtirokining ortib borishida namoyon bo‘lmoqda. Aynan xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish davlatlarning davlat va nodavlat segmentlarini qamrab olgan institutsional tuzilmalari shakllanishiga imkon yaratadi.

Zamonaviy globallashuv milliy xalqaro va jahon bozorlari in-son faoliyatining barcha sohalaridagi milliy iqtisodiyotlarning tizim-lashgan integratsiyasi bilan tavsiflanadi, buning natijasida barqator iqtisodiy o‘sish, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv usullari tatbiq etilishining jadallashuvi yuzaga keladi. Globallashuv jarayeni rivojlanishi hozirgi bosqichining o‘ziga xos xususiyati shundaki, alohida mam'lakatlar va hududlarning nafaqat o‘zaro, balki jahon xo‘jaligining yaxlit tarzdagi holati va o‘sish sur’atlariga bog‘liqligi ham tobora ortib bormoqda.

Jahon moliya tizimi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi va davlatlararo valyuta-moliyaviy operatsiyalarini umumlashtiruvchi yagona unsur sifatida o'ta muhim rol o'ynaydi. Jahon xo'jaligi globallashuvining zamонавиј bosqichida uning ahamiyati tobora oshib bormoqda. U xalqaro mehnat taqsimoti va iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirib, mamlakatlararo tovar ayriboshlash hajmini oshiradi va xalqaro savdo o'sishini rag'batlantirgan holda, jahon xo'jaligining yalpi o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi (xorijiy investitsiyalar oqimi ko'p mamlakatlar uchun ishlab chiqarish kapitali yetishmaslik masalasini hal qiladi, ularning investitsiya salohiyatini oshirib, iqtisodiy o'sish sifatlarini jadallashtiradi).

Xalqaro moliya mamlakatlar orasida moliyaviy aloqalarning chuqurlashuvi, narxlarning va investitsiya oqimlarining liberallashuvi, hamda global transmiliy moliyaviy guruhlarning tashkil etilishi eqibatida vujudga kelgan va baynalmillonallashuv jarayoni doirasidagi eng murakkab va yuksak taraqqiy etgan tizimdir.

Moliya sohasining globallashuvi hozirgi kunga kelib ham milliy, ham jahon xo'jaligida sodir bo'layotgan eng asosiy jarayonlardan biri bo'lib, unga bir qator ijobiylar yoki salbiy xususiyatlar xosdir.

Globallashuv sharoitida xalqaro moliyaviy operatsiyalar ishlab chiqarish jarayonlaridan ustuvorlik qilmoqdalar. Moliyaviy soha rivojlangan mamlakatlarning YaIM va iqtisodiy tuzilmasida tutgan roliga ko'ra real sektordan ustunlik qilmoqda. Moliyaviy bozoriarning ahamiyati, ularning ko'lamida namoyon bo'lib, narx-navo harakati real tovar bozorlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar firma-kompaniyalari aktivlari tarkibida soxta kapital ulushi ancha yuqori bo'lib, moliyaviy bozoriardagi operatsiyalardan tushgan daromadlar ular uchun ahamiyatli o'tinni egallaydi. Hozirda rivojlangan mamlakatlar aholisi moddiy boyliklarning oddiy jamg'aruvchilaridan faol birja o'yinchilariga aylandilar: amerikaliklarning 45 foizidan ziyodi aksiya egalari hisoblanadilar. Ular o'z mablag'larining ko'p qismini moliyaviy vositalar turlaridan biriga aylantirmoqdalar. Natijada moliya sohasi o'z-o'zini ta'minlovchi tizimga aylanib, ichki resurslarni sohaning o'sishi uchun sarflamoqda.

Bozor iqtisodiyoti sust rivojlangan iqtisodiy tuzim va past eksport salohiyatiga ega spekulyativ kapital resipientlari, kapitalning harakatlanish jadalligi hamda an'anaviy va moddiy texnologiyalarni yaratish muddati o'rtasidagi nomutanosiblikdan zarar ko'rmoqdalar. Kapitalning birinchi navbatdagi maqsadi bo'l mish global tovar oqimiga xizmat qilish vazifasi borgan sari ikkinchi darajaga aylanmoqda. Moliyaning yetakchilik xususiyati uning bozor xo'jaligida bosh resurs sisatida tan olinishi bilan izohlanadi. Moliyaviy operatsiyalar jadalligi esa har qanday ishlab chiqarish, texnologik jarayonlar va savdo operatsiyalaridan ustun kelmoqda. Moliyaviy sohaning jadal rivojlanishi butun dunyoni qamrab olish imkoniyatini bermoqda. Ekspertlarning baholashicha qimmatli qog'oz va pul birliklarining faqatgina 10-15 foizigina moddiy ko'rinishga ega, ya'ni real tovar va xizmatlar ishlab chiqarish bilan ta'minlangan, xalos.

Kommunikatsiya va axborot texnologiyalari ta'siri ostida moliyaviy soha o'zining alohida tarmoq moliyaviy xizmat va vositalari doirasini kengaytirib, umumjahon darajasiga ko'tarildi. Yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bir vaqtning o'zida 24 soat davomida deyarli barcha jahon birjalarida faoliyat yurgazish imkonini bermoqda. Bu esa moliya kapitali harakatini bir necha marotaba jadallashtiradi.

Iqtisodiyotning, xususan tadbirkorlikning rivojlanishi, biznes yuritishning yangi tamoyillarini, jumladan elektron tijoratni tadbiq etish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Moliyaviy tizimning axborotlashuvi bank xizmatlari, dasturiy ta'minot yoki musiqani yozib olish ko'rinishida olib borilayotgan operatsiyalar xarajatlarining sezilarli darajada qisqarishiga olib keldi.

Internet tarmog'idan foydalanuvchilar sonining-yil sayin oshib borayotganligi birja o'yinlarida qatnashayotgan aholi ulushining ham ko'payib borayotganligidan dalolat beradi. Xususiy investorlar professional bilimga ega ham bo'l may turib, ommaviy axborot vositalaridagi axborot, konsalting firmalarining ma'lumotnoimalari va boshqa manbalardan olgan ma'lumotlarga tayangan holda ko'rko'rona ish tutib, bularning natijasida moliyaviy bozorlar

nobarqarorligi va tanazzullarga moyilligi oshib ketishiga turtki bo'limoqdalar.

Moliyaviy bozorlarning globallashuvi va geomoliyaning shakllanishi nafaqatgina axborotlashuv asosida, balki moliyaviy kapitalning mamlakatlararo harakatlanish cheklovlariga barham berilishi, ichki moliyaviy bozorlarni erkinlashtirayotgan va offshor markazlarni rivojlantirayotgan neoliberalizm tamoyillarining kengayishi natijasida ham yuz bermoqda. Kezi kelganda ta'kidlash joyizki, ko'pgina mamlakatlarda investitsiya rejimlari liberallashuvining kuchayishi bumi o'tgan asrning 80-yillariga to'g'ri keldi. Ular qatoriga xorijiy investorlarning milliy xususiy lashtirish jarayonlariga keng jalb etilishi, soliqlarning pasaytirilishi, xorijiy investitsiyalar hissali ishtiroki cheklovlarining bekor qilinishi va kapital repatriatsiyasi erkinlashuvi kiradi.

So'nggi-yillarda taraqqiy etgan mamlakatlar markaziy banklari faoliyatida moliya bank sohasi ustidan nazorat qilish vazifalaridan qisman voz kechib, ko'proq monetar masalalar yechimiga o'tish tendensiyasi kuzatilmoxda (Buyuk Britaniya, Yaponiya, Koreya Respublikasi va boshqa mamlakatlarda). Shu bilan birga, mazkur mamlakatlar orasida yagona Markaziy bank tizimini shakllantirish g'oyasi keng tarqalmoqda.

Tijorat banklari tomonidan investitsiyalash masalalari bo'yicha sho''ba kompaniyalarni tuzishni man etuvchi qoidalarning bekor qilinishi, moliyaviy operatsiyalarni keng spektrini amalga oshiruvchi qudratli moliyaviy xoldinglarni paydo bo'lishiga olib keldi. Fond operatsiyalari ko'p-yillir davomida Sitikorp, Morgan benk, Bank of Amerika, hamda Merill Linch, Salomon brazers, Goldman Saks kabi yirik investitsiya banklari tomonidan amalga oshirib kelinmoqda. Buning natijasida moliyaviy tashkilotlarning asosiy faoliyatlaridan qat'iy nazar, ularning diversifikatsiyalashuvi sodir bo'limoqda. Yirik banklar mijozlarni moliyaviy, investitsiya va tovar bozorlari bilan bog'lovchi qudratli axborot tizimini shakllantirmoqdalar. Shu bilan birga axborotni egallash uchun mavjud bo'lgan barcha kanallardan foydalanilmoqda. Banklar axborotni egallagan holda, bozor holati va unda faoliyat yurgazayotgan korxonalar to'g'risida ma'lumotlar beruvchi keng qamrovli konsalting xizmatlarini taqdim etmoqdalar. Konsalting xizmati yirik banklar

daromadlarining 25 foizidan ortig'ini tashkil etmoqda. Ko'plab banklar ixtisoslashgan konsalting kompaniyalarini o'z bozorlaridan siqib chiqarmoqdalar.

Shuningdek, bank va sug'urta faoliyatlarining yaqinlashuvi kuzatilmogda. Yevropada banklar ulushi sug'urtaning 19 foizi ni tashkil etmoqda. Masalan Fransiyada banklar sug'urta kompaniyalari vazifasini to'la o'z zimmalariga olib, bu sohada ustunlik qilmoqdalar.

Shu bilan birga bank sohasida offshor biznesi ham keng tarqalmoqda. Transmilliy banklar (TMB) global moliyaviy bozorlarning to'la huquqli ishtirokchisiga aylanishlari uchun o'z sho'balarini moliyaviy markazlarda tashkil etsalar, ularning ayrimlari bu sho'balarni offshor hududlarida yaratmoqdalar. Moliyaviy markazlarda yig'ilgan qadrsiz pullar offshor sho'balariga yo'naltirilmoqda. Ular yuqori foiz asosida kreditlar bermoqdalar va deyarli soliq undirilmaydigan foydani o'zlarida jamlamoqdalar.

So'nggi davrda kuzatilayotgan tendensiyalardan biri shundaki, bozorlarida sug'urta kompaniyalar, nafaqa va turli investitsiya fondlari moliya bozorlaridan banklarni siqib chiqarmoqdalar. Bu ayniqsa AQSh da kuzatilib, u yerda aholi mablag'lari nobank moliyaviy tashkilotlarga jalb etilgan umumiy hajmining ulushi 50 foizdan ortmoqda. Ushbu tashkilotlarning yalpi aktivlari 28 trln.AQSh doll. atrofida baholanmoqda. Bu investitsiyalarning 90 foizi fond bozorlariga yo'naltirilmoqda.

AQShda hozirgi davrda juda tez sur'atlar bilan xedj-fondlari taraqqiy etmoqda. Ularning soni 3000 dan oshiq bo'lib, aktivlari nisbatan ko'p bo'lmasada (400 mlrd. doll.), ularning moliyaviy bozorlardagi roli balanddir. Ma'lumki rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlaridagi xorijiy kapitalning aksariyat qismi faqatgina xedj-fondlari tomonidan kiritilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, moliyaviy bozorlar, moliyaviy xizmat ko'rsatish tuzilmalari birlashib, yagona xalqaro bozor doirasida moliyaviy resurslar harakatlanishining hajmi va jadalligi-yildan-yilga o'sib bormoqdaki, bu ularning juda ham mobilligidan dalolat beradi. Mazkur jarayonning nafaqat ijobiy, balki salbiy jihatlari ham mavjuddir.

Moliyaviy globallashuv milliy iqtisodiyotlarga katta xatar tug‘dirishi mumkin. Chunki globalashuv sharoitida bir mamlakatdagi nobarqarorlik boshqa mamlakat va hududlarga o‘tish ehtimoli yuqoridir.

Zamonaviy tangliklar avvalgi tanazzullarga qaraganda murakkabroq va to‘satdan kelib chiqish tabiatiga ega. Shu tufayli ulardan himoyalanish va ularni bashorat qilish borgan sari noreal bo‘lib bormoqda.

Butun dunyo bo‘ylab harakatlanayotgan mobil moliyaviy kapital xalqaro iqtisodiy tizim mexanizmini nobarqarorlash-tirmoqda. Ushbu kapital rivojlanayotgan mamlakatlarning ichki bozorlariga joylashib,

Milliy valyuta kotirovkalari dinamikasini belgilagan holda, ustuvorlikni o‘z qo‘liga olmoqdalar. Investitsiya fondlari mablag‘larini boshqarayotgan xorijiy menejerlar moddiy ta‘minlanmagan foyda ketidan quvib istagan paytda mahalliy moliyaviy bozorlar kon'yunkturasiga ta’sir etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

Jahon moliya tizimida yuz bergan tub o‘zgarishlar uning funksiyalarini ham o‘zgartirdi. Uning imkoniyatlari va vazifalarining kengayishi esa bu tizimni tartibga solish zaruratini vujudga keltirdi.

3.2. Zamonaviy jahon xo‘jaligida moliya tizimining vazifalari va uni tartibga solish zarurati

Jahon moliyaviy resurslari barcha mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy markazlar moliya resurlarining yig‘indisidan iborat. Tor ma’noda – bu tashqi iqtisodiy faoliyatda, ya’ni rezident va nerezidentlar o‘rtasidagi munosabatlarda foydalilaniladigan moliyaviy resurslardir.

Jahonning moliyaviy resurslari doimo harakatda bo‘lib, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ishtirokchilari o‘rtasida qayta taqsimlanib boradi. Bu resurlarning bir qismi oltin - valyuta zaxiralariga tushadi, bir qismi yordam tariqasida imtiyozli shartlar bilan chet elga taqdim etilsa, asosiy qismi jahon moliya bozorlarida (jahon kapital bozorlarida) sotiladi va sotib olinadi.

Jahon moliya resurslari uch qismga: moliyaviy yordam, oltin - valyuta zaxiralari va jahon moliya bozoriga bo'linadi. Moliyaviy yordam davlatlararo kreditlar va grantlar yoki xalqaro tashkilotlarning kreditlari va grantlari tariqasida beriladi. Oltin - valyuta zaxiralari rasmiy va xususiy zaxiralardan iborat. Jahon moliya bozorlariga valyuta, aksiyalar, sug'urta, derivativlar va kredit bozorlari kiradi. Kredit bozori o'z navbatida bank kreditlari va qimmatbaho qog'ozlar shaklidagi qarz majburiyatlariga bo'linadi.

Jahon moliya resurslarining asosiy qismi rivojlangan mamlakatlarda joylashgan. Bu mamlakatlarning jismoniy shaxslari, kompaniyalari, tashkilotlari, hukumatlari moliyaviy resurslarning asosiy qismiga egalik qiladilar. Ularning moliyaviy vositalari jahon moliya bozorida muomalada bo'lib, jahondagi moliyaviy yordamning asosiy manbai ham bo'lib hisoblanadi.

Jahon moliya bozori moliya-kredit tashkilotlarining yig'indisidan iborat bo'lib, ular vositachi sifatida kreditorlar va qarz oluvchilar hamda moliyaviy resurslarni sotuvchi va sotib oluvchilari o'rtasida moliyaviy aktivlarni qayta taqsimlaydilar.

Jahon moliya bozorini turli nuqtayi nazardan tahlil qilish mumkin. Ishlatish yo'nalishlariga ko'ra uni valyuta, derivativ, sug'urta xizmatlari, aksiya, kredit bozorlariga bo'lish mumkin, o'z navbatida bu bozorlarning o'zi torroq doiraga bo'linadi, masalan, kredit bozorlari uzoq muddatli qimmatbaho qog'ozlar va bank kreditlari bozorlaridan iborat. Ko'pincha qimmatbaho qog'ozlar ko'rinishidagi moliyaviy aktivlar bilan bo'lgan operatsiyalar barcha qimmatbaho qog'ozlarning bozori sifatidagi fond bozoriga birlashtiladi, lekin ko'pincha fond bozori faqat aksiya bozori sifatida qaraladi.

Moliyaviy aktivlarning aylanish muddatiga ko'ra jahon moliya bozori ikki qismga ajratiladi: pul bozori (qisqa muddatli) va kapital bozori (uzoq muddatli). Jahon moliya bozori katta qismining qisqa muddatliligi uni moliyaviy vositalarning o'zgarishiga ta'sirchan qilib qo'yadi. Undan tashqari shunday moliyaviy aktivlar mavjudki, ular bir maqsadga, jumladan, pul bozoridagi chayqovchilik operatsiyalari hisobiga, eng yuqori darajada foyda olishga yo'naltirilgan.

Jahon moliya bozorining turli unsurlari o'rtasida aniq chegaralar mavjud emas. Ularning ko'pchiligi moliya bozorining bir

segmentidan boshqasiga hech qanday qiyinchiliklarsiz yo'naltirilishi mumkin. Buning oqibatida, jahoning turli mamlakatlarida valyuta kurslari (valyuta bozorlaridagi holat bilan belgilanadi), bank foizlari (qimmatbaho qog'ozlar bozoridagi holat bilan belgilanadi) va aksiyalar kurslari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchaymoqda. Natijada, bir tomonidan jahon moliya bozorida beqarorlik kuchayib bormoqda, ikkinchi tomonidan esa, jahon moliya resurslarining globallashuvi sharoitida bir milliy moliya bozoridagi tanazzul boshqa mamlakatlar moliya bozoriga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Qisqa muddatli kapitalning katta hajmda tashqariga eqib ketishi xavfi ko'pchilik mamlakatlarda moliyaviy tanazzulga sabab bo'lishi mumkin. Buni 1997-yilning yozida Janubiy-Sharqiy Osiyoda boshlangan va keyinchalik Rossiya va Lotin Amerikasining qator mamlakatlarini qamrab olgan moliyaviy krizis, 2008-yilda Amerika ipoteka bozori tanazzulidan boshlanib butun dunyoni qamrab olgan va hanuz davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz yaqqol namoyish etdi.

Jahon moliya bozorining asosiy agentlari - bu transmilliy kompaniyalar va institutsional investorlardir. Shu bilan birga, chet elga qarzlarni joylashtirish va taqsimlashni amalga oshiruvchi davlat muassasalari va xalqaro tashkilotlar ham katta o'rinni egallaydilar. Kapital jahon bozorlarida bilvosita, ya'ni institutsional investorlar orqali jismoniy shaxslar ham faoliyat ko'rsatadilar.

Institutsional investorlarga pensiya fondlari va sug'urta kompaniyalari hamda investitsiyaviy fondlar ayniqsa, hamkorlikdagi fondlar kiradi. Institutsional investorlar aktivlarining hajmi juda katta bo'lib, ular AQSh YalMdan ancha katta, Yevropa Ittifoqi umumiy YalMga tenglashadi. Bu aktivlarning asosiy qismi turli qimmatbaho qog'ozlarga, shu jumladan, xorijiy qimmatbaho qog'ozlarga joylashtirilgan.

Jahondagi eng katta institutsional investorlar bu o'zaro hamkorlikdagi fondlar bo'lib, ular o'z paychilarining, asosan, o'rta hol jismoniy shaxslarning mablag'larini yig'ib borib, ayniqsa AQShda juda katta sarmoya egasiga aylandilar. 2000-yillarga kelib, ular aktivlarining hajmi 4 trln. dollarga yetdi, va bu mablag'ning yarmi aksiyalarga, shu jumladan horijiy kompaniyalar aksiyalariga joylashtirilgan. Hamkorlikdagi fondlarning bu qadar rivojlanishi

mayda jamg'armachilarning o'z sarmoyalarini bankda saqlagandan ko'ra ko'proq daromad beradigan moliyaviy tuzilmada joylash-tirishga qaror qilganlari bilan bog'liq. Bunday fondlar mijozlarining mablag'larini turli xil qimmatbaho qog'ozlarga joylashtiruvchi jamg'arma banklari va investitsiya banklari (kompaniyaiari) afzalliklarini o'zida mujassamlashtiradi. Investitsiya fondlarining bir qismi umuman xorijiy qimmatbaho qog'ozlar bilan yoki alohida mamlakatlar va hududlarning qimmatbaho qog'ozlari bilan ishlash uchun yaratilgan.

Moliya resurslarining eng faol oqimi jahon moliya markazlari hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur markazlarda turli mamlakatlar rezidentlari o'rtasidagi moliya aktivlarining savdosi ayniqsa katta hajmda amalga oshiriladi. Bu bиринчи navbatda AQShda – Nyu-York va Chikago, Yevropada – London, Frankfurt, Parij, Syurix, Jeneva, Lyuksemburg, Osiyoda – Tokio, Singapur, Gonkong, Baxreynlardir. Ba'zi offshor markazlari, bиринчи navbatda Karib dengizi ko'rfazida joylashgan Panama, Bermud, Bagam, Kayman, Antil orollari ham jahon moliya markazlariga aylanib bormoqdalar.


Jahon moliya markazlarida xalqaro moliya bozori aktivlarining asosiy qismi to'plangan bo'lib, ular nafaqat moliya markazi joylashgan mamlakat kapitali, balki jahonning boshqa hududlaridan yo'naltirilgan kapital hamdir. Ayniqsa bu holat uncha katta bo'il-magan mamlakatlarda joylashgan moliya markazlariga xos xususiyatdir.

Hozirda juda katta miqdorda xorijiy valyutadagi to'lovlar va undan ham yuqori hajmdagi derivativlar bilan chayqovchilik ope-ratsiyalarining amalga oshirilishi oqibatida jahon valyuta bozori haddan ziyod kengayib, jadallik bilan o'sib bormoqda. Bir kunda bu bozorda amalga oshiriladigan bitimlarning hajmi 1,5 trln dollar, bir-yildagisi esa deyarli 400 trln. dollarni tashkil etadi.

Markaziy banklar ham milliy valyuta bozorlarining faol ishti-rokchilaridandir. Ko'pchilik bozor iqtisodi rivojlangan mamlakatlarda valyuta kurslari suzuvchan bo'lib, valyuta bozorlari ishtirok-chilari tomonidan xorijiy va milliy valyutaga bo'lgan talab va taklif asosida aniqlanadi. Talab va taklifning kuchli tebranishlari (va ayir-boshlash kurslarining noxush o'zgarishi) oldini olish uchun

markaziy bank valyuta intervensiyalari orqali ushbu jarayonni tarfibga soladi.

Valyuta va valyuta derivativlari savdosi ham birinchi navbatda jahon moliya markazlarida olib boriladi. Valyuta ayirboshlash operatsiyalari bo'yicha London birinchi o'rinni egallasa, valyuta fucherslar savdosi eng ko'p Chikagoda amalga oshiriladi.



3.2.1 -rasm. Jahon moliya bozorining tasnifi

Ma'lumki, asosini oddiyoq moliyaviy vositalar: aksiyalar, obligatsiyalar, valyuta tashkil etuvchi derivativlarning eng keng tarqalgan turlari opsiyonlar (egasiga valyuta va aksiyalarini qat'iy

belgilangan kurslarda sotib olish va sotish huquqini beradi), svoplari (ma'lum bir muddat davomida pul to'lovlari bilan ayirboshlash haqidagi bitimlar) fyucherslardir (valyutani kelajakda kelishiqlan qat'iy belgilangan kurs bo'yicha yetkazib berish haqidagi bitim). Derivativlar bozori valyutalarni yoki qimmatbaho qog'ozlarni ayirboshlash orqali valyuta bozorlari bilan uzviy bog'liq. Hozirda moliyaviy derivativlar bozori unda aylanuvchi qimmatbaho qog'ozlarning qiymatini hisobga olinsa 60-70 trln. dollar atrofida baholanmoqda. Bu bozoring asosiy qismi qisqa muddatli valyuta fyucherslari va svoplarga to'g'ri keladi.

Jahon kredit bozorining hajmi juda salmoqli bo'lganligi tufayli, u qismlarga bo'linib, qimmatbaho qog'ozlar shaklidagi qarz majburiyatlari va bank kreditlari bozori bo'yicha tahlil qilinadi.

3.3 Jahon moliya bozorining tasnifi

Umuman, moliya bozori atamasi juda keng tushunchadir. U haqiqatdan ham serqirra ma'noli va murakkab iqtisodiy toifani tashkil qiladi hamda muayyan moliya muassasalari orqali o'zaro ta'sirda bo'ladigan mulk egalari bilan sarmoya egalari, qarz oluvchilar bilan qarz beruvchilar o'rtaсидаги munosabatni aks ettiradi. Hozirgi zamон iqtisodiyoti uchun moliya bozori o'ziga xos «asab markazi» rolini bajaradi. Uning rivojlanish darajasiga qarab mammalakat iqtisodiyotining ahvoliga baho bersa bo'ladi. Chunki moliya bozoriga maqbul ta'sir ko'rsatib, jamiyat iqtisodiy faolligini oqilona boshqarish mumkin.

Insoniyat tarixida puldan foydalanishning eng keng tarqalgan uch usuli ma'lum: naqd pullarni saqlash (bu uncha samarali emas) yoki omonat banklariga qo'yish yoki qimmatli qog'ozlar sotib olish. Jamg'armalarning ko'pchilik qismini jamiyatning uy xo'jaliklari, iqtisodiyotga investitsiyalar qo'yishni esa asosan xo'jalik yurituvchi subyektlar amalga oshiradi.

Hozirgi zamон moliya bozorining asosini ko'p sonli moliya muassasalari yoki vositachilar tashkil qiladi. Bu – sotuvchilar va xaridorlar, sotiladigan va xarid qilinadigan tovarlar, pul va boshqa moliya aktivlari mavjud bo'lgan bozor.

Shu bilan birga moliya bozorlari pul mablag'larini jamg'armalarning egalaridan qarz oluvchilarga yetib boradigan ko'plab turli uman kanallar bilan ta'minlanib turadi. Iqtisodiy adabiyotda ular ikki asosiy guruhga ajratiladi.

Birinchi guruhga pul mablag'larini to'g'ridan-to'g'ri jamg'armalarning egalaridan qarz oluvchilarga yetib boradigan sarmoya bilan bevosita moliyalash usullari kiradi. Ular o'z navbatida ikki qismiga bo'linadi: kapital moliyalash - unga muvofiq, tadbirkor mablag'ni o'z mulkining bir qismiga almashtirish hisobiga oladi (oddiy aksiyalar) va qarz olish yo'li bilan moliyalash - unga muvofiq firma mablag'ni oldindan kelishilgan foiz bo'yicha qaytarish va firmaga egalik qilish huquqini olmaslik haqidagi shart bilan oladi (masalan, obligatsiyalar). Ushbu vositalar qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishini belgilaydi.

Bilvosita mablag' bilan ta'minlashga omonatchilarning mablag'larini moliya muassasalariga: tijorat banklari, sug'urta va trast kompaniyalar, pensiya fondlari va hokazolarga qo'yishga doir barcha operatsiyalar kiradi. Masalan, moliya muassasalari omonatchilarning mablag'laridan foydalanib, turli loyihalarni mablag' bilan ta'minlaydilar. Moliya bilan ta'minlashning «bilvositaligi» shundaki, omonatchilarning o'zlari mablag'larini ushbu loyihalarga bevosita qo'ymaydilar.

Jismoniy va yuridik shaxslarning uzoq muddatli pul omonatlari moliya vositachilari tomonidan investitsiya kreditlari sifatida berish uchun foydalaniladi, investitsiya kreditlari uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar bilan birga sarmoyalar bozorida oldi-sotdi qilinadi.

Omonatlar faqat uzoq muddatli investitsiyalargagina qo'yilmaydi, ularga qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar – xazina majburiyatları, veksellar va hokazolarni ham sotib olish mumkin. Fuqarolar va yuridik shaxslarning qisqa muddatli omonatlari hamda pul massasining bosqqa elementlari bilan birgalikda ular pul bozorini tashkil qiladi.

Pul bozori davlat xazinasiga bevosita naqd pul tushishini ta'minlaydi va firma yoki jismoniy shaxsga o'zlarining vaqtinchalik bo'sh mablag'laridan daromad olishga imkon beradi. Pul bozorisiz to'liq ma'nodagi moliya bozori bo'lishi mumkin emas.

Moliya tizimi mamlakat iqtisodiyoti uchun hayotiy zarur bo'lgan ko'pgina muhim vazifalarni bajaradi.

Jamg'arma vazifasi. Moliya muassasalari tizimi aholiga, korxonalarga foizli va foizsiz omonatlar, qimmatli qog'ozlar -depozit sertifikatlar, obligatsiya va aksiyalar shaklidagi pul jamg'armalarining xilma-xil shakllarini taklif qiladi. Moliya muassasalari korxonalar va uy xo'jaliklari «vaqtinchalik harakatsiz pullari»ning xarid qobiliyatini saqlash va ko'paytirish majburiyatini oladi.

Kreditlash vazifasi. Bu – birinchi vazifa bilan chambarchas bog'liqdir, chunki moliya muassasalarining, xususan, banklatning kredit berish salohiyati mamlakat iqtisodiyotida jamg'arilayotgan moliya mablag'lari hajmiga bevosita bog'liq.

To'lovlarga xizmat ko'rsatish vazifasi. Har qanday mamlakat iqtisodiyotida tovar, moliya operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar doimo va katta hajmlarda amalga oshiriladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar (korxonalar) o'z xodimlariga ish haqi va mukofotlar beradi, xomashyo va tovar yetkazib beruvchilarga haq to'laydi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydi va hokazo.

Iqtisodiy siyosat vazifasi. Markaziy bank va hukumat moliya tizimining pul-kredit va fiskal dastaklariga ta'sir ko'rsatib, davlat iqtisodiy siyosatini maqsadga muvofiq holda yo'naltiradi.

Moliyaviy resurslar jahonning eng globallashgan resursi hisoblanadi. Moliyaviy resurslar globallashuvining ham salbiy, ham ijobiy jihatlari mavjud. Jarayonning ijobiy tomoniga misol sifatida jahonda moliyaviy resurslar yetishmasligining oldini olish imkoniyati ko'payishini keltirish mumkin. Buning oqibatida hozirgi sharoitda ayniqla rivojlangan va bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda kapital (birinchi navbatda pul shaklida) tanqisligiga barham beriladi. Globallashuv milliy moliya bozorlaridagi raqobatni kuchaytiradi va buning natijasida moliya-kredit vositachiligi (moliya xizmati)ning narxi pasayadi.

Jahon moliya bozori globallashuvining salbiy oqibatlariga misol sifatida avvalam bor milliy moliya bozorlari nobarqarorligining kuchayishini keltirish mumkin. Bunday nobarqarorlik birinchidan alohida hududlardagi moliyaviy inqirozlar (ayniqla yirik moliya markazlarining mavjudligida) boshqa mamlakatlar va

hududlarga ko'proq ta'sir ko'rsatganligi sababli, ikkinchidan, milliy moliya bozorlarining liberallashuvi tufayli sodir bo'lmoqda.

Globallashuvning yana bir salbiy oqibati bu jahon xo'jaligining real kapital (iqtisodiyotning real sektori) faoliyatiga emas, moliya (pul) sektoriga tobora bog'liq bo'lib borayotganligidadir. Rivojtungan mamlakatlarda ilgariroq boshlangan bu jarayon butun jahon iqtisodiyotiga tobora kuchliroq ta'sir ko'rsatib bormoqda. Uning mohiyati shundaki, moliya va real kapital tizimida ular o'rtasidagi bog'liqlik tobora susaya borib, birinchisi ikkinchisidan ustun ham turmoqda. Natijada, milliy iqtisodiyotlarning rivojlanish holati ular moliyalarining ahvoliga tobora ko'proq bog'lanib qolmoqda.

Ma'lumki, globallashuv sharoitida milliy moliya tizimi mamlakat moliya bozorida faol ishtirok etayotgan norezidentlar hamda jahonning boshqa mamlakatlari va hududlari moliya bozorlarining holati, ayniqsa xalqaro moliya markazlarining faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Jahon moliya resurslarining globallashuvi oqibatida mamlakat hukumatining milliy moliya bozoriga ta'siri susayib borib, bir vaqtning o'zida milliy moliya bozorlariga transmilliy korporatsiyalar hamda xalqaro institutsional investorlar va xalqaro chayqovchilarning ta'siri kuchayib bormoqda.

Xalqaro integratsiya birjashmalarining ishtirokchilari bo'lgan mamlakatlar moliya tizimiga (Yevropa Ittifoqi doirasida kuzatilayotgan) qabul qilingan umumiylar yoki umumiylar moliya siyosatining ta'siri kuchaymoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish iqtisodiyoti davlatlari moliya bozorlariga xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning (birinchi navbatda Xalqaro Valyuta Fondi va Jahon banki) ta'siri o'sib bormoqda. 1997-1999-yillardagi Osiyo moliyaviy inqirozi natijasida ko'pchilik iqtisodchilar shunday fikrga keldilarki (buni hozirda davom etayotgan global inqiroz yanada tasdiqlamoqda), jahon moliya tizimi Xalqaro Valyuta Fondi yoki undanda nufuzliroq, keng doiradagi huquq va manbalarga ega bo'lgan yangi xalqaro moliya tashkiloti tomonidan yanada faolroq tartibga solinishi zarur.

Jahon moliya bozorining chuqur globallashuviga qaramay, hozirda ham ko'pchilik milliy moliya bozorlarida kapitalning xalqaro harakati va xalqaro valyuta hisob-kitob munosabatlari uchun jiddiy cheklovlar mavjud. Ayrim mamlakatlar kredit, aksiya

va sug‘urta xizmatlari bozorida moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi xorijiy banklar, sug‘urta kompaniyalari va boshqa tashkilotlar faoliyatiga yuqori to‘siqlar o‘rnatilgan.

Globallashuv uchinchini ming-yillikning o‘ziga xos xususiyati sifatida namoyon bo‘limoqda. Ushbu mavzudagi izlanishlar mualiflari jahon xo‘jaligida jadal rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonlari tufayli paydo bo‘layotgan ziddiyatlarni aniqlashga urinmoqdalar. Gap asosan uch xil toifadagi ziddiyatlar ustida bormoqda.

Birinchidan, iqtisodiy jarayonlar tobora global tus olayotganligi bilan milliy xo‘jalik va qonunchilik doiralarida tartibga solish mexanizmlari o‘rtasida nomuvofiqlik ko‘zga tashlanib turibdi.

Ikkinchidan, ayrim globallashuv jarayonlarining rivojlanish sur’atlaridagi tafovutlar keskin oshib bormoqda: milliy xo‘jalik tizimlari va boshqa subyektlar global darajaga bir vaqtning o‘zida chiqmaydi va ushbu jarayonni sinxronlashtirish mexanizmlari esa yo‘q. Shu boisdan ayrim jarayonlarning globallashuv darjasи, ular «o‘zlashtirgan» hududlar bir xil emas. Bu esa nizolar keltirib chiqarishi mumkin.

Uchinchidan, chegaralar ochiqligi xo‘jalik subyektlarini (ular o‘z faoliyatlarini milliy iqtisodiyotlar doirasi bilan cheklaganida ham) global darajadagi raqobat ishtirokchisiga aylantiradi. Bir tomondan, g‘arb mamlakatlari (va ulardagi transmilliy korporatsiyalar) va, ikkinchi tomondan, boshqa mamlakatlar o‘rtasida moddiy, moliyaviy va kadrlar resurslari, axborot ta’midotidagi jiddiy tafovut mavjudligi aksariyat mamlakatlarning global iqtisodiyotda samarali ishtiroki imkoniyatini cheklab qo‘ymoqda.

Abstrakt-nazariy jihatdan, global jarayonlar rivojlanishi yaxlit jahon xo‘jaligining barcha qatnashchilari uchun beqiyos ne’matdir. Milliy iqtisodiyotlarning bunday ochiqligi ishtirokchilarning tashqi bozortarga chiqishlarinigina emas, balki chet el moliya resurslaridan foydalanishlarini ham ta’minlaydi. Bu iqtisodiy yuksalish va ijtimoiy rivojlanishni tezlashtirish imkonini beradi. Lekin globallashuvning yuqorida qayd etilgan jihatlari hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi: uning ne’matlarini notejis taqsimlanishi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha jiddiy tafovutlarni qisqartirishga ham yo‘l bermayapti. Milliy xo‘jaliklar ichida aholi turli qatlamlari o‘rtasidagi daromadlarning tabaqalanishi

kuchayib bormoqda. Bu tendensiya ba'zi rivojlangan davlatlarda ham namoyon bo'lmoqda. Moliya sohasi iqtisodiy globallashuv jarayonida asosiy yetakchi soha bo'lishga da'vogarlik qilmoqda. Bu sohaning xalqaro rivojlanishi alohida muammolar doirasi bilan bog'langan.

XX asr so'nggi o'n-yili boshida kapitalning xalqaro transferlari kuniga 1,3 trln. dollardan ko'p bo'lib, bu 20 yil mobaynida taxminan 130 barobar o'sish ro'y berganligini anglatar edi. Shu davrda valyutaning yillik savdosi 400 trln. dollardan oshgan, bu esa butun jahon savdosining 80-yillik hajmiga yaqinlashar edi; ikki o'n yillikda mazkur ko'rsatkich 40 barobar oshgan. Mutaxassislar bunday o'sishga qisqa muddatli komponentlar, ayniqsa, savdo-sotiqlar eng yuqori foyda olishni ko'zlagan holda mamlakatlar o'rtaida ko'chib yuruvchi tijorat banklaridagi 10 trln. dollardan ko'p chet el depozitlari kuchli ta'sir ko'rsatganini ta'kidlamoqdalar. Chet el kapitali bozorining yillik oboroti ushbu o'n yillik boshida 60 trln. dollarni (jahon YalMidan ikki barobar ko'p va jahon savdo hajmidan deyarli 12 barobar ko'proqni) tashkil etdi.

Jahon moliya resurslarining geografik tarkibi dinamikasi (mlrd AQSh dollarida)

3.3.1-jadval.

Yillar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	346.146	376.897	133.757	81.811	197.477	6.553	184.361
Portfel investitsiyalari	-738.499	-904.297	-201.994	-328.793	-143.502	162.068	152.909
Boshqa investitsiyalar	62.885	-41.855	-222.721	323.216	298.217	190.872	21.670
Yevromintaqa							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	83.365	138.978	14.366	-77.667	79.231	120.930	-
Portfel investitsiyalari	-109.771	-454.537	-181.329	-5.105	150.554	223.401	-
Boshqa investitsiyalar	-53.019	142.298	256.026	522.275	199.553	-145.554	-

Asosiy rivojlangan mamlakatlar (G7- Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Kanada, AQSh, Fransiya, Yaponiya)							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	280.221	414.005	290.400	249.278	214.987	78.062	170.033
Portfel investitsiyalari	-503.972	-851.309	-210.060	-303.566	-224.723	-16.813	151.608
Boshqa investitsiyalar	-95.864	-199.306	-452.995	-370.936	-9.769	-32.873	-430.052
Boshqa rivojlangan mamlakatlar (G7 va Yevromintaqadagi mamlakatlardan tashqari)							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	94.275	-6.674	-23.416	17.973	-22.378	-106.244	0.253
Portfel investitsiyalari	-50.666	42.710	139.680	121.443	184.594	334.441	241.680
Boshqa investitsiyalar	-17.069	93.442	-97.725	160.797	133.968	-8.207	67.751
BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH IQTISODIYOTILI VA RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	-455.835	-534.448	-481.569	-470.120	-	-	-
Portfel investitsiyalari	-235.090	-142.770	-245.003	-139.386	-	-	-
Boshqa investitsiyalar	-8.137	183.059	424.597	129.136	-	-	-
MDH mamlakatlari							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	-9.412	-16.118	-27.850	3.609	-	-	-
Portfel investitsiyalari	-14.276	17.929	3.508	17.388	-	-	-
Boshqa investitsiyalar	50.861	81.191	61.830	48.805	-	-	-
Osiyoning bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiyotili va rivojlanayotgan mamlakatlari							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	-224.272	-277.289	-221.741	-272.994	-	-	-
Portfel investitsiyalari	-93.305	-57.934	-115.548	-64.649	-	-	-
Boshqa investitsiyalar	-103.484	-28.785	208.531	-78.303	-	-	-

Yevropaning bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiyotili va rivojlanayotgan mamlakatlari							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	-26.965	-39.980	-27.189	-25.340	-	-	-
Portfel investitsiyalari	-45.376	-53.161	-70.219	-39.866	-	-	-
Boshqa investitsiyalar	-52.541	-30.147	7.246	-13.985	-	-	-
Latin Amerikasi va Karib dengizi navzasida joylashgan mamlakatlar							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	-112.016	-147.479	-150.687	-145.020	-	-	-
Portfel investitsiyalari	-106.865	-107.166	-95.264	-107.007	-	-	-
Boshqa investitsiyalar	3.975	16.294	24.201	38.847	-	-	-
Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Afg'oniston, Pokiston							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	-49.316	-22.921	-25.297	-8.603	-	-	-
Portfel investitsiyalari	25.040	73.285	57.266	72.056	-	-	-
Boshqa investitsiyalar	59.424	124.615	105.001	142.099	-	-	-
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	-47.030	-21.177	-24.372	-7.237	-	-	-
Portfel investitsiyalari	24.883	73.616	57.020	72.015	-	-	-
Boshqa investitsiyalar	63.610	124.263	104.291	138.758	-	-	-
Sahroi Kabir Afrikasi							
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	-33.853	-30.662	-28.805	-21.773	-	-	-
Portfel investitsiyalari	-0.307	-15.723	-24.747	-17.309	-	-	-
Boshqa investitsiyalar	33.629	19.890	17.788	-8.327	-	-	-

Manba: IMF, International Financial Statistics and World Economic Outlook databases as of October, 2016.

Jahon aksiyalar savdosi jami jahon savdosi hajmidan bir ozgina kamroqni yiliga deyarli 4 trln. dollarni tashkil etdi. Bevosita (lekin yuqori darajada harakatchan bo'lmagan) chet el investitsiyalari hajmi ham ancha ko'paydi - 3 trln. dollardan oshdi.

Kapital massalarining amalda nazorat qilinmaydigan jadal (ba'zida vahimali) transchegaraviy ko'chib yurishi milliy xo'jaliklarga, ayniqsa, rivojlanuvchi va o'zgarib boruvchi iqtisodiyotlarga, kuchli ta'sir ko'rsatadi, boz ustiga, kapitallarning (chet el kapitallari va mahalliy kapitallarning) «qochishi», yuqori foyda olish maqsadida mamlakatga chet el moliyaviy unsurlarining ko'pdanko'p oqimlari kelishi ham salbiy ta'sir etishi mumkin. Fikrimizni 2008-yilda boshlangan va hali-hanuz davom etayotgan global moliyaviy inqirozga oid ma'lumotlar yaqqol tasdiqlaydi.

Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz deb nom olgan ushbu fenomen tahlili uni keltirib chiqargan juda murakkab sabablarni aniqlab berdi. G'arbdagi tahlilchilar, shu jumladan, yetakchi xalqaro moliya tashkilotlari vakillari ichki moliyaviy va bank tizimlarining zaifligiga, to'lov balansi tanqisligiga, fond bozorida qimmatli qo'g'ozlar va ko'chmas mulk qiymati oshirib yuborilganligiga, nisbatan qattiq boshqariladigan valyuta kurslari saqlanayotganligiga, qisqa muddatli investitsiyalarning o'rinsiz tarzda yirik hajmlari jalb etilayotganligiga e'tiborni qaratmoqdalar. Eng muhimi esa, ular inqiroz boshlangan davlatlarning yuzaga kelgan muammolarga mos tarzda javob qila olmasliklarini, bu esa chet ellik investorlarning vahimaga tushgandek harakat qilishiga sabab bo'lganligini ta'kidlashmoqda. Tashqi va ichki investorlarning faolligiga (shu jumladan, nosog'lom faolligiga) aldangan XVF mazkur mamlakatlarda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining nomukammalligini e'tirof etmoqda.

Institutsional siyosatdagi, shu jumladan, investitsiya siyosatidagi zaruriy o'zgartishlarni inkor etgan holda makroiqtisodiy sohani «da'volash»ga yo'naltirilgan, XVF uchun an'anaviy bo'lgan yangi liberal mafkuraga asoslangan yalpi harakat dasturlari samaradorligi pastligi ham kutilmagan mummolar keltirib chiqardi. Mutlaqo yangi liberal usullar qo'llanilishi (foiz stavkalari oshishi, davlat xarajatlarini kamaytira borish va hokazolar) ishlab chiqarish hajmlari pasayishini, bank sektorida turli muommolarni, import qisqarishi

tufayli tashqi savdo muvozanati buzilishini keltirib chiqardi; muam-moli banklar bankrotligini tezlik bilan e'lon qilishga chaqiriqlar esa, aholi orasida vahima boshlanishiga va jamg'armalarning yalpisiga qaytarib olinishiga sabab bo'ldi.

Tarkibiy buzilishlarni tuzatmay, sanoat siyosatini ishlab chiq-may va izchil amalga oshirmay «makroiqtisodiy barqarorlash-tirish»ga zo'r berish inqirozdan qutulish masalasining cho'zilishiga sabab bo'ldi va bu ko'plab moliyaviy resurslar jalg etishni taqozo qildi va globallashuv davrida iqisodiy tizimlar juda o'zgaruvchan ekanligining yana bir dalili bo'ldi. Jahondagi mavjud iqtisodiy tuzilmaga tub o'zgartishlar kiritish zaruriyati borgan sayin ko'pchilik mutaxassislarga ayon bo'lib bormoqda.

Hozirgi paytda moliyaviy resurslarning nihoyatda yuqori dara-jada mobilligi tufayli mamlakatlar o'rtasida ulkan kapital oqimlari harakati kuzatilmoqda. Shu boisdan moliyaviy sektorda «yangi xal-qaro iqtisodiy va moliyaviy arxitektura»ni qaror toptirish va uni tartibga soluvchi mexanizmlarni isloh qilish jiddiy muammo bo'lib turibdi. Bu muammolar rivojlanayotgan va o'tish davri mamlakatlari uchun ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Ularning ko'pchiligi to'la-qonli bozorlar(«emerging markets»)ni shakllantirish bosqichida bo'lib, ayni shu mamlakatlar yuqorida aytib o'tilgan larzalar tufayli ko'p talafot ko'rdilar.

Yuqorida qayd etib o'tilgan muammolarni hal etish quyidagi savollar javobini izlashni taqozo etadi: real ishlab chiqarishdan mut-laqa ajralib qolgan valyuta-moliya sohasida inqirozlar oldini olish uchun nimalar qilish kerak? Mabodo, inqirozlar muqarrar bo'lsa, ularning qachon boshlanishini qanday qilib o'z vaqtda va aniqroq bashorat qilish mumkin? Inqiroz oqibatlaridan yumshatish va yuksalish yo'liga tezroq qaytish uchun qanday vositalardan foydalanish kerak?

Inqirozga qarshi siyosat yuritishda tartibga soluvchi mexa-nizmlar va moliyaviy soha institutlariga ularning barqarorligini oshirish hamda investor va qarzdorlar uchun tavakkalchilik xatarini kamaytirish jihatidan mulium o'rinn ajratiladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi avj ola boshlagan 2009-yilning o'rtalarida yig'ilgan «Katta yigirmalik» sammiti «yangi xalqaro moliyaviy arxitektura»ga o'z qat'iy qarashlarini bildirgan holda, bu tizim jahon

iqtisodiyotini rivojlantirish manfaatlariga javob berishi, inqirozlar oldini olishga va bozorlarning samarali ishlab turishiga ko‘makkashishi kerak, - degan xulosaga keldi. O’sha sharoitda hamkorlikdagi islohotchilik harakatlarning quyidagi yo‘nalishari taklif qilingan edi:

1. Bosh xalqaro moliyaviy institutlar - Xalqaro valyuta fondi va Jahon bankini mustahkamlash hamda isloh qilish, xalqaro hamkorlik sohasida tegishli chora-tadbirlar ko‘rish;
2. Moliyaviy institutlar va bozorlar ochiq-oydinligini oshirish, bozor subyektlarining sifatli axborot va tavakkalchilikdagi ehtimoliy xatarlarni hisobga olgan holda qarorlar qabul qilishlariga imkon beradigan har qanday harakatlarni rag‘batlantirish;
3. Kredit intizomini mustahkamlashga qaratilgan, kreditorlarni o‘z operatsiyalari bilan bog‘liq, tavakkalchilik xatarlarini puxtaroq chandalab ko‘rishga undaydigan sanoati rivojlangan mamlakatlar moliyaviy tizimlarini tartibga solishni kuchaytirish;
4. Qarz oluvchilari xalqaro moliyaviy tizimga qo‘shilishning ijobiy tomonlaridan foydalanishlarini ta’minlaydigan tarzda makroiqtisodiy siyosatni va bozorlari shakllanayotgan mamlakatlar moliyaviy tizimlarini takomillashtirish;
5. Inqirozlarning oldini olish va ularni boshqarish ishlariga xususiy sektorni ja‘lb etgan qolda ushbu faoliyatni yaxshilash, o‘z tavakkalli harakatlari salbiy oqibatlarining o‘zları uchun muqarrarligini bozor subyektlarining o‘zları payqaydigan sharoitlarni yaratish, moliyaviy bozor «kasallikni yuqtirib olishi» xavfini susaytirish;
6. Kambag‘allar va aholining nochor qatlamlariga qaratilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish.

Jahon moliyaviy tizimini isloh qilishning yuqorida sanab o‘tilgan yo‘nalishlari shuni ko‘rsatmoqdaki uni tartibga solish jarayonida milliy, hududiy va global miqyosda ko‘pdan-ko‘p tuzilmalar va institutlar ishtiroki kerak bo‘ladi. Mazkur masala yechimiga XVE, Jahon banki, shuningdek, Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi va Moliya bozortari ustidan nazorat qilish xalqaro tashkiloti kabi institatlarga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Ularning barchasi chegaralovchi qoidalar va andozalarni, turli kodekslar va deklaratsiyalarni (masalan, «Yaxshi amaliyot kodeksi», «Ochiq-oydinlik prinsiplari

deklaratsiyasi»ni) shakllantirishda muayyan darajada yondashadi. «Ettilik» rahbarlari XVF makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda, moliyaviy inqirozlarning oldini olishda markaziy rol o'ynamog'i lozimligi to'g'risida bayonot berdilar. Ularning fikricha, bu murakkab vazifani bajarish uchun Fond o'z tuzilmasini isloh etishi kerak.

Umuman, yaqin istiqbolda moliyaviy barqarorlikni saqlash va jahon moliya bozorlarida operatsiyalar hajmi va tezligi mustasil oshib borishi tufayli yuzaga keladigan iqtisodiy muammolar va qiyinchiliklar oldini olish uchun yanada samaraliroq harakatlar, shu jumladan, institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi.

3.4 Globallashuv sharoitida xalqaro moliyaviy bozorlar rivojlanishining asosiy xususiyatlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Jahon xo'jaligi globallashuvining zamonaviy bosqichida xalqaro moliyaviy tizim rivojlanishining ziddiyatli jihatlaridan biri unga davlat aralushivining kuchayib borayotganligidir. Ko'pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar hukumatlari o'z moliyaviy tizimlari doirasida foiz stavkalarini chegaralash, majburiy rezerv me'yortarining nisbatan yuqoriligi va kredit taqsimotini markazlashtirish orqali faqatgina milliy iqtisodiyotlarga gagina emas, balki xalqaro moliya tizimiga ham o'z ta'sirlarini o'tkazmoqdalar. Bu albatta, turli darajali xo'jalik subyektlari uchun moliyaviy tizimning jozibadorligini pasaytiradi.

Xalqaro moliya tizimining hozirgi zamon rivojlanish xususiyatlari, unga ta'sir etuvchi omillar va ularning milliy iqtisodiyotga ta'siri oqibatlarini ko'rib chiqamiz.

Jahon moliya tizimi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omillardan biri bu kreditlarni joylashtirish masalalariga davlat aralashivi bo'lib, bunda hukumatlar huquqiy tizimni o'zgartirish va shartnomalarni bajarish intizomini mustahkamlash (mulkiy huquqlarni oydinlashtirish va kredit ta'minoti qonun-qoidalarini takomillashtirish); bank boshqaruvi va nazorati, muxosiblar va auditorlar tayyorlash tizimi va axborotni to'g'ri yoritib berishni

ta'minlashni yaxshilash yo'li bilan kreditorlarning uzoq muddatli sarmoyani taqdîm etish va aksionerlik kapitalini rivojlantirishga bo'lgan manfaatdorligini oshirish imkoniga egadirlar.

Lekin zarur moliyaviy muassasalarni yaratish uzoq muddat va ma'lum mablag'ni talab qiladi va o'z-o'zidan tushunarliki, hukumatlar tezroq natija olishni afzal ko'radilar. Undan tashqari, davlatlar moliyaviy tizim imkoniyatlaridan yuqori ijtimoiy natijalar beruvchi loyihalarga mablag'larni joylashtirish, daromadlarni qayta taqsimlash, davlat korxonalarini qo'llash, cheklangan savdo siyosati va valyuta kurslari tafovutini qoplash kabi qator maqsadlarga erishish uchun foydalanadilar.

Hukumat organlari ko'pincha foiz stavkalari va davlat, hamda xususiy korxonalarga beriladigan kredit ustidan nazoratni amalgalashishga qarab oshirib, maqsadli kredit dasturlari orqali moliyaviy yordam va institusional qo'llab-quvvatlash masalalarini hal etishga urinardilar.

Rivojlangan mamlakatlar hukumatlari ham moliyaviy soha faoliyatiga aralashuv siyosatini o'tkazib, kredit oqimlariga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'ladilar. Lekin foiz stavkalari va kredit ustidan nazorat rivojlanayotgan mamlakatlarga qaraganda unchalik katta emnisbatan past darajada bo'lib, bunda asosiy e'tibor moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlovchi choralarga qaratiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda aksariyat holatlarda davlat nazorati va aralashuvi maqbullik chegarasidan chiqib ketayotganligi kuzatiladi. Bu mamlakatlarning hukumatlari kreditlarni joylashtirish faoliyatida yetakchi o'rinni egallamoqchi bo'ladilar.

Ko'pincha bir mamlakatning o'zida bir vaqtida harakat qiluvchi dasturlar doirasida turli foiz stavkalari, kreditlarni so'ndirish muddatlari va muvofiqlik mezonlari ko'zda tutiladi.

Direktiv kredit dasturlari odatda ko'proq davlat korxonalarini, kichik va o'rta firmalar, sanoat va qishloq xo'jaligining alohida tarmoqlari va kamroq darajada uy-joy qurilishi, eksport tarmoqlari va qoloq hududlarni rivojlantirishga yo'naltiriladi. Sanoatni rivojlanish dasturlarining maqsadi uzoq muddatli arzon sarmoyaclar va horijiy valyuta bilan ta'minlash bo'lib, bunday sarmoyalash jarayoni industrlashtirishni tezlatishga yordam beradi. Qishloq xo'jaligini kreditlashning asosiy maqsadi ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va yangi texnologiyalarni joriy qilishdir. Kichik korxonalarga

betiladigan kreditlar qo'shimcha ish joylari yaratishga va aholining kambag'al qatlamlarini uy-joy bilan ta'minlash maqsadiga yo'naltirilgan. Eksport krediti dasturlari ishlab chiqarish muddati bilan to'lov amalga oshiriladigan vaqt o'rtasidagi uzilishni bartaraf qilib, eksportchilar manfaatini cheklovchi tashqi savdo va tarkibiy siyosatni amalga oshirish natijasida keladigan ularning zararlarini qoplashga yo'naltirilgan.

Ayrim mamlakat hukumatlari ustuvor rivojlantiriladigan tarmoqlar uchun odatdagি kreditlarga o'rnatiladigan foiz stavkalaridan ancha past bo'lgan imtiyozli foiz stavkalari o'rnatadilar (ba'zi hollarda davlat kafolati ostida). Yuqori rivojlangan mamlakatlarda kredit kafolotlari kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning asosiy shakli bo'lib hisoblanadi. Kamerun, Kolumbiya, Hindiston, Janubiy Koreya, Malayziya, Marokko, Nepal, Filippin, Shri-Lanka kabi rivojlanayotgan mamlakatlar kichik va o'rta biznes korxonalari uchun rasmiy kasolotlar tizimini yaratganlar. Braziliya, Hindiston, Meksika, Panama va Shri-lanka kabi mamlakatlarda qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash uchun davlat kafolatlaridan va hosilni davlat tomonidan sug'ortalash faoliyatidan keng foydalaniladi. Bit qator rivojlanayotgan mamlakatlarda tovarni qabul qilib olishdan avvalgi bosqichlarda eksport kreditlarini kafolotlash tizimi mavjud bo'lsa, ayrim mamlakatlar umuman eksport tizimini sug'ortalash tizimini joriy qilganlar.

Moliyaviy tizim va iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi yana bir kuchli omil davlat tomonidan taqdim etiladigan direktiv dasturlar ning mavjudligidir.

Ekspertlar fikricha, yuqori proteksionizmga asoslangan savdo tizimi va makroiqtisodiy barqarorlikka ega bo'lgan mamlakatlar (masalan, Tailand)da direktiv kreditlash mavjud tarkibiy nomutanosibliklar va baho muvozanati buzilishlarini yanada kuchaytiradi. Savdo chekllovlar kamaytirilib, makroiqtisodiy holat barqarorlashganda ko'pchilik kredit olgan korxonalar norentabel bo'lib chiqdi. Baho va boshqa buzilishlar bartaraf qilingan, hamda makroiqtisodiy barqarorlik saqlanib turilgan mamlakatlarda (masalan, Janubiy Koreyada) direktiv kreditlash ko'proq muvaffaqiyat qozondi.

Kreditlashning direktiv dasturlaridan moliyaviy tizimni barqarorlashtirish maqsadida emas, sarmoyalarning yetarli samaradorligi ta'minlanishidan qat'iy nazar, iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish uchun foydalanildi. Lekin iqtisodiy muammolarni yechishning samaradorroq usullari mavjud. Tovar bozorlariga bevosita ta'sir o'tkazish, daromadlarni qayta taqsimlash, qishloq xo'jaligi baholarini isloh qilish, kam daromadlilarga yordam ko'rsatish va boshqa chora-tadbirlar orqali qo'yilgan maqsadlarga erishish va kreditlarni besamar ishlatilishiga chek qo'yish mumkin.

Iqtisodiy o'sish va daromadlar taqsimotiga direktiv kreditlarning ta'siri haqida turli fikrlarning mavjudligiga qaramay, shu narsa ayonki, bunday kreditlash moliyaviy tizimga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Direktiv qarzlarning ko'pchiligi to'lanmagan qarzlarga aylandi. Past foizlar bilan qarz olish imkoniyati nosamarador sarmoyalarni rag'batlantiradi. Ko'pchilik holatlarda daromad me'yori uncha yuqori bo'lмаган loyiҳalar, kreditlarni qaytarish imkoniga ega bo'lmay qoladilar. Mablag'larni noto'g'ri joylashtirish va moliyaviy intizomni buzish moliyaviy vositachilarning besamar faoliyatiga, ba'zi hollarda esa ularning hatto xonavayron bo'lishiga olib keladi. Juda katta hajmdagi past foiz stavkali markazlashtirilgan moliyalash dasturlari mablag'larni safarbar qiluvchi moliyaviy muassasalarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi va moliyaviy vositachilik saviyasining ham pasayishiga olib keladi. Undan tashqari korxonalarini arzon kreditlashga murojaat qilishga rag'batlantirib, direktiv kredit dasturlari qimmatbaho qog'ozlar bozori rivojlanishining sekinlashuviga sabab bo'immoqda.

Pul-kredit siyosatining asosiy vositalaridan bo'lgan majburiy rezerv me'yorlari va davlat qimmatbaho qog'ozlarini majburiy sotish moliya bozoriga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Majburiy rezervlarning yuqori me'yorlarini o'rnatish, agar ular banklar ixtiyoriy ravishda qo'llab turishga rozi bo'lgan darajadan yuqori bo'lsa, pul mablag'larning milliy moliyaviy tizim doirasidan tashqariga oqib ketishiga sabab bo'ladi. Shu o'rinda yana bir muammino rezerv me'yorlarining o'zgaruvchan emasligidir. Majburiy rezerv me'yorlarining o'sishi banklarning normal ishlashini cheklaydi va ulardan qo'shimcha xarajatlar talab qiladi. Ma'lumki, rezerv majburiyatları deb, odatda bozor kurslaridan ancha past

bo'lgan foiz asosida markaziy bankka beriladigan majburiy ssudalarga aytildi. Yana bir yo'nalish, bank, sug'urta kompaniyalari va boshqa muassasalar mablag'larining bir qismini past daromadli davlat obligatsiyalariga joylashtirish tatalbidit. Bunday usul, masalan, Hindiston va Pokistonda yirik byudjet kamomadlarini arzon moliyalash uchun qo'llaniladi. Yuqori rezerv majburiyatlari va past foizli davlat qimmatbaho qog'ozlarini majburan tarqatish xususiy sektorni kreditlash jarayonlariga va umuman moliyaviy vositachilik sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yashirin soliq vositachilik muassasalarining daromadini qisqartiradi, yoki depozitlar bo'yicha past foiz stavkalari yoki yuqori ssuda foizi shaklida jamg'armachilar va qarz oluvchilar zimmasiga yuklatiladi. Masalan, Turkiya va Filippinda qo'llanilgan moliyaviy vositachilikni ochiq soliqqa tortish depozitlar bo'yicha stavkalarning pasayishiga, ssuda foizlarining o'sishiga olib keldi.

Moliyaviy tizim faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar bank foizlari ustidan nazorat va inflyatsiya ko'pchilik mamlakatlarda moliyaviy tizim rivojining sekinchashuviga sabab bo'lmoqda. Hukumatlar qisman investitsiyalarni rag'batlantirish, qisman daromadlarni qayta taqsimlash, hamda o'zları arzon kreditlarga ega bo'lish maqsadida bank foizlarini past darajada ushlab turishga harakat qiladilar. Ularning ko'pchiligi fikricha, depozitlar bo'yicha past foiz stavkalari moliyaviy mablag' jamg'armalarining kamayishiiga olib kelmaydi.

Jahon tajribasi ayrim hollarda mazkur amaliyot noto'g'ri ekanligini ko'rsatdi. Ma'lumki, real foiz stavkalari va inflyatsiya moliyaviy jamg'armalarga katta ta'sir ko'rsatadi hamda moliya jamg'armalarining hajmi va ularning kredit uchun taqdim qilinadigan foiz stavkalari bevosita iqtisodiy o'sish bilan bog'liq.

Inflyatsiyaning real foiz stavkalariga shu tariqa ta'siri tufayli makroiqtisodiy barqarorlik moliyaviy sohani rivojlanТИRISH uchun hayotiy ahamiyatga ega. Muvofiglashtirilgan pul va soliq siyosatini amalga oshirish yo'li bilan past va barqaror inflyatsiya darajasiga erishilgan mamlakatlarda bank foizlari o'rta miyona nazorat qilinsa ham, moliyaviy soha ancha tez rivojlandi.

Sun'iy ravishda pasaytirilgan foiz stavkalari kreditga bo'lgan talabni oshirib yuboradi va bu bilan moliya muassasalarini qarz

berish jarayonlarini kvotalashga majbur qiladi. Faqat juda past foiz stavkali kredit olishga rozi bo'lgan qarz oluvchilarga bu juda qo'll kelishi mumkin. Direktiv kredit dasturlari bilan birgalikda bunday choralar (past foiz stavkani qo'llash) iqtisodiyotda raqobat darajasini susaytiradi. Inflyatsiya, depozitlar bo'yicha past foiz stavkałari siyosati bilan birga kapitalning chiqib ketishiga olib keladi va buning natijasida moliyaviy vositachilar ixtiyoridagi mablag'lar hajmi kamayadi. Lekin norasmiy bozorlarning rivojlanishi foiz stavkalarini boshqarish tadbirlari, hamda nazoratning boshqa turlari salbiy oqibatlarini yumshatadi.

Foiz stavkalari ustidan nazorat kelajakda olinishi mumkin bo'lgan mablag'larning to'lov qobiliyatiga bo'lgan ishonchni pasaytiradi. Foiz stavkalari boshqarilmaydigan sharoitda ham kelajakdag'i inflyatsiya darajasiga ishonchsizlik kreditorlar va qarz oluvchilarning bir birlari bilan maqsadga muvofiq ravishda qat'iy belgilangan nominal foiz stavkalarini kelishib olishga xalaqit beradi. Chunki inflyatsiya darjasasi qanchalik o'zgaruvchan va uzoq muddatli bo'lsa, xavflar ham shuncha yuqori bo'ladi. Argentinaga o'xshagan mamlakatlarda 80-90-yillarda 30 kundan ortiqroqqa berilgan kreditlar favqulodda hodisa deb hisoblanar edi.

Uzoq muddatli va davomli inflyatsiya holatida bo'lgan ba'zi mamlakatlarda, masalan Braziliya, Chili, Kolumbiya va Isroilda, indeksatsiyalanadigan kredit shartnomalaridan foydalanishga ijozat berilgan. Ba'zi mamlakatlar, shu jumladan, Uruguay, Turkiya va Yugoslaviya, indeksatsiyalash o'rniiga xorijiy valyutadagi depozitlar sxemasini joriy etdilar. Bu sxemalar depozitlarni valyuta kursi bo'yicha indeksatsiyalaydilar.

Ba'zi moliyaviy aktivlarning likvidligiga cheklovlar o'matish ya'ni naqd pul aylanmasini cheklash orqali ham moliyaviy tizimga ta'sir ko'rsatish mumkin..

Birinchi navbatda, sobiq sotsialistik mamlakatlarga xos bo'lgan bunday cheklash naqd pul bilan naqd pulsiz mablag'lar qiymati o'rtasidagi tafovutning vujudga kelishiga, hamda mamlakat moliyaviy tizimiga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib keladi. Bunday siyosat natijasida pul massasi tarkibida naqd pul ulushining ko'payishi va bank tizimi moliyaviy mablag'lari hajmining kamayishi yuz beradi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, bunday cheklov sharoitida tijorat

banklarining ortiqcha rezervlari joriy likvidlikni saqlash uchun zarur bo‘lgan darajadan yuqori bo‘lib, banklar daromadlarini pasaytiradi.

Xalqaro moliyaviy tizim faoliyatiga so‘nggi-yillarda kuchli ta’sir ko‘rsatayotgan omil bu rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzları va ulardagi moliyaviy inqirozdir.

So‘nggi vaqtarda xususiy kapital oqimlarining jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati keskin o‘sdi va bu sharoitda, moliyaviy sohaning ochiqligi va erkinligi iqtisodiyot rivoji uchun juda katta foyda olib keladi. Jamg‘armalarni ulardan foydalanishning eng samarador sohalariga yo‘naltirish, kapitalning erkin harakati sarmoyalarning ko‘payishiga, iqtisodiyotning o‘sishiga va pirovard natijada farovonlikka olib keladi. Oqilona amalga oshirilgan va shunday siyosat doirasida, ko‘p yoqlama moliyaviy qo‘llab quvvatlash tizimiga asoslangan moliya oqimlarini erkinlashtirish amaliyoti, moliya bozorlarining globallashuvi sharoitida samaradorlik bilan faoliyat ko‘rsatayotgan milliy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi.

Lotin Amerikasi va Osiyo mamlakatlari tajribasidan shunday xulosa chiqarish mumkinki, moliya mablag‘lari erkin harakatining kuchayish yo‘nalishi saqlanib qoladi. Muhim masala moliya oqimlarini erkinlashtirish qachon, qanday qilib va qanday shart-sharoitlarda amalga oshirilishini hal etishdir.

Osiyo moliya inqirozi tartiblashtirilgan va maqsadga muvofiq ketma-ketlikda amalga oshiriladigan moliya oqimlarini erkinlashtirish jarayonlarining muhimligini, tegishli makroiqtisodiy va valyuta siyosatini olib borish zaruratini, hamda moliyaviy sohaning iqtisodiyotning rivojlanishidagi hal qiluvchi ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi.

Indoneziya, Koreya va Tailand kabi davlatlar o‘z moliyaviy sohalarining zaifligi, ya’ni moliyaviy muassasalarining xavflarni baholash va ularni boshqarish imkoniyatlarining cheklanganligi, huquqiy nazorating yetarli emasligi, kapital harakatini erkinlashtirish choralarining betartib amalga oshirilgani tufayli katta talafot ko‘rdilar.

Kapital harakatini erkinlashtirish siyosati amalga oshirilayotgan sharoitda yana bir muhim masalalardan biri davlat byudjeti va valyuta rezeylarining joriy holatidir. Agar xususiy sektor davlat

moliyasining zaifligini his etsa, bu holat kapitalning tashqariga oqib ketishiga va ayirboshlash kurslarining keskin o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan, 80-yillarda Meksikada qarzlarni qaytarib beroimmaslik tanazzul holati, mamlakat 1982-yilning ikkinchi yarmida valyuta rezervlarini deyarli tugatgandan so'ng sodir bo'ldi. Bunday holat 80-yillarning boshlarida qoplash imkoni bo'limagan salmoqli byudjet kamomadi va byudjet ustidan nazorat yo'qotilganligi natijasida vujudga keldi.

Shunday qilib milliy moliya tizimini shakllantirish va rivoj-tantirishda yuqorida sanab o'tilgan omillar albatta inobatga olinib, ular ayniqsa bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatiarda moliyaviy islohotlarni o'tkazishda maqsadga muvofiq ravishda foydalanishi kerak.

Tayanch iboralar: moliyaviy tizim, offshor zonalar, trans-milliy banklar, moliyaviy bozor, moliyaviy resurslar, jahon moliya resurslari derivativlari, jahon moliya bozori, investitsiya, jamg'arma, kredit.

Nazorat savollari:

1. Jahon moliya tizimi globallashuvining mohiyatini, ijobiy va salbiy jihatlarini tavsiflang.
2. Global moliyaviy – iqtisodiy inqiroz boshlanishi va avj olishida jahon moliyaviy tizimining o'rni qanday?
3. Globallashuv sharoitida jahon moliyaviy tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarini tavsiflab bering.
4. Globallashuvning zamонавиy bosqichida milliy moliya tizimini shakllantirish va rivojlantirishda qanday omillar inobatga olinishi kerak?

IV BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK

Hozirgi zamон jahon xo'jaligining globallashuvi sharoitida aksariyat davlatlarda, xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan «bozor» islohotlari nafaqat ular milliy iqtisodiyotlarining ildam rivojlanishi va barqarorligini ta'minlashi, balki pirovard natijada har bir mamlakat milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi zarur.

Ma'lumki, xavfsizlik tushunchasi o'z ichiga siyosiy xavfsizlik, harbiy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, sanoat xavfsizligi, ekologik xavfsizlik, ijtimoiy xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik va boshqa sohalardagi xavfsizlik masalalarini qamrab oladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, mamlakat xavfsizligini ta'minlashda faqat harbiy salohiyatni mustahkamlash bilangina chegaralanib qolmay, keyingi paytlarda xavfsizlikning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa jihatlarini o'z ichiga oladigan keng qamrovli faoliyat ekanligini anglash ancha kuchaydi. Mazkur masala yechimiga tizimli yondashgan holda, shuni ta'kidlash joizki, sanab o'tilgan yo'naliishlar o'zaro bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldirib turadi. Shu bilan birga, ular erasida «asosiy va hal qiluvchi» rol iqtisodiy xavfsizlikka tegishlidir. Unga mamlakat aholisining normal darajada hayot kechirishini va milliy iqtisodiyotni barqaror holda resurslar bilan hamda davlat manfaatlarini har tomonlama to'liq ta'minlovchi xo'jalik tizimining muhim sifat tavsifi sifatida qaraladi.

Iqtisodiy xavfsizlikning obyekti shaxs, tabiiy-iqtisodiy salohiyat, suverenitet, hududiy yaxlitlik, davlat va iqtisodiyot boshqaruvi tizimlari hisoblanadi. Uning subyekti qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatini namoyon qiluvchi davlatdir.

Iqtisodiy xavfsizlik asosida rivojlanish va rivojlanishning barqarorligini ta'minlovchi muhitni tashkil etuvchi omillar yotadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'naliishlari milliy manfaatlar, real va potensial xavflarga bog'liq ravishda aniqlanadi.

Mustaqil O'zbekistonning milliy va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash: davlatning bo'linmasligi, chegaralarning daxlsizligi, geosiyosiy mavqei, terrorizm, narkobiznes va qurol-yarog'ning noqonuniy savdosiga umuman yo'l qo'yilmaslik, inson huquqi, milliy yetukligi va mamlakatni jahon hamda mintaqaviy xavfsizlik tizimida faol ishtiroki, ekologik va yadroviy xavfsizlikka alohida e'tibor berilishi, siyosiy ekstremizm va diniy niqob olgan millat-chilik, korrupsiya va boshqa jinoiy xatti-harakatlarga qarshi murosasiz kurash kabi tamoyillarga asoslanganligini e'tirof etish joizdir.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning uzviy elementlaridan biri bo'lib, u mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini kafolatli ta'minlash yo'li, vositasi va usullari yig'indisidir. Konseptual jihatdan iqtisodiy xavfsizlik davlatning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatidan kelib chiqadigan milliy xavfsizlikning quyidagi: iqtisodiy, tabiiy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnologik, ijtimoiy-demografik, etnografik-iqtisodiy, informatsion-axborot va harbiy-siyosiy omillar tahliliga asoslanadi.

Rivojlangan mamlakatlardan amaliyoti shundan dalolat beradiki, iqtisodiy xavfsizlikning ta'minlanishi davlat mustaqilligi, uning barqaror rivojlanishi garovidir. Bu avvalambor iqtisodiyot-jamiyat, davlat va shaxs faoliyatidagi muhim omil ekanligi bilan izohlanadi. Shu munosabat bilan milliy xavfsizlik mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining samaradorlik darajasi, uning mumkin bo'lgan tashqi va ichki tahdidlar oldida mustahkam rivojlanishi imkoniyatlariga bog'liq holda aniqlanadi. Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi milliy manfaatlarning ustuvor yo'nalishlari sirasiga kirishi bejiz emas.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimning muhim sifat jihatni deb qaraladi va u asosan, quyidagi uchta o'zaro bog'langan muammolarni hal etishga qaratilgan:

1. yetarli darajada va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
2. ijtimoiy iste'molni samarali qondirish;
3. ichki va tashqi tahidlardan davlat, jamiyat va shaxsning iqtisodiy manfaatlarini milliy va xalqaro darajada himoya qilish.

Mutaxassislar tomonidan ta'kidlanishicha, iqtisodiy xavfsizlik mohiyatining ochib berilishida, uning quyidagi tushunchalar bilan chambarchas bog'liqligini anglash muhimdir.

1. Iqtisodiy mustaqillik. Ma'lumki, iqtisodiy mustaqillik mutlaq xarakterga ega emasdir. Chunonchi, xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi milliy iqtisodiyotlarning bir-biriga bog'liq holda rivojlanishini taqozo etadi. Globallashuv sharoitida iqtisodiy mustaqillik milliy resurslar ustidan nazorat qilish va mamlakatning jahon savdosida teng huquqli ishtirokini ta'minlay oладиган raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy aloqalar samaradorligiga erishish, hamda ilmiy-texnik yutuqlarini ayirboshlash darajasiga erishilishini anglatadi.

2. Milliy iqtisodiyotning barqarorligi va muqimliligi. Bu mulk-chilikning barcha shakllarini himoya qilish, tadbirkorlik faoliyati uchun ishonchli shart-sharoitlar va kafolatlar tizimini taqdim etish, ichki vaziyatni nobarqarorlashtiruvchi (milliy iqtisodiyotda jinoiy tuzilmalarga qarshi kurash, aholi daromadlari o'rtasida keskin farqlanishlarning oldini olish va h.k) omillarning oldini olish kabi xatti-harakatlar majmuidir.

3. O'zini-o'zi rivojlantirish va taraqqiyotga molikligi. Inwestitsiya va innovatsiyalar uchun maqbul muhitni yaratish, ishlab chiqarishni doimiy tarzda modernizatsiyalashtirish, xodimlarning professional, ta'lim va ma'naviy-madaniy darajasini ko'tarish, ushbu holatga erishish omillari sirasini tashkil etadi.

Demak, yuqoridaqilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki jahon xo'jaligi globallashuvining zamonaviy bosqichida iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqaror va mutanosib rivojlanishi, doimiy tarzda innovatsiyalar asosida yan-gilanib-modernizatsiyalashib borishga qodirligini ta'minlovchi shart-sharoit va omillar yig'indisidan iboratdir.

Ma'lumki, iqtisodiy xavfsizlik darajasi bir qator mezonlar va ko'rsatkichlar tizimi orqali aniqlanadi. Iqtisodiy xavfsizlik mezonini belgilash - bu iqtisodiy xavfsizlik mohiyatini aks ettiruvchi muhim jarayonlar nuqtayi nazaridan milliy iqtisodiyot holatini baholash demakdir. Uning mezonlari sirasiga-mavjud resurslar salohiyati va ularni kengaytirish imkoniyatlari, mamlakat iqtisodiyotining milliy va xalqaro raqobatbardoshligi, hududiy va ishlab chiqaruvchi makonning yaxlitliligi, tashqi tahdidlar oldini olish va ularga bardosh bera olish imkoniyatlari, ijtimoiy barqarorlik va ijtimoiy ziddiyatlarni oldini olish va hal etish kabilalar kiradi.

Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari tizimi quyidagilarni o'z ichiga oлади:

iqtisodiy o'sish (milliy ishlab chiqarish va milliy daromad dinamikasi va tarkibi, sanoat ishlab chiqarish hajmlari va o'sish sur'atlari milliy ko'rsatkichlari, xo'jalikning tarmoq tuzilmasi va alohida tarmoqlar dinamikasi, kapital qo'yilmalar va boshqalar);

mamlakatning tabiiy-resurs, ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy salohiyati ko'rsatkichlari;

xo'jalik mexanizmining jo'shqinligi va moslashuvchanligi, hamda uning ichki va tashqi omillari inflyatsiya darajasi, byudjet va to'lov balansi holati milliy valyutaning barqarorligi, ichki va tashqi qarz ko'rsatkichlari;

hayot darajasi (YalMning aholi jon boshiga ulushi, aholi qatlamlari bo'yicha daromadlarning differensiatsiyalashuv darajasi, aholining moddiy ta'minot va xizmatlar bilan ta'minlanganligi, aholining mehnatga layoqatliligi, atrof-muhitning holati va boshqalar) ko'rsatkichlari.

Xulosa o'mida shuni aytish mumkinki, iqtisodiy xavfsizlik- bu davlatning jamiyat ehtiyojlarini milliy va xalqaro darajalarda samarali ta'minlashga qodirlik darajasidir. U milliy iqtisodiyotning samarali dinamik ravishda o'sishi, jamiyat, davlat, individ ehtiyojlarini qondirishi, ichki va tashqi bozorlarda turli tahdidlardan kafolatlovchi, raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi barcha shart-sharoitlar majmuidir.

O'zbekistonda keng ko'lama olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va bozor munosabatlariga o'tish jarayonlari globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotimiz xavfsizligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratish kerakligini taqozo etmoqda. Chunonchi, hech bir davlat o'zining barqaror taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy o'sishiga o'z milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlamasdan erisha olmaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, iqtisodiy xavfsizlik masalalari sirasiga kiruvchi, uning komponentlaridan biri hisoblangan tashqi iqtisodiy faoliyat xavfsizligi hozirda xo'jalik munosabatlarining globallashuvi jarayonida alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, har bir davlatning iqtisodiy mustaqilligi, uning aholisi turmushji farovonligi ko'p jihatdan uning tashqi iqtisodiy

aloqalarining rivojlanganligi, tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligining asosi bo'lgan ishlab chiqarish va ilm-fan tizimining muvofiqlashtirilganligi bilan o'chanadi. Shulardan kelib chiqib, keyingi o'rinda asosiy e'tibor iqtisodiy xavfsizlikning innovatsiya omiliga, intellektual mulkni muhofazalash tizimini takomillashtirish masalalariga qaratiladi.

Tayanch iboralar: milliy xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik tamoyillari, iqtisodiy xavfsizlik mezoni, iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatgichlari tizimi, iqtisodiy xavfsizlik obyekti va subyekti.

Nazorat savollari

1. Milliy va iqtisodiy xavfsizlik va uni ta'minlash tushunchalarining asosiy maqsadi va mohiyati nimada?
2. Globallashuv sharoitida O'zbekiston milliy iqtisodiyotining xavfsizligi qanday tamoyillarga asoslanadi?
3. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash qaysi masalalar yechimini hal etishga qaratilgan?
4. Iqtisodiy xavfsizlik darajasini aniqlovchi mezon va ko'rsatgichlar tizimiga tavsif bering.

V BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY XO'JALIKLARNING INNOVATSION RIVOJLANISH ZARURATI VA TENDENSIYALARI

5.1 Hozirgi davrda milliy innovatsion tizimni yaratish va takomillashtirishning konceptual asoslari

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida innovatsiyalar omili ko‘p jihatdan mamlakatlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini belgilab bermoqda va iqtisodiy o‘sishning ustuvor manbara aylanmoqda.

Globallashuv innovatsiyalar hozirgi zamон bozor iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omiliga aylantirib nafaqat milliy xo‘jaliklar chegarasida, balki xalqaro miqyosda – intellektual mulk munosabatlarning o‘rnatalishi va rivojlanishiga, ilm talab tovarlar ishlab chiqarish va ayirboshlashga qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Bu, o‘z navbatida, innovatsion salohiyatga ega bo‘lgan mamlakatlar iqtisodiyotlari bilan bir qatorda, o‘zlashtirilgan innovatsiyalarni moslashtira oladigan va ularidan samarali foydalanadigan milliy iqtisodiyotlarning ham barqaror rivojlanishi uchun muhim ustuvorliklar yaratmoqda.

Intellektual mulk munosabatlari obyektlar, subyektlar va jaryonlar o‘rtasida murakkab bog‘lanishlarni o‘z ichiga oladi hamda boshqarishning muvofiqlashtirilgan mexanizmlarini va alohida tartibga solish tizimini talab qiladi. Ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti ko‘rsatishiga, intellektual mulk huquqlari sohasidagi hozirgi zamон global siyosat afsuski, tor yuridik xarakterga ega va milliy rivojlanish xususiyatlarini inobatga olmaydi. Bundan tashqari, u texnologiyalarning «sof» importeri bo‘lgan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ma’lum darajada to‘sqinlik qilishi ham mumkin. Mazkur muammolarga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarda intellektual mulk huquqlarini himoyalashning mavjud qoida va usullari bir tomonidan innovatsiyalarni rag‘batlantirish va boshqa tomonidan bilimiardan foydalanish

darajasini kengaytirish o'rtasidagi muvozanatni qay darajada ta'minlashi kerakligi nuqtayi nazaridan yetarli darajada yoritilgan bo'lsada, mavzu doirasida intellektual mulk munosabatlarining iqtisodiy mohiyatini batafsilroq ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining xalqaro intellektual mulk munosabatlarida ishtirokini kengaytirish, xalqaro tajriba asosida ushbu mamlakatlar intellektual mulk muhofazasi tizimini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalam bor, milliy innovatsion tizim, ilmiy-texnikaviy va intellektual faoliyatning asosiy metodologik tushunchalari mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratsak.

So'nggi vaqtarda ilmiy va o'quv-uslubiy risolalarda «fan-texnika taraqqiyoti», «fan-texnika inqilobi», «ilmiy-texnikaviy salohiyat», «innovatsiyalar», «intellektual mulk» va boshqa bir qator atamalarga o'rin berilmoqda.

Fan-texnika taraqqiyoti asosan ikkita talqinga ega. Birinchidan, bu – bozor iqtisodyotining uzviy tarkibiy elementi bo'lib, uning asosida ijtimoiy ishlab chiqarishning davomiy intensifikatsiyalashuvi va samaradorligining oshishi sodir bo'ladi. Ikkinchidan esa, bu - asosiy texnologiyalar va texnika yo'nalishlarini ketma-ket (evolyutsion yoki revolyutsion tarzda) almashtirish, ilg'or texnika va ishlab chiqarishning yangi ushublarini yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosi bo'lgan moddiy ne'matlar (mahsulotlar va xizmatlar)ning yangilarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish ko'rinishidagi ilmiy ixtiolar bazasida fan va texnikaning yagona o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladigan rivojlanish jarayonidir.

Fan-texnika taraqqiyoti o'z navbatida ikkita tashkiliy qismdan iborat – fan taraqqiyoti va texnika taraqqiyoti. Fan taraqqiyoti – fundamental fan tomonidan yaratiladigan, olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan – ixtirolardir. Ular uncha ko'p emas, chamasi 100 nafar atrofida, va ular amaliy fanlar rivojlanishiga katta turki bo'lib, sivilizatsiya rivojiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdilar.

Texnik taraqqiyot – texnikaning ilgarilab rivojlanishidir. Ishlab chiqarish texnik bazasi rivojlanishining ikki bosqichini ajratish mumkin: 1- texnikani an'anaviy takomillashtirish; 2- texnikaning

sifat jihatdan yangicha rivojlanishi. Agar birinchi bosqichda mehnat unumdarligi 2-3 martaga oshsa, ikkinchi bosqichda – mashinalarning kombinatsiyalashtirilgan tizimini tadbiq etishda 10-15 martaga, fundamental fanning yutuqlari va ixtiolariga asoslangan texnologik tizimlar joriy qilinganda 50-80 martaga ortadi.

Texnologik taraqqiyot – ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi mehnat ashyolariga ta'sir usullaridagi o'zgarishlar bo'lib, bunda samaradorlik bir necha martaga ortadi.

Fan – texnika taraqqiyoti ikki yo'naliishda: birinchidan, ilmiy-texnikaviy faoliyat ko'rinishida; ikkinchidan, ishlab chiqarishda yangiliklar ustuvorligini va ularni milliy xo'jalikda keng tadbiq etishni ta'minlovchi, ma'lum ishlab chiqarishlarni rivojlantirish va iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish shaklida amalga oshiriladi.

Fan – texnika taraqqiyoti birinchi navbatda ishlab chiqarish sohasiga – mehnat vositalari va predmetlari, texnologiyalarni va ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirishga ta'sir ko'rsatadi. Milliy xo'jalikdagi fan-texnika taraqqiyotining sur'atlari ko'p jihatdan iqtisodiy tizimning yangiliklar ta'sirchanligiga bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik mexanizmining xususiyatlari bilan belgilanadi. Har qanday ijtimoiy jarayon kabi fan-texnika taraqqiyoti ham ma'lum qonuniyatlarga ega va unga turli darajada maqsadli ta'sir ko'rsatilishi, mumkin. Bundan har qanday mamlakat hukumatining faol tarkibiy va innovatsion siyosati naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi kelib chiqadi va bu bir martalik amalga oshiriladigan tadbir emas, balki turli shakldagi tadbirkorlikning butun innovatsion bazasini optimal rivojlantirish va aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyat ko'rsatishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlatning faol tartibga solish siyosati doirasida doimiy amalga oshiriladigan jarayon sifatida tushuniladi.

Fan-texnika taraqqiyotini tavsiylovchi ko'rsatkichlar tizimi fantexnika salohiyati parametrlarini belgilovchi resurs (miqdoriy) ko'rsatkichlardan, hamda ilmiy-texnikaviy salohiyatdan foydalanish darajasini, texnikaning yangi namunalarini yaratishda ilmiy ixtirolardan samarali foydalilanlayotganligini baholash imkonini beruvchi natijaviy (sifat) ko'rsatkichlardan tashkil topgan.

Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida uning ko‘lami va sifati bir qator omillar, ya’ni: fan rivojiga qilinayotgan xarajatlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatining samaradorligi, umuman ilmiy xodimlarning soni va ilmiy darajasi, fan-texnika taraqqiyotini boshqarish shakllari va usullari va boshqalar bilan belgilanadi. Mazkur omillar fan-texnika taraqqiyotiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi va bu, birinchi navbatda, ushbu sohaga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar ko‘tamiga bog‘liq. Shuning uchun ilmiy-tadqiqot-tajriba konstruktorlik ish(ITTKit)larini moliyalashtirish tizimini takomillashturishga ko‘pchilik mamlakatlarda katta ahamiyat beriladi.

Milliy ilmiy-texnikaviy salohiyat ilmiy ixtiolar va texnologik yangiliklar yaratishga shuningdek, ilm-fan sohasi oldiga qo‘yiladigan milliy va xalqaro muammolarni yechishga qaratilgan har bir mamlakat tasarruffidagi mavjud resurslar majmuasidan iborat.

Ilm-fan sohasi ilmiy-tadqiqot faoliyatini (tadqiqotlar va izlanishlar) amalga oshiruvchi tashkilotlar yig‘indisi bo‘lib, ular asosan yangi bilimlarni olish va ularni qo‘llashga yo‘naltirilgan faoliyat olib boradilar. Ilmiy faoliyat o‘z navbatida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar yo‘nalishiga bo‘linadi.

Fundamental ilmiy tadqiqotlar – atrof tabiiy muhit tuzilishi, jamiyat, inson taraqqiyotining ko‘rsatishi asosiy qonuniyatları haqida bilim olishga yo‘naltirilgan eksperimental yoki nazariy faoliyatdir. Amaliy ilmiy tadqiqotlar - aniq maqsadlarga erishish va amaliy masalalarni hal etish uchun yangi bilimlarni qo‘llashga qaratilgan faoliyatdir.

Mavjud xalqaro statistikada fan sohasi holati va rivojlanishini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar va tavsiflarga quyidagilar kiradi:

- aholi jon boshi hisobiga, yalpi milliy malisulot (YaMM) va davlat byudjetiga nisbatan foizda ITTKIga xarajatlar absolyut ko‘rsatkichda:

- «fan va ilmiy xizmat ko‘rsatish» tarmog‘ining oraliq xarajatlari, foyda va qo‘shimcha qiymati;

- fan va ilmiy xizmat ko‘rsatish, shu jumladan fanning akademik institutlari, oliy o‘quv yurtlari, tarmoq, korxona kabi sohalarida tadqiqotlar va izlanishlar bilan bandlarning soni va tarkibi;

- ro‘yxatga olingan ixtiolar va yangiliklar (patentlar, ilg‘or texnologiyalar va h.k.) soni.

Fan sohasi faoliyatining bevosita natijalariga qo'shimcha qiyomat (yoki YaMM), «fan va ilmiy xizmat ko'rsatish» tarmog'inining foydasi va yalpi ishlab chiqarishi kiradi.

Ilmiy-texnikaviy faoliyat – texnologik, muhandislik, iqtisodiy, ijtimoiy, gumanitar va boshqa muammolarni yechish, fan, texnika va ishlab chiqarishni yagona tizim sifatida faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun yangi bilimlarni olish va ularni qo'llashga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalariga ixtirolarga patentlar va texnik xarakterga ega nou-xau, shuningdek ular asosida yaratilgan va o'zlashtirilgan mashina, uskuna va apparatlar yangi tiplarining namunalari kiradi.

Ixtiro patenti (bundan keyin «patent» deb yuritiladi) ixtironing yangiligini, ixtirolik darajasini, uning haqiqiyligini va patent ega-sining ixtiroga egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etishga doir mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjatdir.

Nou-xau – o'z ichiga u yoki bu turdag'i (korxona faoliyatida qo'llaniladigan) ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan, lekin patentlanmagan, qo'llanilishi egalariga ma'lum afzalliklarni (foyda yoki daromad keltiradigan) ta'minlaydigan, texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ma'muriy-boshqarish, tijorat va moliyaviy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, to'liq yoki qisman konfidensial bilimlar majmuasidir.

Mashina, uskuna va apparatlarning yaratilgan va o'zlashtirilgan yangi namunalari miqdori va ularga sarflangan xarajatlar ham ilmiy-texnikaviy, ham innovatsion faoliyatga bir xil darajada tegishlidir.

Ushbu ko'rsatkichlar ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini aks ettirib, bir vaqtning o'zida ularning ishlab chiqarishga tadbiq etish salohiyatini belgilab beradi. Bu ma'noda ular ilmiy-texnikaviydan innovatsion faoliyatga o'tish jarayonini belgilab beradi. Litsenziya shartnomasi intellektual mulk obyekti sifatidagi ilmiy-texnikaviy natijadan muddatli-manfaatli foydalanish huquqining topshirilishini ifodalaydi.

Intellektual mulk – fuqaro yoki yuridik shaxsning ilmiy, adabiy, badiiy, sanoat sohalaridagi ijodiy faoliyatni natijalariga

mualliflik va boshqa huquqlarini qamrab oluvchi yuridik tushuncha bo'lib, quyidagi huquqlarni ifodalash uchun qo'llaniladi:

- adabiyot, san'at, fan va texnika, masalan, ITTKI sohasidagi, shuningdek ijodning boshqa sohalaridagi intellektual (ijodiy) faoliyat natijalariga;

- xo'jalik (fuqarolik) oborotining ishtirokchisi bo'lgan yuridik shaxsn ni individullashtirish, mahsulot, bajarilayotgan ishlar, tovarlar yoki xizmatlarni individuallashtirish vositalariga (firma nomi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va h.k.);

- g'irrom raqobatdan muhofazalanishga qaratilgan huquqlar.

Intellektual mulk obyektlariga mavjud shaklda ifodalangan va moddiy tashuvchilarda belgilangan intellektual faoliyat natijalari (asarlar) kiradi.

Ilmiy va (yoki) ilmiy-texnikaviy natija – o'z ichiga yangi bilimlar yoki yechimlarni olgan va har qanday axborot tashuvchi aks ettirilgan ilmiy va (yoki) ilmiy-texnikaviy faoliyatning intellektual mahsulidir.

Ilmiy va (yoki) ilmiy-texnikaviy mahsulot – ilmiy va (yoki) ilmiy-texnikaviy natija, shu jumladan, sotish uchun mo'ljallangan intellektual faoliyat natijasidir, ya'ni bu bozorga «chiqarilgan» intellektual mahsulot. Intellektual mahsulotlarning bozorda sotish uchun mo'ljallanmagan qismi ilmiy-texnikaviy mahsulot tushunchasiga kiritilmaydi.

Fan sig'imli mahsulot – tovarning umumiyl sotilish qiymatida ITTKIga ajratilgan xarajatlarning ulushi 2,5 foizdan kam bo'limgan mahsulotdir. Fan sig'imli iqtisodning afzalligi quyidagilardan iborat:

— resurs (xomashyo) va energiya sig'iminining pastligi, demak o'tkir ekologik muammolarning yo'qligi;

— aholi ijtimoiy-madaniy darajasining ko'tarilishiga olib keluvchi mahsulotning yuqori ilmiy salohiyatliligi;

— aholining yuqori turmush darajasini ta'minlaydigan ishlab chiqarish samaradorligining oshib borishi.

Yuqori texnologik tovarlar - umumiyl sotilish qiymatida ITTKIga ajratilgan xarajatlarning ulushi 3,5 foizdan yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan mahsulotdir.

Shuni ta'kidlash joizki, intellektual mahsulotlar bozoriga chiqish hamma vaqt ham ularning ishlab chiqarishda yoki ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etishi va katta o'zgarishlarga olib kelishini anglatmaydi. Ularning ma'lum qismi bozorda sotimay qolishi va ularga ehtiyoj paydo bo'lmasligi ham mumkin. Yana bir ma'lum qismi esa boshqa intellektual mahsulotlarni yaratishda qo'llanilishi mumkin va xuddi shunday amaliyotda foydalanilmasligi mumkin. Bundan tashqari, ishlab chiqarish tarmoqlariga kelib tushgan ba'zi intellektual mahsulotlar ham ma'naviy eskirishi, raqobatbardosh emasligi, o'ta murakkabligi, ishlab chiqarishning uni o'zlashtirishga yetarlicha tayyor emasligi va boshqa sabablarga ko'ra amaliyotda ishlatalmay qolishi mumkin. Intellektual mahsulotlarning ma'lum qismigina ishlab chiqarishda qo'llaniladi, moddiylashtiriladi va ma'lum samarani ta'minlaydi.

Innovatsiya sohasi innovatsiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar majmuasi bo'lib, mazkur faoliyatga konstruktorlik ishlanmalar, tajriba namunalarini tayyorlash, yangi mashinalar, uskunalar, apparatlar va h.k. namunalarini sinash va sanoatda o'zlashtirish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish kabilar kiradi.

XX asrning 60-yillarida innovatsiya sohasi ilmiy-texnikaviy rivojlanishning jadallahuvi tufayli bir qator olimlar tomonidan izchil o'rjanila boshlandi. Ushbu tadqiqotlarning asosiy yo'nalishi Y.Shumpeter konsepsiysi bo'yicha olib borildi. Uning asosida ilmiy-texnikaviy va innovatsiyaviy jarayonning asosiy tavsiflari ishlab chiqildi.

Texnika va texnologiyalarda innovatsiyaga asoslangan o'zgarishlarni tayyorlash va izchillik bilan amalga oshirish – ilmiy-texnikaviy innovatsiyaviy jarayon deb ataladi.

Texnik-texnologik yangiliklarda innovatsion jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: «ilm», «tadqiqot», «ishlanma», «ishlab chiqarish», «bozorga chiqarish va iste'mol».

«ilm» bosqichi u yoki bu sohalardagi fundamental tadqiqotlarni qamrab oladi va mavjud muammoni hal etishga umumnazariy yoki konseptual yondashuv ishlab chiqish bilan tavsiflanadi.

«Tadqiqot» bosqichi amaliy-nazariy tadqiqotlarni, eksperimental tadqiqotlar va tekshirishlarni, eksperimental modellar yaratishni nazarda tutadi.

«Ishlanma» bosqichida namuna ko'rnishidagi mahsulotning texnik tavsiflarini aniqlash, uni loyihalash va ushbu mahsulot ishlab chiqarishni texnologik ta'minlash sodir bo'ladi.

«Ishlab chiqarish» bosqichida ushbu mahsulot ishlab chiqarishga tayyorgarlik ko'rish operatsiyalarining barcha majmui, shu jumladan, moddiy-texnika ta'minoti, ishlab chiqarishning o'zlashtirilgan qismini boshqarish, tayyor mahsulotni sotish amalga oshiriladi.

«Bozorga chiqarish va iste'mol» bosqichida yangilikning mahsulot yoki xizmat ko'rnishidagi sotilishi va uning iste'molchi tomonidan foydalanilishi, shu jumladan, o'rnatilgan muddatdagi kafolatli xizmat ko'rsatish sodir bo'ladi.

Innovatika nazariyasida innovatsion jarayon innovatsiyaviy faoliyat bo'yicha ishlar majmuasi bilan belgilanib, bu ishlar yangi innovatsion mahsulot (texnologiyalar, texnika, yangi mahsulotlar yoki xizmatlar) yaratish, ularni raqobat sharoitida tijoratlashtirish uchun tashkil etish va resurs bilan ta'minlash bosqichlari bilan tartibga solinadi.

Innovatsion jarayon (umumiy holda) – bu ma'lum ijtimoiy mohiyatga ega bo'lgan va muhim ijtimoiy o'zgarishlarga olib keladigan iqtisod, ijtimoiy, siyosiy va inson hayot faoliyatining boshqa sohalarida ulkan yangi o'zgarishlarni tayyorlash va asta sekin amalga oshirish jarayoni bo'lib, intellektual mahsulot hayotiy siklining o'zgarib borish bosqichlari ko'rnishida sodir bo'ladi va bir vaqtning o'zida qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar manbaidir.

Ishlab chiqarish sohasiga tadbiq etilgan va unda katta o'zgarishlarga sabab bo'lgan intellektual mahsulotlar-innovatsiyalar (yangiliklar) deb tavsiflanishi mumkin.

Innovatsiya – ishlab chiqarish jarayonining yangi ilmiy g'oyalilar, texnik yechimlar, texnologik jarayonlar, xom ashyo va material-larning yangi turlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan texnik va texnologik jihatdan o'zgarishini tavsiflovchi atamadir. Innovatsiya konsepsiyasining asoschisi avstriyalik olim Y.Shumpeter o'zining «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» (1911 y.) asarida innovatikaning

bir qator qonuniyatlarini (nazariy tadqiqotlar va ishlab chiqarish, fundamental nazariyalar va amaliy tadqiqotlar o'rtasida bog'liqlikning mavjudligini) ochib berdi, texnik-texnologik o'zgarishlar jarayonida qisqa va uzoq muddatli munosabatlarni belgiladi, yangiliklarning to'planishi va tarqalishi shart-sharoitlarini aniqladi, yangiliklardan foydalanishga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni ta'riflab berdi.

Biroq «innovatsiya» atamasi texnik-texnologik o'zgarishlar bilangina cheklanib qolmaydi. Y.Shumpeter ushbu iboraga ancha keng ijtimoiy mazmun bergan. Uning fikricha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim vositasi bo'lib, texnik-texnologik yangiliklar ma'lum iqtisodiy oqibatlarga sabab bo'ladilar, bozorlar uchun kurashni rag'batlantiradilar, raqobat muhitini o'zgartiradilar va bu bilan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlaydilar.

Innovatikaga bundan ko'ra kengroq yondashuvni amerikalik iqtisodchi va sotsiolog, boshqarish bo'yicha mutaxassis P.Druker namoyish qildiki, unga ko'ra innovatsiya – texnikaviydan ko'ra ko'proq iqtisodiy va ijtimoiy tushunchadir, chunki texnik-texnikaviy yangiliklar holatida ham iste'molchi resurslardan oladigan qiymat va iste'mol sifatlari o'zgaradi, yangiliklarning o'zi esa, tadbirkorlarning ilg'or vositasi bo'lib, uning yordamida biznes yoki xizmatlarning yangi turi amalga oshiriladi.

Venger iqtisodchisi va sotsiologi B.Santo ham yangiliklarni aynan shu yo'nalishda tadqiq qildi, uning fikricha innovatsiyalar shunday ijtimoiy, texnikaviy, iqtisodiy jarayonki, g'oyalar va ixtirolardan unumli foydalanish xossalari ancha yaxshilangan mahsulotlar va texnologiyalar yaratilishiga olib keladi.

Shuni ta'kidlash joizki, innovatsiyalarga ehtiyoj ijtimoiy va ishlab chiqarish tuzilmalari (tashkilotlari) faoliyatlarining turli shakllarida vujudga keladi. Yangiliklar faqat texnologik xususiyatga ega bo'lishi, boshqarish tizimini modernizatsiyalashga tegishli bo'lishi, tashkilotning tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir mexanizmini yangilash bilan bog'liq bo'lishi mumkin va bu o'z navbatida tashkilot faoliyati, tarkibi hamda uni boshqarishni butkul qayta qurishni nazarda tutadi.

Innovatsion o'zgarishlar tizimli xarakterga ega, innovatsiyalarning o'zi esa – ishlab chiqarish, ijtimoiy soha va boshqarishda qo'llash uchun mo'ljallangan fan-texnika taraqqiyotining yutuqlaridir.

Shunday qilib, innovatsiya – ishlab chiqarish jarayoni yoki boshqarishni tashkil etishdagi qandaydir bitta yoki qisman yangilikning mahsuli bo'lmay, barcha tashkilot tizimini o'zgartiradigan o'zaro faoliyat majmuasining natijasidir.


Yuqoridagilardan kelib chiqib, innovatsiyalarga quyidagicha umumlashtiruvchi ta'rif berish mumkin. Innovatsiyalar – iqtisodiyotda, inson faoliyatining ijtimoiy, siyosiy va boshqa sohalarida ijtimoiy iste'mol(bozor talabi)ni yaxshiroq va (yoki) to'laroq qondirish uchun intellektual mahsulotlarni yaratish, tarqatish va foydalanishning iqtisodiyot subyektlari faoliyatida juda katta o'zgarishlarga sabab bo'ladigan, ma'lum samara, natija olish maqsadidagi tizimli, majmuaviy jarayonidir va bir vaqtning o'zida – intellektual mulk huquqlarini himoyalash va amalga oshirish bilan bog'liq zarur va yetarli institutlar infratuzilmasini hamda boshqarishning iqtisodiy, investision, moliyaviy, ilmiy-texnikaviy, texnologik, ijtimoiy, siyosiy mexanizmlarini shakllantirishning intellektual asosidir.

Bunda samara yoki natija innovatsiyalarning samaradorligini belgilashi lozim. Samara deganda, yangilikni tadbiq etishdan olindigan ma'lum iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik yoki boshqa natijaga aytiladi. Inson faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa turlariga sanoat tarmoqlari, mahsulot (xizmatlar), texnologiyalar va nou-xau ishlab chiqarish va sotish, faoliyatning barcha shakl va darajasidagi xo'jalik subyektlari, boshqarish, ta'lim, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-madaniy sohalar kiradi.

Innovatsiyalar alohida individlar, ijodiy jamoalar intellektining, millatlar, jahon iqtisodining globallashuvi va integratsiyalashuvi sharoitida esa – integratsion uyushmalar (hamkorlikdagi korxonalar, transmilliy korporatsiyalar, mamlakatlar guruhi) va butun insoniyat umumiyl intellektual salohiyatining maqsadli xattiharakatlari tufayli yaratiladi. Bir tomonidan, innovatsiyalar ijtimoiy iste'mol (bozor talabi)ni qondirishga asoslansa, boshqa tomonidan – ularning maqsadi iqtisodiy agentlar faoliyatiga shunday o'zgarti-

rishlar kiritishki, ulardan foydalanish ma'lum samaraga ega bo'lish imkonini beradi.

«Intellektual mahsulot», «ilmiy-texnikaviy mahsulot», «yaxshilanish», «innovatsiya» tushunchalarining o'zaro bog'lanishi 5.5.1-rasmda keltirilgan.



5.1.1-rasm. Innovatsiya intellektual tovar sifatida

Shuni ta'kidlash joizki, innovatsiyalar har qanday maqsadli faoliyatning ustuvor omiliga aylanishi sharoitida ilmiy bilimlar, axborot, ixtiolar va ulardan foydalanish ishlab chiqarish samadarligini, uning raqobatbardoshligini belgilab beribgina qolmay, milliy xo'jaliklar aksariyat tarmoqlarining iqtisodiy o'sish dinamikasini ta'minlaydi. Shuning uchun intellektual faoliyat mahsuloti (innovatsion mahsulot)ni iqtisodiy tahlilning mustaqil sohasi sifatida tadqiq qilish va bu tushuncha bilan ifodalangan munosabatlarning iqtisodiy mohiyati va tavsifini alohida ajratish zarur.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion mahsulot bozor munosabatlarning obyektiga aylanadi. Uning asosiy xususiyati shundaki, ushbu mahsulot oldi-sotdi jarayonida o'z yaratuvchisining ixtiyoridan butunlay ketmaydi, moddiy tovarlardan farqli o'lar oq bir necha marta sotilishi mumkin va iste'mol paytida butunlay yo'q bo'lib ketmaydi.

Intellektual mahsulot ishlab chiqarilayotgan tovarlar nomenklaturasi, ularning texnik va texnologik, sifat xususiyatlari tezkor o'zgarayotgan sharoitda ishlab chiqariladi va, demak, milliy iqtiso-

diyot va uning xo'jalik subyektlari iqtisodiy o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Hozirda innovatsion mahsulotning iqtisodiy mohiyatini belgilab beruvchi ko'pgina masalalar yetarli darajada o'r ganilma gan. Innovatsion mahsulotga nisbatan mulkiy munosabatlар mohiyatini ochib berish, raqobat sharoitda mazkur mulk shaklining boshqa mulk shakllari bilan o'zaro bog'liqligi darajasini baholash shular jumlasidandir. Bu o'rinda innovatsion mahsulotlar bozorini shakllantirish masalasi ham muhim ahamiyatga egadir.

Innovatsion mahsulot – inson intellektining, ijodining moddiy mahsulidir. Ushbu mahsulotga mulk huquqi mulk egalariga daromad olish uchun, undan foydalanuvchi iste'molchilarga esa, innovatsion faoliyat natijalarini iqtisodiyotga keng ko'lamda tadbiq etish natijasida olinadigan daromadga egalik qilish uchun zarur me'yoriy rasmiylashtirish va muhofaza imkoniyatini ta'minlaydi. Demak, intellektual mahsulotga mulk huquqi innovatsion faoliyatni amalga oshirishning boshlang'ich sharti bo'lib hisoblanadi.

Insonlar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya sifatida intellektual mahsulotga mulk huquqi uning obyektlari oldi-sotdisi bilan tavsifланади. Moddiy ishlаб chiqarish sohasida innovatsion mahsulotni sotish uning egasiga albatta daromad keltiradi. Mana shunday iqtisodiy mohiyatga ega bo'lgani tufayli innovatsion mahsulotga mulk huquqi iqtisodiyot rivojlanishining eng muhim omillaridan biridir. Iqtisodiy kategoriya sifatida innovatsion mahsulotga mulk huquqi o'zining miqdoriy bahosiga ham egadirki, u innovatsion faoliyat obyektlarini xo'jalik oborotiga kiritish shartlariga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion mahsulotga mulk huquqi butkul shakllangan iqtisodiy tushuncha bo'lmay, balki iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning murakkab va tezkor rivojlanayotgan tizimidir.

Innovatsion mahsulotga mulk huquqini amalga oshirish mexanizmi oshkor monopoliyani o'matish bilan bog'liq bo'lib, tijorat sirini, shuningdek ITTKJ sohasidan innovatsion mahsulotga kiritiladigan sanoat va intellektual mulk obyektlari muhofazasini ham ko'zda tutadi.

Intellektual mulk tushunchasi XVII-XIX asrlar orasida, yangi ixtiro qilingan ishlаб chiqarish usullari ko'pchilik mamlakatlarda,

ayniqsa Yevropa va Amerikada keng qamrovli sanoatlashtirishga olib kelgan davrda vujudga keldi. Industriallashtirish davrining yangi g'oyalari, kuchli markazlashgan hukumatlarning paydo bo'lishi ko'pchilik mamlakatlarda intellektual mulk sohasida birinchi qonunlarning qabul qilinishiga olib keldi. Parij (1883 y.) va Bern (1886 y.) konvensiyalarining qabul qilinishi bilan intellektual mulkchilikning xalqaro tizimi tashkil topdi.

Ma'lumki, intellektual mulk alohida jismoniy shaxs, shaxslar guruhi yoki yuridik shaxs bo'lishi muallifning intellektual mulk faoliyati natijalarini yuridik muhofazalash huquqini aks ettiradi. Muallifning yuridik muhofazaga huquqi ilmiy ixtirolarga, san'at asarlariga, tovar va firma belgilariga beriladigan hujjatlarda o'z aksini topadi. Mualliflikni mustahkamlash va mutanosib haqni o'rnatish jarayonidagi xo'jalik subyektlarining o'zaro munosabatlari fuqarolik huquqi me'yorlari va xalqaro konvensiyalar bilan tartibga solinadi.

Keng ma'noda, intellektual mulk atamasini ma'lum bir shaxsning intellektual mulk faoliyati natijalari va individuallashtirish vositalaridan foydalanishining istisnosiz huquqlari yig'indisi sifatida talqin qilish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, intellektual mulk deganda mualliflik huquqlari (adabiy, badiiy asarlarga, foto ishlarga, kompyuter dasturlari, ma'lumotlar bazasiga), turdosh huquqlar (asarlar, fonogrammalar ijrosiga va video mahsulotlariga), sanoat mulki obyektlari (ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, geografik nomlar, firma atamalari), shuningdek noan'anaviy obyektlar (o'simlik navlari, hayvon zotlari, integral mikrosxemalar topografiyalari, tijorat sirlari, ilmiy ixtiolar) tushuniladi.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti intellektual mulkning universal qimmatiga hamda kundalik hayotimizni yaxshilovchi va boyituvchi ixtiolar va asarlarning ulkan salohiyatiga ishonadi va uning iqtisodiy rivojlanishning barcha millatlarga xos bo'lgan manbai deb hisoblaydi.

Har bir mamlakat yuqori iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot darajasiga va jamiyatning turmush farovonligini oshirish uchun rivojlangan intellektual mulk muhofazasi tizimiga ega bo'lishi lozim. Intellektual mulk muhofazasi ixtirochilar va ijodkor talant-

larni yanada rag'batlantirish, ular yaratgan yangiliklardan unumli foydalanish, bu sohaga investitsiyalarni jalg qilish orqali milliy iqtisodiyotni taraqqiy ettirishga ko'maklashadi.

Patent huquqining paydo bo'lishi ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishida mashina-texnika taraqqiyoti va tovar-pul munosabatlarida ixtirolarning roli oshgan davrga to'g'ri keladi. Bu tadbirkorlar va ixtirolarning mualliflari orasida yangi huquqiy munosabatlar, ya'ni patent huquqi shakllanishiga olib keldi.

O'zbekistonda intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi ularning yaratilganlik fakti asosida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida va boshqa Qonunlarida ko'zda tutilgan tartibda vakolat berilgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda intellektual mulk obyektlari muhofazasi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2011-yil 24 maydagi «O'zbekiston Respublikasining Intelektual mulk agentligini tashkil etish to'g'risida»gi 1536-sonli qarori bilan ta'sis etilgan vakolatli davlat organi zimmasiga yuklatilgan.

Milliy patent tizimini rivojlantirishning ilk qadamlaridan boshlab ilg'or tajribaga tayanildi, xalqaro tashkilotlar, nufuzli xorijiy mutaxassislar bilan aloqalar yo'lga qo'yildi.

Mazkur Agentlik sanoat mulki obyektlarini, jumladan ixtiolar, sanoat namunalarini, foydali modellar, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomlarini, shuningdek seleksiya yutuqlari, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar, ma'lumotlar bazalari va integral mikrosxemalar topologiyalarining huquqiy muhofazasi sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi.

O'zbekistonda intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi va qo'llanilishi sohasidagi munosabatlar quyidagi normativ hujjatlarda belgilab berilgan:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (42-modda);

Fuqarolik kodeksi (IV bo'lim);

O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

- Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalarini to'g'risida;
- Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida;

- Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida;
- Seleksiya yutuqlari to'g'risida;
- Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida;
- Integral mikrosxemalar topologiyalarining huquyiy muhofazasi to'g'risida.

Jahon iqtisodiy hamjamiyatida o'z o'rni va nufuziga ega bo'lish hamda xorijiy mamlakatlardan bilan samarali hamkorlikni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston intellektual mulk obyektlari huquqiy muhofazasining global tizimi doirasida ushbu sohadagi eng muhim xalqaro shartnomalar va bitimlarda ishtirok etmoqda. 1993-yil 5-maydan boshlab O'zbekiston Butunjahon intellektual mulk tashkilot (BIMT)ining to'la qonli a'zosi va bir qator xalqaro shartnomalar qatnashchisidir. Bular:

- BIMTni ta'sis etuvchi Konvensiya;
- Sanoat mulki muhofazasi bo'yicha Parij Konvensiyasi;
- Adabiy va badiiy asarlar muhofazasi to'g'risidagi Bern Konvensiyasi;
- Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Madrid bitimiga doir Bayonnoma;
- Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi shartnoma (RST);
- Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risidagi shartnoma (TLT);
 - Patent huquqi to'g'risidagi shartnoma (PLT);
 - Patent protsedurasi maqsadlari uchun mikroorganizmlarni xalqaro depozitlashni tan olish to'g'risidagi Budapesht shartnomasi;
 - O'simliklarning yangi navlarini muhofaza qilish bo'yicha Xalqaro Konvensiya (UPOV);
- Belgilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun tovarlar va xizmatlarning xalqaro klassifikatsiyasi to'g'risidagi Nissa bitimi;
- Xalqaro patent klassifikatsiyasi to'g'risidagi Strasburg bitimi;
- Sanoat namunalarining xalqaro klassifikatsiyasi to'g'risidagi Lokarno bitimi.

Mamlakat patent tizimini yanada takomillashtirish, intellektual mulk obyektlarining milliy iqtisodiyot taraqqiyotidagi hissasini

oshirish, shubhasiz, intellektual mulk bozorini rivojlantirish jarayonlari bilan bog'liq. Birinchi navbatda, biznes muhitining liberallashuvi yangi raqobatbardosh tovar va buyumlarni ishlab chiqish, ularni intellektual mulk obyektlari sifatida har tomonlama himoya qilish va keyinchalik tijorat oborotiga muvaffaqiyatli kiritish uchun kuchli rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi.

O'zbekistonda jahon tajribasi asosida samarali ishlaydigan innovatsiya infratuzilmasini tashkil etish va rivojlantirish yana bir muhim vazifa hisoblanib, milliy iqtisodiyot ilmiy-texnologik va industrial taraqqiyoti aynan shu masalaning muvaffaqiyatlari hal qilinishiga bog'liq. Bunday infratuzilmaning bo'g'ini sifatida kichik va o'rta innovatsiya firmalari intellektual mulk obyektlari ishlab chiqaruvchilarining takliflari hamda tovar va xizmatlar milliy va xorijiy bozorlari talabi o'rtasida ko'prik bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga innovatsiya sektorining muvaffaqiyatli faoliyati va patent tizimining rivojlanishi bir-biriga bog'liq ekanligini e'tirof etish joizdir.

Xulosa o'mida shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi zamon bozor tizimi intellektual mulk munosabatlardan tashqarida samarali rivojlanishi mumkin emas. Yangi bilimlar va ixtirolarga huquqiy monopolianing mavjudligidagina novator-firmalar iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan bo'lgan qo'shimcha daromadga ega bo'ladilar.

Jahon xo'jaligi globallashuvining zamonaviy bosqichida sanoati rivojlangan mamlakatlarda innovatsion mahsulotlar ular firma va kompaniyalari tomonidan faqatgina sotib olinib yoki yaratilibgina qolmay, innovatsiyalarni aniq faoliyat sohasiga tezkorlik bilan tadbiq qilish va mo'may daromad olish maqsadida innovatsion mahsulotlar uchun kuchli raqobat kurashi ketmoqda. Bu, o'z navbatida innovatsion faoliyatni yanada rag'batlantiradi, intellektual mulk obyektiga aylanayotgan innovatsion mahsulotlar hajmini ham son, ham sifat jihatdan o'sishiga olib keladi.

O'zbekistonda innovatsion mahsulotlar bozori shakllanish bosqichida bo'lib, innovatsiyaviy faoliyatni tashkil etish va moliyaviy ta'minlash masalalari mazkur jarayonni milliy iqtisodiyotninig turli shakl va darajalarida oqilona tartibga solishni taqozo etadi. Uning asosiy vazifalari ilmiy-texnikaviy salohiyatni rivojlantirish va bu

sohaga investitsiyalarni rag‘batlantiruvchi iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

5.2 Jahon xo‘jaligi globallashuvining milliy iqtisodiyotlar innovatsion rivojlanishiga ta’sir yo‘nalishlari

Iqtisodiy aloqalarning globallashuvi va buning natijasida xalqaro savdoning liberallashuvi hozirgi zamонning ko‘p yoqlama ta’sir kuchiga ega bo‘lgan murakkab jarayonlaridandir. Umuman olganda, bu obyektiv jarayonlar bo‘lib, shubhasiz jahon va milliy iqtisodiyotlar samaradorligining oshishiga turki beradi. Bozorlar ning kengayishi ishlab chiqarish o‘sishi va ixtisoslashuv chuqurlashuvini rag‘batlantiradi hamda raqobat kurashini keskinlashtiradi, bu innovatsiyalarga va ularni jahon bozorida ishonchli muhofazalash tizimiga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Bu, o‘z navbatida, intellektual mulk, ayniqsa sanoat mulkining huquqiy muhofazasi tizimi ahamiyatini tobora oshirib bormoqda. Chunki aynan ushbu tizim tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarining muhofazasini ta’milaydi va shuningdek ilmiy-texnikaviy rivojlanishni rag‘batlantiradi.

Shu bilan birga, milliy savdo to‘siqlarining bosqichma-bosqich bartaraf etilishiga olib kelayotgan globallashuv jarayonlari o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari va rivojlanayotgan mamlakatlarni teng bo‘lmagan raqobat girdobiga duchor qilmoqda. Sanoati rivojlangan mamlakatlarning yaqqol ko‘rinib turgan raqobat ustunliklariga ega bo‘lgan yirik monopoliyalari va yuqori texnologik kompaniyalari o‘z mahsulotlarining tezkor yangilanishi va ularni ishlab chiqarishning past xarajatlari tufayli rivojlanayotgan mamlakatlari va o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari xo‘jalik tarmoqlarini osonlik bilan tanglik holatiga tushirib qo‘yishlari mumkin.

Raqobat tengsizligi intellektual mulk aktivlarining notekis taqsimlanishi bilan yanada chuqurlashadi. Ushbu aktivlardan monopol foydalanishga patent va mualliflik huquqlari raqobatchilar va iste’molchilar manfaatlariga zid ravishda yirik patent egalariga ustun shart-sharoitlar yaratishi tabiiydir.

Xalqaro savdoning liberallashuvi raqobat kurashini yanada keskinlashtirib, «intellektual qaroqchilik»ning o‘sishiga ham sabab bo‘lmoqda. XXI asrning boshida kontrafakt mahsulot jahon tovar

aylannasining 6 foizini yoki-yiliga 240 mld. AQSh dollarini tashkil qildi¹¹. Bu muammo, ko'p jihatdan, iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi sharoitida hududiy chegaralangan intellektual mulk huquqlarini moslashtirish qiyinchiliklari tufayli qujudga keladi. Shuning uchun intellektual mulkni muhofazalash tizimi milliy xo'jaliklarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyala-shuviga ushbu tizimda foydalanilayotgan vositalarni uyg'unlash-tirish (garmonizatsiya) orqali pirovard natijada global intellektual mulk tizimini yaratishga yo'naltirish bilan javob berishga majburdir.

Iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi sharoitida intellektual mulk huquqi egalari o'z tovarlari va xizmatlari bozorlarini milliy chegaralardan tashqariga kengaytirishga harakat qilar ekanlar, bu jarayon har bir tomon o'z manfaatlarini himoya qilishida ular o'rtaсидagi qarama-qarshiliklarni keskinlashtiradi.

Millatlararo patentlarning mavjud emasligi tufayli innovatsion firmalar keng qamrovli xorijiy patentlashni amalga oshirish imkoniga ega emaslar. Natijada patentlash tizimi savdo rivojlanishi uchun qo'shimcha notarif cheklovlarini yaratadi va patentlangan tovarlar xalqaro bozorini segmentlaydi.

Globallashuv sharoitida innovatsion faoliyat chegaralarini kengaytirish, milliy innovatsion tizimlar ochiqlik darajasini oshirish hisobiga rivojlanishdagi notekisliklarni bartaraf etish imkoniyati tug'iladiki, bu barcha darajalarda global iqtisod manbalaridan foydalanish, yuqori texnologiyali mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, xorijiy resurslardan, shuningdek bilimlar va texnologiyalarning erkin harakatlanishi hamda xalqaro hamkorlik natijalaridan foydalanish imkonini beradi.

Intellektual mulk(IM) hozirgi zamон innovatsion iqtisodiyotining markaziy tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Bu mualliflarning sanoat, fan, adabiyot va madaniyat sohasida ularning intellektual faoliyati natijasida ishlab chiqarilgan axborot va bilimlarga xususiy mulki bo'lib, ular bozorga kelib tushar ekan, iqtisodiy qimmatga ega bo'ladilar. Intellektual mulk huquqiy munosabatlар obyekti sifatida yuridik, mulk turi sifatida institusional, intellektual faoliyat vosita-

¹¹ Глобализация экономики и интернационализация системы охраны интеллектуальной собственности. -М. : ИНИЦ Распечатка -- 2002.- С 3

lari va natijalarini sotib olish/sotish va foydalanish bo'yicha insonlar orasidagi iqtisodiy munosabatlarning tizimi sifatida iqtisodiy mohiyatga egadir.

Mualliflarning intellektual mehnati natijalarini muhofazalash uchun har qanday ilg'or jamiyat intellektual mulk huquqlarini shakllantiradi. Bu intellektual mahsulotlardan ruxsatsiz foydalanishning oldini oluvchi yuridik qoidalar, me'yorlar va tartibga soluvchi hujjatlardir. Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari o'rtasida intellektual mulk munosabatlari tizimi, ya'ni IM obyektlarini yaratish, egalik qilish, sotib olish va foydalanish bo'yicha IM subyektlari o'rtasida vujudga keladigan aloqalar shakllantirilishi tobora avj olib bormoqda.

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida IM munosabatlari turli milliy, mintaqaviy, xalqaro darajalarda vujudga keladi va boshqarish hamda tartibga solishning muvofiqlashtirilgan mexanizmlarini talab qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, IM obyektlari bo'yicha xalqaro intellektual mulk munosabatlari jahonning turli mamlakatlari rezidentlari o'rtasida o'rnatilmoqda, shuning uchun ularni tartibga solish millatlararo darajada amalga oshirilishi zarur.

Ilm-fanning baynalminallashuvi va global innovatsiya sohasiga integratsiyalashuv jarayoni XX asrning 90-yillaridan innovatsiya sohasi barcha segmentlari rivojlanishining yangi yo'nalishini belgilab berdi. Asosiy maqsad sifatidagi texnologik mustaqillik o'tmishga aylandi, uning o'rniga yangi strategiya keldiki, uning mohiyati o'zaro texnologik to'ldirishdan foydalanishdir. Global integratsiya yo'nalishlaridan biri bo'lib hamda bir vaqtning o'zida innovatsion sohada xalqaro mehnat taqsimotining eng muhim segmenti bo'lib texnologiyalar savdosи oldingi o'ringa chiqmoqda. Qaysi bir mamlakat texnologik to'lov balansi saldosи bo'yicha absolyut ko'rsatkichlari qanchalik yuqori, AQSh, Yaponiya va Yel patent idoralarida ro'yxatga olingan patent arizalarining soni qanchalik ko'p, yuqori texnologiyali eksportning ulushi katta, ilmiy texnik rivojlanish darajasi yuqori bo'lsa, ushbu mamlakat kompaniyalarining jahon xo'jaligidagi o'rni va mavqeい shunchalik baland bo'ladi.

Xalqaro ilmiy va texnologik hamkorlikning o'sishi, 90-yillardagi fan sig'imli tovarlar va xizmatlar jahon savdosining

yuqori o'sish suratlari, yangi eksporter mamlakatlarning paydo bo'lishi, shuningdek sig'imli ilm talab tovar ishlab chiqaruvchi mamlakatlar ro'yxatining kengayishi uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning omili sifatida innovatsion soha globallashuv strategiyasining samaradorligidan dalolat beradi.

Dunyo mamlakatlarining ilg'or texnologiyalar sohasidagi o'rni, 2015 y. (%)¹²

5.2. I-jadval

Mamlakatlar/ Texnologiyalar	AQSh	Xitoy	Fransiya	Germaniya	Yaponiya	Rossiya	Koreya Respublikasi	Buyuk Britaniya	Boshqa mamlakatlar
Yangi materiallar	59	15	1	12	7	1	2	2	2
Qishloq xo'jaligi (oziq-ovqat)	68	10	3	5	2	1	1	1	10
Avtomatlashtirish	22	6	1	29	32	0	8	0	2
Kosmik texnologiyalar	62	3	10	6	1	13	1	2	2
Aloqa	57	13	0	2	13	0	4	4	6
Energetika	49	10	3	20	7	1	1	1	8
Atrof-muhit	37	1	6	26	8	1	2	6	12
Asbobsozlik	41	9	1	14	22	1	9	1	2
Sog'liqni saqlash	43	2	7	18	7	0	2	9	12
Qurol-yarog'	78	6	1	1	0	11	1	1	2
Farmasevtika	56	4	3	16	5	1	1	7	8

Rossiyalik olim Gurova M.V. globallashuv va baynalminalashuv jarayonlarining intellektual mulk tizimiga ta'sirini tadqiq qilib, intellektual mulk baynalmallahuvining uch shaklini ajratib

¹² 2016 Global R&D Funding Forecast. Winter 2016, p.21.

ko'rsatadi: intellektual mulk obyektlarining xalqaro savdosi, xalqaro patent hamkorligi, IM munosabatlarini xalqaro tartibga solish¹³.

Intellektual sohaning globallashuvi va baynalminalashuvining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari bu transmilliy kompaniyalar bo'lib, ular turli mamlakatlarda tadqiqot markazlarini joylashtirgan holda jahon bo'yicha yuqori malakali kadrlarning harakatlanishiga yordam beradilar, shuningdek o'zları faoliyat olib borayotgan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ilmiy va tajriba konstruktorlik tadqiqotlariga investitsiyalarni yo'naltiradilar. Ilm-fanning transmilliy lashuvi va patent hamkorligi jarayonida intellektual mulkning asosiy subyektlari bo'lib butun jahonning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan bilimlarni yaratish ustida ishlayotgan olim va ixtirochilar -- turli mamlakatlar rezidentlarining faoliyati oldingi o'ringa chiqadi.

Fanning transmilliy lashuvi va patent hamkorligi faqatgina birgalikdagi ilmiy tadqiqotlardagina emas, ITTKI natijalaridan hamkorlikda foydalanishda ham namoyon bo'lmoqda. Intellektual soha baynalminalashuvining ushbu shakli mamlakatlarning texnologik va innovatsion salohiyatiga ma'lum ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayon rivojlanishiga global qiymat hosil qilish zanjirlarining, u yoki bu mamlakatlarda tadqiqotlar o'tkazish uchun sarflanadigan xarajatlarda farqlarning va ko'pchilik mamlakatlarda milliy boshqarish siyosatiga jiddiy o'zgarishlar kiritilgani (birinchi navbatda, intellektual mulk huquqlarining kuchayishi va ITTKI uchun soliq rejimlari) sabab bo'ldi. Globallashuv sharoitida fanning transmilliy lashish qonuniyatları shunda namoyon bo'lmoqdaki, bir mamlakat rezident olimlari tomonidan yaratilgan ixtiolar xorijdan moliyalashtirilmoqda va xorijiy kompaniyalarning mulkiga aylanmoqda; turli mamlakat kompaniyalari tadqiqotlarga birgalikda investitsiyalarni amalga oshirmoqdalar; turli davlatlarning olimlari hamkorlikdagi ilmiy-tadqiqot va ixtirochilik faoliyatini olib bormoqdalar. Hamkorlikdagi tadqiqotlar natijasida yaratilgan va patent himoyasini olgan texnologiyalar iqtisodiy aktivlar qatoriga qo'shilib, intellektual mulk savdosi obyektlariga aylanmoqdalar.

¹³ Гурова М.В Интеллектуальная собственность в инновационном развитии мировой экономики.- Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук.- М.2010,с 12

Xalqaro patent hamkorligi hozirgi davrda asosan quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- mahalliy ixtirolarning xorijiy mulkka aylanishi;
- xorijda amalga oshirilgan ixtirolarning milliy mulkka aylanishi;
- hamkorlikdagi ixtiolar va patentlar.

Hozirda jahon iqtisodiyotida umumiy patentlar miqdoridagi xorijiy mulkdorlarning mahalliy ixtirolarda va mahalliy mulkdorlarning xorijiy ixtirolarda ulushi 10dan 18 foizni, hamkorlikdagi ixtiolar esa - 4-6 foizni tashkil qiladi.

Jahonning eng muhim novator mamlakatlari

5.2.2 jadval

Mamlakat	2008-yil		2015-yil	
	1 mln kishiga patentlar soni	O'rin	Mamlakat	O'rin
AQSh	301.48	1	Shveytsariya	1
Yaponiya	273.40	2	Finlyandiya	2
Tayvan (Xitoy)	241.38	3	Isroil	3
Shvesiya	190.34	4	AQSh	4
Shveytsariya	189.44	5	Yaponiya	5
Isroil	165.08	6	Germaniya	6
Finlyandiya	155.58	7	Shvesiya	7
Germaniya	137.52	8	Gollandiya	8
Kanada	109.62	9	Singapur	9
Singapur	97.62	10	Daniya	10
Gollandiya	86.94	11	Tayvan (Xitoy)	11
Lyuksemburg	82.59	12	Buyuk Britaniya	12
Daniya	80.38	13	Norvegiya	13
Koreya Respublikasi	79.87	14	Qatar	14
Belgiya	70.10	15	Lyuksemburg	15
Fransiya	67.59	16	Belgiya	16
Avstriya	65.43	17	Avstriya	17

Buyuk Britaniya	64.29	18	Fransiya	18
Norvegiya	53.78	19	Koreya Respublikasi	19
Islandiya	45.94	20	Malayziya	20
Australiya	44.00	21	Irlandiya	21
Yangi Zelandiya	36.84	22	Kanada	22
Irlandiya	33.85	23	Australiya	23
Gonkong (Xitoy)	33.29	24	Yangi Zelandiya	24
Italiya	30.49	25	Islandiya	25
			Arab Amirliklari	26
			Gonkong (Xitoy)	27
			Italiya	32


Manba: Global Competitiveness Report 2010. Global Competitiveness Report 2015.

Globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biri bu patent faoliyatining yuqori suratlar bilan o'sishi bo'lib, bu jarayon bilimlarga asoslangan iqtisodda ixtiroarning nechog'lik muhim ekanligini aks ettiradi. Bunda asosiy o'rinni eng muhim novatorlar qatoriga kiruvchi rivojlangan mamlakatlar egallab kelmoqda. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bilan boshlangan 2008-yili Yevropa, Yaponiya va AQShda 1992-yildagi 600 ming patent talabnomalariga nisbatan 1010 mingdan ortiq arizalar berildi. Oxirgi o'n-yillikda patentlarning o'sishi deyarli barcha texnologik tarmoqlarda kuzatildi, ayniqsa biotexnologiya, axborot va kommunikatsya texnologiyalari (AKT) sohasida bu jarayon ayniqsa sezilarli bo'ldi. OESR (IXRT) mamlakatlarida patentlarning o'rtacha 35 foizi AKT hissasiga to'g'ri keladi, bunda ularning ba'zilarida bu ko'rsatkich ancha yuqori, masalan, Finlyandiyada (57 foizi), Isroilda (50 foizi), Koreya Respublikasida (49 foizi), Gollandiyada (46 foizi).

Bilimlarga asoslangan iqtisodyotga o'tish ham milliy, ham xalqaro darajada texnologiyalarning ustuvor ahamiyatini va rolini belgilab beradi. Intellektual mulk shaklidagi innovatsiyalar mehnat va kapital kabi iqtisodiy jihatdan muhim aktivga aylanib, turli mamlakat rezidentlari o'rtasida savdo sotiq munosabatlarining predmeti bo'lib bormoqda. Intellektual mulk obyektlari bilan savdo

o‘z mohiyatiga ko‘ra yangi bilimlarga mulkchilik huquqini taqdim etishdan iborat. XVF tomonidan taqdim etilgan Xizmatlar bilan xalqaro savdo statistikasi bo‘yicha Qo‘llanmaga muvofiq intellektual mulk obyektlariga oid barcha bitimlar yoki xizmatlar savdosiga, yoki kapital bilan operatsiyalarga kiritiladi. (5.2.1-rasm).

Shuni ta’kidlash joizki, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida bilimlarning asosiy eksporterlari bo‘lib rivojlangan yetakchi novator mamlakatlar hisoblanadi.



5.2.1-rasm Intellektual mulk obyektlari bilan savdoning yo‘nalishlari

Hozirgi zamон global innovatsion rivojlanish sharoitida IM iqtisodiy mohiyatining ahamiyati shundan iboratki, intellektual mulk munosabatlari doirasida ixtirochilarda intellektual faoliyat bilan shug‘ullanish uchun rag‘bat paydo bo‘ladi va bu o‘z navbatida innovatsiyalar rivojlanishning asosiga aylanmoqda. Biroq, bilimlar alohida individga tegishli aktiv bo‘lsada, butun jamiyatga foyda keltirishi mumkin. Intellektual mulk munosabatlariga xos bo‘lgan ushbu xususiyat tufayli turli qarama-qarshiliklar vujudga kelishi va bu innovatsiyalarni ishlab chiqarish, tarqatish va ulardan foydalanishda turli xo‘jalik subyektlarining o‘zaro chambarchas bog‘langan faoliyatini talab qiladigan innovatsion rivojlanish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Asosiy ziddiyat shun-

dan iboratki, mualliflar xizmatlari va ularning bilimlar rivojlanishiga qo'shgan hissasi bozor bahosining institutsional asosini tashkil qiluvchi intellektual mulk huquqi butun jamiyat manfaatlari yo'lida yangi bilimlarning tezkor tarqalishiga qandaydir ma'noda to'siqlik qiladi. Bu vaziyatda bir tomondan, salohiyatli innovatsiya yaratuvchilarning ixtirochilik va ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalar bilan turli mamlakat rezidentlari o'rtasida tijoriy almashinuvni rag'batlantiruvchi IM huquqlarini muhofazalash talab qilinsa, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi uchun yangi bilimlarning tarqalishi va butun jamiyat ulardan foydalana olishi uchun imkoniyat yaratilishi muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Bu muammoning hal etilishi jahon iqtisodiyoti doirasida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi innovatsion nomutanosiblikni yo'qotish nuqtayi nazaridan ayniqsa dolzarbdir.

Mavjud qarama-qarshiliklarning bartaraf etilishi IM obyektlarning xalqaro savdosida millatlararo boshqarish va nazorat tizimini taqozo etadi. Hozirgi intellektual mulk munosabatlarini xalqaro tartibga solish to'laqonli mexanizmlarining mavjud emasligi intellektual mulk obyektlaridan samarali foydalanishga va oqibat natijada milliy iqtisodiyotlar innovatsion rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Intellektual mulk munosabatlarini xalqaro tartibga solish mexanizmini ishlab chiqishda intellektual mulkni muhofazalash bo'yicha xalqaro bitimlar katta ahamiyatga egadir. Innovatsion iqtisodiyot yaratish yo'lida ildam qadamlar bilan borayotgan mustaqil O'zbekiston uchun ham ushbu bitimlarda ishtirok etish muhim ekanligini e'tiborga olib, ularning asosiylarini ko'rib o'tamiz.

Sanoat mulki bo'yicha xalqaro bitimlar:

Sanoat mulkini muhofazalash bo'yicha Parij konvensiyasi 1884-yili kuchga kirgan bo'lib, sanoat mulki obyektlarining xalqaro muhofazasini ko'zda tutadi. Mazkur xalqaro bitim Konvensiya ishtirokchilariga konvension ustuvorlik huquqini taqdim etish yo'lli bilan bir mamlakat obyektlarining boshqa mamlakatlarda muhofazalash shartlarini yengillashtiradi. Bu shuni anglatadiki, Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan birinchi mamlakatda ixtiroga berilgan talabno-

ma berilgan vaqtdan boshlab bir yil davomida boshqa mamlakatlarda ustuvorlikka ega bo'ladi. Konvension ustuvorlik shuningdek foydali modellarni (12 oy mobaynida), sanoat namunalarini va tovar belgilarni (6 oy mobaynida) ro'yxatdan o'tkazishda ham taqdim etiladi.

Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi shartnoma (RST) 1970-yili imzolangan, bir nechta RST ishtirokchisi bo'lgan mamlakatlarda ixtirolarni muhofazalash talab qilinganda yagona xalqaro talabnomasi (BMT Xalqaro byurosining biror ish tilida) topshirilishini ko'zda tutadi. Bu bir necha mamlakatlar ixtirolarni patentlash xarajatlarini ancha tejash imkonini beradi.

Yevropa patent konvensiyasi 1987-yili kuchga kirgan bo'lib, ingliz, fransuz, nemis tillarida yagona talabnomasi berish yo'li bilan YePK ishtirokchilari bo'lgan har bir (beshta yoki undan ko'p) mamlakatda patent muhofazasini olish imkonini beradi.

Yevroosiyo patent konvensiyasi (YeAPK) 1995-yili kuchga kirgan. Konvensiya ishtirokchilari bo'lgan barcha davlatlarda harakat qiluvchi muhofaza hujjatlarini olish protsedurasini soddalashtirish va arzenlashtirishni ta'minlaydi, ya'ni bir tildagi bitta yevroosiyo talabnomasi – bitta ekspertiza – yagona yevroosiyo patenti.

Patent huquqi to'g'risidagi shartnoma milliy va mintaqaviy patent idoralari tomonidan patent talabnomalarini ko'rib chiqish, patentlarni kuchda saqlab turish, shuningdek patent idorasida elektron talabnomasi topshirish, patent vakillari va ro'yxatga olish protseduralarini talablari kabi boshqa rasmiy talablarni tartibga sojish va uyg'unlashtirish uchun mo'ljalangan bo'lib, 2000-yilda kuchga kirgan.

Sanoat namunalarini deponentlash haqida Gaaga bitimi 1925-yili imzolangan va undan keyin bir necha marta qayta ko'rib chiqilgan. Muhofaza so'ralayotgan davlatlar ko'rsatilgan namuna yuzasidan xalqaro deponentlashga talabnomani milliy idoraga yoki bevosita TIMT Xalqaro byurosiga topshiradilar. Xalqaro muhofazalash muddati 1960-yil Aktiga muvofiq 5 yilni tashkil etadi.

Patent protsedurasi maqsadlari uchun mikroorganizmlarni xalqaro depozitlashni tan olish to'g'risidagi Budapesht shartnomasi har qanday deponentlash bo'yicha xalqaro tashkilotdagi bitta

«ponentlash barcha kelishilgan davlatlar milliy idoralarida patent protsedurasi uchun yetarligini ko‘zda tutadi.

Belgilarni xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi Madrid bitimi 1891-yilda imzolangan bo‘lib, tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilari xalqaro muhofazasini soddalashtirish uchun mo‘ljallangan.

Tovarlar kelib chiqish joylari nomlari va ularni xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi Lissabon bitimi 1958-yili imzolangan.

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo‘yicha xalqaro bitimlarga quyidagilar kiradi.

Adabiy va badiiy asarlarni muhofazasi to‘g‘risidagi Bern Konvensiyasi 1886-yilda imzolanib, mualliflik huquqlarini himoyalashga asos soldi. Keyinchalik u 1971-yili Parijda ko‘rib chiqilgan «Mualliflik huquqi to‘g‘risida»gi Butunjahon konvensiyasida o‘z rivojini topdi, ushbu konvensiya mualliflarning adabiy, ilmiy va badiiy asarlarga, shu jumladan yozma, musiqaviy, dramatik va kinematografik asarlarga, rassomlik, grafika va haykaltaroshlik asarlari yuzasidan huquqlariga tegishlidir.

Fonogramma ishlab chiqaruvchilarning muhofazasi to‘g‘risidagi 1961-yil **Rim konvensiyasi** va uning qoidalarini tivojlantiruvchi **Jeneva konvensiyasi** ijrochi-artistlar, fonogramma ishlab chiqaruvchilari va eshittirish tashkilotlari manfaatlarini muhofazalashga bag‘ishlangan.

So‘nggi-yillarda internet mualliflik huquqi bilan muhofazalanayotgan ishlarni ular yaratuvchilari va egalari tomonidan sotish imkoniyatlarini misli ko‘rilmagan darajada kengaytirib, bir vaqtning o‘zida ilgari ko‘rilmagan huquqbuzarliklar va tijoriy qaroqchilik xavfini vujudga keltirdi. Bunga javoban BIMT rahnamoligida ikkita yangi shartnoma qabul qilindi.

Mualliflik huquqi bo‘yicha shartnoma «nashr qilingan ishlar» tavsifini elektron nashrlarga nisbatan qo‘llashga yo‘l qo‘yuvchi Bern konvensiyasi qoidalarini aniqlab beradi. Muhofaza qilinayotgan obyektlar tarkibiga EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari kiritildi.

Ijrochilik va fonogrammalar bo‘yicha shartnoma fonogramma ishlab chiqaruvchilari va ijrochilarga yuqorida zikr qilingan

shartnoma qoidalari bilan muvofiqlashtirilgan mutlaq huquqlarni taqdim etadi.

Yangi shartnomalar asosiy e'tiborni raqamli elektron muhitda mualliflik va turdosh huquqlarga rioya qilishga qaratgani uchun «Internet-shartnomalar» nomini oldi¹⁰.

Globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyotidagi muhim jarayonlarning tartibga solinishini va monitoringini amalga oshiruvchi davlatlararo xalqaro tashkilotlar intellektual mulk munosabatlarini har tomonlama va samarali tartibga solish maqsadida o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatishlari kerak bo'ladi. Ma'lumki, ular bajaradigan vazifalar ta'sir darajasiga qarab to'rt yo'nalishga bo'linadi: ko'maklashish, kuzatish, nazorat va tartibga solish.

Xalqaro tashkilotlarning intellektual mulk munosabatlariga ta'sirining ikki – yuridik(huquqiy) va iqtisodiy jihatini ko'rsatish mumkin. Bunda huquqiy tartibga solishning vazifasi ixtirochi yaratayotgan obyekt muhofazasini ta'minlash orqali uni intellektual faoliyatga rag'batlantirish bo'lsa, iqtisodiy tartibga solish – rivojlanishni ta'minlash maqsadida inson va jamiyat manfaatlari muvozanatini saqlash funksiyalaridan iborat. Huquqiy tartibga solish xalqaro shartnomalar, bitimlar, konvensiyalar vositasida iqtisodiy tartibga solish – jamiyat ehtiyojlariiga muvofiq moddiy, moliyaviy, intellektual va boshqa resurslarni taqsimlashga yo'naltirilgan dasturlar orqali amalga oshiriladi. Huquqiy tartibga solish intellektual mulk sohasidagi turli xalqaro bitimlarni amalga oshirishda ma'muriy vazifalarni bajaruvchi aksariyat vaziyatlarda nazorat va tartibga solish bilan shug'ullanuvchi BMT va BST faoliyatlarida asosiy o'rinn tutadi. JB va IHRT ning intellektual mulk sohasidagi faoliyatida iqtisodiy yondashuv ustun bo'lib, ularning ta'siri ko'maklashish va kuzatish yo'nalishida amalga oshiriladigan, intellektual mulk munosabatlarini va ularning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini chuqurroq tushunishga ko'maklashuvchi statistik ma'lumotlar va tadqiqotlar natijalarini ommalashtirishdan iborat.

BSTning fan-texnika sohasi faoliyatini tartibga soluvchi bitimlar majmuasida birinchi navbatda Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari to'g'risidagi bitimni (TRIPS) ajratib ko'rsatish mumkin. Bu Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitimlar hamda Xizmatlar savdosini bo'yicha bosh bitim qatoridagi uchinchi bitimdir.

Ushbu bitimda BST ga a'zo mamlakatlar uchun intellektual mulk huquqlari muhofazasini ta'minlash bo'yicha talablar va me'yorlarning alohida eng kam to'plami ko'rsatib berilgan. Barcha a'zo mamlakatlar ushbu me'yorlarni qo'llashi shart bo'sib, ular umumiylajburiyatlardan, fuqarolik va ma'muriy protseduralardan, vaqtinchalik va chegaraviy choralarga tegishli bo'lgan maxsus choralardan, shuningdek jinoiy protseduralardan tashkil topgan. Ushbu qoidalar bitimni imzolagan tomonlardan intellektual mulk huquqi egalari uchun quyidagi imkoniyatlarni ko'zda tutuvchi protseduralar o'rnatishni talab qiladi: ular huquqlarini samarali himoya-lash, tovarlarni to'xtatish yoki vaqtinchalik hibsga olish, kriminal korxonalarga qarshi va egalari huquqlarini buzuvchi tovarlarga qarshi choralar qo'llashni talab qilish, shuningdek sudlar, politsiya, bojxona va boshqa ma'muriy organlar kabi ushbu masalalarga javobgar hukumat tashkilotlaridan doimiy yordam olib turish.

Shuni ta'kidlash joizki, aytib o'tilgan protseduralar BST doirasidagi majburiy yurisdiksiyaga asoslangan bo'lib, bu yerda talablar bajarilishini ta'minlashning yetarli darajada jiddiy mexanizmlari mavjud. Talablar bajarilmaganligining isbotlangan holatida jabrlanuvchi tomon foydasiga kompensatsion choralar qo'llanilishi ham ko'zda tutilgan. Ushbu choralar majmui intellektual mulkni qo'llab-quvvatlashga, ko'p yoqlama savdo tizimini yanada kengaytirishga, shuningdek ijod va innovatsiyalarni qo'llashga yo'naltirilgan bo'lib, mutaxassislarning fikricha kelajakda TRIPS bitimi quyidagilarga asos yaratishi mumkin¹⁴:

- jismoniy shaxslar va kompaniyalarga ijodiy faoliyatlarining mahsulini olish imkoniyatini berib, ilmiy tadqiqotlar, texnologik yangiliklar va ijodiy jarayonni rag'batlantirish;
- intellektual mulk huquqlarining mamlakat ichida, xalqaro doirada, aholi turmush darajasi past bo'lgan mamlakatlarda xavfsiz-roq bo'lishini ta'minlash;
- savdo, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, shuningdek bir mamlakatdan boshqasiga texnologiyalar va nou-xauni uzatish sohasida operatsiyalarni o'tkazish xarajatlarini pasaytirish;

¹⁴ Барбашев А.Г., Бромберг Г.В. Интеллектуальная собственность и государство: зарубежный опыт. – М.: ИНИЦ Роспатента, 2004. – с.80

- rivojlanayotgan mamlakatlar sanoatining ishlov berish tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni yo‘naltirish;
- rivojlangan mamlakatda sanoatning fan sig‘imli tarmoqlarini o‘sishiga yordam berish.

Xalqaro miqyosda uyg‘unlashtirish jarayoni nuqtayi nazaridan TRIPS bitimi jahon bozorida o‘sib borayotgan raqobat va nomoliyaviy tashqi iqtisodiy operatsiyalatning murakkablashuvi masallalarini hal qilish imkoniyatini beruvchi yangi va ishonchli milliy qonuniyatlar majmuini yaratishdan iborat. Bunda, bir tomonдан, iqtisodiy rivojlanish uchun «quvib yetish» siyosatiga tayangan rivojlanayotgan davlatlar uchun erkin faoliyat sohasi torayadi, boshqa tomondan esa – texnologik sohada yetakchilik mavqeini saqlab qolishga intilayotgan sanoati rivojlangan davlatlar savdo siyosatining merkantistik vositalaridan voz kechib, asosiy diqqatni sanoat siyosatining choralariga qaratishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvga, jahon xo‘jalik aloqalarining rivojlanishida, global integratsion jarayonlarni mustahkamlashda ishtiroy etishga intilishi, uni 1994-yilda BSTga a’zo bo‘lish uchun murojatnomma topshirish qaroriga asos bo‘ldi.

Xalqaro savdo tizimiga qo‘shilishning asosiy afzalligi shundaki, O‘zbekiston tovarlar va xizmatlar savdosida BSTga a’zo bo‘lgan boshqa mamlakatlar bilan teng huquqlarga ega bo‘ladi, ya’ni mahalliy kompaniyalar diskriminatsiya choralaridan ozod bo‘ladilar. Bunday teng huquqlilik o‘zbekistonlik ishlab chiqaruvchilarning o‘z raqobatbardosh tovarlari va xizmatlari bilan tashqi bozorga chiqish shartining bajarilishi bilangina ta’milnishi mumkin.

Biroq, shuni ta’kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimiz intellektual mahsulotining xorijda patentlash va tashqi litsenziya savdosi hajmi milliy ilmiy-texnikaviy va innovatsion tizim salohiyati darajasida emas. Shu bilan birga tovarlar va xizmatlarning xalqaro raqobatbardoshligiga ularni yaratishda intellektual faoliyatning eng yangi natijalarini qo‘llash orqaligina erishish mumkin. Huquqiy muhofaza innovatsiyalar qo‘llanilgan tovarlar va xizmatlar tijoriy foyda keltirsagina o‘zini oqlaydi. Boshqa tomondan, intellektual faoliyat natijalarining huquqiy muhofazasi ulardan

noqonuniy foydalanishga yo'l qo'ymaydi va bunday tovarlar va xizmatlarning yuqoriq narxlarda sotilishiga imkon yaratadi.

BST orqali xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuv milliy sanoat ishlab chiqarishi samaradorligi oshishi va yuqori sur'atlarda o'sishining o'ziga xos katalizatori bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan O'zbekistonning sanoat va savdo siyosati mahaalliy sanoat raqobatbardosh mahsulotini xorijiy bozorlarga yetkazib berish va import o'rmini bosishga yo'naltirilgan innovatsion siyosat bilan o'zaro uyg'unlikda va u bilan to'liq muvofiqlashtirilgan holda shakllantirilishi lozim.

Shunisi muhimki, TRIPS bitimi intellektual mulk huquqlari ning xalqaro savdo bilan bog'liq jihatlarini tartibga soladi, chunki intellektual mahsulotga jahon bozorida tobora talab oshib bormoqda va uni ayirboshlash bilan bog'liq talablar xalqaro darajada muvofiqlashtirilishi zarur.

Xususan, ushbu Bitimda «intellektual mulk» atamasi an'anaviy tushunchalar bilan bir qatorda boshqa ma'lumotlarni ham qamrab olgan. Bu bitimning asosiy xususiyati shundaki, intellektual mulk haqidagi bitimlarda asosiy jihat bo'lgan milliy rejim tamoyili bilan bir qatorda, u eng ko'p qulaylilik tamoyilini ham ko'zda tutadi. Shu tufayli mahalliy va xorijiy talabnomalar beruvchilar uchun patent bojlari va ro'yxatga olish yig'imlari o'rtasidagi farqlardan davlat ancha zarar ko'rmoqda.

TRIPS Bitimining intellektual mulk muhofazasini ta'minlash bo'yicha qoida va me'yorlari unga a'zo mamlakatda huquqiy va ma'muriy protseduralarni jiddiy isloh qilishni talab qiladi.

BSTga a'zo bo'lish soxta tovar belgilari bilan markirovka qilingan yoki mualliflik huquqlarini buzuvchi tovarlar savdosiga chek qo'yish bo'yicha bojxona organlari vakolatlarini kengaytirishni talab qiladi. Bitimda ko'zda tutilgan protseduralar chegaraviy chorralarga nisbatan intellektual mulk huquqlarini qo'llashga yo'naltirilgan bo'lib, bojxona organlari ularni tovar belgilari yuzasidan huquqlar yoki mualliflik huquqlari buzilib olib kirilishi shubha qilinayotgan tovarlarga nisbatan intellektual mulk egasining yozma arizasiga ko'ra amalga oshirishlari mumkin.

TRIPS Bitimida bojxona organlari tomonidan tegishli tovarlarni ushslash tamoyillari, uning muddati, import qiluvchiga va

tovar egasiga zararni qoplash, tekshirish va ma'lumot berish huquqi aniq belgilanganligi uchun O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunchiligiga shunga muvofiq qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritishni hamda bojxona organlarini tegishli tayyorgarlik ko'rgan kadrlar bilan ta'minlashni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi globallashuv sharoitida O'zbekistonning BSTga va demakki, TRIPS Bitimiga qo'shilishi mamlakatimizda intellektual mulk muhofazasini kuchaytirishga hamda innovatsion va investitsiya iqlimini yaxshilanishiga yordam beradi.

Tayanch iboralar: innovatsiya, intellektual mulk, fan-texnika taraqqiyoti, milliy innovatsion tizim, ilmiy-texnikaviy salohiyat, fan-texnika inqilobi, modernizatsiya, ilmiy-texnikaviy faoliyat, ixtiro patenti, nou-xau, fan sig'imli mahsulot, yuqori texnologik tovar, innovatsion jarayon.

Nazorat savollari:

1. Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va uni belgilovchi ko'rsatgichlar tizimiga tavsif bering.
2. Innovatsiya tor va keng ma'noda qanday talqin etiladi?
3. Innovatsion jarayon nima va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'mi qanday?
4. Innovatsion mahsulot qanday xususiyatlarga ega?
5. Innovatsion mahsulotga mulk huquqi nima va uni amalga oshirish mexanizmi qanday?
6. O'zbekistonda intellektual mulk obyektlari huquqiy muhofazasining tashkiliy-huquqiy asoslarini tavsiflang.
7. Jahon xo'jaligi globallashuvining mamlakatlar innovatsion rivojlanishiga ta'siri yo'naliishlari qanday?
8. Milliy iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyotida intellektual mulk himoyasi tizimini takomillashtirishning ahamiyati.
9. Intellektual mulk munosabatlarini xalqaro tartibga solishning huquqiy mexanizmiga tavsif bering.
10. Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va uni belgilovchi ko'rsatgichlar tizimiga tavsif bering.
11. Innovatsiya tor va keng ma'noda qanday talqin etiladi?

12. Innovatsion jarayon nima va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni qanday?
13. Innovatsion mahsulot qanday xususiyatlarga ega?
14. Innovatsion mahsulotga mulk huquqi nima va uni amalga oshirish mexanizmi qanday?
15. O'zbekistonda intellektual mulk obyektlari huquqiy muhofazasining tashkiliy-huquqiy asoslarini tavsiflang.
16. Juhon xo'jaligi globallashuvining mamlakatlar innovatsion rivojlanishiga ta'siri yo'nalishi qanday?
17. Milliy iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyotida intellektual mulk himoyasi tizimini takomillashtirishning ahamiyati.
18. Intellektual mulk munosabatlarini xalqaro tartibga solishning huquqiy mexanizmiga tavsif bering.

**IKKINCHI BO'LIM.
MINTAQAVIY IQTISODIY INTEGRATSIYA
JARAYONLARI**

**1 BOB. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANING
KONSEPTUAL ASOSLARI**

**1.1 Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va uning
dinamikasini belgilovchi omillar**

Ma'lumki, globallashuv – yaxlit jahon xo'jaligining shakllanishi, xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiyalashuvining jadallashishi natijasida milliy iqtisodiyotlarning bir-biriga chuqur bog'liqligi, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, uning keng transmiliylashishi jarayonini anglatadi. Integratsiyalashuv uning muhim bosqichlaridan biridir.

«Iqtisodiy integratsiya» atamasi XX asrning 30-yillarida nemis va shvesiyalik iqtisodchilarning asarlarida paydo bo'ldi¹⁵, biroq bugungi kunda uning bir nechta o'nlab ta'riflari mavjud.

«Integratio» so'zi lotin tilidan tarjima qilinganda birlashish, to'ldirish, «integrare» – yaxlitga aylantirish ma'nosini anglatadi. Shunday qilib, integratsiya — qismlarni muayyan yaxlitlikka umumlashtirish, birlashtirish jarayonidir.

XIM sohasiga tatbiqan. «Xalqaro iqtisodiy integratsiya» deganda bir qator mamlakatlar takror ishlab chiqarish jarayonlari ning bosqichma-bosqich birlashishiga olib boradigan, milliy xo'jaliklar o'rtaida chuqur barqaror o'zaro munosabatlар va mehnat taqsimotining rivojlanishi asosida ishlab chiqarish baynalmilalashuvining yuqori darajasi tushuniladi.

¹⁵ Айниска, XX asrning 30-йилларида немис тарixchisi va xukuxshunoasi K. Шмидт томонидан илгари сурулган «кatta макон назарияси» («Grossstaatstheorie») машхур бўлган. У XX asrda иқтисодий ривожланни жарабни муносабати билан янъанавий миллий давлатлар ролининг кучсизланишини таъкидлаган ва xalqaro муносабатлар ва xalqaro xukuxkuning янги, янада такомиллашган ва тўлиқ миёсдаги субъектлари сифатida кatta геомаконларни яратиш g'ояси билан чиқкан.

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya - bir nechta mamlakatlarning mintaqaviy darajadagi qo'shma faoliyatini ko'zda tutadi, ular iqtisodiyotini u yoki bu turdag'i yagona mintaqaviy xo'jalik majmuasiga birlashtirishga olib boradi.

Biroq, muammo «birlashtirish», «umumlashtirish», «yaxlitlik» tushunchalariga qanday mazmun kiritilayotganidan iborat.

Taniqli fransuz iqtisodchisi R.Aron ta'kidlaganidek: «Agar tovarlar, kapital va insonlarning muayyan miqdordagi iqtisodiy birliklar o'rta sidagi harakati mazkur birliklardan har birining ichidagi kabi erkin amalga oshirilsa, u holda ushbu birliklar umumlash tilgan».

Integratsiyalashayotgan mamlakatlar o'rta sida tovarlar va ishlab chiqarish omillari harakatining to'liq erkinlashtirilishi natijasida tashkil topadigan yagona iqtisodiy makon raqobatdosh firmalar sonini oshirish va «miqyos iqtisodiyoti» samaralaridan foydalanishga imkon beradi.

Mintaqaviy uyushmalar hamkor-mamlakatlar iqtisodiyoti «bir lashuvi»ning chuqurligi va tavsifi, tanlangan integratsion strategiya va institusional tuzilmasi, ularning faoliyat sohalari va miqyoslari, a'zo mamlakatlarning soni, ijtimoiy-madaniy jihatlariga ko'ra farq qiladi.

Jahon xo'jaligining asosiy mintaqalaridagi ayrim integratsion iqtisodiy tashkilotlar

I.I.I-jadval.

Nº	Tashkilot nomi	A'zo davlatlar soni	Tuzilgan yili
1.	Yevropa Ittifoqi (YeI) (dastlab Yevropa iqtisodiy hamjamiyati - YeIH)	28	1992 (1957)
2.	Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YeESA)	4	1960
3.	Markaziy Yevropada erkin savdo zonasi (SEFTA)	7	1992
4.	Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)	10	1991

5.	Qora dengiz iqtisodiy hamkorligi (QIH)	11	1992
6.	Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi (NAFTA)	3	1994
7.	«Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi» Forumi (ATES)	21	1989
8.	Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN)	10	1967
9.	Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorligi assotsiatsiyasi (SAARK)	7	1985
10.	Lotin Amerika integratsiya assotsiatsiyasi (LIA) (sobiq Lotin Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi – LESA)	11	1980 (1960)
11.	And guruhi, yoki And pakti	5	1969
12.	Karib hamkorligi va Karib umumiy bozori	14	1973
13.	Janubiy konus mamlakatlari umumiy bozori (MERKOSUR)	4	1991
14.	G'arbiy Afrika mamlakatlari iqtisodiy hamjamiyati (EKOVAS)	16	1976
15.	Sharqiy va Janubiy Afrika umumiy bozori (KOMESA)	20	1994
16.	Janubiy Afrika taraqqiyot hamjamiyati (SADK)	11	1992
17.	Markaziy Afrika bojxona va iqtisodiy ittifoqi (YuDEAK)	6	1966
18.	Arab iqtisodiy yaxlitligi kengashi (AIYaK)	12	1964
19.	Fors ko'rfazidagi arab mamlakatlari hamkorligi Kengashi (FKAMHK)	6	1981

Bunda integratsiya ayrim sezilarli xususiyatlar bilan tavsiflanib, ular umuman olganda integratsiyani mamlakatlardan iqtisodiy hamkorligining boshqa shakllaridan farqlab turadi:

— kelishuvning ishtirokchi-mamlakatlari o'rtaida tovarlar, shuningdek, xizmatlar, kapitallar, inson resurslarining harakat qilishidagi cheklowlarning bartaraf qilinishi;

- ishtirokchi-mamlakatlar iqtisodiy siyosatining kelishilishi;
- milliy ishlab chiqarish jarayonlarining o‘zaro singishi va qo‘shilishi, mintaqa doirasida ishlab chiqarish jarayonidagi texnologik yaxlitlikning shakllanishi;
- yanada progressiv va chuqur shakllar asosida ishlab chiqarish, fan va texnikada xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiya-ning keng rivojlanishi, iqtisodiy taraqqiyot va uning innovatsion mexanizmining hamkorlikda moliyalashtirilishi;
- ishtirokchi-mamlakatlar iqtisodiyotidagi tuzilmaviy o‘zgarishlar;
- milliy qonun hujjatlari, me’yorlar va standartlarning yaqinlashishi;
- birlashish jarayonining maqsadli tartibga solinishi, o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni boshqarish organlarining rivojlanishi (Yelda bo‘lgani kabi boshqaruvning ham davlatlararo, ham davlat mexanizmlari);
- integratsiyaning makon miyoslariini mintaqaviylashuvi.

Jahon xo‘jaligining asosiy mintaqaviy iqtisodiy integratsiya birlashmalari¹⁶

1.1.2-jadval

No	Birlashma nomi	A’zo mamlakatlar va ular soni	Tuzilgan-yili
1.	And guruhi yoki And pakti (CAN)	Boliviya, Kolumbiya, Ekvador, Peru (4)	1969
2.	Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN)/	Bruney, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Tayland, Kombodja, Laos, Myanma, Singapur, Vietnam (10)	1967
3.	Markaziy Amerika umumiy bozori (CACM)	Kosta-Rika, Salvador, Gvatemala, Gonduras, Nikaragua (5)	

¹⁶International Trade Statistics 2014. WTO, Geneva, 2014. P. 52.

4.	Karib hamkorligi va Karib umumiy bozori (CARICOM)	Antigua va Barbados, Bagam orollari, Barbados orollari, Beliz, Dominikan Respublikasi, Grenada, Gayana, Gaiti, Yamayka, Monserrat, Sant Kits va Nevis, Sant Lutsiya, Sant Vinsent va Grenadiya orollari, Surinam, Trinidad va Tobago (15)	1973
5.	Markaziy Afrika bojxona va iqtisodiy ittifoqi (CEMAC)	Kamerun, Chad, Kongo, Ekvatorial Gvineya, Gabon, Markaziy Afrika Respublikasi (7)	1966
6.	Sharqiy va Janubiy Afrika umumiy bozori (COMECA)	Burundi, Misr, Liviya, Ruanda, Svazilend, Komor orollari, Eriteriya, Madagaskar, Seyshel orollari, Uganda, Kongo Demokratik Respublikasi, Efiopiya, Malavi, Janubiy Sudan, Zambiya, Djibuti, Keniya, Mavritaniya, Sudan, Zimbabwe (21)	1994
7.	Markaziy Afrika mamlakatlari iqtisodiy uyushmasi (ECCAS)	Angola, Markaziy Afrika Respublikasi, Chad, Burundi, Kamerun, Kongo, Kongo Demokratik Respublikasi, Ekvatorial Gvineya, Gabon, Ruanda San Tome va Prins (10)	
8.	G'arbiy Afrika mamlakatlari iqtisodiy hamjamiyati (ECOWAS)	Benin, Burkino Faso, Kabo Verde, Kot d Ivuar, Gambiya, Gana, Gayana, Gvineya-Bisau, Liberiya, Mali, Niger, Nigeriya, Senegal, Serra Lione, Togo (15)	1976
9.	Evropa erkin savdo assotsiatsiyasi (EFTA)	Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya, Shveysariya (4)	1960
10.	Evropa Ittifoqi (EU)	Belgiya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya, Gresiya, Ispaniya, Portugaliya Avstriya, Finlyandiya, Shvesiya, Vengriya, Kipr, Malta, Latviya, Litva, Polsha,	1992 (1957)

		Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Estoniya, Bolgariya, Ruminiya, Xorvatiya (28)	
11.	Fors ko'rfazi-dagi arab mamlakatlari hamkorligi Kengashi (GCC)	Baxrayn, Quvayt, Oman, Atar, Saudiya Arabiston, Birlashgan Arab Amirliklari (6)	1981
12.	Janubiy konus mamlakatlari umumiy bozori (MERKOSUR)	Argentina, Braziliya, Paragvay, Urugvay (4)	1991
13.	Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi (NAFTA)	AQSh, Kanada, Meksika (3)	1994
14.	Janubiy Afrika taraqqiyot hamjamiyati (SADC)	Angola, Botswana, Kongo Demokratik Respublikasi, Lesoto, Madagaskar, Malavi, Mavritaniya, Mozambik, Nabimiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Seyshel orollari, Svazilend, Tanzaniya, Zambiya, Zimbabwe (15)	1992
15.	Janubiy Osiyo erkin savdo assotsiatsiyasi (SAFTA)	Bangladesh, Butan, Hindiston, Nepral, Pokiston, Shri-Lanka, Maldiv orollari (7)	1985
16.	Sharqiy Afrika iqtisodiy va valyuta ittifoqi (WAEMU)	Benin, Burkino Faso, Kabo Verde, Kot d Ivuar, Gambiya, Gana, Gayana, Gvineya-Bisau, Liberiya, Mali, Niger, Nigeriya, Senegal, Serra Lione, Togo (15)	1976

Manba: International Trade Statistics 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 52.

Integratsiyaning *obyektiv mazmuni* oxir-oqibatda qismar integratsiya ko'rinishida sodir bo'ladigan takror ishlab chiqarish jarayonlarining qo'shilishi, o'zaro singishi va birlashishini tashkil etadi.

Integratsiyalashuv jarayoni yaxlit tizimning ayrim bo‘g‘inlarini o‘z ichiga oladi:

1) bozor muomalasi (savdoning erkinlashtirilishi va ishlab chiqarish omillarining o‘sishi hisobiga), shu jumladan, tovarlar, xizmatlar, pul massasi, qimmatli qog‘ozlar va boshqalar – bu yuzaki (yoki yumshoq) integratsiya (shallow integration);

2) real ishlab chiqarish (chuqur integratsiya – deep integration);

3) qaror qabul qilish (firmalar, tadbirkorlik uyushmalari, milliy hukumatlar, xalqaro va milliy tashkilotlar darajasida).

Zamonaviy XIMda muhim birlashmalar «uchligi» yirik integratsiya markazlari bo‘lib hisoblanadi:

1. Yevropa Ittifoqi, uning tarkibiga 28 ta davlat – Germaniya, Fransiya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Belgiya, Buyuk Britaniya¹⁷, Irlandiya, Daniya, Gresiya, Ispaniya, Portugaliya, Avstriya, Shvesiya, Finlyandiya, Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Latviya, Litva, Estoniya, Sloveniya, Kipr, Malta, Ruminiya, Bolgariya va Xorvatiya kiradi. Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi doirasida o‘zaro xo‘jalik hamkorligining eng yuqori darajasiga erishilgan – hamkor-mamlakatlarning yagona ichki bozori shakllangan, 19 ta mamlakat doirasida – Iqtisodiy va valyuta ittifoqi tashkil etilgan.

2. AQSh, Kanada va Meksika davlatlaridan tashkil topgan Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi (NAFTA) Ushbu birlashma doirasida tovarlar erkin savdosi hududining tashkil etilishi boshqa sohalardagi integratsiya bilan to‘ldiriladi, ya’ni, a’zo davlatlar orasida investitsiyalar, ishchi kuchi, xizmatlar va boshqalar harakatining erkinlashtirilishi kuzatiladi.

3. 21 ta mamlakat iqtisodiyotini birlashtiruvchi «Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi» forumi (ATES). Uning doirasida 2020-yilga kelib erkin savdo tizimi va investitsiyalarning erkin harakatini yaratish masalasi hal etilmoqda.

Integratsiya jarayonlarining rivojlanishini shartlaydigan, asosiy, yanada yirik muayyan tizimni tashkil etadigan omillar, qatorida:

¹⁷ 2016-yilning iyun oyida o‘tkazilgan referendum natijasiga ko‘ra, mamlakat aholisiga Buyuk Britaniyaning Yevropa Ittifoqidan chiqib ketishiga rozilik bildirdi.

- a) mamlakatlar o‘zaro bog‘liqligining kuchayishi, xo‘jalik hayoti baynalmilallahuvining chuqurlashuvi, xalqaro mehnai taqsimoti va kooperatsiyalashuvining uyg‘unlashuvi;
- b) iqtisodiyotning globallashuvi va global raqobat;
- d) ilmiy-texnik taraqqiyot va uning zamonaviy shakli: axborot-texnologik inqilob;
- e) iqtisodiyotning erkinlashtirilish jarayonlari va milliy xo‘jaliklar ochiqligi darajasining ortishi;
- f) zamonaviy dunyoda sivilizatsiyalar, jamiyatning madaniy-ijtimoiy turlari va dunyoviy-ma’rifiy tuzilmalarning ko‘pligi (plyuralizm);
- g) ko‘p sonli mamlakatlar umumiy xavfsizligi nuqtai nazaridan milliy-davlat manfaatlarining umumiyligi;
- h) geosiyosiy manfaatlar va boshqalarni sanab o‘tish mumkin.

Integratsiya omillarining xilma-xilligini batafsilroq ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

1. Zamonaviy shart-sharoitlarda mamlakatlar va, ayniqsa, ularning firmalari barqaror iqtisodiy munosabatlarning xalqaro mehnai taqsimoti asosida rivojlanishi global mazmunga ega bo‘ldi. Milliy iqtisodiyotlarning yanada ochiqligi, TMKlar faoliyati, fan-texnika inqilobi, xalqaro savdo, kapital migratsiyasi, transport, aloqa va axborotlarning zamonaviy tizimlari xo‘jalik hayoti baynalmilallahuvini shunday darajaga olib chiqdiki, bunda yaxlit jahon xo‘jaligida jahonning ko‘p mamlakatlari firmalarining asosiy qismi faol ishtiroki bilan o‘zaro munosabatlarning global tarmog‘i vujudga keldi.

2) Firmalararo va davlatlararo raqobat kurashining keskin kuchayishi, raqobatning yangi sohalari va an‘anaviy bozorlardagi qat’iy raqobat alohida olingan mamlakat yoki kooperatsiyaning imkoniyatlarini oshiradi. Bu kooperatsiyaning hududiy jihatdan tutash mamlakatlarning globallashayotgan iqtisodiyotda o‘z o‘rinlarini mustahkamlashga imkon bergen holda, yirik iqtisodiy makonning salohiyatidan foydalanish, va nihoyat, jahon bozorida umumiy raqobatchilarga qarshi yaxlit kuch sifatida ishtirok etish, ularning ham moddiy-moliyaviy, ham ishlab chiqarish xattiharakatlari sifatida zarurligini ifodalaydi. Natijada, nafaqat, milliy-davlat manfaatlarining muayyan bog‘liqligi, balki ularning

mintaqaviy manfaatlar ko'rnishidagi rasmiy lashtirilishi muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi.

3) Milliy iqtisodiyotlar ochiqligining oshishi integratsiya jatayonlarini rag'batlantiruvchi omil bo'lib hisoblanadi. Quyidagilar ochiq iqtisodiyotning o'ziga xos jihatlari bo'lib hisoblanadi:

– milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligi munosabatlariiga chuqur jalb etilganligi (jahondagi ko'pgina mamlakatlar YalMDa tovarlar va xizmatlar bo'yicha eksport kvotasining kattaligi va uning o'sishda davom etishi bu haqda bilvosita guvohlik beradi);

– tovarlar, kapitallar, ishchi kuchining mamlakatlararo harakatlanishiga bo'lgan cheklov larning kamayishi yoki butunlay bekor qilinishi;

– milliy valyutalarning konvertirlanishi.

4. Ilg'or mamlakatlarda axborot-texnologik inqilobga, bilimga tayanadigan yangi iqtisodiyotning paydo bo'lishi – mintaqaviy integratsiyani rivojlantirishning sezilarli omillaridan biri hisoblanadi. Aksariyat olimlarning fikriga ko'ra, jahon xo'jaligi rivojlanishi paradigmaini bilimlarga va axborot texnologiyalarga ega bo'lish tashkil etmoqda. «Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot»ning (*knowledge-based economy*) asosiy resursi – insondir. Har bir inson o'z salohiyatiga ega, davlatning vazifasi esa – uni rivojlantirishdir. Biroq, ayrim mamlakatlarda ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalari (NIOKR), ilmtalab ishlab chiqarish, ta'limning zamonaviy modellarini rivojlantirish uchun mablag' yetishmaydi. Mintaqaviy integratsiya jamoaviy fondlarini yaratish, ilmiy-texnik va ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va kooperatsiyasini rivojlantirish, innovatsiya muammolarini bирgalikda hal etishga imkon beradi.

5. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda *axborot-texnologik inqilob* masalalari dolzarb bo'lib bormoqda. Birinchi navbatda bu ham alohida mamlakatlarda axborotlashtirish yutuqlaridan foydalana olishdagi muammolar bilan bog'liqdir. Ayniqsa, ular rivojlanyotgan mamlakatlar doirasida kuzatilmoqda.

Afrika uchun axborot texnologiyalarini rivojlantirishning mintaqaviy, subregional va milliy strategiyalarni ishlab chiqish-bu yo'ldagi muhim qadam bo'ldi. Integratsiya ularni iqtisodiyotga joriy etish va shu tarzda rivojlantirish sur'atlarini oshirish bo'yicha

mintaqaviy xatti-harakatlarning lokomotiviga aylandi. Natijada, ayanan SADK (Janubiy Afrika mamlakatlarini rivojlantirish ham-jamiyat) mamlakatlarida axborot texnologiyalardan foydalanish sezilarli darajada olg'a siljidi.

6. *Globallashuvning ijtimoiy jihatlari* ahamiyatining o'sishi. Bu mazkur jarayonning insonlar xilma-xil ehtiyoj va talablarini inobatga olgan holda oqibatlari, globallashuvning salbiy ta'sirini kamaytirishga katta e'tibor qarafilayotganligini ifodalaydi. Shu munosabat bilan ijtimoiy himoya majmuasining (*social safety nets*) yaratilishi dolzarb ahamiyatga egadir. Bu atarna ostida, odatda, ijtimoiy ta'minot, bandlik, ta'lif, sog'liqni saqlash va noqulay o'zgarishlar yoki iqtisodiyotdagi tanglik holatida aholining zaif qatlamlariga nisbatan barcha sohalarda manzilli yordam choralari majmui tushuniladi. Bu ham mintaqaviy integratsiyani rivojlantirish omillaridan biri hisoblanadi. Masalan, Yevropa Ittifoqidek – eng yetuk integratsion guruhda – yagona ijtimoiy makon shakllanmoqda.

7. Integratsiyaning alohida mintaqalar doirasida rivojlanishiga jahon xo'jaligining ikki qutbli holatiga barham berilgan sharoitda *jahonning ko'p qutbliligiga o'tish tendensiyasi* turki beradi. Mintaqaviy integratsiya sivilizatsiyaviy boyliklar, «sivilizatsiyaviy ta'sir qutblari», amal qilinadigan umumiy an'analar, o'z mafkurasi va hayot uslubiga (Yevropa, Osiyo, Lotin Amerikasi — Yel, ASEAN va MERKOSUR) ham tayanadi. Shunday qilib, mintaqaviy integratsiya insoniyatning ichki xilma-xilligining yuqori darjasи, va shu bilan — barqarorligini ham (ma'lumki, har qanday ko'rinishdagi barqarorlik uning ichki xilma-xillik darajasiga to'g'ri mutanosib) qo'llab-quvvatlaydi.

Umuman olganda, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy integratsiyaga intilishi yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarga nisbatan bir nechta boshqa sabablarga ega. Agar rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy integratsiya ishlab chiqarish kuchlarining erishilgan yuqori darjasи talablaridan kelib chiqadigan zarurat hisoblansa, rivojlanayotgan mamlakatlar doirasida iqtisodiy integratsiya evaziga ushbu mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotda, eng avvalo, sanoatlashirishda qiyinchiliklarni birmuncha yengillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Aniq maqsadlar esa quyidagilardir:

- *iqtisodiy taraqqiyotning tezlashishi;*
- *iqtisodiyotning tuzilmaviy qayta qurilishi, zamonaviylash-tirish;*
- *uchinchи mamlakatlardan xorijiy investitsiyalarni jalg etish;*
- *xalqaro mehnat taqsimoti tizimida bo'ysunuvchi holatning o'zgarishi.*

Biroq rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida integratsiyalashuv ko'p hollarda bir qator to'sqinlik qiluvchi omillarning ta'siri natijasida juda sekinlik bilan amalga oshirilmoqdaki, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- har bir mamlakat ichki iqtisodiy muammolarining o'ziga xos xususiyatlari (ishlab chiqarish kuchlari rivojlanish darajasining pastligi, yakkaxonlik, ichki iqtisodiyotning tarqoqligi va h.k.);
- o'zaro munosabat omillari (moddiy bazaning kuchsizligi, infratuzilmaning shu jumladan transport tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, integratsiyaga kirishayotgan mamlakatlar iqtisodiy nuqtayi nazardan ko'pincha bir turdagи tarmoq tuzilmalariga ega bo'lган holda, bir-birini kam to'ldirishi; qo'shma mintaqaviy loyi-halarni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi);
- shu bilan birga 60–70-yillardan farqli ravishda, 1980-yillarning o'ttalaridan boshlab to'hozirgi vaqtga qadar Lotin Amerikasi, Janubi-Sharqiy Osiyo va boshqa mintaqalarda yanada muvaffaqiyatli mintaqaviy integratsiya uchun yangi rag'batlar shakllana boshladи. Jumladan, milliy iqtisodiyotlarning erkinlashtirishi, jahon bozori bilan bog'liq, ochiq turdagи iqtisodiyotlarning shakllanishi, o'nlab mamlakatlarda demokratlashtirish, o'zaro munosabatarda keskinlikning kamayishi, yangi liberal islohotlar asosida yangi modernizatsiya to'lqinining boshlanishi integratsiya jarayonlariga turtki bo'limoqda.

Shu bilan birga rivojlanayotgan dunyodagi iqtisodiy integratsiya ko'p jihatdan *salohiyatli*, amalda esa *rasmiy* hisoblanadi (LAES, SAOR, Afrika, Arab birlashmalari). Shunday bo'lishiga qaramasdan, unga bo'lgan intilish umumjahon xo'jalik taraqqiyotining umumiyy tendensiyalarini aks ettiradi. Yangi hodisa sifatida

rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning bir guruhga birlashishlari (masalan, NAFTA, ATES) e'tirof etilmoqda.

Maxsus iqtisodiy adabiyotlarda quyidagilar *integratsiyaning bevosita shart-sharoitlari sifatida e'tirof etilgan*: birinchidan, integratsiyalashayotgan mamlakatlar yaqin darajadagi iqtisodiy rivojlanishga va bozor iqtisodiyotining yetukligiga ega bo'lishi lozim. Odatda, agar rivojlangan davlatlar integratsiyalashayotgan bo'lsa, bu jarayon intensiv va samarali kechadi. Ikkinchidan, umumiy chegaralar va tarixan yuzaga kelgan iqtisodiy munosabatlarning mavjudligi. Odatda, bitta qit'ada joylashgan bevosita geografik yaqinlikda transport, til va boshqa muammolarni osonlik bilan hal qiladigan mamlakatlar birlashadi. Uchinchidan, integratsiyalashayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida o'zaro to'ldiruvchi tuzilmalarning mavjudligi (ularning mavjud emasligi — Afrika va Arab dunyosidagi integratsiyaning past samaradorligi sabablaridan biridir). To'rtinchidan, u yoki bu mintaqa mamlakatlari oldida turgan xo'jalik, ekologik va boshqa muammolarning umumiyligi. Besinchidan, mamlakatlarning siyosiy erkinligi, integratsiyalashuvda yetakchi-mamlakatlarining mavjudligi. Oltinchidan, yutuqlarni namoyish etish samarasi. Tajribaga ko'ra, u yoki bu integratsiyaviy uyushmalar muvaffaqiyatlarining ta'siri ostida boshqa mamlakatlarda ham ushbu tashkilotga a'zo bo'lish istagi paydo bo'ladi. Masalan, Yelning erishgan natijalari samarasi mazkur birlashmaga a'zo bo'lish uchun Markaziy-Sharqiy Yevropaning 10 ta mamlakatiga turtki bo'ldi. Yettingidan, «domino samarasi». Integratsiya odatda a'zo mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarini ichki mintaqaviy hamkorlikka qayta yo'naltirishga olib keladi. Shu sababli, birlashma tashqarisida qolgan boshqa mamlakatlar ayrim qiyinchiliklarni, shu jumladan guruhga a'zo mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalar hajmining qisqarishi holatini boshdan kechiradilar. Masalan, Meksika NAFTAg'a a'zo bo'lganidan so'ng Lotin Amerikasida «Uchlar guruhi» paydo bo'ldi (Venesuela va Boliviya u bilan erkin savdo to'g'risidagi kelishuvga imzo chekdi).

1.2 Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari va bosqichlari

Har bir integratsion guruhning *iqtisodiy modeli* — uzoq tarixiy jarayonning natijasi bo'lib, uning davomida mintaqaviy xo'jalik majmuasini tashkil etuvchi unsurlar nisbati shakllanadi, ularning o'zaro munosabatlari mexanizmi mustahkamlanadi. Aynan shuning uchun har bir mintaqaviy iqtisodiy tizim o'zicha noyob bo'lib, uning tajribasining mexanik o'zlashtirilishi past samaradorlikka ega.

Biroq hozirda mavjud savdo-iqtisodiy guruhlarning qiyosiy tahlili mintaqaviy integratsiya jarayonlarini rivojlantirishning muayyan umumiy qonuniyatlarini borligini, uning bir qator o'ziga xos bosqichlardan navbatma-navbat o'tishi kerakligini, integratsiya jarayonlari intensivligining turli darajasi, uning chuqurligi va miqyoslari turlichay ekanligini ko'rsatadi.

Integratsiyaga oddiydan murakkabga qarab rivojlanayotgan jarayon sifatida qarash uning shakl va bosqichlarining tasniflanishini amalga oshirish imkonini beradi. Bu o'rinda, turli xalqaro iqtisodiy tashkilotlar asos sifatida qabul qilgan J.Gopkins universiteti (AQSh) professori B.Balassa nazariy yondashuvi klassik tasnifga aylandi. B.Balassa, eng avvalo, hamkorlik va integratsiyani farq qilishni taklif etdi. Agar hamkorlik jarayoni turli xildagi cheklowlarni va kamsitishlarni kamaytirishga yo'naltirilgan xattiharakatlarning amalga oshirilishini bildirsa, u holda integratsiya jarayoni cheklov va kamsitishlarning bartaraf etilishini ko'zda tutadi. B.Balassa **integratsiyaning beshta asosiy shakllarini** (integratsion kelishuv turlarini) farqlaydi. Yel va boshqa integratsion guruhlarning muayyan tajribasi orqali kiritilgan mazkur nazariyaning zamonaviy modifikatsiyalarini hisobga olgan holda, ularni ko'rib chiqamiz.

Integratsion kelishuvlarning asosiy turlariga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

- erkin savdo zonası (*free trade zone*);
- bojxona ittifoqi (*customs union*);
- umumiy bozor (*common market*);
- iqtisodiy ittifoq (yanada yetuk shaklda iqtisodiy va valyuta ittifoqi: *economic and monetary union*);

— to‘liq iqtisodiy va siyosiy integratsiya.

Zikr etilgan integratsiyaviy hamkorlik turlaridan har birini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Erkin savdo zonasasi. Bu holatda kelishuv ishtirokchilari birlariga nisbatan bojxona tariflari va kvotalarni bekor qiladilar. Shu bilan birga erkin savdo zonasining har bir ishtirokchisi uchinchi mamlakatlarga nisbatan o‘zining xususiy tashqi savdo siyosatini yuritish huquqini saqlab qoladi. NAFTA shunday turdagি integratsiya shakliga yorqin misol bo‘la oladi.

Bojxona ittifoqi. Uning erkin savdo zonasidan asosiy farqi shundaki, bojxona ittifoqi ishtirokchilari nafaqat o‘zaro savdoda tarif va kvotalarni bekor qilishadi, balki uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona tashqi savdo siyosatini yuritishadi. Bojxona ittifoqi bir nechta bojxona hududlarini bittasi bilan almashtirilishini ko‘zda tutadi. Bunda ichki chegaralardagi bojxona xizmatlari soddalash-tiriladi, ularning funksiyalari esa yagona bojxona hududining tashqi chegaralaridagi tegishli xizmatlarga o‘tkaziladi. 1968-yildan boshlab Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (keyinchalik Yevropa ittifoqiga aylantirilgan), shuningdek MERKOSUR, YevroSIH olti mamlakatida (Rossiya, Belorussiya, Kozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston) shakllanayotgan Bojxona ittifoqi ushbu shaklga misol bo‘la oladi. Integratsiyaning bu bosqichida tovar oqimlari sezilarli darajada o‘zgaradi, kelishuvning ishtirokchi mamlakatlaridan import qilish o‘sadi, mahsulot ishlab chiqarish va iste’mol tarkibida o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Bojxona ittifoqi mantiqan yetarli darajada tugallangan shakl hisoblanadi. Shu bilan birga tashqi savdo bilan cheklangan holda, uning rivojlanishi savdo-iqtisodiy uyushmalarning yanada murakkab shakllariga o‘tish ehtiyojini tug‘diradigan ichki ziddiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Umumiy bozor. Bojxona ittifoqi doiralariga qo‘srimcha sifatida, mazkur shakl barcha ishlab chiqarish omillarining ishtirok-chi-mamlakatlar o‘rtasidagi erkin ko‘chishi yo‘lidagi to‘siqlarning bartaraf etilishini ko‘zda tutadi. Aytilganlarning barchasi milliy qonunchilik, standartlarning yaqinlashishi, integratsiya institusional asoslarining rivojlanishi, birlashtirish jarayonlarini umumiy bosh-qarish organlarining shakllanishini anglatadi.

Umuman olganda mamlakatlarning muayyan guruhi ichida ishlab chiqarish omillarining erkin harakati jami resurslardan yanada oqilona foydalanish mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish ixtisoslashuvining rivojlanishi, ishlab chiqarish tuzilmalarining maqbullahishi va ishlab chiqarish miqyoslarining kengayishi tufayli iqtisod qilish omilidan to‘liq foydalanishga yordam berishi lozim. Shu bilan birga umumiyo bozor tarkibiga kiradigan mamlakatlarning iqtisodiy siyosatidagi tafovutlar bunga to‘sinqlik qiladi. Qat’iy ma’noda, bu holat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda kelib chiqadigan barcha salbiy oqibatlar ketidan ziddiyatlarning mavjudligiga yo‘l qo‘yadi. Natijada savdo-iqtisodiy ittifoqlarning yanada murakkab shakllariga o‘tish sharoitidagina hal qilinishi mumkin bo‘lgan muammo paydo bo‘ladi.

Iqtisodiy ittifoq. Mazkur shakl ishtirokchidan yuqorida ta’kidlangan ziddiyatlarning mamlakatlar yuritayotgan iqtisodiy siyosatning turli sohalarida kelishish yo‘li bilan bartaraf etilishini ko‘zda tutadi. Yel doirasida yagona qishloq xo‘jaligi siyosati, kelishilgan sanoat, energetika, transport, mintaqaviy, ijtimoiy, ilmiy-texnik siyosat yuritilishi, bunga yorqin misoldir.

Shunga e’tibor qaratishimiz kerakki, iqtisodiy siyosat borasida kelishuv jarayoni muayyan darajaga yetgach, u o‘z mantig‘iga bo‘ysuna boshlaydi va agar mamlakat o‘z iqtisodiyotining yuqori darajadagi ochiqligi bilan tavsiflansa, yanada keng doiradagi masalalarni qamrab olgan yaqin bog‘liqlikni talab etadi. Mazkur jarayon majmuaviy va yanada murakkab shakl — iqtisodiy va valyuta ittifoqi doirasida o‘zining muayyan mantiqiy yakuniga yetishi mumkin.

Valyuta ittifoqi — yagona markaziy bankning tashkil etilishi, yagona valyutaning joriy etilishini o‘z ichiga olgan yagona mintaqaviy valyuta tizimini yaratishdir. Bunda yagona valyutakredit va muvofiqlashtirilgan mikroiqtisodiy siyosat borasida kelishuvlar qaror topishi ta’milnadi.

To‘liq iqtisodiy va siyosiy integratsiya. Mazkur holatda yagona bozor makonini yaxlit iqtisodiy va siyosiy tuzilmaga aylantirish haqida so‘z boradi. Bu nafaqat kelishuv, balki bitta shaklga keltirilgan, deyarli yagona iqtisodiy siyosat, qonunchilik bazasini to‘liq bir asosga keltirishni ko‘zda tutadi. Bu bosqichda xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning yangi ko‘p millatli

subyekti paydo bo‘ladi yoki asta-sekin shakllanadi, yagona federativ yoki konfederativ davlatni qaror toptirishga bo‘lgan xatti-harakatlar sodir bo‘ladi.

Integratsiyaning eng past darajasidan (shaklidan) uning yuqori pog‘onasiga o‘tish jarayoni iqtisodiy rivojlanishning **integratsiya bosqichidir**. Bosqichlar davomiyligi ham ichki va tashqi iqtisodiy, ham siyosiy mazmundagi xilma-xil omillarning yaxlit majmuasi bilan aniqlanadi.

Bir qator iqtisodchilar (Dj.Mid, G.Myurdal, R.Lipse, Dj.Vayner va boshqalar) tomonidan rivojlantirilgan B.Balessa konsepsiysi o‘z mohiyatiga ko‘ra integratsiyaning oddiy shaklidan murakkab shakligacha bo‘lgan yo‘lni to‘liq bosib o‘tgan Yevropa Ittifoqida mintaqaviy integratsion siyosatning nazariy asosi hisoblanadi.

1.3 Globallashuv va mintaqaviylashuv jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi va «Yangi mintaqaviylashuv»

Integratsiya jarayonlarining tahlili hozirgi davrning ayrim xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. XX asming oxiri va XXI asrning boshlari – «jahonning yangi me’morchiligi» to‘g‘risidagi masalani o‘z oldiga qo‘yadigan sifat o‘zgarishlari, taraqqiyot bosqichlari, rivojlanish vektorlari paradigmalarining muayyan almashishidir. Dunyo harakatga kelmoqda, yangi davrga o‘tmoqda, yanada ochiq jamiyat tomon harakat qilmoqda.

Hozirgi zamon va kelajak taraqqiyotining *ikki modeli-globallashuv va mintaqaviylashuv* o‘zaro qanday bog‘liqlikka ega ekanligi to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar asosiy masala bo‘lib hisoblanadi. Ikkala tendensiya: ham globallashuv, ham mintaqaviylashuv – bir xil manbalarga – ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy ongdagi o‘zgarishlar bilan kuzatiladigan sifat siljishlari, ishlab chiqarish va bozor taraqqiyotidagi portlashlarga ega bo‘lgan baynalminal tarzda rivojlanayotgan ishlab chiqarish kuchlarining ta’siri ostida jamiyatni zamonaviylashtirishning obyektiv jarayoni turli bosqichlarining paydo bo‘lishidir¹⁸.

¹⁸ Қаранг.: Европейская интеграция, большая гуманистическая Европа и культура / под ред. Л.И.Глухарева. М.: УРСС, 1999. 46-бет.

Iqtisodiy globallashuv xo'jalik hayotining baynalminallashuvi tushunchasi bilan ko'p jihatdan umumiylikka ega. Unisi ham, bunisi ham jahonning o'zaro iqtisodiy bog'liqligining o'sishini anglatadi. Baynalminallashuv milliy iqtisodiyotning rivojlanishi ko'p tomonlama xalqaro hamkorlikni talab qiladigan ko'p tomonlama manfaatlarga ega bo'lishini anglatadi. Globallashuv esa har qanday iqtisodiyot, har qanday bozor muammolari butunjahon, global muammolar maqomiga ega ekanligi hamda ularning hal etilishi uchun nafaqat qator, balki umumiy xatti-harakatlar talab etilishiga urg'u beradi. Baynalminallashuv milliy iqtisodiyotga jahon xo'jaligi munosabatlaridan ma'lum manfaat ko'rishga imkon bersa, globallashuv milliy xo'jalikni jahon iqtisodiyoti bilan muvofiqlashtirmasdan turib muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkin emasligini anglatadi.

Amaliy jihatdan *globallashuv* o'z taraqqiyotida *bir nechta bosqichlardan* o'tadi. Iqtisodiy globallashuvning hozirgi bosqichida deyarli barcha milliy iqtisodiyotlar xalqaro tovarlar, xizmatlar, kaptallar, ishchi kuchi, texnologiyalar bozoriga shunday keskin darajada bog'liq bo'lmoqdaki, yuqorida ta'kidlanganidek, milliy xo'jaliklarni jahon iqtisodiyoti bilan yaqin hamkorliksiz rivojlantirib bo'lmaydi. Butun dunyo deyarli yaqinlashib borayotgan ikkinchi bosqichda turli mamlakatlarda xo'jalik yuritishning iqtisodiy-huquqiy shart-sharoitlarini tenglashtirish vazifasi paydo bo'ladi va hal etiladi hamda davlatlarning moliyaviy va iqtisodiy siyosatlarini muvofiqlashtirilishi amalga oshiriladi. Taxmin qilish mumkinki, bunday turdag'i tenglashtirish va muvofiqlashtirish mintaqaviy, masalan, Yevropa, Osiyo-Tinch okeani yoki Yevroosiyo hududlarida, integratsiyani rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Navbatdagi bosqichda makrodarajada iqtisodiy jarayonlarni yagona boshqarish hamda mikrodarajada umumiy «o'yin qoidalari» asosida yahlit jahon iqtisodiyotining yaratilishi sodir bo'ladi¹⁹.

Shak-shubhasiz, bozor, axborot tizimlari, aloqa vositalari global miqyosdagi zamонавија jamiyatga xizmat ko'rsatadi. Biroq, dunyo turli mamlakatlar, mintaqalar, sivilizatsiyalar tizimi bo'lib qolaveradi. Mintaqaviy guruhlar hozirgi zamondagi ko'p qutbli

¹⁹ Восток / Запад. Региональные подсистемы и региональные проблемы международных отношений / под ред. А.Д.Воскresенского. М.: МГИМО. Российская политическая энциклопедия, 2002. 64–65-бетлар.

dunyoga javobdir. Mintaqaviylashuv globallashuv sharoitida ishlab chiqarish jarayonlarini muayyan geografik makonda samaraliroq tashkil etishga imkon beradi.

Jahon xo'jaligining ko'pgina mintaqalari va tarmoqlarini qamrab olgan global taraqqiyot jarayonlari prinsipial tarzda milliy xo'jaliklar rivojlanishining tashqi va ichki omillari o'rtasidagi nisbatni tashqi omillar foydasiga o'zgartiradi. Hech bir mamlakat globallashayotgan jahon xo'jaligi talablari va uning asosiy ishtirok-chilarining xulq-atvori me'yorlarini hisobga olmasdan turib, iqtisodiy siyosatni oqilona shakllantira va rivojlan Tiria olishga qodir emas. Xo'jalik globallashuvi afzalliklaridan faol darajada foydalanish, iqtisodiyotning ochiqligi ko'p sonli ijobjiy oqibatlar bilan bir qatorda mamlakatning xavfsizligi uchun jiddiy tavakkalchiliklar bilan ham bog'liq: masalan, xalqaro moliya bozoriga bir tomonlama bog'liqlik, portfel investitsiyalarining tez va yirik miqyosdagi «migratsiyalari» va boshqalar shular jumlasidandir. Globallashuvning xavflari (va «chaqiriqlari») 1997–1998-yillarda Janubi-Sharqiy Osiyo, Lotin Amerikasi mamlakatlari va Rossiyada shiddatli tarzda sodir bo'lgan xalqaro moliyaviy tanglikka olib keldi.

Shunday qilib, «oltin milliard» (globallashayotgan yadro va yirik TMK)lar mamlakatlari uchun ko'proq afzallikkarga ega bo'lgan jahon xo'jaligi muhitining tobora oshib borayotgan o'zaro bog'liqligi milliy davlatlar va milliy iqtisodiyotlarning o'sib borayotgan zaifligini ham anglatadi. *Globallashuv «chaqiriqlari»* ta'sirida suveren davlatlarning TMKlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlari modeli kabi parametrlar o'zgarmoqda. Bunday shart-sharoitlarda, bir tomondan, globallashuv afzalliklaridan unumli foydalanish, boshqa tomonidan uning «chaqiriqlari», «qopqonlari»ga qarshi turishga yo'naltirilgan aniq va samarali siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurdir. Har bir alohida davlat oldida milliy manfaatlarni ishlab chiqish, shakllantirish hamda mamlakatining bu jarayondagi o'rmini anglash, jahon hamjamiyati oldida esa – globallashuv jarayonlarini boshqarishning o'zaro manfaatli mexanizmlarini yaratish vazifasi turibdi.

Global iqtisodiyot fenomeni orqali namoyon bo'ladigan yangi butunlik o'zining dialektik qarama-qarshiligi – jahonning mintaqaviylashuvini (Regionalism Versus Globalization) keskinlashtiradi.

Bir qarashda u paradoksdek tuyulsada, bu yerda ziddiyat umuman yo‘q. Bu ikkala jarayonning asosida tashqi iqtisodiy faoliyatning liberallashuvi yotadi.

Mintaqaviy iqtisodiy majmualarni taraqqiyot globallashuvining segmentatsiyasi emas, balki muhim tarkibiy qismlari sifatida qarash kerakligini anglash lozim. *Mintaqaviy lashuv* savdoning erkinlash-tirilishi, kapitallar, barcha ishlab chiqarish omillarning harakati uchun qo‘srimcha imkoniyatlar, rag‘batlar, mexanizmlarni yaratib beradi, u — globallashuv chaqiriqlariga javoblardan biridir²⁰. Bu o‘z-o‘zini inkor etuvchi emas, balki o‘z-o‘zini to‘ldiruvchi tendensiadir. Biroq, boshqa tomondan, shak-shubhasiz, globallashuv va mintaqaviy lashuv o‘rtasida ma’lum ziddiyatlar mavjud. Agar mintaqaviy lashuv alohida savdo-iqtisodiy guruhlarning ajralib chiqishini kuchaytirsa, «jamoaviy proteksionizm»ni rivojlantirsa, u holda u umumiylashuv jarayonini ham sekinlashtirishi mumkin. Mintaqaviy xo‘jalik tashkilotlarining yaratilishi guruh a’zolari o‘rtasidagi preferensial ichki mintaqaviy munosabatlari (integratsiyaga qadar bo‘lgan daraja bilan taqqoslaganda) uchinchi mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy munosabatlari uchun shart-sharoitlarni yomonlashtirmagan holatdagina global erkinlashtirishga bo‘lgan ehtimoliy salbiy ta’sirlarni «olib tashlaydi». Bunga, masalan, integratsiyaning «ochiq mintaqaviy lashuv» kabi yangi tamoyili yordam berishi mumkin. Bu rasmiy ravishda qabul qilingan va, o‘z o‘rnida, Osiyo-Tinch okeani yoki Lotin Amerika integratsiya modeliarida (masalan, OTOIH, MERKOSUR) qo’llanib kelinmoqda. Bu va boshqa guruhlar nafaqat mintaqaviy o‘z-o‘zini ta-minlash, balki xalqaro mehnat taqsimotining yangi tizimidan ko‘proq foyda olish maqsadida yaratiladi, va shuning uchun uchinchi mamlakatlar bilan munosabatlarni kengaytirish uchun ochiqdirlar.

1.1.1-jadvalda xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan «ochiq mintaqaviy lashuv» mezonlari keltirilgan.

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaga asoslangan hamda o‘z hududining iqtisodiy taraqqiyotiga yo‘naltirilgan «ochiq» mintaqaviy lashuv jahon iqtisodiyotining rivojlanishida iqtisodiy globallashuv tendensiyalari o‘zanida turibdi. U jahon iqtisodiyoti globalla-

²⁰ Хусусан, Х.Д. Гендер бу ҳакда сўз юритади. Каранг.: Heidel-berg Club (Hrsg). Globalisierung. Stuttgart, 1997. S. 11.

shuvining o'ziga xos dastlabki shart-sharoiti va bosqichi bo'lib xizmat qiladi. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning globallashuvning asosiy tarkibiy va tashkiliy qismi sifatidagi ta'riflari ham uchraydi.

«Yopiq» va «ochiq» mintaqaviylashuv mezonlari

1.1.3-jadval.

Mezonlar	«Yopiq mintaqaviylashuv»	«Ochiq mintaqaviylashuv»
1. Tarif va notarif cheklavlarning bartaraf etilishi	+	+
2. Yagona bojxona tarifi darajasi	Yuqori	past
3. Nisbatan past rivojlanish darajasiga ega bo'lgan mamlakatlar bilan preferensial savdo to'g'risidagi shartnoma	+	+
4. Kompensatsiyalar tizimining yaratilishi	+	+
5. Tashqi eksportning rivojlanishiga ko'maklashish	kam ahamiyatli	ustuvor ahamiyatli

Manba: Stevens, Willy J. Treinta y cinco anos del Mercado comun centroamericano. Costa Rica, 1996. P. 72.

Biroq, bu o'rinda so'z mintaqaviylashuvning muhim xususiyatlari va turlarining o'zgarishi haqida bormoqda. Maxsus adabiyotlarda ushbu o'zgarishlarni ifodalash uchun ko'pincha «yangi mintaqaviylashuv» tushunchasidan foydalaniladi. U xalqaro iqtisodiy munosabatlarda mintaqaviylashuvning keskin intensifikatsiyalashuvi va murakkablashuvini ifodalaydi hamda namoyon bo'lishning ikkita: miqdoriy (yangi mintaqaviy kelishuvlar «oqimi», ilgari tuzilgan shartnomalarni yangi shart-sharoitlar asosida qayta tuzish va h.k.) va sifat (mintaqaviy o'zaro xo'jalik yuritishning

chuqurlashishi, integratsiyaning majmuaviy, yanada rivojlangan shakllaridan foydalanish) ko'rinishlariga ega.

XX asrning 90-yillari hamda hozirgi vaqtidagi integratsion keli-shuvlarning yangi jihatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

➤ mintaqaviy kelishuvlarga kiradigan mamlakatlarning butun-jahon global jarayonlarga integratsiyalashuvining maqbul shakl-larini qidirish;

➤ AQShni turli mintaqaviy tashabbuslarga keng jalb etish;

➤ rivojlanayotgan mamlakatlarning yanada ochiq iqtisodiy siyosatga o'tishi;

➤ rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida shartnomalar tuzish;

➤ integratsiyaning chuqurlashishi;

➤ valyuta-moliya integratsiyasining rivojlanishi;

➤ ekologiya va xavfsizlik muammolarini o'z ichiga olgan iqtisodiy masalalarni qamrab olgan kelishuvlar tuzish.

Yangi jihatlar, shuningdek, iqtisodiy integratsiyani amalga oshirish xususiyatlari bilan ham bog'liq. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning *birinchi bosqichida* integratsion birlashmalarni shakllantirishdagi yetakchi rol davlatga tegishli bo'lsa, mintaqaviylashuvning *ikkinchi bosqichi* xususiy kapital va xalqaro tashkilotlarning sezilarli roli bilan ajralib turadi. Boshqacha qilib aytganda, zamonaviy mintaqaviylashuv odatda, yuqoridan emas, quyidan amalga oshiriladi.

«Yangi mintaqaviylashuv» – ko'p darajali tushuncha. U quyidagilarni qamrab oladi: birinchidan, Yevroittifoq, OTOIH, NAFTA, MERKOSUR, ASEAN va boshqa shu kabi yirik va shakl-shamoyili bo'yicha turli mintaqaviy tuzilmalarni; ikkinchidan, alohida mamlakatlar ichki mintaqalarining (hududiy subyektlari ning) bir qator davlatlarning chegaradosh umumiy xo'jalik yuritish makonlarini shakllantirishdagi ishtiroki (masalan, Janubi-Sharqiy Osiyodagi «iqtisodiy o'sish uchburchaklari» yoki Rossiyaning bir qator shimoliy va shimoli-g'arbiy mintaqalarini ishtirok etadigan Yevropadagi «Shimoliy o'lchov» dasturi); uchinchidan, «makromintaqalar»ning paydo bo'lishiga olib keladigan, mintaqalararo integratsion kelishuvlarning faol rivojlanishi (davlatlarning umumiy iqtisodiy, ko'pincha siyosiy va harbiy maqomlarga ega bo'lgan

qudratli mintaqaviy va mintaqalararo ittifoqlari, masalan Shimoliy Atlantika, Tinch okeani, Yevroosiyo, «Janubiy» (asosiy Hind okeani bo'yidagi hududlarda joylashgan) «makromintaqalar»ni ajratib ko'rsatish mumkin).

Vujudga kelayotgan yangi jahon tartibi birmuncha qudratli davlatlar AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va Yaponiya atrofida asta-sekin shakllangani holda, ko'pincha pastdan o'sadi. Raqobatning bu yoki boshqa markazlarining geoiqtisodiy manfaatlari asosida «*megamintaqaviy integratsiya*» rivojlanadi va u turli—erkin savdo zonasidan tortib, uyushmalar federatsiyasigacha bo'lgan shakllarga ega bo'ladi.

AQSh «*yangi mintaqaviy lashuv*»ga o'ziga xos qiziqish bildirayotganligini ta'kidlab o'tish joizdir.

1. 1990-yildan boshlab AQSh va Yevropa Ittifoqi o'rtasida yangi ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorlik, uning shakllarini kengaytirish, o'zaro munosabatlarning tamoyillari, huquqiy asoslari va mexanizmlarni belgilashga qaratilgan bir qator muhim hujjatlar imzolangan. Garchi Yel va AQSh – yirik raqobatchilar bo'lsa-da, o'z navbatida, ular yirik sheriklar hamdir. 2002-yil misolida ko'rsila, ikki tomonlama investitsiyalarning umumiyligi hajmi 1,1 trln. yevrodan oshganligi buning yorqin misolidir. AQSh importida Yel ulushi o'sha-yilda 24%ni tashkil etgan bo'lsa, AQShning Yelga eksporti – xorijga olib chiqiladigan tovarlar umumiyligi hajmining 19,3%ni tashkil etdi. Bunda Yelning AQSh bilan savdo balansida sezilarli darajadagi ijobiy saldo kuzatiladi. AQSh va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi megamintaqaviy munosabatlari 1990-yilda qabul qilingan Transatlantika deklaratsiyasi (keyinchalik savdo erkinligiga keltirish istiqboli bilan), 1998-yilda qabul qilingan Transatlantik iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma bilan tartibga solinadi; 1995-yilda «Yangi transatlantik kun tartibi» va Harakatlar rejasiga imzolangan, shuningdek ushbu-yilda «Yangi transatlantik bozori»ni (New Transatlantic Marketplace) yaratish hujjatlari ishlab chiqilgan edi, biroq o'sha davrda uni tomonlar imzolashmadni, chunki ular iqtisodiy munosabatlarning real darajada chuqur erkinlashtirilishiga o'tishga tayyor emas edilar. Shu bilan birga, tabiiyki, yaqin hamkorlik to'g'risidagi hujjatlar jiddiy ixtiloflarga ega bo'lishiga qaramasdan, ishlab chiqaruvchilar, eksport qiluvchilar, har bir

tomonning investorlari uchun yanada erkin shart-sharoitlar yaratib berishga qaratilgan.

2. Parallel ravishda ikkita Amerikani (Shimoliy va Janubiy) birlashtirish va G'arbiy yarimsharda Butunamerika erkin savdo zonasini (FTAA) yaratish xatti-harakatlari amalga oshirilmoqda. NAFTA va Lotin Amerikasi mamlakatlari uning ishtirokchilari bo'lib hisoblanadi. Juhon YalMning 27–28% ushbu mintaqaga to'g'ri keladi. Tegishli huquqiy baza, ishchi organlari yaratilgan hamda 2005-yildan FTAA ni yaratish bo'yicha tashkiliy ishlar faol amalga oshirilmoqda.

3. Yevropa ittifoqi 2004-yilgi yangi kengayishi hisobiga 15 ta emas, balki umumiy ulushi jahon YalMda 22–23%ni tashkil etadigan 25 ta mamlakatni (2014-yilga kelib – 28 ta mamlakat) qamrab oladigan bozorni tashkil etgan holda, sezilarli ravishda o'zining resurs salohiyatini oshirib bormoqda.

4. »Osiyo-Tinch okeani hamkorligi» Forumi 21 ta mamlakat iqtisodiyotini o'z ichiga oladi, ular orasida AQSh, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya va yangi industrial mamlakatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, 2020-yilga qadar mintaqada erkin savdo va erkin harakat zonasini yaratish dasturi e'lon qilingan bo'lsa-da, mazkur uyushmaning strategiyasi to'laligicha aniq emas.

90-yillarning oxiridan boshlab Yaponiya rasmiy doiralarining integratsion guruhlarda ishtirok etishga bo'lgan munosabati o'zgara boshladi. 2001-yilda Yaponiya ASEAN bilan erkin savdo zonasini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Meksika, Singapur, Koreya Respublikasi, Chili, Kanada, ayrim ASEAN mamlakatlari bilan ikki tomonlama erkin savdo zonalarini tashkil etish g'oyalari parallel ravishda muhokama qilinmoqda. Hozirgi vaqtida Yaponiya, Koreya Respublikasi va Xitoy o'rtaida Shimoli-Sharqiy Osiyo erkin savdo zonasini tashkil etish va keyinchalik uni AFTA-ASEAN bilan birlashtirish to'g'risida muzokaralar olib borilmoqda (ASEAN+3; ASEAN+6 shular jumlasidandir).

Tayanch iboralar: *globallashuv, mintaqaviylashuv, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya, iqtisodiy integratsiya, xalqaro iqtisodiy integratsiya, integratsyaning asosiy shakllari: erkin savdo zonasи, bojxona ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy ittifoq, valyuta ittifoqi,*

globallashuv «chaqiriqlari», yangi mintaqaviylashuv, «ochiq» va «yopiq» mintaqaviylashuv, megaintegratsiya.

Nazorat savollari:

1. Jahon xo'jaligining rivojlanish bosqichlariga tavsif bering, ularning farqlanuvchi va o'xhash tomonlari nimada?
2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya atamasini ta'riflab bering va uning mohiyatini ochib bering.
3. Iqtisodiy integratsiya shart-sharoitlari va maqsadlari qanday?
4. Global va mintaqaviy ingratsiyalashuv nima? Milliy firma va kompaniyalar mamlakat integratsiyalashuv jarayonlariga qatnashuvidan qanday zarar yoki foyda ko'rishlari mumkin?
5. «Yangi mintaqalashuv» nimani anglatadi? Nega u ko'pgina hollarda «strategik mintaqalashuv» deb ataladi?
6. Megamintaqaviy integratsiyaning namoyon bo'lish shakllarini aytib bering. Jahonning yetakchi makromintaqalarini sanab bering. Ular AQSh va global raqobatning boshqa markazlarining geoijtisodiy manfaatlari bilan qanday bog'liq?

II BOB. INTEGRATSION JARAYONLARNING SAMARADORLIGI VA SAMARASI (TURLI SHAKLDAGI INTEGRATSIYA UYUSHMALARINING FOYDALARI VA XARAJATLARINING NAZARIY TAHLILI)

2.1 Bojxona ittifoqi va erkin savdo zonasida savdoni «tashkil etish» va «bekor qilish»

J.Vinerning erkin savdo zonasasi (ESZ) yoki bojxona ittifoqini (BI) tashkil etishda ishtirok etuvchi mamlakatlar aholisi turmush darajasining oshishi yoki kamayishi to‘g‘risidagi konsepsiyasi integratsiyaviy jarayonlar an’anaviy tahlilining asosi bo‘lib hisoblanadi²¹.


J.Viner qisman muvozanatlik modelida **«savdoni tashkil etish»** (*trade creation*) samaradorligiga – integratsion guruhga a’zo mamlakatlardan nisbatan arzonroq tovar import qilish bilan mamlakatda ishlab chiqarishni qisqartirishiga, hamda «o‘zgarish», yoki **«savdoni bekor qilish»** (*trade diversion*) samaradorligiga – a’zo mamlakatlardan nisbatan yuqori narxda tovar import qilish orqali guruhga kirmagan mamlakatlardan kirib kelayotgan importning to‘xtashiga yoki kamayishiga e’tibor qaratgan. Uning fikricha, «savdoni bekor qilish» mamlakat farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki global samaradorlikni pasaytiradi, «savdoni tashkil etish» esa ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki bojsiz savdo zonasining tashkil etilishi munosabati bilan mamlakat ixtisoslashuvining chuqurlashishiga olib keladi.

Farovonlikka yalpi ta’sir ham ijobiy, ham salbiy bo‘lishi mumkin. Buni yirik mamlakat bilan bir uyushmada ishtirok etadigan kichik iqtisodiyot uchun integratsiya natijalarini baholangan holda ko‘rsatish mumkin (2.1.1-rasm).

Rasmda 2-mamlakatning qandaydir X tovari uchun talab (D_2) va taklif (S_2) egri chiziqlari P_W narxi bo‘yicha istalgan miqdordagi tovarni xarid qilish mumkin bo‘lgan jahon bozori taklifining mutlaq elastik egri chizig‘i (S_W) aks ettirilgan. 2-mamlakat bilan integrat-

²¹ Viner, J. The Customs Union Issue. Carnegie Endowment for International Peace. N.-Y., 1950.

sion guruhni tashkil etgan 1-mamlakat tashqi savdo taklifining egri chizig‘i (S_1) uning yirik o‘lchamda ekanligi sababli ham mutlaq elastikdir hamda jahon narxlaridan birmuncha yuqori, biroq avtarkiya holatidagi 2-mamlakat narxlaridan pastroqdir.



2.1.1-rasm. Yirik mamlakat bilan savdoda bojxona bojlarini bekor qilinishining kichik iqtisodiyot farovonligiga ta’siri

Integratsiya boshlangunga qadar 2-mamlakat T import tarifini joriy etgan, unga muvofiq, jahon bozori talabi inobatga olingan (S_W+T). Natijada narxlar darajasi $P_2=R_W+T$ ni tashkil etganligi va avtarkiya holatidan kamroq bo‘lganligi sababli, mamlakat savdoda ishtirok etgan. Mamlakatning ishlab chiqarishi A nuqtasi, iste’mol — V nuqtasi, uning jahon narxlari bo‘yicha uchinchi mamlakatlardan import hajmi Q_2Q_3 , bojxona foydasi — $(Q_2Q_3)*T$ bilan belgilangan. 1-mamlakat bilan savdo samarador emasligi sababli amalga oshirilmagan.

1-mamlakat bilan integratsiya va u bilan savdoda tarif bekor qilinganidan so‘ng 2-mamlakatda yanada past narxlar (R_1) — 1-mamlakatning taklif narxlari belgilanadi, chunki ular iste’molchilar uchun manfaatli bo‘ladi (jahon bozoridagi narxlar tarifining miqdoriga to‘g‘rilanganidan kamroq). Iste’mol D nuqtasiga, ishlab chiqarish — S nuqtasiga o‘tadi, hamda 2-mamlakat uchinchi mamlakatlardan qilinadigan import o‘rniga ko‘rib chiqilayotgan tovarni 1-mamlakatdan Q_1Q_4 hajmida keltiradi. U holda «savdoni bekor qilish» samaradorligi Q_2Q_3 ni tashkil etadi (arzon importni yanada qimmatrog‘i bilan o‘rnini bosish), «savdoni tashkil etish»

samaradorligi esa -- $Q_1Q_2+Q_3Q_4$ ni tashkil etadi (importning kengayishi ishlab chiqarishning qisqarishi). Bunda guruh ichidagi bojsiz savdo natijasida mamlakat bojxona daromadlarini olishdan to‘xtaydi.

Farovonlikka ta’sir quyidagi samaralar bilan aniqlanadi: $P_2BDP=a+b+c+d$ ni tashkil etadigan iste’molchining yutug‘i; ishlab chiqaruvchi xarajatlarining $P_2ACP=a$ miqdorga qisqarishi; va $ABFE=c+e$ bojxona daromadlarining yo‘qotilishi. Yalpi samaradorlik $(a+b+c+d)-a-(c+e)=b+d-e$ ni tashkil etadi. Shunday qilib, uning musbat yoki manfiyligi b va d uchburchaklari va e to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzalari nisbatiga bog‘liq bo‘ladi. «Savdoni bekor qilish» Q_2Q_3 miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, bojxona daromadlarining qoplanmagan miqdorining farovonligiga ta’sir ko‘rsatadigan e to‘g‘ri to‘rtburchagi miqdori shuncha katta bo‘lishini anglash qiyin emas. Va «savdoni tashkil etish»ning $Q_1Q_2+Q_3Q_4$ miqdori qancha katta bo‘lsa, iste’molchilar uchun sof yutuqni belgilaydigan b va d uchburchaklarining yuzalari shuncha katta bo‘ladi. Integratsion guruhda belgilanadigan darajasining jahondagi o‘rtacha narxlardan (P_I-P_W) chekinish miqdori ushbu modeldag‘i farovonlikka ta’sir ko‘rsatadigan boshqa muhim ko‘rsatkich bo‘lib hisoblanadi.

Agar ikkala mamlakatni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, u holda integratsion guruh uchun farovonlikning pasayib ketishi mumkinligini ko‘rsatish mumkin. Biroq, integratsiya guruh uchun farovonlikning o‘sishiga olib kelsa, uyushmaga a’zo bo‘lgan ayrim mamlakatlar integratsiyadan foyda ko‘rsa, boshqalari – zarar ko‘rishlari mumkin. Bu foydani qayta taqsimlash – zarar ko‘rgan mamlakatga uning integratsiya jarayonlarida ishtirok etishlari uchun kompensatsiya to‘flarini amalga oshirish uchun davlatlararo tuzilmalarining yaratilishini talab qiladi.

J. Viner nazariyasi shundan guvohlik beradiki, agar integratsion uyushmada o‘zining iqtisodiy ixtisoslashuvidan tarmoqlarda jahonda nisbatan samarali va samarasiz ishlab chiqarishga ega bo‘lgan mamlakatlar ishtirok etayotgan bo‘lsa, u holda samarasiz ishlab chiqarishga ega bo‘lgan mamlakatlar samarali ishlab chiqaruvchilar o‘zlarining farovonliklarini oshirishlari shart bo‘lmasdan bir vaqtda uyushmaga qo‘shilishlaridan yutuqqa ega bo‘ladilar: savdoning

«tashkil etilishi» natijasida uning o'sishi uyushmada savdoning «bekor qilinishi» munosabati bilan yuzaga kelgan yo'qotishlarni qoplash uchun yetarli bo'lmasisligi mumkin. Agar ishtirok etuvechi mamlakatlarda yuqori ishlab chiqarish unumдорлиги та'minlangan bo'lsa, у holda uyushma ular uchun manfaatli bo'ladi.

1960–90-yillarda J.Viner yondashuvi asosida mintaqaviy integratsion kelishuvlar natijalarini ko'p sonli miqdoriy baholash amalga oshirilgan. Ularning ko'rsatishicha, ko'pgina savdo uyushmalarini tashkil etishning umumiyligi netto-natijasi «savdoni tashkil etish»dan iborat bo'lgan.

Biroq, J.Viner nazariyasi integratsiya jarayonida ishlab chiqarish xarajatlari (barqaror qiymatda) o'zgarmasligi hamda erkin savdo zonasasi yoki bojxona ittifoqining tashkil etilishi bilan savdoning tashqi shartlari (jahon bozori narxlari) o'zgarmay qolishi to'g'risidagi farazga asoslangan. Integratsiyaning talab tarkibiga ta'siri ham rad etilgan. Ushbu shartlardan chetga chiqish integratsiyaning eng so'nggi neoklassik nazariyalarida kuzatiladi, ular alohida bozorlarning qisman muvozanati tahlili o'miga umumiyligi muvozanat masalalarini ko'rib chiqa boshladilar. Mintaqaviy integratsiya nazariyasingning turg'unligiga bunday qo'shimchalar mintaqaviy integratsiyaning uchinchi mamlakatlarga ta'siri («spillover» samaradorligi), shuningdek xalqaro ishlab chiqarish xarajatlari o'zgarishining mintaqaviy integratsion guruhlarning shakllanishiga ko'rsatayotgan ta'sirini tadqiq qilishga olib keldi. Umumiyligi muvozanat modeli uchun Lipsi — Gerels va Melvina — Bxagvati dalillari adolatlari hisoblanadi: muayyan shart-sharoitlarda iste'mol tarkibi va ishlab chiqarish tarkibining o'zgarishidan hosil bo'ladigan samaralar muvofiq ravishda «savdoning bekor qilinishi»dan yuzaga keladigan yo'qotishlarni qoplashi mumkin.

J.Mid integratsiyalashayotgan mamlakatlarda barqaror ishlab chiqarish xarajatlari g'oyasini rad etishga intilgan hamda nisbiy narxlarning o'zgarishini hisobga olishning zarur ekanligini ta'kidlagan²².

Midning xulosalari quyidagilardan iborat bo'lgan, umumiyligi muvozanatlik tizimida yakka yoki birgalikda o'zlarining «savdo

²² Mead, J. The Theory of Customs Union. North Holland, 1955.

shartlari»ni o'zgartira olmaydigan, integratsion uyushmada ishtirok etadigan hajmi bo'yicha kichik iqtisodiyotlar hisoblangan mamlakatlarning ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi ishtirokchi mamlakatlar yoki mintaqaviy integratsion guruh uchinchi mamlakatlardan qilinayotgan importni oshirgan hollarda uyushma uchun farovonlikning o'sishiga olib keladi. Buning uchun a'zo mamlakatlar bir vaqtning o'zida uchinchi mamlakatlardan qilinayotgan importga bo'igan o'z to'siqlarini qisqartirishi tozim; aks holda ayrim mamlakatlar yo'qotishlarga duch keladilar.

Xalqaro to'lov balansidagi umumiy muvozanatlik va muvozanatlikni ta'minlaydigan nisbiy ichki va xalqaro narxlarning ta'siri D.Vanek²³ va M.Kemp²⁴ning ilmiy ishlarida yoritib berilgan.

Ushbu tadqiqotlarda integratsion guruhga qo'shilayotgan mamlakatlarning uning farovonligiga ta'siri, shuningdek, shakllanadigan integratsion guruh aholi farovonligining yaxshilanishiga ta'sir ko'rsatish sharoitlarining aniqlanishiga katta e'tibor qaratiladi.

Muayyan sharoitlarda ahamiyatsiz samaralar yetakchilik qilishni boshlashlari bir xil unumiy xulosa qilish mumkin emasligi sababli – har bir guruhn ni yakka tadqiq qilish, biroq o'ziga xos va chtimolli samaralar haqida gapirish mumkin.

Mamlakat miqyosining ta'siri haqida so'z yuritadigan bo'lsak, u holda kichik iqtisodiyot yirik uyushma bilan integratsiya qilishdan yirik iqtisodiyot kichik uyushma bilan integratsiya qilishdagiga nisbatan yirik yutuqlarga ega bo'ladi. Ya'ni agar mamlakat uning uyushmaga qo'shilishi natijasida ichkarisidagi nisbiy narxlar o'zgarmasa, u holda uyushma o'z farovonligini oshiradi; agarda uyushma tovarlarning mavjud narxlarda qo'shilgan mamlakatga yetkazib berilishini ta'minlay olmasa, u holda integratsion guruh farovonligining pasayishi kuzatiladi.

Guruh o'z farovonligini yaxshilaydigan shart-sharoitlar to'g'risida so'z yuritilganda, u holda so'nggi-yillarda «tabiiy» savdo sheriklari konsepsiysi keng tarqalgan bo'lib, u integratsiyaga qadar mamlakatlar o'rta sidagi tovar aylanmasining sezilarli hajmi undan

²³ Vanek, J. General Equilibrium of International Discrimination. The Case of Customs Unions. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1965.

²⁴ Kemp, M.A. Contribution to the General Equilibrium Theory of Preferential Trading. Amsterdam: North-Holland Publishing Company, 1969.

so‘ng «savdoni bekor qilish»ning ahamiyatsizligiga olib keladi. Shunday qilib, quyidagilar farovonlikni oshirish istiqbollarini yaxshilayotgan mamlakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib hisoblanadi:

1) ishlab chiqarish omillari bilan ta’minlanganlikning to‘l-dituvchi xarakteri;

2) transport xarajatlarini kamaytiradigan va o‘zaro savdoni oshiradigan ishtirokchi mamlakatlarning yaqin joylashishi;

3) integratsiya bosqichi boshlanishiga qadar uchinchi mamlakatlar bilan iqtisodiy munosabatlarda past to‘silalar holatida o‘zaro savdoda to‘silarning nisbatan yuqori ekanligi.

Integratsiya modellarining ikkinchi avlodi tashqi savdoning yangi nazariyalari doirasida paydo bo‘lib, ular neoklassik modellar dan farqli ravishda nomukammal raqobatning differensiatsiyalashgan (sifati yoki miqdori xususiyatlari bo‘yicha) tovarlar va ishlab chiqarish miqyosidan iqtisod qilishning mavjudligini ko‘zda tutadi. Ushbu shart-sharoitlar turli hamohangliklarda ko‘rib chiqilishi mumkin, shuning uchun mazkur yo‘nalish doirasida bir qancha modellar va nazariyalar mavjud.

Miqyos samarasining rolini X.M.Korden²⁵ tahlil qilgan. Uning fikricha, mainlakatda tovarning yagona ishlab chiqaruvchisi bo‘lib, uning narxi tarifga (va transport xarajatlari) to‘g‘rilangan jahon narxi orqali aniqlanadi. Ishlab chiqarish funksiyasi xarajatlarning mahsulot birligiga qisqarishi bilan tavsiflanadi, va integratsiya natijasida yanada yirik bo‘lgan bozorning tashkil topishi xarajatlarni qisqartirish maqsadida firmalarning yanada ixtisoslashuviga olib keladi.

Tovarlar differensiatsiyasi va bozorlar segmentatsiyasining o‘zgarishidan hosil bo‘lgan samara shunga olib keladiki, iste’molchilar tovarlarning ulkan xilma-xilligiga ega bo‘lishlari mumkin, bunda mahsulotlarning katta miqdori yanada samarali usullar bilan ishlab chiqarilishi mumkin – farovonlikdagi yutuq ishlab chiqarishning diversifikatsiyasidan hosil bo‘ladi. Qoidaga binoan, bu tashqi savdoda monopolistik raqobatning Krugman modelidan foydalanish bilan namoyon bo‘ladi. Integratsiya jarayonida ushbu

²⁵ Corden, W.Max. Economies of Scale and Customs Unions Theory // Journal of Political Economy. 1972. Vol. 80. № 3. P. 465 – 475.

samaraning roli U.Eter va X.Xornlarning ishlarida tahlil qilib berilgan²⁶. Ularning ta'kidlashicha, uyushmani tashkil etadigan mamlakatlar miqyosidagi kam xarajatlar holatida differensiatsiyalashgan sanoat tovarlari va doimiy xarajatlar holatida bir turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaradilar, bu vaqtida esa boshqa mamlakatlar – faqat belgilangan miqdorda bir turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini (oziq-ovqat) ishlab chiqaradilar. Eter va Xorn dastlab tariflarning boshqa mamlakatlar bilan savdodagi rolini ko'rib chiqishadi. Ularning o'sishi uyushmada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishining o'sishiga va sanoat tovarlari xilma-xilligining kamayishiga olib keladi; farovonlikka ta'sir bir xil emas, chunki garchi mamlakatlar tashqi dunyo bilan «savdo shartlari» bo'yicha afzallikka ega bo'lsalar ham, natija istemolchilarning ta'minot xilma-xilligining o'zgarishiga bo'lgan sezuvchanligi va mamlakatlarning jahon daromadidagi ulushiga bog'liq. Keyinchalik ular to'siqlarning a'zo-mamlakatlar savdosidagi rolini ko'rib chiqadilar. Tariflar pasaygan holatda uyushmaning har bir a'zosi hamkor mamlakatda xaridlarni ko'paytiradi, differensiatsiyalangan tovarlar tanlovi soni va ularni ishlab chiqarish ortadi, bu esa uyushmada qishloq xo'jaligi tovarlarini ishlab chiqarishning qisqarishiga olib keladi. Tag'in farovonlik uchun umumiy samara bir xil emas.

Nomukammal raqobatning mavjud bo'lishi to'g'risidagi gipoteza raqobat kurashining kuchayishi samaralarini tahlil qilishga imkon beradi. Shu narsa ko'zda tutiladiki, tariflarni bekor qilish bilan bozor kengayadi va salohiyatli raqobatchilar soni ko'payadi. Raqobat va korxonalar raqobatbardoshligi xarakterining o'zgarishi narxlari va firmalarning xarajatlariga ta'sir ko'rsatadi. Ta'kidlash joizki, raqobatning kuchayishi bir turdag'i tovarlarni sotadigan firmalar sonining keskin ortishini ifodalamaydi. U aksincha, ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarni xorij bozorlariga sotish imkoniyati va xohishiga ta'sir ko'rsatadi. Monopolistik va oligopolistik tuzilmalar bosimga duchor bo'ladilar. Natijada firmalar samaradorligining o'sishi yoki bozordan chiqib ketish sodir bo'лади.

²⁶ Ethier, W., Horn, H. «A new look at economic integration» // Kierzkowski, H. (ed.). Monopolistic Competition and International Trade. Oxford: Clarendon Press, 1984. P. 207-229.

A.Smit va A.Dj.Venebels oligopoliya sharoitida integratsiyani tadqiq qildilar²⁷. Ularning modeliga binoan, firmalar Kurno muvozanati sharoitida, har bir bozorda kutilayotgan eng ko‘p daromad va xarajatlarning tengligi asosida har bir bozorda qanday turdag'i tovarlar va qanday miqdorda sotish to‘g‘risida qaror qabul qildilar. Bunda har bir firma tomonidan kutilayotgan talab egri chizig'i tovar turining soni va fimaning bozordagi ulushiga bog‘liq bo‘ladi. Integratsiyaning samaralarini o‘rganib chiqish maqsadida mualliflar taqlidiy modelllashtirish ushublarini qo‘llaydilar, parametrler sifatida YellH sanoatining asosiy o‘nta tarmoqlarining xususiyatlari olinadi. Ularning ta’kidlashicha, to‘sqliarni olib tashlash xarajatlarning 2,5% ga kamayishiga olib keladi va ehtimolli samaralarni baholaydi. Shunday qilib, ushbu nazariyalar asosida integratsiya natijasida mamlakatlar farovonligining oshish istiqbollariga oid quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- 1) uyushmaga kiruvchi mamlakatlar sonining ko‘pligi ichki raqobat hisobiga samarasiz ishlab chiqaruvchilarni tugatish imkoniyatini oshiradi;
- 2) iqtisodiyotlarning o‘zaro munosabatining to‘ldiruvchi emas, balki raqobatlashuvchi xarakteri ishlab chiqarish va savdoni rivojlantirishdagi ixtisoslashuvni yengillashtiradi.

Nazariyalarning uchinchi guruhi sifatida integratsiyaning «*dinamik samaralari*»ni tadqiq etuvchi ishlarni ko‘rib chiqish mumkin. Unda «o‘sish sur’atlaridagi o‘zgarishlar, bozor hajmining kengayishi va kumulyativ xarakteri sababli sezilarli darajada ishlab chiqarish resurslarining ortishi» tushuniladi²⁸. Mazkur samaralarning paydo bo‘lishi innovatsiyalar, ishlab chiqarish unumdotligining o‘sishi va jamg‘arish jarayonlari bilan izohlanadi. Agarda kutilmagan yutuq katta bo‘lsa, iqtisodiy o‘sish sur’atlarining sezilarsiz darajada o‘zgarishi vaqt o‘tishi bilan sezilarli natijalarga olib keladi. Yangi investitsiyalarni jalb etish bilan sanoatning qayta qurilishi sodir bo‘lishi lozim, bu esa investorlarning integratsiya samaradorligiga bo‘lgan ishonchi, ularda o‘sish kutilayotgan

²⁷ Smith, A., Venables, A.J. Completing the Internal Market in the European Community: Some Industry Simulations // European Economic Review. 1988. № 7. P. 1501 – 1525.

²⁸ Kreinin, M.E. On the Dynamic Effects of a Customs Union // The Journal of Political Economy. 1964. April. Vol. 72. № 2. P. 193 – 195.

bozorni yo'qotish xohishining yo'qligi, shuningdek, TMK tomonidan bo'ladigan strategik reaksiyasiga bog'liq. Bunday samaralar ortodoksal nazariyalarda yagona ehtimolli resurs sifatida muhokama qilinadigan resurslar realokatsiyasi samaralariga qaraganda muhimroqdir.

L.A.Rivera-Beytiz va P.M.Romerning iqtisodiy integratsiyaning endogen iqtisadiy o'sishga bo'lgan ta'sirining tahlili bunday nazariyaga misol bo'ladi²⁹. Ularning modelida ilmiy-texnik taraqqiyot investision tovarlar yangi turlarining kashfiyoti ko'rinishida namoyon bo'ladi. Integratsiya bilimlarning yanada erkin ayriboshlanishiga hamda shunday holatga olib keladiki, ITTKI bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar faqat bir marta amalga oshirilib (ya'ni ITTKI bosqichida miqyos samarasini hisobga olinadi), u yakunda o'sishni tezlashtiradi.

Barcha ushbu guruhlar tomonidan hisobga olinadigan integratsiya samaralari nazariyalari 2.1.1-jadvalda bir tizimga keltirilgan.

Shuningdek, bu yerda tarif tushumining o'zgarishidan hosil bo'ladigan samaralarni ham hisobga olish lozim. Agar ESZ uchun odatda uyushmaga a'zo mamlakatlar uchinchi mamlakatlar bilan bo'lgan munosabatlarida uyushma tashkil etilgunga qadar ham mavjud bo'lgan tariflarni saqlab qolishlari xos bo'lsa, u holda BI ni shakllantirish uchun bojxona yig'imlaridan keladigan tushumlarni mamlakatlar o'rtasida taqsimlashning belgilangan qoidalari va ushbu qoidalarga bog'liq bo'ladigan umumiy *bojxona tarifi* (SET — *ingliz tilida common external tariff*) darajasi juda muhimdir.

Bojxona tushumlarini taqsimlash qoidalari integratsiyaning ushbu bosqichini belgilaydigan xususiyatlar qatoriga kiritgan J.Viner ham bu haqda yozgan (ya'ni, ularni bojxona to'siqlarini tugatish va SETni belgilash bilan bir qatorda ko'rib chiqqan). Afsuski, Viner bo'yicha BIning uchinchi xususiyati ko'pincha inobatga olinmaydi.

C.Siropulos J.Viner kabi bojxona daromadlarini taqsimlashning uchta an'anaviy qoidalari ko'rib chiqadi:

1) aholi soniga muvofiq (1834-1866-yillarda nemis bojxona ittifoqidagi kabi);

²⁹ Rivera-Batiz, L.A., Romer, P.M. Economic integration and endogenous growth // Quarterly Journal of Economics. 1991. Vol. 106. P. 533-555.

2) iste'molga muvofiq (1900-yillarda tashkil topganidan so'nggi dastlabki-yillarida Avstraliya Ittifoqida yoki Janubiy Afrikaning ayrim bojxona ittifoqlaridagi kabi);

Tovar bozorlarining integratsiyalaridan hosil bo'ladigan samaralar

2.1.1-jadval

Nazariyaning unsurlari			Integratsiyadan hosil bo'ladigan salohiyatlari samaralar	
Nazariya	Savdo omillari	Savdo turi	Ixtisoslashuvning o'zgarishi	Daromadlarni taqsimlash
Nisbiy ustunliklar nazariyasi	Ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlikdagi farqlar	Tarmoqlararo	Nisbiy ustunliklarga muvofiq	Ishlab chiqarish omillari narxlarining o'zgarishi
	Ishlab chiqarishdagi (texnologiya) farqlar		Agglomeratsiya samaralari	Daromad darajasi bo'yicha mamlakatlar o'rta sidagitafov utning ortishi
Tashqi savdoning yangi nazariyalari	Miqyos iqtisodi	tashqi	Ichki tar-moqlararo	Tovarlarning vertikal differensiatsiyasi (sifati bo'yicha)
		ichki (monopolistik raqobat sharoitida)	Ichki tar-moqlararo	Tovarlarning gorizontal differensiatsiyasi

Manba: *Fontagne, L., Freudenberg, M., Peridy, N. Trade Patterns Inside the Single Market // CEP II research center. Working Papers. 1997. № 7. P. 33.*

3) uchinchi mamlakatlardan qilinayotgan importning taqsimlanishiga muvofiq (1940-yillarda Fransiya-Italiya BI dagi kabi)³⁰.

Siropulos shunday xulosaga keldiki, agar BI da qarorlar ko'pchilikka asoslangan holda qabul qilinsa, u holda aholi soni yoki iste'mol hajmiga asoslangan qoidalar garchi tarif muhofazasiga nisbatan turli afzalliklarga olib kelsada, ikkalasi ham shunday holat-

³⁰ Syropoulos, C. Rules for the Disposition of Tariff Revenues and the Determination of Common External Tariffs in Custom Unions // Journal of International Economics. 2003. Vol. 60. P. 387-416.

ga olib keladiki, bunda nomaqbul umumiy bojxona ta'rifi belgilanadi. Shunday qilib, masalan, umuman ortiqcha mehnat bo'lgan bojxona ittifoqida (kapital intensiv tarmoqlar import bilan raqobatlashigan) ortiqcha kapitalga ega bo'lgan mamlakatlar holati yanada proteksionistik bo'ladi. Qaror «mediana qoidasi» bo'yicha qabul qilinadi — kapitallar mehnat mediana nisbatiga ega bo'lgan mamlakatning afzalligi bilan aniqlanadi va shu tarzda mulkning ittifoqdagi ishlab chiqarish omillariga taqsimlanishiga bog'liq bo'ladi. Agar mamlakatlarning ko'pchilik qismi BI uchun o'rtacha nisbatga qaraganda kamroq darajadagi kapitallar mehnat nisbatiga ega bo'lsa, u holda SET maqbul nisbatdan kamroq miqdorda belgilanadi.


Agar tushumni taqsimlash uchinchi mamlakatlardan bo'ladigan importni taqsimlashga asoslangan bo'lsa, u holda bunday yonda-shuvda mamlakatlar manfaatlarining qutblanishi sodir bo'ladi: tashqi dunyo bilan savdo qilmaydigan mamlakatlar taqiqlovchi ta'rif stavkalarining belgilanishidan manfaatdor bo'lsa, bu vaqtida o'zlarining ta'rif daromadlariga ega bo'layotgan tashqi dunyo bilan savdo qiluvchi mamlakatlar savdodan manfaatdor, ular tomonidan afzal ko'rيلayotgan SET darajalari ularning importdagি ulushi narxining elastikligiga bog'liq. Natijada BI da kapital/mehnat nisbati qanchalik katta variatsiyada bo'lsa, BI mamlakatlari yuqori tariflarni shunchalik afzal ko'rishadi, chunki ko'p mehnat talab qiladigan tovarlarni eksport qiluvchi mamlakatlar orasida ortiqcha mehnatga ega bo'lgan mamlakatlar va ko'p kapital talab qilinadigan tovari eksport qiluvchi mamlakatlar orasida ortiqcha kapitalga ega bo'lgan mamlakatlar ulardan manfaatdor bo'ladi. Bunda natijaning paradoksalligi shundan iboratki, bunda qolgan dunyo bilan savdo qilishdan manfaatdor bo'lgan mamlakatlar uchun mamlakatlarning SET ga nisbati o'zgaradi — kapital/mehnat nisbati bo'yicha mamlakat nufuzi qancha yuqori bo'lsa, uning maqbul tarifga nisbatan afzalliklari shuncha kamroq bo'ladi va erkin savdodan chetga chiqadi.

2.2 Zamonaviy nazariyalardagi umumiy bozor. Investitsiya jarayonlarining roli

Umumiy bozorni (UB) shakllantirishda mamlakatlar o'rtasidagi ishlab chiqarish omillarining harakatlanishi uchun to'siqlarning bekor qilinish va integratsion guruh uchun yagona ishlab chiqarish omillari bozorining shakllanishi sodir bo'ladi. Hosil bo'ladigan samaralarni aniqlash uchun ishlab chiqarish omillarining real harakatini ko'rib chiqish zarur.

Chizmada ikki hamkor mamlakatlardagi ishlab chiqarish kuchlari ko'rsatilgan. M_N va M_R to'g'ri chiziqlari ikkala mamlakatda boshqa omilning, ayniqsa, mehnatning ushbu hajmi sharoitida yuksak unumdoorlikka ega bo'lgan kapital zaxiralarining mavjudligini ko'rsatadi. Integratsion uyushmani tashkil etishning dastlabki bosqichida kapital hajmi bazis mamlakatda (N) M ni va hamkor mamlakatda (R) Q ni tashkil etadi. Kapital mobilsiz omil sifatida qaralayotgan dastlabki bosqichda kapitalning butun hajmi u joylashgan mamlakatga tegishlidir. Soliqqa tortish ko'rib chiqilmaydi. Raqobat mavjud bo'lgan sharoitlarda kapital birligiga bo'lgan foyda uning yuksak unumdoorligiga teng. Shunga muvofiq N mamlakatda umumiy foyda $q+t$ ga teng. Ishlab chiqarishning umumiy hajmi – $p+q+r+s+t$ ga, ishchi kuchining ulushi esa – $p+r+s$ ni tashkil etadi. R mamlakatda foyda $x+z$ ga teng, ishchi kuchining ulushi y ni tashkil etadi. BI ning mavjud bo'lishiga qaramasdan kapitalga bo'lgan foyda turli mamlakatlarda turlicha bo'ladi, biroq R mamlakatda yuqoriroq bo'ladi.

Endi faraz qilaylikki, ikkala mamlakat to'siqlarni bartaraf etgan holda, kapitalning umumiy bozorini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi. Ikkala mamlakat o'rtasidagi kapitalning umumiy hajmi xorijiy kapitalning oqib kelishining ekzogen nazorati mavjudligi sababli o'zgarishsiz qoladi. Umumiy bozorning tashkil etilishi munosabati bilan N mamlakatdan R mamlakatga ko'chirila boshlanadi va yangi muvozanat quyidagicha tiklanadi, kapitalning yuksak foydaliligi tenglashadi; kapital hajmi N mamlakatda N ni, R mamlakatda – R miqdorni tashkil etadi.



2.2.1-rasm. Tashkil etilayotgan UB ning ishlab chiqarish omili (kapital) yuksak unumdorligining o'zgarishiga ta'siri

Investitsiyalar samaradorligining oshishi buning natijasiga aylanadi, tashkil etilgan umumi bozor esa garchi barcha omillarga bo'lmasa ham, ikkala mamlakatga foydali ta'sir ko'rsatadi. N mamlakat YAIM $p+q+s$ darajagacha kamayadi, biroq R mamlakatda foydalaniladigan kapital foydasining mamlakatga o'tkazilishini o'z ichiga olgan uning milliy daromadi, ya'ni $v+u$, faqat $v-r$ miqdorga ko'payadi, agarda M_N va M_R to'g'ri chiziqlari bir xil nishablikka ega bo'lsa, u holda bu miqdor w ga teng bo'ladi.

Har bir mamlakatda milliy mahsulot ishlab chiqarishda mehnat ulushi N mamlakatda kapital egasining foydasiga va R mamlakatda kapital egalarining hisobiga o'zgaradi.

Mamlakatlar o'rtaсидаги kapital harakati tegishli mamlakatlarda nafaqat mavjud texnologiyalardan foydalanish (ya'ni o'zgarishlar M_N va M_R to'g'ri chiziqlari doirasida sodir bo'ladi), balki texnologiya va nou-xaularni berish bilan bog'liq bo'lgan hollarda, kapitalning mamlakatlararo harakati oqibatlari yanada murakkab bo'ladi va olingen xulosalar tuzatilgan bo'lishi lozim.

Bundan tashqari, shuni hisobga olish lozimki, tashqi savdoning neoklassik nazariyasi tovar oqimlarining ishlab chiqarish omillari harakatining o'rni bosishini ko'zda tutadi. Omillar narxlari to'g'risidagi teoremaning tasdiqlashicha, muayyan shart-sharoitlarda nomobil ishlab chiqarish omillari holatida mamlakatlar o'rtaсидада ularning konvergensiyasi sodir bo'ladi (tahlil, mukammal raqobatning mavjudligi, transaksion xarajatlarning mavjud emasligi,

texnologiyalarning yagonaligi, mamlakat ichkarisida omillarning mukammal tarmoqlararo mobilligi, omillarning bir turdaligi, har qanday ehtimolli nisbiy narxlarda kapital talab tovarlar bo'yicha tabaqalanishining o'zgarmasligi va boshqalarni o'z ichiga oladi) va omillar bozorining integratsiyasi, agar neoklassik nazariyaning an'anaviy shart-sharoitlari bajarilmasa, narxlarning tenglashishiga olib keladi. Shuning uchun ishlab chiqarish omillari yagona bozorlarining shakllanishi, odatda, to'siqlarni tugatish jarayoni sifatida emas, balki an'anaviy modellarda ishlab chiqarish omillari mobilligining o'sishi sifatida qaraladi.

Agar, omillar dastlab ma'lum darajada mamlakatlar o'rtasida harakatlanadigan faraz qiladigan bo'lsak, u holda iqtisodiy integratsiya ESZ va BI ni shakllantirish bosqichlarida omillar xalqaro oqimlarining paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Buni ilk marotaba Charlz Kindlberger *to 'g'ridan-to 'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI)* misolida ko'rsatib bergen bo'lib, u J.Vinerning yondashuviga o'xhash tarzda firmalarning integratsiyaga bo'lgan reaksiyasini tavsiflash maqsadida «investitsiyalarni yaratish» va «investitsiyalarni bekor qilish»ning ko'rib chiqilishini taklif etdi³¹. U «investitsiyalarni yaratish» deganda «savdoni bekor qilish» samarasini bilan izohlangan TXI ning o'sishi – uchinchi mamlakatlar eksportning qisqarishi sababli yo'qotadigan, ular tomonidan uyushma hududida bozorga xizmat ko'rsatadigan yangi firmalarning yaratilishini tushungan. Kindlberger «investitsiyalarni bekor qilish» deganda «savdoni yaratish» samarasining uyushma mamlakatlarida mavjud bo'lgan xorijiy firmalarga ta'sir ko'rsatishi – ular tomonidan ixtisoslashuvning afzalliklariga muvofiq ishlab chiqarishning qayta tashkil etilishini nazarda tutgan.

Agar uyushma ichkarisida omillar bozoriga bo'lgan to'siqlarning kamayishini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u holda investorlar reaksiyasining to'rtta turini ajratib ko'rsatish mumkin³²:

1) muhofaza qiluvchi importning o'mini bosadigan investitsiyalar (ba'zan «plasdarmga yo'naltirilgan investitsiyalar» deb ham

³¹ Kindleberger, C.P. European integration and the international corporation // Columbia Journal of World Business. 1966. Vol. 1. P. 65–73.

³² Yannopoulos, G. Foreign direct investment and European integration: the evidence from the formative years of the European Community // Journal of Common Market Studies. 1990. Vol. 28. P.235–259.

ataladi – ingliz tilida «*bridgehead investment*»), ular «savdoni bekor qilishga» qarshi reaksiya bo‘lib, u tushayotgan savdo oqimlarining o‘rnini bosadi;

2) ishlab chiqarishni qayta tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan investitsiyalar (*reorganization investment*). Savdoning tashkil etilishi natijasida raqobat bosimining o‘sishi bilan izohlangan bo‘lib, fermaning ishlab chiqarish tarkibining o‘zgarishi va ishlab chiqarish omillarining reallokkatsiyasiga olib keladi.

3) ishlab chiqarishning ratsionallashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan investitsiyalar (*rationalized investment*). Uyushma ichkarisidagi to‘siqlarni tugatish natijasida ishlab chiqarish xarajatlarida yuzaga keladigan farqlar bilan izohlangan bo‘lib, firmalar uchun yangi maqbul investitsiya muhitining yaratilishiga olib keladi.

4) hujumkor importning o‘rnini bosadigan investitsiyalar. Integratsiyaning firmalar samaradorligiga bo‘lgan ta’siri bilan izohlangan bo‘lib, bu – yangi xorijiy (uyushmaning tashqarisida) bozorlarni izlashga qaratilgan, eksportga yo‘naltirilgan investitsiyalardir.

Ushbu tasnifni ham to‘liq deb hisoblab bo‘lmaydi, chunki u integratsiyaning firmalar strategiyasiga – ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlarini saqlash, raqobatchilarni yo‘qotish va boshqalarga ta’sirini hisobga olmaydi.

Investorlar harakatining shunga o‘xhash turlarini mehnat bozoti uchun ham ajratib ko‘rsatish mumkin.

Omillar yuksak mahsuldorligining o‘zgarishi xususida so‘z ketganda, u omil yaratilgan mamlakat uchun juda muhim hisoblanishini e’tirof etish joiz. Aynan unda yutuqlar jamlanadi, bu vaqtida qabul qiluvchi mamlakat mazkur omilning o‘sishidan yutmaydi ham, yutqazmaydi ham. Omil yuqori narxga ega bo‘ladi, biroq u qabul qiluvchi mamlakatda uning yuksak qiymatiga tengdir. Shunday qilib, omil yutadi (u yaratilgan mamlakatdagi narx bilan taqqoslaganda), bu vaqtida qabul qiluvchi mamlakat qo‘sishimcha omilga qo‘sishimcha hajmning qiymatini to‘laydi va bu bilan neytral bo‘lib qoladi. Yaratilgan mamlakatda ishlab chiqarish pasayadi,

keltiriladigan omilning narxi oshadi, biroq u qabul qiluvchi mamlakatda omilga mukofot to'lash bilan qoplanadi³³.

Omilli daromadlarning transfertlari haqida so'z ketganda, uyushma uchun ular hajmining o'zgarishi umuman olganda hech qanday samara bermaydi – bir mamlakat milliy daromadlarining yo'qotishlari boshqa mamlakatlarning yutug'i bilan qoplanadi. Bunda quyidagilar hisobga olinadi, birinchidan, omillarning harakati oldinroq «migratsiya qilgan» omillarning daromadlariga ta'sir ko'rsatadi – komplementar omillar yutadi, o'rinosar-omillar yutqazishadi. Ikkinchidan, o'zgargan «savdo shartlari» omillarning daromadlariga ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, xulosa chiqarish mumkinki, garchi omillar mobilligining ortishi umuman olganda uyushmaga yutuq keltirishi mumkin bo'lsada, ayrim mamlakatlar yutqazishlari mumkin, va natijada qayta taqsimlash siyosati yana zarur bo'ladi. bundan tashqari, ko'rib chiqilayotgan holatda, to'siqlar faqat uyushma ichkarisida bartaraf etilganda, umuman olganda, uyushma uchun bojxona bojlaridan olingan tushumning qisqarishi hisobiga sodir bo'ladigan zararlar paydo bo'lishi mumkin. Agarda mamlakatlar «katta» bo'lsa va omillar ichki bozorining erkinlashtirilishi boshlangunga qadar yagona tashqi savdo tarifi (SET) maqbul darajada belgilangan bo'lsa, u holda umumiyoq bozorming (UB) shakllanishi natijasida mamlakatlar zararlarga duch keladi. Ya'ni UB shakllanganidan so'ng tariflarni qayta ko'rib chiqish zarur bo'ladi, chunki BI dan UB ga o'tish tashqi savdoni chegaralovchi sabablardan biri – omillarning nomobil ekanligini bartaraf etadi, biroq SET ni saqlab qoladi. Agarda SET kompensatsion tarzda o'zgarsa, u holda uyushma samaradorlikning o'sishi hisobiga yutadi.

Standart shart-sharoitlarda bitta omil bozorining erkinlashtirilishi ikkala omillarning bozorlarida mahalliy va xorijiy omillar narxining tenglashishiga olib keladi. Kapitalning mobilliysi holatida mamlakatlar o'rtasida ish haqi darajasidagi farqlarning mavjudligi standart shart-sharoitlarning bajarilmasligidan guvohlik beradi, masalan, mamlakatlarda bir xil texnologiyalarga ega bo'lish

³³ Wooton, J. Towards a Common Market: Factor Mobility in a Custom Union // The Canadian Journal of Economics. Vol. 21. № 3. Aug., 1988. P. 525–538.

imkoniyati mavjud emas. Davlat siyosati ham – kapital bozorining nisbatan erkin yuritilishida mehnat bozorining tartibga solinganligi jahon iqtisodiyotida omillar narxining juda keng turlanishiga sabab bo‘ishi mumkin.

Real dunyoda neoklassik shart-sharoitlar bajarilmayotganligi sababli, omillar bozoridagi to’siqlarning bekor qilinishi murakkab va kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin:

1. Mehnat bozoriga oid o‘zgarishlar (madaniy va til sohasidagi farqlar, ish bilan bandlarning malakasini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan ish haqini belgilash, informationassimetiya, o‘qitish jarayonlari, muvozanatsizlik holati va boshqalar) sharoitida to’siqlarni bekor qilish omilli narxarning konvergensiyasiga emas, balki divergensiyasiga olib kelishi mumkin.

2. Agar bir turdagи ishlаб chiqarish g‘oyasidan voz kechiladigan bo‘lsa, u holda immigrantlar mehnat bozorida yanada yoshroq va savodliroq bo‘ladilar, bu esa emigratsiya mamlakatida unumdonlikning pasayishi va uning immigratsiya mamlakatida o‘sishiga (mehnat taklifining oshishiga qaramasdan) olib keladi. Migrantlarni saralashning selektivligi va aholi soni o‘sishining talab shartlariga ta’siri ham shunga olib keladi.

3. P.Krugman yangi iqtisodiy geografiya deb nomlangan yo‘nalishga tamal toshini qo‘ygan o‘z maqolasida «miqyos samarasi»ning xo‘jalik faoliyati geografik taqsimlanishiga e’tibor qaratdi³⁴. U ikkita ishlаб chiqarish hududlari (yanada yirik bozorga ega bo‘lgan «yadro» va «periferiya») hamda sanoat va qishloq xo‘jaligining «miqyos samarasi»ga ega bo‘lgan ikkita tarmoq mavjudligini ko‘zda tutadigan modelni o‘rganib chiqqan. «Miqyos samarasi» firmaga ikkala mintaqaga yanada qulayroq xizmat ko‘rsatish uchun maqbul joy tanlashga majbur qilgan holda, sanoatning konsentratsiyasiga olib keladi. Afzallik beriladigan joy, bu bozorlardan eng yirigi – sanoat hududiga aylanadigan «yadro»dir. Transport (savdo) xarajatlarining mavjudligi konsentratsiya jarayonining to‘xtatilishi va nomobil qishloq xo‘jaligi talabiga xizmat ko‘rsatish uchun «periferiya»da ishlаб chiqarish qismaning saqlanishiga olib keladi. Ushbu xarajatlar bir vaqtning

³⁴ Krugman, P. Increasing Returns and Economic Geography // Journal of Political Economy. 1991. № 99(3). P. 483–499.

o‘zida konsentratsiya jarayonlariga yordam beradi, chunki ularning mavjudligi ishchilarning (shuningdek iste’molchilar bo‘lib hisoblanadigan) ko‘p sonli firmalarga ega bo‘lgan mamlakatlarda yashashni afzal ko‘rishlarini ifodalaydi, axir bu sanoat tovarlariga eng yaxshi ega bo‘lishni kafolatlaydi. Ushbu doirada to‘siqlarning kamaytirilishi (omillar mobilliginin ortishi) konsentratsiya jarayonlarining kuchayishi va «yadro-periferiya» tafovutining kengayishiga olib keladi. Bu yerda iqtisodiy integratsiya siyosiy masalaga aylanadi, «periferiya»da noqulay holatda qolgan va «yadro» bilan raqobatlashadigan nomobil ishlab chiqarish omillari unga qarshi chiqadilar.

Yirik bozorga ega bo‘lgan hududlar yanada yuqori ish haqiga ega bo‘ladi, va shu bilan birga migratsiya faqat mamlakatlar o‘rtasidagi tafovutni kuchaytiradi. Natijada barcha mobil omillar cheklangan sonli hududlarda konsentratsiyalashadi.

Bozor va davlatning selektiv siyosatiga aloqador o‘zgarishlarga oid fikr-mulohazalarini kapital bozori uchun ham shakllantirish mumkin. U uchun konsentratsiya jarayonlari mehnat bozoriga nisbatan yanada muhimdir.

Bunday shart-sharoitlar nafaqat ishlab chiqarish omillari egalari uchun farovonlik darajasiga ta’sir ko‘rsatadi, balki davlat uchun ham ma’lum natijalarga olib keladi – umumiyoq bozorning (UB) tashkil etilishi va ishlab chiqarish omillari mobilligining o‘sishi davlat soliq tushumlarining o‘zgarishiga olib keladi. Agar soliq siyosati ko‘pchilikning ovoz berishi bilan shakllanadigan bo‘lsa, u holda UB ning tashkil etilishi soliqlarning qayta ko‘rib chiqilishiga olib keladi. UB tashkil etilishining soliqlarga ta’siri T.Persson va T.Gabellinilarning izlanishlarida tadqiq qilingan³⁵. Ular shunday xulosaga kelishdiki, omil mobilligining o‘sishi uning soliqlarga bo‘lgan sezgirligini oshiradi, soliq raqobatini ko‘taradi va soliqlarni kamaytiradi. Biroq R.D.Ludema va I.Vuton P.Krugmanning yondashuvidan foydalangan holda, buning UB shakllanishi natijasida «yadro-periferiya» tuzilmasi paydo bo‘lmagan hollardagina adolatli bo‘lishini, aks holda esa konsentratsiyalashish ten-

³⁵ Persson, T., Tabellini, G. The politics of 1992; Fiscal Policy and European Integration // Review of Economic Studies. 1992. Vol. 59. P. 691–701.

densiyalari sababli mobil omilning soliqlarga bo'lgan sezgirligining kamayishi va soliqlarning o'sishini ko'rsatib berishdi³⁶.

2.3. Iqtisodiy va valyuta ittifoqining tashkil etilishi. Makroiqtisodiy monetar tahlil

Ta'kidlab o'tilganidek, Iqtisodiy va valyuta ittifoqi – IVI ning (economic and monetary union – uni monetar ittifoq deb atash man-tiqqa yaqinroqdir) tashkil etilishi yagona valyutani joriy etish va yagona pul-kredit siyosatining amalga oshirilishini ko'zda tutadi. Bu bilan milliy pul bozorlarining integratsiyalashuvi ta'minlanadi. IVIni valyuta ittifoqidan (currency union) – o'zlarining valyuta kurslarini belgilaydigan mamlakatlar guruhi va yagona valyuta amal qiladigan valyuta zonasidan (currency area) farqlash lozim.

Monetar integratsiyaga a'zo-mamlakatlar valyuta kurslarining belgilanishi va valyutalarning to'liq konvertirlanishining ta'minlanishi talab qiladi. (Aslida bojxona ittifoqining (BI) tashkil etilishi joriy hisoblar bo'yicha erkin konvertatsiyani talab qilsa, umumiy bozorning (UB) tashkil etilishi esa kapital harakatining hisoblari bo'yicha erkin konvertatsiyani talab qiladi). Biroq, iqtisodiy siyosatning o'zgarmasligini kafolatlash maqsadida, ham pul-kredit siyosati, ham valyuta siyosatining (to'lov balansi siyosati) yuritilishi va ularning integratsion uyushma mamlakatlarining yalpi valyuta zaxiralarini nazorat qilishi lozim bo'lgan milliy organga o'tkazilishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari, u shunga olib keladiki, mamlakatlar monetar kreditga ega bo'la olmaydilar va uyushmaning ishtirokchi-mamlakatlari byudjeti taqchilligi kapital bozorida moliyalashtirilishi lozim bo'ladi. Agar ushbu shartlar bajarilsa, u holda IVI da yagona valyuta joriy etilishi mumkin.

Agar mamlakatlar kursni belgilab, 100% li konvertatsiyaga erishsalar-u, biroq iqtisodiy siyosat sohasida integratsiya sodir bo'lmasa, u holda har doim tartibning o'zgarish tavakkalchiliklari saqlanib qoladi. M.Korden bunday birlashmalarni yolg'on uyush-

³⁶ Ludema, R.D., Wooton, I. Economic Geography and the Fiscal Effects of Regional integration // Journal of International Economics. 2000. Vol. 52. P. 331–357.

malar deb atashni taklif etadi, biroq ular IVI ni shakllantirish yo‘lida muhim qadam bo‘lishi mumkin³⁷.

IVI ning tashkil etilishi va pul bozorlarining birlashishi integratsiya oldingi bosqichining samaradorligini kuchaytiradi, ayniqsa – tovarlar va omillar bozorlarining yanada samarali faoliyat yuritishi, iqtisodiy faollikning geografik taqsimlanishiga yordam beradi, chunki uyushmaga kirgan mintaqalarning milliy bozorlari yanada integratsiyalashgan bo‘ladi.

IVI ning tashkil etilishi bir qator iqtisodiy yutuqlarga olib keladiki, ular quyidagilar bilan bog‘liqdir:

1) o‘zaro kurslarning belgilanishi:

– o‘zaro savdoda valyuta tavakkalchiliklarini tugatish. R.E.Bolduinning ko‘rsatishicha, bunda tavakkalchiliklarning sezilarsiz darajada kamayishi iqtisodiy o‘sishning tezlashishiga olib keladi³⁸.

Turli shakillardagi valyuta integratsiyasining xarajatlari va foydasi

2.3.1-jadval

Xarajatlari/foyda	Norasmiy valyuta ittifoqi	Rasmiy valyuta ittifoqi	To‘liq valyuta ittifoqi
Xarajatlari:			
1) uyushmaning boshqa a’zo mamlakatlari bilan munosabatlarda valyuta kurslaridan foydalanish imkoniyatining mavjud emasligi;	ha	ha	ha
2) suverenitet va inflyatsiya solig‘ining yo‘qotilishi	ha	ha	ha
Foyda:			
1) resurslarning eng yaxshi taqsimlanishiga olib bora-digan narxlar (amaldagi) barqarorligining oshishi;	qisman	ha	ha

³⁷ Corden, W. Max. Monetary Integration // Essays in International Finance. № 93. Princeton University. 1972.

³⁸ Baldwin, R.E. On the Microeconomics of the European Monetary Union // European Economy. 1990. 1 special edition.

2) savdo va investitsiya oqimlarining o'sishiga olib boradigan valyuta kurslari (amaldagi va kutiladigan) tebranishlarining kamayishi	qisman	ha	ha
3) savdo va investitsiya oqimlarining o'sishiga olib boradigan transaksion xarajatlarning kamayishi va narxlar transparentliginnig yaxshilanishi	—	ha	ha
4) komission foiz stavkalari va tavakkalchilik uchun mukofotlarning kamayishi hisobiga davlat qarzidagi iqtisod	qisman	qisman	ha
5) valyuta zaxiralarini birlashtirish hisobiga resurslarni jamg'arish	—	qisman	ha
6) pul siyosatini markazlashtirish hisobiga zaxiralarini jamg'arish	—	qisman	ha
7) dinamik samara	—	qisman	ha

– raqobatbardoshlikning oshishi va infliyatsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirish imkoniyatlarining ko'payishi.

2) yagona valyutaga o'tish:

– xalqaro operatsiyalar bo'yicha transaksion xarajatlar, yagona valyutani joriy etishdagi konvertatsiya xarajatlarining kamayishi. Iqtisodiy ittifoqda yagona hisob o'chovi bilan nisbiy narxlarning katta tiniqligiga erishiladi, axborot olish xarajatlari kamayadi;

– moliya bozoridagi «miqyos samarasi»: moliyaviy vositachilik va jamg'armalarni investitsiyalarga aylantirishning jamoat xarajatlarining kamayishi; firmalarga moliyalashtirishni maqbullashtirishga imkon beradigan moliyaviy vositalar (turli muddatli va tavakkalchilikdagi) spektrining kengayishi. (Moliyaviy bozorlarning mamlakatlar tomonidan tartibga sofinishingning uyg'unlashishini talab qiladi). Valyuta operatsiyalari miqyosining ortishi, shuningdek, moliyaviy aktivlar likvidligining o'sishiga olib keladi;

– uchinchi mamlakatlar bilan savdoda to'lovlarning ittifoq valyutasiga o'tkazilishi. Agar uchinchi mamlakatlar o'zlarining

valyuta zaxiralarini ittifoq valyutasiga o'tkazadigan bo'lsalar, u holda IVI ning Markaziy banki senorajni jaib etishlari mumkin.

3) monetar siyosatning integratsiyasi bilan:

– IVI ning Markaziy bankiga bo'lган ishonchning ortishi, ayniqsa agar ushbu bankning tashkil etilishida yuqori nufuzga ega bo'lган hamda amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosatiga ishonchni oshirish istagi bo'lган mamlakatlar uchun jaib etadigan va Markaziy bankning ishonchi bo'lган ittifoq mamlakatlari bevosita ishtirok etadigan bo'lsa (tabiiyki, yuqori nufuzga ega bo'lган mamlakatlar uchun bu qo'shimcha tavakkalchilikdir). IVI, umuman olganda, agar past inflyatsiyaga ega bo'lган hududning ishonchini qozonsa, yutuqqa ega bo'ladi, barcha a'zo-mamlakatlarga past inflyatsiya siyosatining tarqalishiga yordam beradi.

Shu bilan birga IVI ning tashkil etilishi ham o'z xarajatlariga ega. U foiz stavkalari va firmalar foydalarining kamayishiga olib kelishi mumkin. Biroq asosiy «mag'lubiyatlar» mamlakatlar tomonidan muhim siyosiy vositalarning yo'qotilishi bilan bog'liq. Ma'lumki, muayyan miqdordagi mustaqil iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun kamida shuncha miqdordagi vositalar zarur. Makro-iqtisodiyot nuqtayi nazaridan an'anaviy ravishda fiskal va kredit-pul siyosati yordamida tashqi (to'lov balansi muvozanati) va ichki (ishsizlik va inflyatsiya darajasi o'rtaqidagi nisbat) muvozanatga erishish ko'zda tutiladi. Uning milliy organga berilishi keynschilar, monetar va yangi klassik nazariyalarning talqinida o'z xususiyatlarga ega bo'lган muammolarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Biroq, bunday xarajatlarning miqyosi ishlab chiqarish omillari ning mobilligi darajasi, iqtisodiy shok (talvasa) tavsifi, narxlar va ish haqining qayishqoqligi, shuningdek fiskal siyosatining makro-iqtisodiy barqarorlikka erishishga yo'naltirilganligi darajasi kabi ko'rsatkichlarga bog'liq.

Agar ishlab chiqarish omillari, xususan, mehnat omilining mobilligi yuqori bo'lsa, u holda bu muvozanatsizlikni tuzatishning qo'shimcha mexanizmiga olib keladi – omillar migratsiyasi muayyan kursda nisbiy talabning harakatlarini so'ndiradi. «Maqbul valyuta zonalari» nazariyasining asoschisi hisoblangan R.A.Mandell omillar mobilligini ularni tashkil etish yo'lida a'zo-mamlakatlar

uchun manfaatsiz narxlar va daromadlarsiz shokni so‘ndirishga imkon beradigan tanqidiy jihatdan muhim omil sifatida talqin etdi³⁹.

Agar iqtisodiy shok tavsiisi bo‘yicha muvozanatga qaytarish uchun valyuta kursini qisman tuzatish talab etiladigan bo‘lsa, u «mag‘lubiyat»ni kamaytiradi. P.Kenennenning tasdiqlashicha, valyuta zonasi doirasida mamlakatlar yo‘liqqan asimmetrik shoklar o‘zaro so‘ndiriladi⁴⁰. Shuning uchun birlashmoqchi bo‘lgan mamlakatlar guruhida iqtisodiyot diversifikatsiyasining yuqori darajasi barcha a’zo mamlakatlar uchun manfaatlidir.

Mandell tomonidan ilgari surilgan asosiy tezis shundan iboratki, yagona valyuta qo‘llanilayotgan zonaning kengayishi uning samaradorligini oshiradi (mikrodarajada), biroq pul siyosati uchun ushbu ittifoqning turli sohalariga turlicha ta’sir ko‘rsatadigan shoklarga (yoki shartlarga) munosabat bildirish imkoniyatini kamaytiradi. Valyuta zonasi uchun maqbul miqdor yagona jahon valyutasi va har bir mamlakat uchun valyuta o‘rtasida yotadi.

Agar narxlar (shu jumladan, ish haqi) nisbatan qayishqoq bo‘lsa, u holda bu shuningdek, yuzaga keladigan qiyinchiliklarni tezda yengib o‘tishga imkon beradi. R.I.MakKinnon mahalliy narxlarning jahon narxlariga bog‘liqligi darajasini belgilab beradigan ayrim mamlakatlar ochiqligining yuqori darajasining (savdoning YaIMdagi ulushi) muhimligini ko‘rsatib berdi⁴¹. Ochiq iqtisodiyot holatida suzuvchi ayrboshlash kursi siyosatning nisbatan samarasiz vositasi bo‘lib qoladi, chunki ichki narxlarning beqarorlashuviga olib keladi.

IVIda fiskal (byudjet-soliq) siyosatini yuritish xususiyatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, u holda tabiiyki, mazkur siyosat sohasida cheklovlar qanchalik kamroq bo‘lsa, mamlakatlar hayratlarni shunchalik samarali bartaraf etishadi. Biroq, bu siyosatga aloqador ikkita nuqtayi nazar mavjud. Birinchi nuqtayi nazar shundan iboratki, ittifoq shart-sharoitlarida mamlakatlar keng fiskal siyosatini yuritishga

³⁹ Mundell, R.A. A Theory of Optimum Currency Areas // American Economic Review. 1961. Vol. 53. P. 657–664.

⁴⁰ Kenen, P. The Theory of Optimum Currency: an Eclectic View // Mundell, R., Swoboda, A.K. (eds.). Monetary Problems of the International Economy. Chicago: University of Chicago Press. P. 41–60.

⁴¹ McKinnon, R.I. Optimum currency areas // American Economic Review. 1963. Vol. 53. P. 717–734.

moyil bo‘ladilar, chunki milliy monetar hukumatlar, shuningdek, yakunda ittifoqning barcha a’zolari inflyatsiya tavakkalchiligiga duch keladilar. Ikkinci nuqtayi nazarga binoan, soliq-byudjet siyosati davlatda qolgan yagona vosita hisoblanganligi sababli, u holda bu siyosat mamlakatlar yakka tarzda duch keladigan muammolarni hal qila olishlari uchun muxtor va qayishqoq bo‘lishi lozim, va agar IVI Markaziy banki inflyatsiyani samarali bartaraf etsa, u holda soliq chekllovleri faqat zararli bo‘ladi⁴².

Biroq, nazariy tadqiqotlar ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatish nuqtayi nazaridan mamlakatlar uchun qanday qilib va qaysi hollarda valyuta ittifoqiga kirish maqsadga muvofiq degan savolga javob bermaydi. Mandell ishlab chiqarish omillarining mobilligiga, MakKinnon – mamlakatiarning ochiqligiga, Kenen – iqtisodiyotning diversifikatsiyalanganligiga e’tibor qaratadi. Yuqorida ta’kidlangan mezonlar, shak-shubhasiz, ularni baholash nuqtayi nazaridan muhim bo‘lsa-da, ularning hech biri o‘ziga yetarli emas. Boshqa tomonidan esa, ushbu barcha mezonlarga sifat va miqdoriy jihatdan baho berish juda mushkuldir.

Valyuta ittifoqlari suzuvchi kurslar yirik va o‘ziga to‘q iqtisodiyotlar uchun mos kelgan bir vaqtida, tashqi savdosida ishlab chiqariladigan mahsulot hajmining sezilarli qismi ishtirok etadigan kichik ochiq iqtisodiyotlar uchun yanada maqbul bo‘lishi to‘g‘risidagi umumiy xulosa yakuniy natija bo‘lib hisoblanadi.

T.Bayomi va Eyxengrin umumnazariy tavsiyalar uchun miqdoriy ko‘rsatkichlarni izlash chora-tadbirlarini ko‘rdilar⁴³. Regression tahlil asosida ular tomonidan IVI mamlakatlarining prognoz qilinayotgan valyuta ittifoqida Germaniya bilan ishtirok etishning «maqbul bo‘lmagan indeksi» yaratildi. Ularning hisob-kitoblari shuni ko‘rsatdiki, Avstriya, Belgiya, Gollandiya va Shveysariya bunday ittifoqda ishtirok etish uchun qulay shart-sharoitlarga ega bo‘lishgan bir vaqtida Daniya, Finlyandiya, Norvegiya, Portugaliya, Ispaniya, Shvesiya va Buyuk Britaniya noqulay shart-sharoitga ega bo‘ldilar. Biroq, ta’kidlash joizki, bu yondashuv ishtirok etishdan

⁴² Dornbusch, R. Fiscal Aspects of Monetary Integration // American Economic Review. Papers and Proceedings. 1963. Vol. 53. № 2. P. 221–221.

⁴³ Bayomi, T., Eichengreen, B. Ever Closer to Heaven? An optimum Currency-Area Index for European Countries // American Economic Review. 1997. № 41. Vol. 3–5. P. 761–770.

olinadigan foyda yoki yo‘qotishlarning bahosini emas, balki faqat maqbullikning darajasini ko‘rsatib beradi. Amaliy mezon esa ishlab chiqilmagan.

Tayanch iboralar: «savdoni tashkil etish» (*trade creation*) samaradorligi, «savdoni bekor qilish» (*trade diversion*) samaradorligi, «*dinamik samaralari*», «*miqyos*» samara, monetar integratsiya

Nazorat savollari:

1. J. Vinerning fikriga ko‘ra «savdoni tashkil etish» va «savdoni bekor qilish» samaralari o‘zlarida nimalarni namoyon etadi?

2. Tashqi savdoning neoklassik modeli uchun Lipsi – Gerels va Melvina – Bxagvati dalillari nimalarga olib keladi?

3. Tovarlar differensiatsiyasi va bozorlar segmentatsiyasining o‘zgarishidan hosil bo‘lgan samaraga U.Eter va X.Xornlarning munosabatlari qanday?

4. Integratsiyada «dinamik samaralar» ni qanday tushunish mumkin?

5. Bojxona ittifoqi shakllanishida mamlakatlar o‘rtasida bojxona daromadlarining taqsimlanishi qoidalari qanday?

6. Umumiy bozorning tashkil etilishi ishlab chiqarishning yuqori unumdorligiga ta’sirini qanday baholash mumkin?

7. Ch.P.Kindlberger «investitsiyalarni yaratish» va «investitsiyalarni bekor qilish» deganda nimalarni tushungan?

8. «Miqyos samarasasi» sharoitlarida P.Krugman ta’rifiga fikriga ko‘ra «markaz» va «periferiya» samaralarini qanday tushunish mumkin?

9. Iqtisodiy va valyuta ittifoqining tashkil etilishi qanday iqtisodiy manfaatlar berishi mumkin?

10. R.A.Mandell, P.Kenen va R.I. MakKinnonlar valyuta ittifoqida mamlakatlarning qatnashishlarida qaysi mezonlari taklif qilishgan?

III BOB. YEVROPADA IQTISODIY INTEGRATSIYA JARAYONLARI

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya xususida so‘z borganda, eng avvalo, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining bu borada erishgan yutuqlari va hozirgi kunda jo‘sinqin rivojlanayotgan Sharqiy, Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqalari tasavvurimizga keladi. Lekin, integratsiya jarayonlarining shakllanishi, uni amalga oshirish chora-tadbirlari va tashkiliy tuzilmalarni buniyod etishdagi qiyinchiliklar, muzokaralar mazkur jarayonning ko‘rinmas jihatlaridir.

Jahon xo‘jaligi integratsiyalashuvning turli darajada rivojlanishiga qaramasdan, unga undovchi maqsadlar bir-biriga o‘xhash bo‘lib, deyarli barcha integratsion guruhlar **quyidagi maqsadlarni** ko‘zlaydilar:

1. Iqtisodiyot ko‘lamini kengaytirishdan olinadigan manfaat. (Bozor chegaralarining kengayishi, transaksion xarajatlarning pasayishi, investitsiyalar oqimining ortisi, Markaziy Amerika va Afrika davlatlari guruhida yaqqol ko‘rinadi).

Qulay tashqi siyosiy muhitning shakllanishi. (Ishtirokchi mamlakatlar siyosiy, harbiy, ijtimoiy va boshqa noiqtisodiy sohalardagi hamjihatlikka o‘zaro tushunish va hamkorlik asosida erishadilar. Masalan, Yevropa Ittifoqidagi katta va kichik davlatlar tajribasi shundan dalolat beradi).

Savdo siyosati masalalarini birgalikda hal etish. (Ishtirokchi mamlakatlar BSTdagi ko‘p tomonlama muzokaralarda kuchli pozisiyaga erishadilar. Xususan, Yelga a’zo davlatlarning guruh sifatidagi harakati).

Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishda ko‘maklashuv. (Guruhdagi rivojlangan ishtirokchi davlatlarning bozor islohotlari, ularning kapital va texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati. Masalan, Yevropa Ittifoqi doirasidagi integratsiya.)

Milliy sanoat tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash. (Yirik mintaqaviy bozor shakllanishi asosida erishiladi. Masalan, Lotin Amerikasi davlatlaridagi integratsiya jarayonlari).

3.1 Yevropada integratsiya jarayonlarining rivojlanish bosqichlari

G'arbiy Yevropa mintaqasi davlatlari o'rtasidagi o'zaro savdo-sotiq aloqalari o'ta jadal rivojlangan hudud sifatida hamda xalqaro savdo tarixi nuqtayi nazaridan e'tiborga loyiqdir. XVI-XIX asrlarda Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliyaning kolonializm siyosati davridayoq savdo va ishlab chiqarishni rivojlantirishda asosiy e'tibor arzon xomashyo hamda ishchi kuchidan foydalanishga qaratilgan bo'lsa, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, mintaqaviy savdo-sotiq aloqalarini kengaytirishga qaratildi. Bu davrda, ya'ni 1870-yillarda Germaniya markazlashgan davlat sifatida shakllandi. Fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish, yuqori darajada texnik qurollangan milliy sanoatni shakllantirish - bevosita iqtisodiy o'sish omili bo'lib xizmat qildi.

Birinchi jahon urushi ham «bo'lingan dunyoni qaytadan bo'lish» masalasini hal eta olmadı. Germaniyaning harbiy sanoat kompleksini rivojlantirishi va qo'shni davlatlarni bosib olishi xavfi kuchayib bordi. Ikkinchi tomonidan, xususiy mulkchilik batamom bartaraf etiladigan, «proletar diktaturasi»ga asoslangan iqtisodiy tizimni «eksport qilish» xavfi barcha Yevropa mamlakatlarini tahlikaga solar edi. Shu sababdan, iqtisodiy integratsiyaning zaruriy shart-sharoitlari Ikkinchi jahon urushiga qadar shakllanmagan edi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin barcha davlatlar mislsiz iqtisodiy inqirozga uchradilar. Aksariyat mamlakatlar duchor bo'lgan ishsizlik va kambag'allik, mahalliy sanoatning batamom barbod bo'lganligi qichqa muddatlarda tiklanishni, umuman, imkoniy yo'qligidan dalolat edi. Shu davrda barcha taraqqiy parvar kuchlar G'arbiy Yevropa mamlakatlarining mafkuraviy asoslarini erkinlash-tirish va mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikka tayanadigan xalqaro iqtisodiy tartibotni ta'minlash zarurligi xususidagi g'oyalarni ilgari sura boshladilar.

Yevropaning qayta tiklanish va iqtisodiy rivojlanishida **«Marshal rejasii»** muhim rol o'ynadi va uning doirasida G'arbiy Yevropada barqaror o'sish va savdo-sotiq aloqalarini keng ko'lamda amalga oshirishda katta yordam ko'rsatiladi. Bundan tashqari, mustamlaka imperiyalarining yemirilishi natijasida sobiq metropoliyalar

tashqi iqtisodiy strategiyalarini qayta ko'rib chiqib, qo'shnilar bilan aloqalarini chuqurlashtirishga majbur bo'lgan edilar.

Yevropada iqtisodiy integratsiyaning boshlang'ich muddati sifatida 1950-yil 9-may sanasi e'tirof etiladi. Fransiya Tashqi ishlar vaziri R. Shumanning 1950-yil 9-mayda Parijda bergen bayonoti bu o'rinda tarixiy ahamiyatga ega. U Fransiya bilan GFRdagi jami ko'mir va po'lat ishlab chiqarishni umumiy bosh rahbariyat tomonidan boshqariladigan bo'lishini taklif etdi. Natijada 1951-yilning aprelida Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi (YeKPB) ta'sis etilishi to'g'risida Parij shartnomasi imzolandi. *Uning iarkibiga oltita davlat - Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, GFR, Fransiya, Italiya davlatlari kirdi. Shartnoma 1953-yildan boshlab kuchga kirdi.*

Messin konferensiyasi (1955-yil iyun) Yevropa Ittifoqi tuzilishiga yangi turtki berdi. Unda Yevropa integratsiyasi to'g'risidagi Benilyuks memorandumi muhokama qilingan edi. G'arbiy Yevropadagi integratsion jarayonlarda 1957-yil 25 martda Rim shahrida bo'lib o'tgan konferensiya va unda qabul qilingan shartnomalar alohida o'rinn egallaydi. Unda Messin konferensiyasining asosiy qoidalarini hayotga tatbiq etish choralarani aniq belgilangan bo'lib, bojaxona ittifoqi tuzish va umumiy siyosat yuritishga, ayniqsa qishloq xo'jaligida hamkorlik qilishga asoslangan *Yevropa iqtisodiy Hamjamiyati* (YeIH), *Atom energiyasi bo'yicha Yevropa Hamjamiyati* (Yevroatom) ta'sis etilgan edi. Kuchga kirgan Rim shartnomalari YeKPB, YeIH va Yevroatomni birlashtirgan edi.

Yevropada savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida 1960-yil mart oyida Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasi tuzildi va unga YeKPB va Yevroatomga a'zo bo'Imagan davlatlar: Avstriya, Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Portugaliya, Shveysariya, Shvesiya kirdi. Garchi assotsiatsiyaning faoliyati 1973-yilgacha samarali kechmagan bo'lsada, Yevropa Hamjamiyati davlatlaridagi integratsion jarayonlar o'ta jadallahgan davrda hamjamiyatga a'zo bo'Imagan davlatlar ham savdodagi to'siqlarni olib tashlab, boj tariflari bo'yicha deyarli bir xil darajalarni qo'llay boshladilar. Bu Yevropa bo'ylab tovar va xizmatlar harakatida erkinlik, yagona bojaxona hududidek makonni shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

YelH to‘g‘risidagi shartnomada a’zo mamlakatlar doirasida kvotalarning bekor qilinishi va davlatlararo savdo yo‘lidagi boshqa to‘siqlarning bartaraf etilishini, tovarlar, shuningdek, shaxslar, kapital va xizmatlar erkin harakatda bo‘lishini ko‘zda tutadigan bojxona ittifoqi tuzishdan iborat asosiy maqsad ko‘rsatilgan. Shartnoma qishloq xo‘jaligi, tashqi savdo, ijtimoiy va qonunchilik sohalarida umumi siyosatning aniq yo‘nalishlarini rasmiylash-tirishni nazarda tutar. edi. Lekin, YelH to‘g‘risidagi shartnomada makroiqtisodiy va moliyaviy siyosat masalalari xususidagi mezon hamda ko‘rsatkichlar ishlab chiqilmagan edi. Bundan tashqari, ittifoqdosh davlatiardagi ijtimoiy va tashqi siyosat muammolari ham shartnoma doirasiga kiritilmagan edi.

1960-1970-yillarda Yevropa mamlakatlarining aksariyati qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yirik importyori hisoblanardi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari savdoga tegishli tariflar bilan himoyalangan bo‘lsa-da, asta sekintlik bilan ko‘pgina davlatlar oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘z milliy ishlab chiqarish quvvatlari evaziga mamlakatni to‘liq ta’minlash darajasiga yaqinlashdi. Shubhasiz, bu – integratsiya asosida chuqur o‘ylangan agrar siyosat va uni qo’llab-quvvatlash dastaklari hamda tegishli chora-tadbirlar natijasi bo‘ldi.

YelHni tuzish rejalariga ko‘ra, hamjamiyatga a’zo davlatlar o‘rtasida *bojxona ittifoqi tuzishni 1970-yilning 1 yanvarigacha* tugallash vazifasi belgilangan edi. Mazkur jarayon deyarli dastlabki a’zo davlatlar miqyosida hal etilgandi. Lekin 1973-yildan hamjamiyatga Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya davlatlari a’zo bo‘lib kirdi va ushbu jarayonni mazkur yangi davlatlarda ham amal qilishi uchun tegishli vaqt talab qilindi.

Yevropa Ittifoqining kengayishi masalalari alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, bu masalalar ilk bor 1969-yil Gaagada o‘tkazilgan konferensiyada muhokama etildi. 1973-yil «oltilikka» Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya qo‘shilgan bo‘lsa, 1981-yil Gresiya, 1986-yil Ispaniya va Portugaliya, 1995-yil Avstriya, Finlyandiya va Shvesiya davlatlari qo‘sildi. Bu davrda sobiq «sotsialistik lager» tuzilmasi batamom o‘z mavqeini yo‘qotgandi. Avstriya, Finlyandiya va Shvesiya davlatlari kichik davlatlar sanalsa-da, ulardagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar ittifoqdagi mamlakatlarning ko‘rsatkichlaridan

uncha katta farq qilmasdi. Bundan tashqari, ushbu davlatlar tashqi savdo aylanmasining 50-60 foizi YelH davlatlari hissasiga to'g'ri kelardi. Ittifoq miqyosi kengayishining 5 bosqichda kechganligi va unga nomzod davlatlarning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari *quyidagi jadval ma'lumotlarida* o'z aksini topgan.

1990-yillarda ko'pgina Sharqiy va Markaziy Yevropa davlatlaridagi tub o'zgarishlar va bozor munosabatlarining qaror topishi Yelning kengayishi uchun shart-sharoitlar vujudga kelayotganligidan dalolat berar edi. Bundan tashqari, xalqaro vaziyat, siyosiy vazifalar ham o'zgarayotgan edi. Yel miqyosida Iqtisodiy-Valyuta Ittifoqi (IVI) tuzilishini jadallashtirish vazifalarini hal qilish uchun ham qulay shart-sharoit yaratildi. Jumladan, 1990-yillarning boshida «sovnuq urush» tugallandi, Yel ko'plab xalqaro muammolarni hal qilish javobgarligini o'z zimmasiga oldi.

Yevropa Ittifoqi kengayishining 5 bosqichi: Yel va nomzod mamlakatlari asosiy ko'rsatkichlarining bir-biriga aloqadorligi (munosabati)

3.1.1 jadval

Ko'rsatkichlar	Aholi, mln. kishi	May- don, ming km ²	YalM mird. doll.		Jon boshiga to'g'ri keluvchi <i>SPLM</i> , doll.	
			RV* Bo'yicha	HQQP* * bo'yicha		xarid qilish qobili- yati bo'yicha **
1	2	3	4	5	6	7
Birinchi kengayish - 1973 y.(Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya)						
Nomzodlar	64,3	358,2	217,0	267,9	3374	4166
El mamlakatlari	209,4	1279,8	885,5	854,3	4229	4081
Yel mamlakatlari	30,7	28,0	24,5	31,4	79,8	102,1
Ikkinci kengayish - 1981 y.(Gresiya)						
Nomzodlar	9,7	131,9	44,5	55,0	4E75	5653

El mamlakatlari	278,5	1638,0	2528,0	2521,3	9078	9054
El mamlakatlariga nisbatan nomzodlar, %	3,5	8,1	1,8	2,2	50,4	62,4

Uchinchi kengayish - 1986 y.(Ispaniya, Portugaliya)

Nomzodlar	48,5	597,1	275,0	403,2	5667	8308
El mamlakatlari	290,0	1769,9	3257,3	3497,4	11232	12060
El mamlakatlariga nisbatan nomzodlar, %	16,7	33,7	8,4	11,5	50,5	68,9

To'rtinchi kengayish - 1995 y. (Avstriya, Finlyandiya, Shvesiya)

Nomzodlar	22,0	870,9	605,1	443,7	27521	20160
El mamlakatlari	350,0	2367,1	8000,1	6780,5	22856	19372
El mamlakatlariga nisbatan nomzodlar, %	6,3	zaz	7,6	6,5	120,4	104,2

Beshinchi kengayish - 2004 y. (Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari, Malta va Kipr)

Nomzodlar	104,6	1076,9	365,1	903,3	3490	8638
El mamlakatlari	375,3	3237,9	8509,5	8371,0	22672	22303
El mamlakatlariga nisbatan nomzodlar, %	27,9	33,3	4,3	10.8	15.4	38,7

Oltinchi kengayish – 2013-yil – Xorvatiya

* rasmiy valyuga kursi bo'yicha

«valyutani xarid qilish qobiliyati pariteti bo'yicha

Manba: IMF Yesonomic Outlook, 2003. Mau. R. 149.

Shu sababli ham Yel 1991-1995-yillarda Sharqiy Yevropa hamda MDH davlatlari bilan iqtisodiy va savdo hamkorligi xususida alohida bitimlar tuzdi. Chunki, O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi doirasidagi hamkorlik tizimi bozor sharoiti talablariga javob bermas edi. 1992-yil 21 dekabrda Krakov shahrida **Markaziy Yevropa**

erkin savdo zonasi bitimi tuzildi. 1996-yilda mazkur bitimga Sloveniya, 1997-yilda Ruminiya, 1998-yilda Bolgariya qo'shildi.

3.2 Yevropa Ittifoqining shakllanishi, yagona Yevropa akti, Maastricht va Amsterdam shartnomalari

1991-yilda Maastricht (Niderlandiya Qirolligi) hamda 1997-yilda Amsterdamdagi yig'ilishlarda qabul qilingan shartnomalar hozirgi Yevropa Ittifoqining shakllanishida alohida o'rinn tutgan. 1991-yilning dekabrida qabul qilingan *Yevropa ittifoqi to'grisidagi Maastricht shartnomasi* Yevropa integratsiyasi qaror topishida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Maastricht shartnomasining maqsad-mohiyati quyidagilardan iborat:

- yaratilgan yagona bozor yo'lidan og'ishmay borib, iqtisodiy va valyuta ittifoqi tomon intilish;
- iqtisodiy integratsiyaga umumiy ijtimoiy siyosat yuritish asosida ijtimoiy mezonlarning ustuvorligi;
- Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini Yevropa ittifoqiga aylantirish va uning vakolatlari doirasini kengaytirish;
- Hamjamiyat institutlari doirasida millatusti integratsiyaning qurilishi («birinchi tayanch») tashqi siyosat va xavfsizlik sohasidagi doimiy hamkorlik («ikkinchi tayanch») hamda yustitsiya va ichki ishlar sohasidagi doimiy hamkorlik («uchinchi tayanch») bilan to'ldirish;
- «uchta tayanch»ning barchasini Yevropa Ittifoqi (YeI) doirasida birlashtirish.

Bundan tashqari, **Maastricht shartnomasida YeI ga a'zolikka nomzod mamlakat** quyidagi mezonlarga javob berishi lozimligi belgilab qo'yildi:

- mamlakatning rejalashtirilayotgan va amaldagi davlat byudjet defisiti bozor narxlarida YaIMning 3% idan ortmasligi kerak;
- davlat qarzlari bozor narxlarida YaIMning 60% idan ortmasligi kerak;
- yillik inflyatsiya darajasi Ittifoqqa a'zo 3 ta inflyatsiya darajasi past bo'lgan davlatlarning o'rtacha darajasidan 1,5% ga ortmasligi kerak;

- o'rtacha uzoq muddatli foiz stavkasining nominal darjası ittifoqqa a'zo 3 ta inflyatsiya darjası eng past bo'lgan davlatlarnikiga qaraganda 2,0 % ortiq bo'lmasisligi kerak;

- mamlakat iqtisodiy va valyuta ittifoqiga a'zo bo'lishidan ikki-yil muqaddam o'z milliy valyutasini devalvatsiya qilmagan bo'lishi, almashinuv kurslaridagi tebranishlar \pm 2,25% dan ortmasligi *kerak*;

Ushbu mezonlarning barchasi bo'yicha ham tegishli cheklanishlar mavjud. Yelga konvergensiya (uyg'unlashuv) jarayonida ushbu ko'rsatkichlardan: chekhanishlar vaqtinchalik xususiyatga ega ekanligi ta'kidlab o'tildi. Garchi davlat mazkur miqdoriy chegaralarga erisha olmasa, unda kelgusi davrda ularga erishish muqarrarligini namoyon etishi lozim.

1997-yildagi Amsterdamda Yel davlatlari tomonidan imzoланган shartnomada a'zo davlatlarning siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, atrof muhitni himoya qilish, tinchlikni saqlash, inson huquqlarini himoyalash yo'naliishlarida qator muhim tamoyil va dasturiy vazifalar belgilandi. Yevropa mintaqasida inson huquqlarini barcha jabhalarda himoyalash bilan birga Yevropa Ittifoqiga kiruvchi yangi a'zo davlatlar va ularni boshqaruvchi institutsional tuzilmalarni ham takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

2000-2002-yillar mobaynida Yelda yevroni kiritish bo'yicha katta tashkiliy, huquqiy, moliyaviy, hisob-kitoblarga oid ishlar amalga oshirildi. Albatta, Yelda yagona valyutani muomalaga kiritish g'oyasi dastlab Tindemans rejasida ko'rsatilgandek, 1980-yilda amalga oshmagan bo'lsha-da, milliy banklar, tovar, fond va valyuta birjalardagi operatsiya hamda investitsiya oqimlarini inobatga olgan holda, 2002-yil 1 yanvardan naqd pul vositasi sifatida muomalaga kiritildi.

Hozirgi kunda «yevro» mustahkam shakllandi va xalqaro savdoda valyuta operatsiyalarida to'lov vositasi sifatida o'z o'mriga ega bo'ldi. Yelga a'zo davlatlarning barchasi «yevro zona»da emas. Avstriya, Belgiya, Germaniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Gollandiya, Portugaliya, Finlyandiya, Fransiya va 2007-yildan Sloveniya, hozirgi kunda jami 18 davlat «yevro zona»ga a'zo. Kelgusida «Yevro zona»ning kengayishi muqarrarligi, u

xalqaro iqtisodiy operatsiyalarda xalqaro to'lov vositasi sifatida muhim rol o'ynashi bashorat qilinmoqda.

3.3 Yevropa Ittifoqining kengayish imkoniyatlari

Yelning kengayishida *besh bosqich* alohida ahamiyatga ega. Chunki, bu kengayish o'z ko'lami jihatidan boshqa bosqichlardan tubdan farq qiladi. **2004-yil 1 maydan** boshlab **YeIga 10** ta davlat qo'shildi: *Polsha, Litva, Latviya, Estoniya, Slovakiya, Chexiya, Vengriya, Sloveniya, Malta, Kipr*. Natijada Yelning ichki bozori va investitsion faolligi yanada ortdi. Garchi yangi a'zo davlatlar iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha bir-birlaridan keskin farqlansalarda, o'tgan 1990-2003-yillar davomida iqtisodiy islohotlarning kechishi va bozor munosabatlarining chuqurlashuvi nuqtayi nazaridan boshqa Sharqiy va Markaziy Yevropa davlatlaridan bir qadar ilg'orliklari bilan ajralib turar edi. **2007-yilda Ruminiya, Bolgariya 2013-yilda Serbiya YeIga a'zo bo'lib kirdi**, lekin Turkiya davlatining YeIga a'zo bo'lib kirish muddatini hanuzgacha aniq bashorat qilish qiyin.

Kelgusida Yelning kengayishida Norvegiya, Shveysariya, Lixtenshteyn davlatlarining o'rni va ular ishtiroti xususida aniq fikr bildirish mushkul. Mazkur davlatlar iqtisodiy jihatdan Yelning barcha davlatlari bilan mustahkam hamkorlikda bo'lib, integratsion jarayonlar jadal rivojlanmoqda. Lekin ushbu davlatlarning «qo'shilmaslik» siyosati ularni YeIga haqiqiy a'zo bo'lishini bir qadar cheklab turibdi.

G'arbiy Yevropadagi integratsiya jarayonlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, integratsiyaning nazariy asoslari bilan amaliy natalari bir-biriga to'g'ri kelayotgan bo'lsa-da, ammo bu tajriba boshqa mintaqalardagi integratsion birlashmalarning shakllanishidan farqlanishi shubhasizdir. Yevropa Ittifoqi, nazariyachilarining fikricha, mamlakatlar o'rtasidagi integratsiyaning shart-sharoitlarini yaratishda qayta ishlovchi sanoat shu mamlakatlar iqtisodiyotining asosini tashkil etishi zarurdir. Agrar yoki xomashyo mahsulotlari eksport qiluvchi mamlakatlarning integratsiyasi amaliy jihatdan kam darajada samara beradi. Umuman olganda, shakllantiriladigan guruh qatnashchilari bir xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo'lishlari

kerak. Xulosa sifatida aytish o'rinligi, integratsiya jarayonlarining asosini mamlakatlar o'rtasidagi asl hamkorlik va barqarorlik yo'lida belgilangan o'ta kuchli siyosiy xohish-irodaning mavjudligi tashkil qiladi.

Tayanch iboralari: Marshal rejası, Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi (YeKPB) ta'sis etilishi to'g'risida Parij shartnomasi, Messin konferensiyasi, Maastricht shartnomasi, «yevro zona»ga a'zo davlatlar.

Nazorat savollari:

1. Mintaqaviy integratsion jarayonlarning rivojlanishi qanday omillarga bog'liq?
2. Yel qaror topishining asosiy bosqichlarini aytib bering.
3. Yelning kengayish bosqichlari va uning mohiyati nimalardan iborat?
4. Yelning shakllanishida qanday shartnoma va bitimlar muhim o'rinn tutgan?
5. Maastricht shartnomasida Yel ga a'zolikka nomzod mamlakatlarning mezonlar qanday?
6. Yelning yanada kengayishi va uning istiqbollarini qanday bashoratlash mumkin?

IV BOB. SHIMOLIY AMERIKA MINTAQASIDA INTEGRATSION RIVOJLANISH HUSUSIYATLARI

4.1. Shimoliy Amerikadagi integratsiyaning boshqa mintaqalardagi integratsiya modellari bilan qiyosiy tahlili

Globallashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yangi qiyofasi integratsion jarayonlarning jo'shqinlashuvi va shakllangan integratsion uyuushmalarning rivojlanishi bilan bir qatorda o'zining tarixi va xususiyatlariga ega bo'lgan integratsiyaning yangi markazlari yuzaga kelayotganligi bilan tavsiflanadi.

1994-yilning 1 yanvarida AQSh, Kanada va Meksika hududida Shimoliy Amerika erkin iqtisodiy zonasi – NAFTA (North American Free Trade Agreement – NAFTA) ni tashkil etish to'g'risidagi kelishuv kuchga kirgan bo'lib, u jahon iqtisodiyoti globallashuvining yangi bosqichida ishtirokchilarning o'rmini mustahkamlash va ularning milliy manfaatlarini himoya qilish vositasiga aylandi.

Bir qator holatlar, shu jumladan ushbu mamlakatlarning geografik yaqinligi, NAFTA kelishuvining imzolanishiga qadar mintaqaviy integratsiya shartnomaviy-huquqiy asosining rivojlanishi, davlatlararo rasmiylashtirilishini talab qilgan ishtirokchi mamlakatlarning o'zaro bog'liqligining o'sishi mazkur Kelishuvning imzolanishiga turki berdi. Buning ustiga Yevropa va Osiyo-Tinch okeani mintaqasida integratsion jarayonlarning faollashishi, Yaponiya tomonidan raqobatning kuchayishi sharoitida Amerika mahsulotlarining raqobatbardoshligini saqlash uchun AQSh oldiga Shimoliy Amerika qit'asida integratsion jarayonlarni rivojlantirish masalasini ko'ndalang qo'ydi.

NAFTAni tashkil etishning **dastlabki shart-sharoitlarini ko'rib chiqamiz**. Shimoliy Amerikadagi integratsion jarayonlar ikki mamlakat – AQSh va Kanadaning o'zaro munosabatlaridan boshlandi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Kanadaning AQSh bilan iqtisodiy munosabatlari uning iqtisodiy taraqqiyotida asosiy omillardan biriga aylandi. Bu davrga kelib, tovarlar, kapital-

lar, xizmatlarning intensiv ayirboshlanishi kuzatilgan bo'lib, umazkur ikki mamlakat o'rtaсидаги yaqin iqtisodiy mintaqaviyla shuvdan guvohlik berardi. Ko'п sonli savdo kelishuvlarining imzolanishi iqtisodiy integratsiyaga sabab bo'ldi.

AQSh va Kanada o'rtaсида erkin savdo zonasini tashkil etishga bo'lган dastlabki intilish 1854-yildayoq boshlangan edi, biroq kelishuv AQShdagi fuqarolar urushi (1861-1865 yy.) oqibatida 1866-yilda bekor qilinib, keyingi-yillarda Kanada – Amerika savdo munosabatlari turli maxsus kelishuvlar bilan tartibga solingan.

AQSh hukumati har doim ham Kanada tovarlarining importini rag'batlantirmagan. Masalan, 1930-yilda juda yuqori darajadagi proteksionistik tarisflarning joriy etilishi ko'pgina kanadalik ishlab chiqaruvchilar uchun AQSh bozorini yopib qo'ydi.

1947-yilda «*Ebbot*» (Kanada moliya vaziri) *rejasisi*ning qabul qilinishi Shimoliy Amerikada integratsion jarayonlarning faollashi-shiga yo'naltirilgan rasmiy harakat bo'ldi. Yevropadagi «*Marshall rejasi*» kabi Shimoliy Amerikadagi «*Ebbot rejasi*» Kanada iqtisodiyotining yetakchi sanoat tarmoqlariga xorijiy (eng avvalo, Amerika) kapitalining oqib kelishi uchun ocliqligi va bu bilan Kanada-Amerika iqtisodiy integratsiyasining rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilishini ke'zda tutgan. Boshqa tomonidan, Kanada hukumati GATT kelishuvi bo'yicha xalqaro savdoni erkinlashtirish jarayonini qo'llab-quvvatlagan holda, AQSh bilan ikki tomonlama iqtisodiy kelishuvlarning imzolanishini istamagan. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ikki mamlakat o'rtaсиagi savdoning erkinlashtirilishiga yo'naltirilgan ayrim kelishuvlar imzolangan. Shunday qilib, qo'shma karbiy ishlab chiqarishga oid bo'lган 1959-yilgi Kelishuv Kanadada harbiy mahsulotlarni ishlab chiqarishda Amerika standartlarining joriy etilishiga olib kelgan hamda Shimoliy Amerikada butun harbiy sanoatning chuqur integratsiyalashishini ta'minlagan dastlabki tarmoqli Amerika – Kanada kelishuviga asos solgan. Keyinchalik, 1965-yilda AQSh va Kanada ko'pgina boshqa tarmoqlarning integratsiyasini rag'batlantirgan, jumladan avtomobilsozlik mahsulotlari savdosini erkinlashtirish to'g'risidagi Kelishuvni imzoladi. Umuman olganda, ikkala kelishuv ishlab chiqarish va xizmat doirasidagi hamkorlikning kengayishiga yordam berdi va tegishli tarmoqlardagi texnika

taraqqiyotiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatdi. Kanada – Amerika xo'jalik munosabatlari idagi erkinlashtirish jarayonining boshqa tarmoqlarga keyingi tatbiq etilishi 70-yillarda savdo-sotiqlik shart-sharoitlari keskin yomonlashgan, iqtisodiy o'sish sekinlashgan, proteksionizm darajasi o'sgan va nihoyat xalqaro valyuta va energetika sohasidagi tanglik oqibatida to'xtatildi.

Natijada 70-yillar mobaynida Amerika kapitalining oqib keli-shini cheklashga qaratilgan iqtisodiy millatchilik va yetakchi sanoat tarmoqlarini «kanadalashtirish» siyosati Kanada iqtisodiy hayotining asosiga aylandi. Bunday shart-sharoitlarda Kanada bozorining Amerika tovarlari uchun ochiqlik darajasi pasayib, va faqat o'n besh-yildan so'ng mamlakatning boshqaruvi doiralari mintaqaviy integratsion blokning yaratilish jarayonini tezlashtirish taraddudiga tushdilar.

70-yillarning oxiridan boshlab, AQSh Kanada va Meksika bilan savdo-siyosiy birlashish yo'lida faol harakatlarni boshladi. Amerika kongressi 1979-yilda savdo kelishuvlari to'g'risidagi qonunda AQSh prezidenti nomiga Shimoliy Amerika erkin savdo zonasini tashkil etish istiqbollarini (1104-seksiya) o'rganish yo'l yo'riqlarini yo'lladi. 80-yillarda R.Reygan va J.Bush bir necha marotaba Shimoliy Amerika mintaqasida erkin savdoni ta'minlashning uzoq muddatli maqsadlarini qo'llab-quvvatlashlari to'g'risida bayonot berganlar. Natijada 1988-yilning sentyabrida Shimoliy Amerikada integratsion jarayonlarni rivojlantirishdagi yangi sifat bosqichi sifatida erkin savdo zonasining shakllanishiga yo'naltirilgan AQSh – Kanada erkin savdo kelishuvi (Canada – USA Free Trade Agreement – CUSFTA) imzolandi (1989-yil 1 yanvardan kuchga kirdi). Mazkur kelishuv o'n-yil mobaynida tarif va ko'pgina notarif chekllovlarining bekor qilinishi, shuningdek xorijiy investitsiyalarining nazorat qilinishining erkinlashtirilishini ko'zda tutgan bo'lib, uning amalga oshirilishi bir qator murakkabliklar bilan bog'liq bo'ldi. Chunonchi Kanada kompaniyalari raqobat-bardoshligining mustahkamlanishi yuqori ishsizlik va real daromadlar o'sishining sekinlashishi evaziga erishildi.

Kanada – Amerika erkin savdo zonasini tashkil etilganidan so'ng AQSh unga Meksikaning ham qo'shilishi bo'yicha faol ish harakatlarni boshlab yubordi. 80-yillarda Amerika – Meksika mun-

sabatlarining istiqbollari bo'yicha ikki tomonlama komissiya tuzilgan bo'lib, uning yakuniy ma'rzasida AQSh va Meksikaning davlatlararo darajadagi o'sib boruvchi o'zaro iqtisodiy bog'liqligini tartibga solish zarurati to'g'risida xulosa chiqarildi. 80-yillarning oxirlarida Amerika – Meksika savdosini erkinlashtirishga yo'naltirilgan bir nechta kelishuvlar imzolandi: 1985-yilda eksportni subsidiyalash qoidalari to'g'risidagi Amerika – Meksika kelishuvi, 1987-yilda – AQShga Meksikadan to'qimachilik va ayrim boshqa tovarlarning (po'lat, pivo va vino) olib kirilishini kengaytirishga qaratilgan savdo kelishuvi shular jumlasidandir.

AQSh, Meksika prezidentlari va Kanada bosh vaziri tomonidan erkin savdo to'g'risidagi Shimoliy Amerika kelishuvining imzolanishiga olib kelgan 1991-yilning iyunida boshtangan murakkab muzokaralar Amerika qit'asida yangi savdo uyuushmasiga yaratgan holda, muvaffaqiyatlì yakunlandi.

NAFTAg'a alohida mamlakat uchun Shimoliy Amerikada integratsion uyushmani tashkil etishning turli jihatlarini e'tirof etish mumkin.

AQSh uchun NAFTA kelishuvi kelajakda «Alyaskadan Otash Yerga qadar» yagona erkin savdo zonasini tashkil etish yo'li bilan uning G'arbiy yarimshardagi rolini mustahkamlashga qaratilgan strategik reja rolini o'ynaydi. Mazkur uyushma Amerika Qo'shma Shtatlarining nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy qudratining ortishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, AQShning sifat jihatidan yangi mazmunda, ya'ni ustun davlat sifatida emas, balki hamkor sifatida Lotin Amerikasi mamlakatlarining iqtisodiyotiga yanada chuqur kirib borishi uchun o'ziga xos tramplin bo'lib hisoblanadi.

Bunda quyidagilar AQShning pirovard maqsadlari sifatida qaraladi: Amerika tovarlari va xizmatlarining erkin harakati, Amerika investitsiyalari uchun qulay muhit, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, AQShning yuqori texnologiyalari va investitsiyalarini Meksikaning arzon ishchi kuchi va ikkala qo'shni mamlakatlarning arzon tabiiy resurslari bilan birlashtirish hisobiga yangi mintaqaviy nisbiy afzallikkardan foydalanish, raqobatbardoshlikning o'sishi, mehnattalab va xomashyo sig'imi ishlab chiqarishlarning AQShdan Meksikaga ko'chirilishi natijasida ishlab chiqarish xarajatlari darajasining kamaytirilishi va shu tarzda Amerika

tovarlari raqobatbardoshligini oshirish mumkinligi AQShning G'arbiy Yevropa va Osiyo-Tinch okeani mamlakatlari integratsion uyushmalari ishtirokchilari bilan o'sib boruvchi raqobati sharoitida juda muhim omil bo'ldi.

Bundan tashqari, AQSh NAFTA Kelishuvi orqali GATTning Urugvay raundidagi muzokaralarda Osiyo va Yevropadagi savdo hamkorlariga ularning o'zaro bitimga kelishlariga tayyorligi yo'nali-shida bosim o'tkazishga imkon beruvchi mexanizmga ega bo'ldi.

Meksika uchun NAFTAda ishtirok etish xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi va savdoning erkinlashtirilishi natijasida iqtisodiy samaradorlikning oshishi, iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining tezlashish omili bo'ldi. Bu vaqtga kelib Meksika 70-80-yillarning boshlarida kuzatilgan neft bumining pasayishi oqibatida ushbu omil mamlakatning istiqboldagi iqtisodiy taraqqiyotini kafolatlab berolmasligini anglab yetdi. Shuning uchun 80-yillarning o'rtalaridayoq Meksika hukumati AQSh bilan iqtisodiy hamkorligiga nisbatan o'zining salbiy munosabatini qayta ko'rib chiqdi va keyinchalik Lotin Amerikasi mamlakatlari bilan an'anaviy hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha Meksika konservativ doiralarining talablariga qarshi tura oldi.

Meksikaning Shimoliy Amerika integratsion uyushmasiga a'zo bo'lishi quyidagilar bilan izohlanadi: mamlakat eksportining 80 foizga yaqinini⁴⁴ o'z ichiga oladigan Amerika bozoriga kirish kafolati, yangi ish o'rnlari, Kanada timsolida yangi eksport bozorini ochish imkoniyati, shuningdek Shimoliy Amerika investitsiyalarining ko'payishidan olinadigan iqtisodiy foydalar va iqtisodiyotni tubdan zamonaviylashtirishning qudratli asosini yaratish uchun ilg'or texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari. Meksikada ishonchli investitsiya muhitini ta'minlash esa nafaqat Amerika va Kanada investitsiyalarining oqib kelishi, balki uchinchi mamlakatlardan kapitalning jalb etilishiga yordam berishi lozim edi. Bir vaqtning o'zida qishloq xo'jaligida band bo'lgan mahalliy kompaniyalarga Meksika bozorining ochilishi natijasida integratsiya doirasida o'z hamkorlari tomonidan bo'ladigan raqobatga dosh berishlari birmuncha murakkab bo'lib qoldi. Bu vaziyatda AQShda

⁴⁴ Касымова, Н.А. НАФТА: предпосылки создания и тенденции развития // США и Канада. 2001. № 6. 102-бет.

yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari barcha turlarining 9/10 qismi Meksika bozoriga bemalol kira olishiga va bu esa meksikalik dehqonlarning xonavayron bo'lishiga olib kelishi mumkin edi.

Biroq Meksikaning Shimoliy Amerikadagi integratsion jaryonda ishtirok etishidan olinadigan real foydalar ehtimoliy yo'qtishlardan ko'proq bo'ldi. Boz ustiga Meksika NAFTA yordamida o'z iqtisodiyotini isloh qilish davrini 50-yildan 10–15-yilgacha sezilarli darajada qisqartirish va taraqqiyot darajasi bo'yicha sanoati rivojlangan mamlakatlarga yaqinlashish imkoniga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, Meksikaning NAFTAda ishtirok etishga manfaatdorligi faqat iqtisodiy sabablarga bog'liq bo'lmay, u atrof-muhitni muhofaza qilish, narkobiznes, chegaradagi nizolar, noqonuniy migratsiya muammolarini hal etish uchun integratsion hamkorlikning «yangi modeli»dan unumli foydalana oldi.

Kanada uchun NAFTAni tuzish to'g'risidagi muzokaralarda ishtirok etish boshqa muqobililik mavjud bo'lman sharoitda majburiy bo'ldi. Shimoliy Amerika kelishuvini Meksika, so'ngra boshqa Lotin Amerikasi mamlakatlariga qadar kengaytirish g'oyasi Kanadani CUSFTA shartnomasi bo'yicha Amerika bozoriga imtiyozli tarzda kira olishning bir tomonlama yengilliklaridan mahrum qilishi mumkin edi. AQSh va Meksika o'rtaсидаги ко'зда тутлиятган иккى томонлама келишув AQShga Meksika va Kanadaga nisbatan investitsiyalar va savdo sohasida juda maqbul shart-sharoitlar yaratib, AQSh ikkala mamlakatlarning bozorlariga imtiyozli ravishda kira olishi na Meksika, na Kanada bir-birlarining bozorlariga erkin kira oishlari mumkin emas edi. Shuning uchun uch tomonlama kelishuvni imzolash Kanada uchun uni rad etishdan ko'ra foydaliroq bo'lib, NAFTA doirasida Kanadada Meksika bilan, kelajakda esa Lotin Amerikasining boshqa mamlakatlari bilan birlashgan holda AQShga qarshilik yaratish imkoniyatini yaratgan bo'lar edi.

Shunday qilib, Kanada NAFTA Kelishuvini imzolashda quyidagilardan manfaatdor edi:

- Kanada-Amerika erkin savdo kelishuvidan olingan afzalliklarni saqlash imkoniyati;
- Amerika bozoriga kira oish imkoniyatining kengayishi;

– eng avvalo, AQSh bilan nizolarni hal etish mexanizmlarining takomillashtirilishi;

– Kanada tovarlari kansitilishi oldini olish uchun subsidiyalar, dempinglardan foydalanmaslik maqsadida ularga oid bo‘lgan kelishuv qoidalarining takomillashtirilishi;

– bir tomondan, o‘z tovarlarining raqobatbardoshligini oshirish, ularning tezkor rivojlanib borayotgan Meksika bozori va kelajakda Lotin Amerikasi mamlakatlarining bozorlariga erkin kirishini ta’minlash, va boshqa tomondan Kanada bozorining Lotin Amerikasi uchun ochiqligini ta’minlash.

Kanada banklari ayniqsa oxirgi masaladan manfaatdor edilar, chunki Kanada bozorining Lotin Amerikasi tovarlari uchun ochiqligi ularga qarzdorlik muammosini yengillashtirilishiga yordam berishi mumkin edi.

Oqibatda iqtisodiy birlashish zaruriyati Kanada, Meksika va AQShning mintaqadagi iqtisodiy integratsiya jarayonida faol ishtirok etishlarini ta’minladi. Bunda mamlakatlar ongli ravishda an’anaviy tarzda tushuniladigan iqtisodiy mustaqillikdan voz kechib, uning o‘rniga mintaqaviy iqtisodiy integratsiya bilan bog‘liq samarali iqtisodiy rivojlanish yo‘liga o‘tishdi.

Shimoliy Amerikadagi integratsiya boshqa mintaqalardagi integratsiya modellari bilan taqqoslaganda, o‘ziga xos xususiyatlarga egadir.

1. Asosiy jihat — AQSh, Kanada va Meksikaning o‘zaro iqtisodiy bog‘liqligi nomutanosibligi bo‘lib, u, bir tomondan, Kanada va Meksikaning o‘zaro integratsion munosabati kuchsizligi, boshqa tomondan esa — AQShning yetakchi o‘rni bilan izohlanadi. 80-yillarning oxirida Meksika Kelishuv imzolangunga qadar o‘zining Kanada bilan tovar aylanmasi hajmi bo‘yicha 17-o‘rinda bo‘lganligini ta’kidlashning o‘zi yetarli. 1993-yilda Kanadaning tovar aylanmasida Meksikaning ulushi 1,3% ni tashkil etgan bo‘lsa, Meksikaning tashqi savdosida Kanadaning ulushi 3% ni tashkil etgan⁴⁵. Kanada bevosita xorijiy investitsiyalari hajmining 7% Meksikaga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, Meksikadagi barcha bevosita xorijiy investitsiyalarning umumiyligi qiymatida Kanadaning ulushi

⁴⁵ Шишков, Ю.В. НАФТА: источники, надежды, перспективы // Мировая экономика и международные отношения. 1994. № 11. 127-бет.

atigi 2% ni tashkil etgan. Kanadaga kiritilgan bevosita xorijiy investitsiyalarda Meksikaning ulushi atigi 1,3% ni tashkil etgan. Shunday qilib, Kanada va Meksika Amerika tovarlar va ishchi kuchi bozorida o'zaro raqobatlashib, Amerika kapitali va texnologiyalarini jalg etish uchun kurashda raqiblik qilishgan.

Boshqa tomondan, integratsiyalashuvning Amerika-Kanada va Amerika-Meksika darajasi juda chuqur bo'lib, AQSh va Kanada, AQSh va Meksikaning tovarlar va xizmatlarning tashqi savdosida hamkorlar sifatida, kapital va ishchi kuchi bozoridagi o'zaro bog'liqligi miqyoslari kengdir. O'tgan asrning 90-yillari boshlarida AQSh tashqi savdo aylanmasining 1/5 qismiga yaqini Kanadaga yo'naltirilgan bo'lib, u AQSh YaMMning 1% yoki Kanada YaMMning 15% ni tashkil etgan. Kanada eksportining 75-80% ga yaqini yoki Kanada YaMMning 20% AQShga yo'naltirilgan⁴⁶ edi.

Kapital migratsiyasi sohasida ham xuddi shunday holat yuzaga kelgan. AQSh Kanada kapitali yo'naltiriladigan asosiy mamlakat bo'lib hisoblanadi 90-yillarda Kanadaning barcha bevosita xorijiy investitsiyalarining 60%dan yuqorisi AQShga to'g'ri kelgan bo'lsa, Amerikaning xorijdagi barcha investitsiyalarining 16% Kanada hissasiga to'g'ri kelgan. AQSh Kanada uchun asosiy xorijiy investor bo'lib hisoblangan holda, Kanadadagi barcha xorijiy investitsiyalarning 64% uning hissasiga to'g'ri kelgan bir vaqtida, AQShdagi kapital qo'yilmalarning 7% ni Kanada ulushi tashkil etgan⁴⁷.

AQSh va Meksikaning iqtisodiy munosabatlari ham o'zaro bog'liqligi bilan tavsifланади. NAFTA Kelishuvining imzolanishi arafasida Meksika tovar eksportining 2/3 qismi (Meksika YaMMning 13% dan ortig'i) AQShga to'g'ri kelgan. AQShning tashqi savdo aylanmasida Meksikaning ulushi 8% ni tashkil etgan⁴⁸.

Kapitalning o'zaro oqimida ham shunday holat kuzatiladi. Meksikadagi bevosita xorijiy investitsiyalarning 65% ga yaqini AQSh hissasiga to'g'ri keladi. Meksikadagi Amerika kompaniyalarida butun Yaqin Sharqqa nisbatan bevosita kapital qo'yilmalar

⁴⁶ Ўша ерда. 20-бет.

⁴⁷ Шишков, Ю.В. НАФТА: источники, надежды, перспективы // Мировая экономика и международные отношения. 1994. № 11. 125-бет.

⁴⁸ Ўша ерда.

ikki barobar ko‘pdir. Amerika korporatsiyalaridagi bevosita xorijiy kapital qo‘yilmalardagi Meksika ulushi yuqori emas.

Shunday qilib, NAFTA integratsion blokida yetakchi mamlakat AQShning bиргаликда олинган qolgan hududlar ustidan ulkan darajadagi ustunligi kuzatiladi. Bunda integratsion jarayonning rivojlanishi bilan ushbu holat saqlanib qolmoqda.

AQShning bunday ustunlik holatini ham ijobiy, ham salbiy jihatdan baholash mumkin. Bir tomondan, AQSh integratsion jarayonda yetakchi hisoblangan holda, NAFTAning ilgari qarab harakatlanishini ta‘minlaydi va zarur bo‘lganda, iqtisodiy zaif hisoblangan hamkoriga samarali yordam ko‘rsatishi mumkin. Xususan, 1994-yilning dekabrida, ya‘ni NAFTA Kelishuvi kuchga kirganidan so‘ng deyarli bir yil o‘tgach, Meksikada vujudga kelgan iqtisodiy inqiroz sharoitida AQSh xalqaro moliya-kredit muassasalari bilan bиргаликда Meksikaga yordam qo‘lini cho‘zdi va bu bilan iqtisodiy berk ko‘chadan chiqishga va 1996-yilning sentyabriga kelio tanglikning chuqurlashib ketishini to‘xtatishga yordam berdi. Boshqa tomondan, yetakchiga integratsion blokdagi hamkorlarning manfaatlariga zid ravishda va ularning fikrlari bilan hisoblashmagan holda, kuch nuqtayi nazaridan harakat qilish hollari ham xosdir.

2. Shimoliy Amerika integratsiyasining yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning **ishtirokchilari turli boshlang‘ich shart-sharoitlarda bo‘lishgan**. NAFTA bitta integratsion blokka rivojlanayotgan mamlakat va ikkita yuqori darajada rivojlangan mamlakatni teng huquqli asosda birlashtirgan dastlabki kelishuv bo‘lib hisoblanadi. AQSh o‘zining iqtisodiy salohiyati bo‘yicha jahonda birinchi o‘rinni egallaydi, NAFTA uchchala a’zosi YalMning 85% AQSh hissasiga to‘g‘ri keladi, Kanada va Meksika esa undan ancha ortda.

1992-yilda Kelishuv imzolanishining boshlanishiga kelib, Kanada YalM Amerika darajasining 9,5% ni, Meksika YalM – 5,5% ni tashkil etgan bo‘lsa, aholi jon boshiga YalM esa Kanadada AQSh darajasining 87,7% ni, Meksikada esa atigi 15,8% ni tashkil etgan⁴⁹.

⁴⁹ Шишков, Ю.В. НАФТА: источники, надежды, перспективы // Мировая экономика и международные отношения. 1994. № 11. 125-бет.

NAFTAg a'zo mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichlari

4.1.1 -jadval.

	Aholi, mln kishi		YalM mlrd dollar		Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YalM hajmi,		Eksport, mlrd dollar		Import, mlrd dollar	
	1992	2012-2015	1992	2012-2014	1992	2010	1992	2012-2014	1992	2012-2014
Kanada	27,4	35,0 35,099	493,6	1777,9 1785,0	50970	20710	150,5	532,3 478,4	153,7	580,1 473,8
Meksika	89,5	121,0 121,736	329,0	1176,9 1291,0	9740	3470	42,8	386,8 398,3	52,7	405,7 400,4
AQSh	255,0	314,0 321,368	5920,2	15734,6 17350,0	50120	23240	640,5	2166,9 1633,0	670,1	2746,7 2374,0

Manba: Klein L.R., Salvatore, D. Welfare Effects of NAFTA//Journal of Police Modeling. N.-Y., 1995. Vol. 17, № 2. <http://www.cia.gov>

Garchi o'zaro integratsion munosabatlardan jarayonida Kanada asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha AQShga yaqinlashib olgan bo'lsada, Amerika kompaniyalarining ilmiy-texnik va moliyaviy ustuvorligi saqlanib qolmoqda. ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga bo'lgan xarajatlar AQShda YalMning qariyb 3% ni tashkil etsa, Kanadada esa – ikki barobar kam. Meksikaga keladigan bo'lsak, u 70–80-yillardayoq tashqi qarzlarining hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinni egallagan iqtisodiy qoloq mamlakat hisoblangan. Meksikaning iqtisodiy rivojlanish darajasi nafaqat rivojlangan, balki ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar darajasidan ham past bo'lgan. 80-yillarning o'rtalarida Meksika hukumatining iqtisodiy sohada amalga oshirgan tub o'zgarishlar, 1986-yilning iyulida Meksikaning GATTga a'zo bo'lishi, uning savdo-iqtisodiy siyosatini erkinlash-tirish to'g'risidagi qarorlaridan so'ng, mamlakatda iqtisodiy holat yaxshilana boshlandi va mintaqadagi integratsion jarayonlarda faol ishtirok etish uchun imkoniyatlar yaratildi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, Meksika asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha integratsion jarayondagi hamkorlardan ham hanuz ortda qolmoqda.

3. Shimoliy Amerikadagi integratsion jarayonning yana bir xususiyati shundan iboratki, **Meksikaning Shimoliy Amerika integratsion uyushmasiga qo'shilishi unga hech qanday maqom berilmasdan amalgा oshirildi**. Meksika uchun imtiyozlar erkinlashtirishning kechki muddatlari, mustasnolar soni va xususiyatlarning hisobga olinishi bilan bog'liq bo'ldi Yel tajribasidan ma'lumki, yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar bilan integratsiyalashuv jarayonida kamroq rivojlanish darajasi past bo'lgan mamlakatlarga uzoq muddatli iqtisodiy yordam va boshqa turdagи qo'llab-quvvatlash chorałari ko'zda tutiladi. NAFTA Meksika uchun bunday qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutmagan, shuning uchun ushbu integratsion blok iqtisodiy taraqqiyotning turli darajalariga ega bo'lgan mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarida o'ziga xos tajribaviy model bo'lib hisoblanadi.

4. NAFTAda, Yeldan farqli o'laroq, integratsion jarayonlar **biror-bir millat usti tuzilmalar tashkil etilmasdan** boshlandi. Huquqiy muhitning barqarorligi milliy muassasalar tomonidan emas, balki davlatlararo o'zaro munosabatlar orqali ta'minlanadi, barcha qarorlar esa Kelishuvning ishtiroychi mamlakatlari tomonidan mustaqil ravishda, biroq AQSh tashqi iqtisodiy siyosati negizida qabul qilinadi.

5. Shimoliy Amerika integratsiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, NAFTAda ishtiroy etuvchi mamlakatlar erkin savdo zonasini tashkil etgan holda, Kelishuv amal qilinishidan boshlab investitsiyalarni nazorat qilishning erkinlashtirilishi, standartlarni yaqinlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar, xizmatlar sohasidagi erkinlashtirish, ayrim sohalarda, masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat munosabatlari sohasidagi siyosatni uyg'unlashtirishda ifodalangan **umumiy bozor unsurlarini** joriy etdilar.

4.2 NAFTA kelishuvining asosiy qoidalari

Shimoliy Amerika erkin savdo zonasini tashkil etish to'g'risidagi kelishuv – NAFTA ning kuchga kirishi o'sha davrda jahonda 360 mln. kishidan ortiq aholi va 6,4 trln. dollar YalM hajmiga,

jahon YalMning 28% ni tashkil etuvchi, eng yirik mintaqaviy bozorning tashkil etilganligidan guvohlik berdi.

NAFTA kelishuvi ishtirokchilar manfaatlarining ayrim muvozanatidan iborat bo'lgan holda, AQSh, Kanada va Meksika o'rta sidagi iqtisodiy munosabatlarning ko'pgina jihatlarini atroficha belgilab berdi.

NAFTAning asosiy *maqsadlari* sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin: savdodagi to'siqlarning bekor qilinishi va tovarlar va xizmatlarning erkin harakatlanishiga yo'l ochish; erkin savdo zonasida raqobatning adolatli shart-sharoitlarini belgilash; a'zo mamlakatlar doirasida investitsiya kiritish uchun imkoniyatlarni sezilarli darajada ko'paytirish; har bir mamlakatda intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning zarur va samarali tizimini ta'minlash; nizolarni tartibga solishda ushbu uyushma samarali bajarilishi va qo'llanilishi; mazkur Kelishuvning afzalliklarini kengaytirish va kuchaytirish maqsadida kelajakdagi mintaqaviy ko'p tomonlama hamkorlik doiralarini belgilash (102-modda)⁵⁰.

Shimoliy Amerika kelishuvi *maqsadlari doirasida*, uning *asosiy vazifalari* quyidagilardan iborat bo'ldi:

- 2009-yilga qadar barcha bojxona bojlarining bekor qilinishi;
- tovarlar va xizmatlar savdosidagi ko'p sonli notarif to'siqlarni bosqichma-bosqich tugatish;
- Meksikada Shimoliy Amerika kapital qo'yilmalari tartibini yengillashtirish;
- Meksika moliya bozorida Amerika va Kanada banklari faoliyatini erkinlashtirish;
- intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning samarali tizimini ta'minlash;
- uch tomonlama arbitraj komissiyasining tashkil etilishi.

Kelishuv **tarif cheklovlarini** bartaraf etish jarayonini batafsil tartibga soldi. Har bir ishtirokchi uchun o'z iqtisodiyotining bog'liq tarmoqlarini himoya qilish munosabati bilan dastur barcha to'siqlarning bosqichma-bosqich tugatilishini ko'zda tutgan edi. Birinchi bosqichda Kelishuvning kuchga kirishi bilan bojxona bojlari bir qismining asta-sekin bartaraf etilishi ko'zda tutilgan bo'lsa; ikkinchi

⁵⁰ Харламова, В.Н. Международная экономическая интеграция: учеб. пособие / МГИМО. М.: Академия, 2007. 94-бет.

bosqichda – keyingi besh-yil mobaynida; uchinchi bosqichda – o‘n-yil mobaynida; to‘rtinchi (uzoq muddatli) bosqichda – 15-yil mobaynida amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

Kelishuvning amal qilishi boshlanishi bilan sanoat va oziq-ovqat tovarlari bilan o‘zaro savdoda bojlar 65% ga kamaygan bo‘lsa, keyingi besh-yilda – yana 15% ga kamaydi, qolganlarining ko‘philigi esa 2005-yilga kelib bartaraf etildi⁵¹. Bunda har bir mamlakat barcha cheklovlarni kelishilgan jadval asosida bekor qilib bordi.

Kelishuvga binoan qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik tovarlari va kiyim-kechak, avtomobillar, energiya resurslari kabi ba’zi bir «ahamiyatli» tovarlarga nisbatan birmuncha ravon erkinlashtirish siyosati olib borildi.

Bojxona bojlarini kamaytirish va bekor qilishdan tashqari NAFTA Kelishuvi orqali **notarif to‘siqlarning** bekor qilinishi ham ko‘zda tutilgan bo‘lib, bunda notarif to‘siqlar keng talqinga ega bo‘ldi, chunki bu tushunchaga nafaqat miqdoriy cheklovlar, balki ish haqini tartibga solish, mehnat xavfsizligi, xodimlarning salomatligini muhofaza qilishning har qanday chora-tadbirlari, davlat tuzilmalari tomonidan ijtimoiy adolatning ta’minlanishi kabi masalalar ham kiritildi.

Kelishuvda tovar kelib chiqqan mamlakatni aniqlashning umumiyligi qoidalari o‘ziga xos tarzda ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, unga muvofiq tovar ishtirokchi mamlakatlarning birida ishlab chiqarilgan yoki sezilarli ravishda qayta ishlangan bo‘lsa, u Shimoliy Amerika erkin savdo zonasida ishlab chiqarilgan hisoblanadi. Bunda tovarning qiymatida mintaqaviy xarajatlar ulushi kamida 50-60% ni tashkil etishi lozim. Sanoatning maxsus tarmoqlari (kompyuter, avtomobillar ishlab chiqarish, to‘qimachilik sanoati, kiyim-kechaklar ishlab chiqarish) uchun tovar kelib chiqishining maxsus qoidalari ko‘zda tutilgan. Masalan, Kelishuvga binoan avtomobil tarmog‘i uchun tariflarning kamayishi mintaqaviy va mehnat xarajatlarining 62,5% ni o‘z ichiga olgan avtomobilargagina tatbiq etiladi. NAFTAda ishtirok etmaydigan uchinchi mamlakatlar tomonidan bo‘ladigan raqobatni kuchsizlantirishga intilish va bu

⁵¹ Шишков Ю.В. НАФТА: истоки, надежды, перспективы // Мировая экономика и международные отношения. 1994. № 11. 132-бет.

bilan mintaqaviy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirgan holda, blokning ishtirokchi mamlakatlari doirasida qayta ishlash orqali qo'shilgan qiymat ulushini ko'paytirishga erishish bunday qoidalarning maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Kelishuvda **kapital migratsiyasi tartibiga** bag'ishlangan bo'lim alohida ajratilgan (XI-bo'lim «Investitsiyalar»). U AQSh va Kanada o'rtasidagi munosabatlarda yetarlicha erkinlashtirilganligi sababli, asosan Meksikadagi kompaniyalarning aksionerlik kapitalidagi amerikalik va kanadalik eksport qiluvchilar ulushi cheklovlarini pasaytirishga qaratilgan edi. Umuman olganda, Kelishuv doirasida kompaniyalarni tashkil etish, xarid qilish, kengaytirish va boshqarishga nisbatan kamsitmaslik tartibi ko'zda tutilgan bo'lib, kapital harakati sohasidagi cheklov larga barham berish maqsadida NAFTA investorlariga milliy tartibga, qaraganda birmuncha maqbul tartib taqdim etiladi. Kelishuv ishtirokchilaridan hech biri kompaniya mol-mulkining eng kam hajmi talablari yoki kengashdagi direktorlarning kvotalarini xorijiy investorlarni kiritish va faoliyat yuritish mezonlari sifatida olg'a sura olmaydi. Bundan tashqari, bunday tartib tashkil etish, xarid qilish, kengaytirish, boshqarish, faoliyat yuritish moliyaviy, operatsiyalar va savdosotiqa nisbatan Kelishuvda ishtirok etmaydigan har qanday boshqa tomon yoki mamlakatlar investorlariga taqdim etiladigan yanada ko'proq qulaylik yaratish tartibiga qaraganda birmuncha qulayroq bo'lishi lozim. Bunda investor yanada qulay tartibni – milliy tartib yoki yanada ko'proq qulaylik yaratish tartibini o'zi tanlaydi. Kelishuvga ko'ra milliy tartib yoki yanada ko'proq qulaylik yaratish tartibi hukumat qarzlari, kafolatlar va sug'urtani o'z ichiga olgan subsidiyalar yoki grantlarga tatbiq etilmaydi.

NAFTA doirasidagi kelishuvda o'rnatilgan bojxona tartibi sharoitida faoliyat yuritayotgan maxsus turdag'i korxonalar (makidores) uchun xorijiy investitsiyalarga nisbatan imtiyozli investitsiya tartibi ko'zda tutiladi⁵². Xorijiy investorlarga bunday turdag'i korxonalarning 100% aksiyasiga egalik qilish ruxsat etilgan.

⁵² Meksika eksportining asosiy qismi bojsiz import qilinadigan xom-ashyodan tayyorlanadigan yakuniy mahsulotni yig'ishga ixtisoslashgan xorijiy korxonalarda yaratiladi. Bunday korxonalar bug'doyni tortgani uchun tegrimonchiga to'langan haqni anglatadigan qadimiy ispancha atama «makila» so'zidan otingan «makidores» deb ataladi. Dastlabki makidores korxonalari

Kelishuvning **xizmatlar savdosiga** bag‘ishlangan bo‘limi katta ahamiyatga egadir, chunki mazkur soha ishtiroychi mamlakatlarning YalMda muhim o‘rin egallaydi. Masalan, Meksikada xizmatlar YalMning yarmidan ko‘pini tashkil etsa, ushu sohadagi bandlik darajasi 60% ga teng. NAFTA doirasidagi kelishuv turli xizmatlarni o‘z ichiga oladi: moliyaviy xizmatlar, sug‘urta, qurilish, ko‘chmas mulk savdosi, transportning alohida turlari, kommunikatsiyalar, tijoratni tashkil etish, sog‘liqni saqlash va boshqalar, ular uchun ham bosqichma-bosqich erkinlashtirish ko‘zda tutiladi.

Xususan, Meksika xorijiy kompaniyalar uchun *moliyaviy xizmatlar* bozorini ochishga majbur bo‘ldi. NAFTA investorlari milliy moliya muassasalari kapitalining 51% gacha bo‘lgan qismiga ega bo‘lish huquqini qo‘lga kiritdilar. Umuman olganda, Meksikaning moliya tarmog‘i 2007-yilga kelibgina amerikalik va kanadalik investorlar uchun butunlay ochiq bo‘ldi.

Sug‘urta sohasida Meksika bozorida amerikalik va kanadalik kompaniyalarga yangi imkoniyatlar taqdim etildi. Kelishuv tuzilgunga qadar qo‘shma korxonalarga ega bo‘lgan kompaniyalar 1996-yilga kelib ularni o‘z ixtiyoriga olishdi, bozorga qaytadan kiruvchi firmalar esa 1998-yilga kelib Meksika kompaniyalari aksiyalarining katta qismiga ega bo‘ldilar. O‘tish davridagi cheklovlar 2000-yilga kelib bekor qilindi⁵³.

Qurilish sohasida Meksika o‘n yil mobaynida xorijiy mulk ulushiga ega bo‘lgan cheklovlarni bekor qildi.

Yer usti transporti sohasida (yuklarni xalqaro avtomobilda tashishlar, yo‘lovchilarga avtobusda xizmat ko‘rsatish, yuk terminalari va avtobus stansiyalari) cheklovlarni bosqichma-bosqich tugatishning xuddi shunday tartibi belgilandi. AQShning Meksika

Meksika hududida 1965 yilda mamlakatning shimoliy hududlarini rivojlantirishning hukumat dasturi qabul qilinganidan so‘ng paydo bo‘ldi. Ushbu dastur bo‘yicha yirik Amerika korporatsiyalari arzon ishchi kuchidan foydatanish asosida o‘zlarining yig‘ma korxonalarini yaratish huquqiga ega bo‘lib, u yerga bojsiz tarzda xumashyo va yarim tayyor mahsulotlarni olib kirishgan, AQShdag‘i bosh korxonalarda yakuniy yig‘ish uchun tayyor mahsulotlar, bog‘lamalarni olib chiqishgan. Meksikada «tortish uchun haq» — ish haqi, energiya to‘lovi va boshqa xarajatlar saqlanib qolgan. Bundan tashqari, bunday korxonalarning rivojlanishi bandlikni ko‘paytirgan va ishchi kuchi malakasining oshishiga yordam bergan. 2001 yilda bunday korxonalarning Meksika eksportidagi ulushi 48,5% ni tashkil etdi. (Integratsiya v Zapatistom polusharii na porote XXII vecha / ott. red. A.N.Glinkin. M.: IILA RAN, 2004. 100-bet.).

⁵³ Komiac. 1994, № 4. 10 январь. 3-5-бетлар.

bilan savdosining katta qismi yer usti transporti orqali amalga oshiriladi. Kelishuv imzolangunga qadar amerikalik yuk tashuvchilarga yuklarni Meksika hududlari bo'ylab tashish yoki u yerda sho''ba kompaniyalarni tashkil etish taqiqlangan edi, bu esa ularni treyler-pritseplarni meksikalik haydovchilarga o'tkazishga majbur qilgan. Erkin savdo zonasini tashkil etish to'g'risidagi kelishuv 1995-yildan boshlab avtotransport kompaniyalariga xalqaro yuklarni Meksikaning AQSh bilan bevosita chegaradosh bo'lgan hududlarida, 1998-yildan boshlab esa – butun Meksika hududi bo'ylab tashishga imkon berdi. Kelishuvning amal qilish sohasidagi istisnolarga to'xtaladigan bo'lsak, ular asosan Meksika uchun neft sanoati, Kanada uchun madaniyat, AQSh uchun transportning alohida turlariga (dengiz orqali tashishlar va boshqalar) oid bo'ldi.

Neft sanoati Meksika uchun strategik ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, davlat ushbu tarmoqqa investitsiyalar kiritishning mutlaq huquqiga ega. 1938-yilda Meksika neft sanoati milliyash-tirilganidan so'ng tashkil etilgan «Petroleum Mexikanos» (Pemeks) davlat neft kompaniyasi mustaqil iqtisodiy rivojlanishning milliy g'ururi va timsoli bo'lib hisoblanadi. shuning uchun Meksika AQShning neft sanoatiga investitsiya kiritish harakatlariha har tomonlama qarshilik ko'rsatdi. Natijada hech qaysi xorijiy kompaniya neftni qayta ishlash va qazib olishga kapital kiritish huquqiga ega emas.

Milliylikni saqlash va ommaviy madaniyatning aholi ma'naviy hayotiga singib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida madaniyat sohasi ham Kanada tashabbusi bilan Kelishuvning amal qilish sohasidan chiqarib tashlangan bo'lib, umumiy tartib nashriyot ishi, kino ishlab chiqarish, audio- va video-musiqiy yozuvlar, alohida yaratilgan musiqiy asarlar, radio uzatish, televidenie, shu jumladan kabel, sputnik aloqasi kabi tarmoqlarga tatbiq etilmaydi (2107-modda).

Bundan tashqari, *intellektual mulk huquqlari* (patentlar, savdo markalari, ovozli yozuvlar, sanoat dizayni, yarim o'tkazgichli integratsiyalashgan sxemalar, kopirayt va boshqalar) bilan bog'liq masalalar ham mazkur kelishuvda alohida o'rinn berilgan.

Kelishuvni amalga oshirish va nizolarni hal etish uchun tashkil etilgan **NAFTAning institutsional tuzilmasi** quyidagilarni o'z

ichiga oladi: erkin savdo bo'yicha Komissiya, Komissiya ishiga yordamlashish bo'yicha Kotibiyat, shuningdek, qo'mitalar (tovarlar savdosi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi, sanitار va fitosanitar nazorati, standartlar, kichik biznes, moliyaviy xizmatlar, savdo va raqobat bo'yicha), ishchi guruhlar (tovar kelib chiqqan mamlakatni aniqlash qoidalari bo'yicha, qishloq xo'jaligini subsidiyalash bo'yicha), ikki tomonlama ishchi guruhlar (Meksika – AQSh, Meksika – Kanada va boshqalar). Qo'mitalar va ishchi guruhlari ning faoliyatini nazorat qiladigan savdo vazirlari darajasidagi erkin savdo bo'yicha Komissiya (yiliga bir marta yig'iladi) asosiy organ bo'lib hisoblanadi.

Shimoliy Amerika integratsiyasining markaziy tartibga soluvchi kuchi nizolarni tashkil etishning davlatlararo mexanizmiga tegishli bo'lib, uning qarori va amaliy realizatsiyasi kelishilgan holda, muayyan masala ko'p tomonlama muhokama qilinganidan so'ng yakuniy qarorga kelinadi. Kelishuv qoidalari buzilgan holatda bunday mexanizm xalqaro savdo va moliya sohasida arbitrajni ko'zda tutadi va har bir mamlakatga boshqa mamlakatning qonunlari va amaliyoti bilan bahslashishga imkon beradi. Munozaradan muvaffaqiyatl o'tgan qonunlar almashinishi lozim, rad etilganda esa savdo va boshqa sanksiyalar ko'zda tutiladi.

NAFTA doirasidagi umumiy Kelishuvdan tashqari, 1993-yilning sentyabrida ikkita qo'shma kelishuv imzolangan. Dastlabki **Atrof-muhit sohasidagi hamkorlik bo'yicha Shimoliy Amerika Kelishuvi (North American Agreement on Ecological Cooperation – NAAEC)** da ekologik standartlar, ularga rioya qilinishini nazorat qilish qoidalari va nizolarni hal etish tartibi belgilangan.

Amerikalik va meksikalik tadbirkorlarga AQShning ekologik standartlariga javob bermaydigan mahsulotni ishlab chiqarishga imkon bergen «makiladores korxonalari» faoliyati bunday kelishuvning imzolanishiga turki bergen omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu munosabat bilan Kelishuvning amal qilishi ekologik standartlarning qat'iy lashtirilishiga yo'naltirilgan. Ular yashirin savdo sifatida foydalanilmasligi uchun tomonlar nizolarni hal etish uchun zarur bo'lganda, ikki tomonlama yoki uch tomonlama arbitraj komissiyalarini tashkil etishga kelishib olishgan.

1993-yilda NAFTA ekologik hamkorligi bo'yicha Komissiya ta'sis etilgan bo'lib, uning doirasida xavfli mahsulotlarni yuklash kabi tarmoqlardagi ishchi guruhlar va nizoli masalalarni hal etish uchun arbitraj guruhlari faoliyat yuritadilar. Qonunbuzarliklar holatida aybdor mamlakatga nisbatan nizolarning ishtirokchi mamlakatlari o'rtasidagi ikki tomonlama savdoning 0,07% gacha bo'lgan jarimalarni hisobga olgan holda, sanksiyalarning joriy etilishi ko'zda tutiladi. Bunda Kanada uch tomonlama komissiya va arbitraj guruhining qarorlariga bo'ysunishni rad etgan bo'lib, Kanada kompaniyalariga nisbatan sanksiyalarning joriy etilishi faqat Kanada sudining qarori bo'yicha amalga oshirilishi mumkin⁵⁴.

Bundan tashqari, chegaradosh ekologik hamkorlikning ikki tomonlama Amerika – Meksika komissiyasi parallel ravishda faoliyat yuritayotgan bo'lib, u Shimoliy Amerika taraqqiyot bankining kreditlari va grantlari tomonidan qoplanadigan infratuzilmaviy loyihalarni tasdiqlaydi.

Ikkinci muhim kelishuv – 1994-yilda imzolangan **Shimoliy Amerika mehnat hamkorligi kelishuvi (North American Agreement on Labour Cooperation – NAALC)** «bandlik va mehnat sharoitlari hamda hayotiy standartlarni yaxshilash uchun yangi imkoniyatlar»ni yaratish, shuningdek «NAFTA mintaqasi doirasida mehnat qiluvchilarning huquqlarini himoyalash, kuchaytirish va rivojlantirish» maqsadiga qaratilgan⁵⁵. Mehnat munosabatlari sohasidagi nizolarni hal etish uchun AQSh va Meksika uchun uch tomonlama komissiya tashkil etilgan bo'lib, bunda Kanada tomoni bilan bo'ladigan nizolar Kanada qonunchiligi orqali hal etiladi. Bundan tashqari, Komissiya amerikalik yoki kanadalik ishchi oladigan ish haqining 1/8 qismini oladigan Meksikadan arzon ishchi kuchining oqib kelishiga qarshi to'siqlar tashkil etish uchun mehnatga haq to'lash standartlarini belgilaydi. Bunda Kelishuv standartlariga javob bermaydigan tomon o'zining milliy standartlari yoki mehnat qonunchiligi me'yorlarini o'zgartirishga majbur emas,

⁵⁴ Shimoliy Amerika erkin savdo zonasasi (NAFTA): muammolar va istiqbollar. Ilmiy konferensiyalar // AQSh: iqtisod, siyosat, maslakta. 1995. № 4. 81-bet.

⁵⁵ Касымова, Н.А. НАФТА: предпосылки создания и тенденции развития // США и Канада. 2001. № 6. 103-бет.

biroq NAFTAning qolgan ishtirokchilari 20 mln. dollargacha bo'lgan jarimalarni hisobga olgan holda, sanksiyalarni joriy etish huquqiga ega.

NAFTA yuqorida qayd etilgan qo'shimcha kelishuvlar bilan birgalikda novatorlik shartnomasi bo'lib hisoblanadi: ilk marotaba erkin savdo to'g'risidagi kelishuv atrof-muhit va ishchilar huquqlarini muhofaza qilish mexanizmini o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, NAFTA Kelishuvi ishtirokchi mamlakatlar uchun ham ijobiy, ham salbiy samaralarga ega bo'lgan o'ziga xos integratsion birlashmadir.

4.3 NAFTAning ijobiy va salbiy samaralari

NAFTAning ijobiy samaralari.

Ma'lumki Savdoni erkinlashtirish natijasida milliy iqtisodiyotda resurslarni foydali joylashtirish, narxlarni pasaytirish, bitimlar bo'yicha xarajatlarni qisqartirish atrof-muhit sharoitlarini yaxshilash, statik samaraning ta'siri natijasida kapital qo'yilmalar va texnik taraqqiyot faolligini oshirish hisobiga farovonlikni oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Barcha ishtirokchilar uchun ular o'rtasidagi tashqi savdoning intensifikatsiyalashuviga yordam bergen bojxona to'siqlarining (AQSh va Kanada o'rtaida deyarli to'liq, Meksika va uning shimoliy qo'shnilarini o'rtaida esa — qisman) bekor qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. NAFTA faoliyat yuritishining dastlabki besh-yilidayoq Amerikaning Kanadaga bo'lgan eksporti (joriy narxlarda) 56% ga, Meksikaga eksporti esa — 92% ga o'sdi. Bu davrda Kanadaning AQShga eksporti 35% ga, Meksika eksporti esa 91% ga o'sdi. Kanada — Meksika savdosida sezilarli o'sish sodir bo'ldi. Kanadaning Meksikaga eksporti Kanada statistikasining ma'lumotlari bo'yicha 76% ga, Meksika statistikasi ma'lumotlari bo'yicha esa — 127% ga ko'paydi. Meksikaning Kanadaga bo'lgan eksporti esa u 106% ga, ya'ni ikki baravardan ko'proqqa ortdi⁵⁶.

Kapital harakatining erkinlashtirilishi natijasida investitsiyalar hajmining ko'payishi NAFTA kelishuvining yana bir ijobiy sama-

⁵⁶ Шишкин, Ю.В. Интеграционные процессы на пороге XXI века. М.: НП «III тысячелетие», 2001. 305-бет.

rasiga aylandi. AQShning Kanadada jamg‘arilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari hajmi (joriy narxlarda) dastlabki besh yil ichida qariyb 1,5 marta, Meksikadagisi esa – 1,8 marta ko‘paygan. Kanadaning AQSh iqtisodiyotiga bo‘lgan investitsiyalari hajmi ushbu davrda 1,9 marta, Meksikaniki esa 3,2 martaga ko‘paygan⁵⁷.

NAFTAning salbiy samaralari.

NAFTA doirasida Meksika tashqi savdosining dinamik rivojlaniishi ushbu mamlakat iqtisodiyotini Amerika iqtisodiyoti kon'yunkturasiga o‘ta bog‘liq qilib qo‘ydi. AQSh iqtisodiy kon'yunkturasining o‘zgarishlari Meksika uchun sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga ega bo‘ldi. Kanadada ham shunga o‘xhash holat kuzatildi.

1995, 2001 va 2013-yillarda NAFTAg a’zo mamlakatlar eksporti va importi dinamikasi

4.3.1. -jadval

	mln. AQSh dollarri				ulushi, % hisobida			
	1995	2001	2013	2015*	1995	2001	2013	2015*
<i>Eksport</i>								
AQSh	541 367	661 139	1 575 000	1 510 000	66,9	61,3	65,5	65,6
Kanada	189 042	258 459	458 700	411 000	23,3	24,0	19,1	17,8
Meksika	79 376	158 628	370 900	381 000	9,8	14,7	15,4	16,6
NAFTA, jami	809 785	1 078 226	2 404 600	2 302 000	100	100	100	100
<i>Import</i>								
AQSh	768 667	1 177 994	2 273 000	2 273 000	76,5	74,1	73	73,4
Kanada	163 859	221 104	471 000	428 700	16,3	13,9	15,1	13,8
Meksika	72 399	189 876	370 700	395 600	7,2	12,0	11,9	12,8
NAFTA, jami	1 004 925	1 588 974	3 114 700	3 097 300	100	100	100	100

Manba: Integratsiya va Zapadnom polushari Rossiya / otv. red. A.N.Glinkin. M.: ILA RAN, 2004. 251-bet bo‘yicha hisoblangan.

Shu bilan birga, NAFTA bandlik sohasidagi ishonchlarni oqlamadi. AQSh va Kanadada sanoati kamroq rivojlangan Meksikadan yo‘naltirilgan import hajmining ortishi bilan yangi ish o‘rnulari yo‘qolib bordi. Bundan tashqari, Meksika mehnat bozoridagi ahvol ham yomonlashdi. Meksika va uning raqobatbardosh shimoliy

⁵⁷ Шишков, Ю.В. Интеграционные процессы на пороге XXI века. М.: НП «III тысячелетие», 2001. 305-бет.

qo'shnilar o'rtasidagi savdo tartibining erkinlashtirilishi natijasida mahalliy kichik korxonalar xonavayron bo'lib, o'rta biznes uchun sharoitlar ham yomonlashdi.

Meksika qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorining ochilishi, shuningdek tarmoqdagi yuqori xarajatlar tufayli qishloq xo'jaligi AQSh va Kanadadagi arzon qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ayniqsa, AQShda Meksikaga nisbatan 3-7 marta arzon bo'lgan bug'doy, loviya, sorgo, soya, makkajo'xori bilan bo'ladigan raqobatga dosh bera olmay qoldi.

Ekologiya sohasidagi holat ham yaxshilanmadi. Ayniqsa Meksika ko'proq zarar ko'rdi. Meksikada makiladores va Amerika – Meksika chegarasi hududida avtomobil tashishlari sonining ortishi munosabati bilan zararli moddalar chiqindilari miqdori ham ortdi. Meksikada ekologiya vazirligining tashkil etilishi va u tomonidan NAFTA Kelishuvi amalga oshirilishi bilan atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida tegishli qonunkarning qabul qilinganligiga qaramasdan tang ahvol yuzaga kelganligi, rivojlanayotgan mamlakatning yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar bilan iqtisodiy integratsiyalashuvi naqadar murakkab ekanligini yana bir bor namoyon etdi.

Ekologik muommolar AQShni ham yoqlab o'tmadi. Xususan, AQSh tadbirkorlari Meksikaga ekologik jihatdan iflos ishlab chiqarishlarni joylashtirgan bo'lsalarda, bu bilan mamlakatdagi ekologik ahvolni sezilarli jihatdan yomonlashuviga sababchi bo'ldilar. Gap shundaki, Meksika qonunlariga binoan makiladores zaharli chiqindilarni xomashyo olingan mamlakatga, ya'ni AQShga qaytarishlari mumkinligi natijasida Meksika korxonalaridagi zaharli chiqindilarning AQShga eksporti-yildan-yilga ortib bordi.

Umuman ishtirokchi mamlakatlar uchun NAFTAning bir qator salbiy oqibatlari e'tiborga olinadigan bo'lsa, Shimoliy Amerikadagi integratsion jarayonning ijobiy ahamiyatini to'g'ri baholash qiyindir.

Shunday bo'lsada NAFTA AQSh va Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun G'arbiy yarimshar mamlakatlarining yanada keng integratsiyasi uchun asos bo'lib hisoblanadi. Shu munosabat bilan 2005-yilda **Butun Amerika erkin savdo zonasi (Free Trade Area of Americas – FTAA)** ning tashkil etilishi e'lon qilindi hamda

«Hatti-harakatlar rejasi»ning imzolanishiga erishildi. Hozirgi vaqtda loyiha davlatlar o'rtasida kelishuv bosqichida turibdi.

Tayanch iboralar: Ebbot rejasi, kanadalashtirish siyosati, CUSFTA shartnomasi, NAFTAning ijobiy samaralari, NAFTAning salbiy samaralari, Butun Amerika erkin savdo zonasi (Free Trade Area of Americas – FTAA)

Nazorat savollari:

1. Shimoliy Amerika Erkin savdo uyushmasi(NAFTA)ning tashkil etilishi maqsad va vazifalari nimadan iborat?
2. Shimoliy Amerikadagi integratsion uyushma NAFTAning boshqa mintaqalardagi integratsiya modellari bilan o'zaro farqini tavsiflab bering.
3. NAFTAning ijobiy samaralari nimadan iborat? Misollar keltiring.
4. NAFTAning salbiy jihatlari nimadan iborat? Misollar keltiring.
5. Kanadaning NAFTAdagi tutgan o'rni qanday?
6. Meksikaning NAFTAdagi tutgan o'rni qanday?
7. Atrof-muhit sohasidagi hamkorlik bo'yicha Shimoliy Amerika Kelishuvi (North American Agreement on Ecological Cooperation – NAAEC)ning maqsad va vazifalari nimadan iborat?

V BOB OSIYO-TINCH OKEANI MINTAQASIDA IQTISODIY INTEGRATSIYA JARAYONLARINING O'ZIGA XOS JIHALTLARI VA RIVOJLANISH STRATEGIYASI

5.1 OTOIH: faoliyat maqsadlari va yo'nalishlari. Tashkiliy tuzilmasi

1989-yilda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi (OTOM)da dastlabki mintaqaviy hukumatlararo iqtisodiy tashkilot – «Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi» Forumi – OTOIH (Asia Pacific Economic Cooperation Forum – APEC) tashkil etildi.

Dastlab OTOIH tarkibiga Tinch okeani havzasining 12 mamlakati AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi va ASEANGa a'zo mamlakatlar (Singapur, Malayziya, Tailand, Filippin, Indoneziya va Bruney) kirgan. 1991-yilda XXR, Gonkong (Xitoy) va Tayvan, 1993-yilda – Meksika va Papua–Yangi Gvineya, 1994-yilda – Chili. 1998-yilda – Rossiya Federatsiyasi, Peru va Vietnam qabul qilinganlar. Hozirgi vaqtida OTOIH Forumi 21 mamlakat va Tinch okeani havzasi hududidan iborat⁵⁸. 1998-yildan boshlab yangi a'zolarni qabul qilishga o'n-yillik moratoriylar qabul qilingan bo'lib, hozirda bir qator davlatlar (Hindiston, Kambodja, Makao, Mo'g'uliston, Pokiston va Shri-Lanka) OTOIHga a'zolik uchun ariza berishgan.

OTOIHning asosiy vazifasi – mintaqaviy savdo va investitsiyalar qoidalarini aniqlashdir. OTOIH mamlakatlari ulkan iqtisodiy salohiyatga egadirlar va erkin savdo zonasining mazkur mintaqada shakllanishi jahondagi eng katta guruhning tashkil etilishiga olib keldi. Jahon yalpi ichki mahsulotining 60%, jahon

⁵⁸ Rasmiy hujjatlarda mamlakatlar iqtisodiyotlar deb ataladi, chunki Gonkong va Tayvan suveren davlatlar sifatida e'tirof etilmaydi. Gonkong (xitoycha nomi Syangan) XXRning maxsus ma'muriy hududi bo'lib hisoblansa, Tayvan rasmiy tarzda xalqaro hujjatlarda Xitoy Tayvani deb ataladi (garchi Tayvanning o'zida boshqacha atama — Tayvan Respublikasi qo'llaniladi).

savdosining 50% ga yaqini, jahon aholisining 40% va hududining 41,6% ularning hissasiga to‘g‘ri keladi⁵⁹.

Forum faoliyatining **maqsadlari** Seul deklaratsiyasida (1991 y.) belgilab berilgan:

- mintaqaga mamlakatlarining iqtisodiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash;
- ishtirokchi mamlakatlarning o‘zaro iqtisodiy bog‘liqligining o‘sishini hisobga olgan holda, ko‘p tomonlama savdo tizimini mustahkamlash;
- GATT/BST me’yorlariga muvofiq tovarlar, xizmatlar, kapitallar harakati yo‘lidagi cheklovlarni bekor qilish.

Seul deklaratsiyasi ochiq mintaqaviylashuv tamoyili asosida ishchirokchi mamlakatlarning erkin savdo va mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikka erishishga tarafdar ekanliklarini belgilab qo‘ydi. OTOIH faoliyati shuningdek qarorlarni qabul qilishda konsensus, kamsitmaslik, o‘zaro hurmat va tenglik, BST va «tarmoqli» hamkorlik me’yorlariga muvofiqlik (har bir ishtirokchi mamlakatning imkoniyatlarini hisobga olgan holda) tamoyiliga asoslanadi.

OTOIH tuzilmasi markazlashmagan xarakterga ega. Har bir mamlakat bir-yil mobaynida OTOIHda boshchilik qiladi, uning yetakchisi esa Forumning rahbari bo‘lib hisoblanadi va hukumat a’zolari, vazirlar, yuqori martabali shaxslar, OTOIHning turizm, kichik va o‘rta biznes, bojxona, standartlar va muvofiqlik masalalari bo‘yicha guruhlar yig‘ilishlarini boshqaradi. OTOIHning boshqa ishchi guruhlarida rahbar konsensus tamoyili asosida saylanadi.

OTOIH mamlakatlarining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, 2015-y.

5.1.1 -jadval

Mamlakat*	Maydoni, ning kv. km.	Aholisi, mln. kishì 2016	YaIM, trln. doll.	Aboli jon boshiga YaIM, doll.	Eksport, mlrd. doll.	Import, mlrd. doll
Avstraliya (1989)	7,741.220	22,992,654	1 489	65,400	188.3	207.7

⁵⁹ The APEC Region Trade and Investment, Canberra. November 2002. The Economist: Pocket World in Figures, 2002. бўйича хисобланган.

Bruney (1989)	5.765	436,620	0.033	79,700	7.235	3.359
Kanada (1989)	9,984,670	35,362,905	1 632	45,600	411	428.7
Chili (1994)	756.102	17,650,114	0.422	23,500	62.23	58.74
XXR (1991)	9,596,960	1,373,541,278	19 390	14,100	2 143 000	157 600 000
Gonkong, XXR (1991)	1.108	7,167,403	0.414	56,700	505.7	528.5
Indoneziya (1989)	1,904,569	258,316,051	2.842	11,100	148.4	135.1
Yaponiya (1989)	377,915	126,702,133	4.830	38,100	622	627.3
Janubiy Koreya (1989)	99.720	50,924,172	1.849	36,500	548.8	428.5
Malayziya (1989)	329.847	30,949,962	0.815	26,300	175.7	147.7
Meksika (1993)	1,964,375	123,166,749	2.227	17,500	381	395.6
Yangi Zelandiya (1989)	268.838	4,474,549	0.168	36,200	34.41	35.8
Papua – Yangi Gvi- neya (1993)	462.840	6,791,317	0.02	2,700	8.377	2,267
Peru (1998)	1,285,216	30,741,062	0.389	12,200	34.16	36.99
Filippin (1989)	300.000	102,624,209	0.741	7,300	43.28	64.97
Rossiya (1998)	17,098,242	142,355,415	3 718	25,400	341.5	193
Singapur (1989)	697	5,781,728	0.471	85,300	377.1	394.5
Tayvan (1991)	35.980	23,464,787	1 099	46,800	335.5	262.9
Tailand (1989)	513.120	68,200,824	1 108	16,100	212.1	177.5
AQSh (1989)	9,833,517	323,995,528	17 950	55,800	1 510 000	2 273 000
Vietnam (1998)	331,210	95,261,021	0.552	6,000	162.1	154.7

* Qays ichida mamlakatning OTOIHga kirgan yili ko'rsatilgan.

Manba: <https://www.cia.gov/library/publications/resources/the-world-factbook/>

1993-yildan boshlab ijro etuvchi va muvofiqlashtiruvchi organ – kotibiyat faoliyat yuritayotgan bo‘lib, uning tarkibiga muayyan muddat mobaynida yuborilgan ishtirokchi mamlakatlarning vakillari kiritiladi. Kotibiyatning ijrochi direktori – OTOIHga rahbarlik qiluvchi mamlakat vakilidir. Kotibiyat byudjeti boshlang‘ich 2 mln. dollardan hozirda 5 min. dollardan ortdi, uning mablag‘lari kadrlar tayyorlash, ishchi loyihaлarni amalga oshirish, axborot xizmatlari ko‘rsatish va muvofiqlashtirish-axborot mazmunidagi boshqa ehtiyojlarga sarflanadi. Kotibiyat Forum doirasida shakllangan ko‘p sonli qo‘mitalar va ishchi guruhlariga xizmat ko‘rsatadi. Forumning bosh qarorgohi Singapurda joylashgan.

A’zo mamlakatlар rahbarlari va davlat hukumatlari boshliqlarining norasmiy formatda o‘tkaziladigan sammitlari OTOIHning yuqori organi bo‘lib hisoblanadi. Ular 1993-yildan boshlab-yiliga bit marta o‘tkazilmoqda (bu vaqtga qadar tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvlari yuqori organ bo‘lib hisoblangan). 2014-yilning boshida 20 dan ortiq sammit o‘tkazilgan bo‘lib, ularda Forum faoliyatining strategiyasi yuzasidan muhim qarorlar qabul qilingan. OTOIH Forumining tashkiliy tuzilmasi 5.1.1-rasmda keltirilgan.

Forum boshqaruvi tizimidagi muhim organ – tashqi ishlar va tashqi savdo vazirlarining yig‘ilishlari bo‘lib, ular integratsion uyushma, shu jumladan uning ishchi organlari faoliyatining joriy muammolarini hal etadi va 1993-yildan boshlab sammitlarning diplomatik qo‘llab-quvvatlanishini ham ta’minlaydi.

Yana bir organ – hamkorlikning 11 ta sohasi – ta’lim (1992-yildan boshlab), energetika (1996-yildan boshlab), barqaror taraqqiyot va ekologiya (1994 y.), moliya (1994 y.), telekommunikatsiya va axborot (1995-yildan boshlab), savdo (1990-yildan boshlab), transport (1995-yildan boshlab), xotin-qizlar masalalari (1998-yildan boshlab) bo‘yicha tarmoq vazirlarining uchrashuvlaridir.


Yuqori martabali shaxslarning uchrashuvlari qariyb yiliga to‘rt marta vazirlarning o‘rinbosarlari yoki yordamchilari darajasida o‘tkaziladi. Ular ma’muriy masalalarni hal qiladilar, har-yilgi vazirlik uchrashuvlari va sammitlarining kun tartibini ishlab chiqadilar, ishchi guruhlarining qarorlarini tasdiqlaydilar. 1995-yildan boshlab tarkibida ishchi doiralarining vakillari (har bir mamlakatdan uch nafardan) bo‘lgan Ish yuzasidan maslahat kengashi (IMK) faoliyat

yuritmoqda. IMKnинг асосија вазифаси – Осақа гаракат дастурини амалга ошириш ва ҳамкорликни ривојлантиришдаги устуворликларни белгилаш бо‘йича тавсияларни ишлаб чиқишидир. IMKnинг устувор функсиyalari – OTOII doirasida qarorlarning qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatish, xatti-harakatlarning yakka va jamoaviy rejalarini амалга ошириш маqsadida давлат ва ҳукумат бoshliqlariga ta’sir ko‘rsatish, савдо ва investision erkinlashtirishga yordam ko‘rsatishdir. Deyarli bu – eng muhim muammolar bo‘йича давлат ва ҳукумат boshliqlariga тавсиялар тақdim etadigan xususiy tadbirkorlik tarmog‘ining doimiy organidir. IMK Forum faoliyati doirasida erishilgan natijalar to‘g‘risida давлат ва ҳукумат boshliqlarini xabardor qilish; 2010–2020-yillar mobaynida kelib erkin савдо ва investitsiyalar zonasining shakllanishiga nisbatan Bogor maqsadiga erishish bo‘йича monitoring o‘tkazish kabi vazifalarni bajaradi.

IMK tuzilmasiga uchta ishchi групилар: молија ме’морчилиги, texnologiyalar va biznesga ko‘maklashish bo‘йича ishchi групилар kiradi.

Tarmoq qo‘mitalari va ishchi групилари hamkorlikning ma’ium yo‘nalishlarini ишлаб чиқиш билан shug‘ullanadi. Асосија qo‘mitalar – Savdo va investitsiyalar qo‘mitasi, Iqtisodiy qo‘mita, Ma’muriy-byudjet qo‘mitasi.

Savdo va investitsiyalar qo‘mitasi 1993-yildan buyon faoliyat yuritmoqda hamda iqtisodiy faoliyot va ҳамкор мamlakatlar o‘rtasida aloqalar va xizmatlarning ayirboshlanishi; савдо ва investitsiyalar hamda savdoni erkinlashtirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘йича ташабbuslarni амалга ошириш соҳасидаги Forum faoliyatining istiqbolli yo‘nalishlarini ишлаб чиқishga yordam



5.1.2-rasm. OTOIHning tashkiliy tuzilmasi

beradi. Qo‘mita keng doiradagi muammolar, shu jumladan Osaka xatti-harakatlar dasturini amalga oshirish; tarif va notarif to‘siqlar; xizmatlar savdosi; iqtisodiyotning ma‘muriy tartibga solinmasligi; nizoli masalalarning hal qilinishi; investitsiyalar; bojxona tartibotlari; intellektual mulk huquqlarini himoya qilish; raqobat siyosati; tadbirkorlar migratsiyasi; hukumat xaridlari; tovarlarning kelib chiqish qoidalari; standartlar va muvofiqlik qoidalari qoidalari bilan shug‘ullanadi. Savdo va investitsiyalar qo‘mitasi faoliyatining asosiy yo‘nalishi – OTOIHda savdo va investision cheklarlarni bartaraf etish; xatti-harakatlarning atohida rejali monitoringini o‘tkazishdir.

Iqtisodiy qo‘mita 1994-yilning noyabrida iqtisodiy masalalar bo‘yicha maxsus ekspertlar guruhining tashkil etilishi asosida norasmiy tarzda tashkil etilgan bo‘lib, OTOIHga a’zo mamlakatlar iqtisodiyotlarining rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etishga yordam beradi. Uning funksiyalari – iqtisodiy va texnik hamkorlik bo‘yicha ma‘ruzalar tayyorlash, infratuzilmani rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, shaxslar migratsiyasi, axborot hamjamiyatini yaratish bo‘yicha izlanishlar olib borishdan iboratdir. Erkinlashtirishning OTOIHga a’zo mamlakatlar iqtisodiyotiga, mehnat bozorlari holatiga ta’siri tahlili, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, raqobat va intellektual mulkni muhofaza qilish qoidalari, ichki mintaqaviy integratsion guruhlar faoliyati tahlili asosida savdo va investitsiyalarni erkinlashtirish masalasiga katta e’tibor qaratiladi.

Ma‘muriy-byudjet qo‘mitasi Forum byudjetini baholaydi va u bo‘yicha tavsiyalar beradi, byudjet moddalarining moliyalashtirilishi va sarf qilinishi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar bilan shug‘ullanadi. Qo‘mita yuqori martabali shaxslar guruhlari uchun maslahat funksiyalari, shuningdek ishchi guruhlarining faoliyatini nazorat qilish va baholash, yuqori martabali shaxslar guruhiga OTOIH ishining samaradorligini oshirish bo‘yicha o‘z tavsiyalarini berish vakolatlarini bajaradi. Qo‘mitaning asosiy funksiyalaridan biri – OTOIH Markaziy fondining operativ hisobvarag‘idagi mablag‘larning boshqatilishini nazorat qilish, a’zo mamlakatlar badallarining miqdorlarini belgilashdir.

Qo'mitalar o'zlarining ichki qo'mitalariga egadir. Masalan, savdo va investitsiya qo'mitasi tarkibida – bozorlarga kira olish bo'yicha guruh, xizmatlar (telekommunikatsiyalar, turizm, transport, energetika) bo'yicha guruh, investitsiyalar, standartlar va muvofiqlik, bojxona tartibotlari, intellektual imulk huquqlari, hukumat xaridllari, nizolarni hal etish bo'yicha guruhlar mavjud. Iqtisodiy qo'mitaga quyidagi uchta ichki qo'mitalar: infratuzilma, oziq-ovqatlar, tahliliy sharhlarni tuzish qo'mitalari bo'yusunadi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligidagi texnik ko'maklashish hamda kichik va o'rta tadbirdorlik masalalari bo'yicha ekspertlarning *ad hoc* guruhlari ham faoliyat yuritmoqda.

Forum organlari tuzilmasiga shuningdek 11 nafar ishchi guruhlar kiritilib, ular eng muhim yo'nalishlar – energetika (1990 y.), baliqchilik (1991 y.), inson resurslarining rivojlanishi (1990 y.), sanoat, ilm-fan va texnologiyalar bo'yicha (1990 y.), dengiz resurslarini muhofaza qilish bo'yicha (1990 y.), savdoni qo'llab-quvvatlash bo'yicha (1990 y.), transport bo'yicha (1991 y.), turizm bo'yicha (1991 y.), qishloq xo'jaligidagi texnik hamkorlik bo'yicha, kichik va o'rta biznes bo'yicha ishlarni olib boradi.

5.2 OTOIH Forumi sammitlarida qabul qilingan asosiy qarorlar, Hatti-harakatlarning Manila dasturi va ularning mintaqada o'zaro integratsion munosabatlarni chuqurlashtirishdagi roli

1993-yilda Sietldagi (AQSh) ilk sammitda Tinch okeani hamjamiyatini tashkil etish imkoniyatlari to'g'risidagi g'oya ilk marotaba o'rtaga tashlandi. Bir-yil o'tgach, 1994-yilda Bogor sammitida (Indoneziya) 2010-2020-yillar mobaynida OTOIH mamlakatlarining tovarlar savdosi va kapital harakatining erkin zonasini tashkil etishga tayyorligi to'g'risida prinsipial qaror qabul qilindi.

1995-yilda Osaka(Yaponiya) sammitida mintaqadagi erkinlashtirish yo'nalishlarini batafsil belgilab bergen xatti-harakatlar dasturi qabul qilindi: bojlarning kamayishi, xizmatlar savdosining erkinlashtirilishi va milliy standartlarning xalqaro standartlarga muvofiq uyg'unlashtirilishi, shuningdek erkin savdo zonasini

shakllantirishning boshlanish sanasi etib 1997-yilning 1 yanvari belgilandi. Umuman dastur doirasida 15 ta yo‘nalish belgilangan bo‘lib, ulardan to‘rt nafari Bogor deklaratsiyasining maqsadlari bilan bevosita bog‘liq holda hamkorlik yuzasidan qayishqoqlik konsepsiyasini ilgari surdi. Unga muvofiq mamlakatlar kesimida bojlarning progressiv kamayishi va bojxona tartiblari erkinlashuvining ortishi asosida erkin va ochiq savdo yuritish tamoyillari belgilandi. Bunda bojlarning to‘liq tugatilishi xususida emas, faqatgina ularning pasaytirilishi ko‘zda tutiladi. Osaka sammitining muhim yakunlaridan yana biri – OTOIH faoliyati tamoyillarining: kamsitmaslik; oydinlik; hamkorlik; qayishqoqlik; BST me’yorlariga muvofiqlik; taqqoslana olishlik; umumiyl qamrovllilik; sinxronlilik; davom etuvchi jarayon; erkinlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishning differensial muddatlari qabul qilinganligidadir.

1996-yilgi Filippin sammiti integratsion hamkorlik yo‘nalishidagi navbatdagi qadam bo‘lib, unda uch yo‘nalish – xatti-harakatlarning jamoaviy rejasi, xatti-harakatlarning yakkahol rejasi va texnik iqtisodiy hamkorlik asosida Osiyo-Tinch okeani Iqtisodiy Hamjamiyati (OTOIH)ni shakllantirishning global maqsadiga erishish chora-tadbirlari to‘plamidan iborat bo‘lgan Manila xatti-harakatlar dasturi (MAPA) qabul qilindi.

1997-yilda Vankuverda (Kanada) bo‘lib o‘tgan sammitda o‘n beshta sohada ko‘ngilli asosda tezkor tarmoqli erkinlashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Kuala-Lumpurdagi Malayziya sammitida (1998 y.) asosiy e’tibor ko‘pgina iqtisodiyotlarga zarar yetkazgan Osiyo moliyaviy inqirozidan chiqish yo‘llarini izlash va mintaqada iqtisodiy barqarorlikka erishish masalalariga qaratildi.

2000-yilda Bruneyda o‘tkazilgan sakkizinch sammitda savdo va investitsiyalarni erkinlashtirish, eng yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini o‘zlashtirish hisobiga «yangi iqtisodiyot»ni yaratishning muhim masalalari ko‘rib chiqildi. Sammitda ikki tomonlama erkin savdo zonalarini shakllantirishning yangi integratsion loyihalari ilgari surildi va quyidagi qarorlar qabul qilindi: 2001-yildan kechiktirmasdan BSTda muzokaralarning yangi raundi boshlanishiga tayyor bo‘lish; ichki mintaqaviy savdo

kelishuvlari faoliyatini ularning cheklovlarni qisqartirish vositasi sifatidagi muhimligini hisobga olgan holda baholash.

Forumga a'zo mamlakatlar yetakchilarining Shanxay (XXR, 2001 y.) sammiti Osiyo-Tinch okeani hamjamiyatini shakllantirish maqsadida yaqin kelajakda OTOIH forumi xatti-harakatlarining strategik rejasi sifatidagi «*Shanxay roziligi*» hujjatini qabul qildi. Mazkur sammitda asosan uchta vazifa belgilandi:

1) »yangi iqtisodiyot»ning globallashuvi va shakllanishini hisobga olgan holda, XXI asrda Forum faoliyati konsepsiyalarini yaratish (internet-texnologiyalarga asoslangan). Bogor maqsadli dasturini bajarishning o'rta muddatdagi istiqbolda erishilgan taraqqiyotini tahlil qilish, iqtisodiyotni boshqarish va ma'muriy tartibotlarni tugatish yoki soddalashtirishda oydinlik tamoyilini realizatsiya qilish asosida besh-yil mobaynida transaksion xarajatlarni 5% ga qisqartirish;

2) shu jumladan, Osaka xatti-xarakatlar dasturi qoidalarini qayta ko'rib chiqish va ularni zamonaviy borliqqa muvofiq keltirish asosida Bogor maqsadini amalga oshirish yo'nalishlarini aniqlab olish, shuningdek, 2010-2020-yillar davomida savdo va investitsiyalarning erkin va ochiq zonalarini yaratish bo'yicha iqtisodiyotlarning yakkahol va jamoaviy xatti-harakatlarini faollashtirish;

3) mamlakatlar xatti-harakatlarining yakkahol rejali qoidalarini sinchiklab o'rganish hamda iqtisodiy va texnik hamkorlikni rag'batlantirish asosida OTOIH mexanizmini mustahkamlash.

OTOIH yetakchilari ushbu sammit doirasida mintaqada erkin savdoga erishishning yordamchi vositasi sifatida erkin savdo zonasini shakllantirish bo'yicha bir necha bor munozaralar olib borib, mintaqaviy va ikki tomonlama erkin savdo zonalari, ularning ushbu tashkilot qoidalariga muvofiq kelishi sharti bilan BSTda ko'p tomonlama erkinlashtirish shartining uyg'unlashuvi masalalari bo'yicha muzokaralar olib bordilar.

2002-yilda Los Kabosda (Meksika) bo'lib o'tgan OTOIHga a'zo mamlakatlarning o'ninchisini sammitida asosiy e'tibor savdo va investitsiyalar bo'yicha erkin zonani tashkil etish maqsadlarini amalga oshirish hamda iqtisodiy o'sish va rivojlanish, shuningdek terrorizmga qarshi kurashish maqsadida hamkorlik yo'nalishlarini kengaytirish masalalariga qaratildi. 2006-yilga kelib transaksion

xarajatlarning 5% ga qisqartirilishiga erishish, rivojlanayotgan mamlakatlarga infratuzilmani yaratish bo'yicha yordam ko'rsatishga qaratilgan rejaning tasdiqlanish, o'zaro savdoni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xatti-harakatlar rejasining ishlab chiqilishi mazkur sammitning muhim natijasi bo'lib hisoblanadi. A'zo mamlakatlar yetakchilari Bogor maqsadiga (1994 y.) tarafdar ekanliklarini yana bir bor tasdiqlashdi va bozorlarning ochiqligi, iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, qashshoqlikni kamaytirish, barqaror taraqqiyotga ko'maklashish bo'yicha muzokaralarni davom ettirishga kelishib oldilar. Los Kabosda qabul qilingan yana bir hujjat – OTOIHga a'zo mamlakatlar yetakchilarining oydinlik tamoyillarini (umumiyligida maxsus tamoyillar belgilangan) amalga oshirish bo'yicha bayonetidir.

2003-yilda Bangkokda (Tailand) bo'lib o'tgan sammit asosan terrorizmga qarshi kurashish masalaiga bag'ishlandi. Shu bilan birga iqtisodiy masalalar: mintaqaning barcha mamlakatlarida bilimlarga asoslangan iqtisodiyotning shakllanishi; mintaqada yangi moliyaviy me'morchilikning yaratilishi; yangi kichik va o'rta biznes («mikrobiznes») korxonalarining yaratilishi masalalari ham ko'rib chiqildi. Biroq, ushbu masalalar bo'yicha aniq dastur yoki bayonetlar qabul qilinmadidi.

2004-yilda OTIHning navbatdagi Santyagodagi (Chili) sammiti «Bizning jamiyat, bizning kelajagimiz» shiori ostida o'tdi. Ko'pgina muhokama qilingan masalalar orasida asosiy e'tibor OTOIH doirasida savdoning kengayishiga qaratilgan bo'lib, u «Santyago Tashabbusi» dasturiy hujjatida o'z aksini topdi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki OTOIH o'z faoliyatining 15-yili mobaynida maslahat organidan mintaqaga va umuman jahonda erkinlashtirishga ko'maklashuvchi jo'shqin tashkilotga aylandi.

Forumga a'zo mamlakatlarning yetakchilari Manila sammitida (1996 y.) savdo va investitsion erkinlashtirish hamda iqtisodiy va texnik hamkorlikni kengaytirishning asosiy maqsadi – Osiyo-Tinch okeani hamjamiyatining shakllanishini belgilab oldilar. Dastlab ushbu g'oya 1993-yilda AQSh sobiq prezidenti B.Klinton tomonidan ilgari surilgan edi.

Manila xatti-harakatlar dasturi (MAPA) uchta bo'limni o'z ichiga qamrab oladi:

- har bir ishtirokchi mamlakat xatti-harakatlariningt yakkahol rejalar;
- OTOIH xatti-harakatlarining jamoaviy rejasi;
- qo'shma loyihalarni ishlab chiqish asosida iqtisodiy va texnik hamkorlikning rivojlanishi.

OTOIH Forumi doirasida qabul qilingan asosiy qarorlar

5.2.1.-jadval

OTOIH yetakchilarining norasmiy uchrashuvlari	Asosiy yakunlar
1989 y. Kanberra – Avstraliya	OTOIH Forumining shaklanishi; mamlakatlar o'rtasida OTOIHning norasmiy Forum sifatidagi maqomi to'g'risida konsensusga erishish
1991 y. Seul – Koreya Respublikasi	OTOIH maqsadlarining belgilanishi
1993 y. Sietl – AQSh	Tovarlar va investitsiyalarning erkin savdo zonasini tashkil etish to'g'risida prinsipial qaroring qabul qilinishi
1994 y. Bogor – Indoneziya	2010-2020-yillarga kelib erkin savdo zonasini tashkil etish sanasining belgilanishi; OTOIHning uchta asosiy g'oyalari: savdo va investitsiyalarni erkinlashtirish va qo'llab-quvvatlash; iqtisodiy va texnik hamkorlik; taraqqiyot sohasidagi hamkorlik g'oyalarini ishlab chiqish
1995 y. Osaka – Yaponiya	Erkinlashirishning asosiy yo'nalishlari va OTOIH faoliyatining to'qqizta tamoyillarini belgilab bergan Osaka xatti-harakatlar dasturining qabul qilinishi
1996 y. Manila – Filippin	Xatti-harakatlarning yakka va jamoaviy rejalar, texnik iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishini o'z ichiga olgan Manila xatti-harakatlar dasturi (MAPA) ning qabul qilinishi

1997 y. Vankuver – Kanada	Xatti-harakatlarning yakka va jamoaviy rejalarining taftish qilinishi; Tarmoqli erkinlashtirishni ko'ngilli asosda tezlashtirish bo'yicha Kelishuvning imzolanishi
1998 y. Kuala-Lumpur – Malayziya	Tezlashgan ko'ngilli erkinlashtirishni amalga oshirish uchun to'qqizta tarmoqning belgilanishi
1999 y. Oklend – Yangi Zelendiya	OTOIHning raqobatni rag'batlantirish va iqtisodiyotning tartibga solinmasligi bo'yicha tamoyillari
2000 y. Daressalam – Bruney	BSTda muzokaralarning yangi raundlarini o'tkazish tashabbusi; ichki mintaqaviy guruhlar faoliyati tahlili
2001 y. Shanxay – XXR	Yaqin-yillarda OTOIH xatti-harakatlarining strategik rejasи sifatida «Shanxay roziligi» hujjatining qabl qilinishi
2002 y. Los Kabos – Meksika	Savdoni qo'llab-quvvatlash, shu jumladan 2006-yilga kelib transaksion xarajatlarning 5% ga qisqarishini ko'zda tutadigan xatti-harakatlar rejasи qabul qilingan. A'zo mam-lakatlar yetakchilarining Yorqinlik tamoyillarini amalga oshirish bo'yicha bayonoti
2003 y. Bangkok – Tailand	Asosiy e'tibor terrorizmga qarshi kurashish, erkin savdo zonalarini faollashtirish masalalariga qaratildi
2004 y. Santyago Chili	«Santyago Tashabbusi» – savdo va investitsion erkinlashtirish, savdoga ko'maklashish, erkin savdo zonalarini faol qo'llab-quvvatlash asosida OTOIHda savdoning kengayishi.

Manba: OTOIH sammitlarida qabul qilingan Deklaratsiyalar asosida tuzilgan.

Xatti-harakatlarning yakkahol rejalari savdo va investitsiyalarning 15 ta yo'nalishda, xususan, bojxona bojlari, notarif to'siqlar, xizmatlar, investitsiyalar, raqobat siyosati, hukumat xaridlari, nizolarni tartibga solish, tadbirkorlar migratsiyasi, GATTning Urugvay raundi yakunlarining tezlashtirilgan sur'atdagi realizsiyasi, tovarlarning kelib chiqish qoidalari, milliy standartlar

bo'yicha erkinlashtirish chora-tadbirlarining amalga oshirilishini ko'zda tutadi.

Yakkahol rejalar ixtiyoriy mazmunga ega, biroq ular muzokaralar va maslahatlarning natijalari hisobga olingan holda qabul qilinib, quyidagi masalalar yechimiga: savdo va investitsion sohalarda erkinlashtirishning vaqtinchalik doiralari, shu jumladan Bogor maqsadi bilan taqqoslaganda ayrim mamlakatlar uchun to'siqlarni kamaytirishning yanada tezkor sur'atlarini belgilash; Urugvay kelishuvlaridan farqli ravishda yanada keng majburiyatlarning qabul qilinishi; axborot texnologiyalari bo'yicha kelishuvning (ITA) bajarilishi; importni notarif cheklovlar qoplash darajasining qisqarishi; bojxona tartibotlarining ma'lumotlar bazasi va o'rtacha bojlarni ishlab chiqarish asosida oydinlikning ortishi (1997 y.); identifikatsiyalangan NTO ro'yxatining tuzilishi (1998 y.); tadbirkorlik faoliyati xarajatlarining qisqarishi; bojxona tartibotlarining axborot ma'lumotlari bazasini ishlab chiqish (2000 y.); standartlar va milliy standartlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini o'zaro e'tirof etilishi bo'yicha kelishuvlarning imzolanishi; axborot ayrboshlanishi (1997 y.); eksport subsidiyalari, eksportga bo'lgan to'siqlar va cheklovlarning qisqartirilishi va asta-sekin tugatilishi; ayrim mamlakatlarda yanada tezkor sur'atlar va GATS doirasidagi majburiyatlar bo'ylab davom etuvchi xizmatlar savdosining progressiv erkinlashtirilishi; yangi muhofaza chora-tadbirlariga «stendstil» shartining joriy etilishi; yuzaga kelgan qoidalar asosida yanada ochiq investitsion tartibning yaratilishi, tadbirkorlarning xizmat yuzasidagi safarlari uchun vizalar taqdim etilishining erkinlashtirilishi; hukumat xaridlari tartibotlari oydinligining oshishi; intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmining yaratilishi; tartibga solish sohasini isloh qilishning yanada samarali amaliyotining ishlab chiqilishi; raqobat siyosati sohasida kelishuvlarning imzolanishi; yuqori darajada rivojlangan infratuzilmaviy obyektlarning yaratilishiga qaratilgan. Bangkokdagi sammitda qo'yilgan maqsad – OTOIH mintaqasida oziq-ovqat xavfsizligi tizimining yaratilishi hisobga olingan holda, 2004-yilda HYaRning oziq-ovqatlar bo'yicha yangi bobu (hisob bo'yicha 16-si) joriy etildi.

Xatti-harakatlarning jamoaviy rejalarini savdo va kapital qo'yilmalarni rag'batlantirish, yanada yorqin, sodda, eng kam xarajatlarga ega bo'lgan qulay tadbirkorlik muhiti shakllanishining 15 ta yo'nalishini belgilab berdi. Xatti-harakatlarning jamoaviy rejasida quyidagilar qayd etilgan:

1) bojxona bojlari bo'yicha kompyuterda ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish (buning uchun xatti-harakatlarning yakka rejalarini o'z ichiga olgan holda a'zo mamlakatlarning bojxona majburiyatlarini formatini yangilash ko'zda tutilgan);

2) a'zo mamlakatlarning majburiyatlarini hamda progressiv erkinlashtirish bo'yicha yakkahol rejaga kiritilgan notarif to'siqlarning formatini yangilash. Buning uchun NTO darajasini kamaytirish bo'yicha ishlarning intensifikatsiyalashuvi nuqtayi nazaridan notarif chora-tadbirlarning xilma-xilligini o'z ichiga olgan holda, ularning tahlilini amalga oshirish belgilangan.

3) eksport subsidiyalarini butunlay tugatish maqsadida BSTdagi majburiyatlarni hisobga olgan holda, eksport subsidiyalarining progressiv qisqarishi bo'yicha qo'shma chora-tadbirlarni ishlab chiqish; tadbirkorlarning migratsiyasini faollashtirish uchun hududida yagona migratsiya hujjati (Business Travel Card) amal qiladigan davlatlar sonini 9 nafardan 12 nafargacha kengaytirish.

Umuman olganda mazkur hujjat monitoring va a'zo mamlakatlarning ma'lumotlari asosida har yili to'ldiriladi va aniqlashtirilib boriladi. 2000-yildan boshlab mamlakatlarning xatti-harakatlar rejalarini amalga oshirishning borishi to'g'risidagi davriy hisobotlari qoidasi amal qilmoqda. MAPAning boshqa muhim unsuri – standartlar sohasidagi hamkorlik, bojxona tartibotlarini uyg'unlashtirish, raqobat siyosatini amalga oshirish va nizolarni hal etishdagi muvofiqlashtirish asosida savdoni qo'llab-quvvatlashdir.

Shunday qilib, Manila xatti-harakatlar dasturi 2010-2020 mobaynida bojlarning o'rtacha stavkasini 0 – 5% gacha qisqartirish va notarif to'siqlarni tugatish; 2010-2020-yillar ichida kam xarajatlar bilan investitsiya sohasida milliy tartibning joriy etilishi; «stendstil», ya'ni proteksionistik himoya darajasini oshirmaslik hamda Bogor maqsadini bajarish bo'yicha progressiv erkinlashtirishning amalga oshirilishi shartining joriy etilishi; savdo cheklovlari darajasining kamayishi, shu jumladan ayrim tarmoqlarda NTOlarning ba'zi

turlarining tarif cho‘qqilarining qisqarishi, musodaralar sonining kamayishi, tarmoqlar o‘rtasidagi bojlar stavkalaridagi farqning qisqarishi kabi uzoq muddatli maqsadlarni ko‘zda tutadi.

5.3 OTOIHda savdo va investitsion erkinlashtirish: amalga oshirish yo‘nalishlari va murakkabliklari hamda natijalari

OTOIHda savdoni erkinlashtirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- har bir mamlakat xatti-harakatlarining yakkahol rejalarini asosida;
- tarmoqli ko‘ngilli tezkor erkinlashtirish doirasida;
- ichki mintaqaviy iqtisodiy integratsiya doirasida;

Nisbatan past rivojlangan mamlakatlar va yuqori rivojlangan mamlakatlar o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish, shuningdek uyushmaga a’zo bo‘lmagan davlatlar o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish e’tirof etilgan *xatti-harakatlarning yakkahol rejalarini yakkahol savdoni erkinlashtirish* sohasida OTOIH faoliyatining asosi bo‘lib hisoblanadi. Forumning ko‘pgina a’zo mamlakatlari HYaR tahvilining ko‘rsatishicha, qayd etilgan chora-tadbirlar – BST, ichki mintaqaviy integratsion guruhi va erkinlashtirishning milliy dasturlaridagi majburiyatlar yig‘indisi, ya’ni bir vaqtda uch – milliy, mintaqaviy va xalqaro darajada amalga oshiriladigan erkinlashtirish chora-tadbirlaridir. Oqibatda ishlab chiqilgan va amalga oshiriladigan chora-tadbirlar savdoni (nafaqat savdo) erkinlashtirish jarayonida ortiqcha bo‘g‘inga aylanadigan, OTOIHda u yoki bu mamlakatning bevosita ishtiroti bilan bog‘liq emas.

Alohiba mamlakatlarning yuqori bo‘lmagan iqtisodiy samaradorligi *tarmoqli erkinlashtirish* vazifasini birinchi o‘ringa olib chiqdi. OTOIHda erkin savdo zonasini tashkil etishni faollashtirish maqsadida Vankuver sammitida (1997 y.) 15 ta tovar guruhlari: ekologik tovarlar va xizmatlar; baliq va baliq mahsulotlari; o‘rmon tovarlari; tibbiy jihozlar; energetika tovarlari; axborot texnologiyalari sohasidagi mahsulotlar; o‘yinchoqlar; qimmatbaho toshlar va zargarlik buyumlari; kimyoviy tovarlar, shuningdek o‘simlik moylari va ulardan tayyorlanadigan mahsulotlar; oziq-ovqat mahsulotlari; sintetik va tabiiy kauchuk; mineral o‘g‘itlar; fuqaro

aviatexnikasi; avtomatik qurilmalar bo'yicha 2010-2020-yillar ichida kelishgan muddatlarda ixtiyoriy tezkor tarmoqli erkinlashtirish to'g'risida qaror qabul qilingan.

Mazkur tashabbus uchta yo'nalishda: bozorning ochiqligi; savdoga ko'maklashish; iqtisodiy va texnik hamkorlikni o'z ichiga oladi. OTOIH mamlakatlari o'z mohiyatiga ko'ra manfaatli ham bo'lgan bir tomonlama asosda savdoni ixtiyoriy erkinlashtirish va qo'llab-quvvatlashning noyob mexanizmini ishlab chiqdilar. GATT/BST yondashuviga zid ravishda (kelishuvlar bog'liq mazmunga ega bo'lib, ularning qoidalari buzilganda sanksiyalar qo'llaniladi) OTOIH mexanizmi bog'liq bo'limgan (eng kam jihatdan majburiy) mazmunga ega. OTOIH iqtisodiy taraqqiyotning turli darajalari va tashqi savdo tizimlari ochiqligining bir xil bo'limgan darajasiga ega bo'lgan mamlakatlarni o'z ichiga olganligini ham unutmaslik lozim. Shuning uchun dastlabki bosqichda hamkorlarni o'zaro majburiyatlar bilan bog'lashning imkoniyati deyarli yo'q. Yana bir sabab – Forumga a'zo mamlakatlarning ushbu tashkilotni institutsionallashtirmaslik, ya'ni uni muhokama forumidan BST turidagi muzokara organiga aylantirmaslik to'g'risidagi dastlabki kelishuvidir.

Umuman tezkor va ixtiyoriy tarmoqli erkinlashtirish g'oyasi a'zo mamlakatlarning 2010-2020-yillar ichida qadar ayrim sohalarni proteksionistik himoya qilish darajasini kamaytirishga bo'lgan intilihlari bilan paydo bo'ldi. U bojlarning ayrim tarmoqlar mahsulotlariga 0 – 5% gacha kamayishi, boshqa tarmoqlar (kimyo mahsulotlari) bo'yicha – bojlarning uyg'unlashtirilishi, uchinchi tarmoqlar (telekommunikatsiya texnologiyalari) bo'yicha – standartlarni o'zaro e'tirof etish to'g'risidagi kelishuvning imzolanishi kabi choratadbirlarni o'z ichiga oladi. Biroq Osiyodagi inqiroz ixtiyoriy tezkor tarmoqli erkinlashtirishni amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada uning muhim masalalaridan biri (bojlarning kamayishi) BSTga o'tkazilgan bo'lsa, notarif to'siqlar, savdoni qo'llab-quvvatlash hamda aniq tovar guruhlari bo'yicha iqtisodiy va texnik hamkorlik kabi masalalar OTOIH zimmasida qoldirildi.

OTOIHning a'zo mamlakatlari uchun savdoni erkinlashtirishning uchinchi yo'nalishi – *ichki mintaqaviy guruuhlar doirasidagi majburiyatlarning amalga oshirilishidir*. OTOIHning

ko'pgina mamlakatlari integratsion guruhlarning ishtirokchilari bo'lib hisoblanadilar (yoki bu haqda muzokalarlar olib bormoqdalar), eng kamida o'zaro doiralarda bojxona bojlarini kamaytirish asosida savdoning erkinlashtirilishini amalga oshirishgan yoki oshirishmoqdalar. Bu holatda alohida uyushmalarning savdo preferensiylarini OTOIHning barcha a'zo mamlakatlariiga tarqatishga tayyorligi to'g'risidagi masalani hal etish kerak edi. NAFTA bu masalada «birinchi qaldirg'och»ga aylandi – 1997-yilda bojsiz savdo afzalliklarini Forumning boshqa mamlakatlariiga ularning shunga o'xhash yon berishlarga rozi bo'lishlari sharti bilan tarqatish e'lon qilindi. Kanada tomoni taqdim etgan g'oyalarning qabul qilinishi 2005-yilga kelib ko'pgina tovarlar savdosining erkinlashtirilishini tezlashtirdi. Shuningdek, 1997-yilda AQSh tomonidan ilgari surilgan yana bir g'oya – OTOIHning ayrim mamlakatlari (Avstraliya, Yangi Zelandiya, Singapur, Chili) bilan ikki tomonlama savdo kelishuvlarining imzolanishi bo'ldi.

Ikki mamlakat (Filippin va Indoneziya) AFTA doirasida OTOIHning barcha a'zo mamlakatlariiga nisbatan 2003-yilga kelib ko'pgina tovarlar uchun boj stavkalarining 0–5% gacha kamayishi bo'yicha bir tomonlama orttirilgan majburiyatlarni olishdi, bu esa «AFTA chaqiruvi» nomini oldi.

Nihoyat, 2002-yilda XXR 2020-yilga kelib OTOIH mamlakatlari bilan bo'ladigan savdoni to'liq erkinlashtirishga tayyor ekanligini ma'lum qildi.

5.4 Osiyo-Tinch okean mintaqasida integratsion jarayonlar xususiyatlari va strategiyasi

So'nggi o'n-yilliklarda jahon mintaqalari orasida Osiyo Tinch okeani eng tezkor iqtisodiy o'sishni namoyon qilayotgan hudud sifatida e'tirof etilmoqda. Mutaxassislar fikricha, Osiyo Tinch okeani mintaqasidagi xalqaro integratsiya jarayonlari ushbu hudud mamlakatlарining, ayniqsa, texnologik ilg'or tarmoqlarda, iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha jahonning boshqa hududlaridan o'zib ketishiga, ular xalqaro raqobatbardoshligining keskin oshishiga asos bo'ldi. Aynan iqtisodiy integratsiya, hudud mamlakatlari iqtiso-

dining tezkor rivojlanishiga, ishlab chiqarish va iste'molning o'sishiga ko'p jihatdan turtki bo'ldi.

XXI asr boshlariida jahon xo'jaligidagi har qanday mamlakat iqtisodiy integratsiyasiz barqaror sur'atlarda rivojlna olmaydi. Integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etish milliy iqtisodiyotga quyidagi natijalarga erishish imkoniyatini beradi: tovarlar, kapitallar, xizmatlar erkin harakat qiladi, raqobat kuchayadi; ishlab chiqarish kuchlari rivojlanadi; ishlab chiqarish samaradrorligi ortadi; sifatli va arzon tovarlar ishlab chiqariladi; bozorlarning rivojlangan shakkiali paydo bo'ladi va umumiy bozorlar tashkil qilinadi; ishsizlik darajasi pasayadi; mamlakatlarning rivojlanish darajasidagi farqlar yo'qolib boradi; eng muhim aholining turmush darajasi o'sadi va sifat jihatdan yaxshilanadi.

2013-yilning 7-8 oktyabrida Indoneziyaning Bali orolidagi jahonga mashhur Denpasar oromgohida hozirda hissasiga dunyoning 40 foizga ga yaqin aholisi, 57 foiz YalMi, xalqaro savdo aylanmasining 48foizi va bevosita investitsiyalarning 26 foiziga yaqini to'g'ri keladigan 21 mamlakatni birlashtiruvchi OTO iqtisodiy hamkorligining navbatdagi 21-sammiti bo'lib o'tdi. Unda asosan mintaqada 2020-yilgacha ochiq va erkin savdo tizimini yaratishga qaratilgan say-harakatlarni jadallashtirish masalalariga e'tibor qaratildi. Mazkur sammitda ko'rib chiqilgan global o'sishning dvigateli bo'l mish OTO mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalari so'nggi-yillarda barqaror rivojlanayotgan, ushbu tashkilot a'zolari bo'lgan mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorligi-yildan-yilga o'sib borayotgan O'zbekiston uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi jahon xo'jaligidagi integratsion jarayonlarning uchinchi yirik markazi hisoblanadi. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (Association of South East Asian Nations -ASEAN) 1967-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning tarkibiga Bruney, Vietnam, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, Myanma, Singapur, Tailand va Filippin kiradi.

Hozirda ASEAN tashkiloti Janubiy-Sharqiy Osiyoning 10ta mamlakatini o'zida birlashtirib, dunyoning tezkor rivojlanayotgan, nufuzli mintaqaviy xalqaro tashkilotlardan biriga aylandi. ASEANning umumiy aholisi 522 mln kishi bo'lib, umumiy YaMM

– 585 mlrd dollarni va tashqi savdo aylanmasi – 720 mlrd dollarni tashkil qiladi. Oxirgi ikki ko'rsatkich bo'yicha ASEAN jahondagi integratsion uyushmalar ichida Yevropa Ittifoqi va NAFTAdan keyin uchinchi o'rinni egallaydi.

Ushbu guruh doirasida o'zaro hamkorlikning muvaffaqiyati ASEAN qatnashchilar bo'lgan mamlakatlarning barqaror iqtisodiy o'sishi, ular rivojlanishini qiyosiy taqqoslash mumkinligi, yaxshi yo'lga qo'yilgan uzoq, tarixiy an'analarga ega bo'lgan o'zaro savdo aloqalarining mavjudligi, hamkorlik shakllarining tartibga solinishi bilan mustahkam bog'liqdir.

Osiyo-Tinch okeani hududida umumosiyoviy qadriyatlarni izlash, shu hudud mamlakatlari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlashga intilish iqtisodiy munosabatlar va aloqalarni rivojlan-tirishning asosiy omiliga aylanmoqda. Shu munosabat bilan, Osiyo-Tinch okeani hududida kechayotgan integratsion jarayonlar Yevropadagi integratsion yondashuvlardan farqlanadi.

«Osiyoviy to'rt burchak» doirasidagi o'zaro aloqalar savdo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, firmalararo sherikchilik sohalarida, shuningdek hududiy darajada amalga oshirilmoqda. Yel, MERKOSUR va boshqa integratsion birlashmalardan farqli o'laroq, Osiyo-Tinch okeani hududidagi integratsiya o'ziga xos jihatlariga ega.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida kechayotgan integratsiya jarayonining muhim xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

Birinchidan, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi tashkilidagi integratsiya jarayoni davlatlararo hamkorlik uchun negiz yaratuvchi transmilliy korporatsiyalarning yetakchilik roli sharoitida yuz bermoqda.

Ikkinchidan, integratsiya jarayoni iqqisodiy rivojlanishi darjasи jiddiy ravishda farqlanuvchi, madaniy va ijtimoiy-siyosiy tizimlari turlicha bo'lgan mamlakatlarni qamrab oladi. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligining noyobligi shundaki, unda XX asrning ikki buyuk iqtisodiy davlati – AQSh, Yaponiya va XXI asrning iqtisodiy giganti – Xitoy iqtisodiyoti birlashadi.

Uchinchidan, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi ko'lamidagi integratsiya submintaqaviy ittifoqlarni (ASEAN, NAFTA, Janubiy Tinch okeani forumi va boshqalarni) o'z ichiga oladi;

To‘rtinchidan, OTIX va Osiyo-Tinch okeani mintaqasida Tinch okeani «ochiq» regionalizini mafkurasi mintaqaviy integratsiyani iqtisodiy globalizm elementi sifatida qaraydi. Bunda jahon iqtisodiyoti evolyutsiyasi mintaqaviy iqtisodiy ittifoqlarning astasekin birlashishi va o‘zaro bir-biriga qo‘silish jarayoni sifatida qaraladi. «Ochiq regionalizm» konsepsiysi, shuningdek, Tinch okeani mintaqasi ichida tovarlar, investitsiyalar, ish kuchi harakati cheklanishi olib tashlanishini ham nazarda tutadi, proteksionizmdan voz kechish bo‘yicha majburiyatlar qabul qilinadi, ichki mintaqaviy iqtisodiy aloqalar rag‘batlantiriladi.

Umuman olganda, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida integratsiya munosabatlari rivojlanishining yetukligi hali yuqori darajada emas. Jumladan, ASEAN tizimidagi savdo zonasasi iqtisodiy integratsiya rivojlanishining birinchi bosqichiga, ya’ni savdo tariflari va boshqa notarif cheklashlar olib tashlanadigan erkin savdo zonasiga kiritish mumkin. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatiga nisbatan hozircha erkin savdo zonasasi sifatida emas, balki «ochiq iqtisodiy uyushma» sifatida munosabatda bo‘lish mumkin.

Konseptual jihatdan ASEAN doirasida va uning asosida xalqaro tahliliy markazlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar yordamida hududiy integratsiyaning uchta asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

1. Bozor yo‘nalishi. Bunda o‘zaro savdoda bosqichma-bosqich tariflarni pasaytirish orqali erkin savdo zonasasi tomon harakatlanib, pirovard natijada nisbiy afzalliklar nazariyasiga muvofiq resurslardan samarali foydalangan holda, ASEAN mamlakatlaridan birida ishlab chiqarishni joylashtirish uchun to‘liq erkinlikka erishish maqsad qilib qo‘yilgan.

2. Bozor-institutsiyal yo‘nalishi. Uning asosiy xususiyati – davlatlararo nazoratning ayrim shakllaridan foydalanish bilan bir qatorda savdoning aksariyat yo‘nalishlarini liberallashtirishdan iborat. Bunday strategiya umumhududiy sanoat hamkorligiga, xalqaro darajada ASEANGa a’zo mamlakatlarning rivojlanintirish rejalarini muvofiqlashtirishga, ma’muriy va siyosiy choralar bilan mustahkamlangan hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirishga tayanadi. Ushbu yo‘nalish Indoneziyada ishlab chiqilgan bo‘lib, bu mamlakat rahbariyatining fikricha, integratsion jarayon hamda bozor rejimini yo‘lga qo‘yishdan avval barcha guruh a’zolari

iqtisodiyotlarida industrlashtirish amalga oshirilishi va kompensatsion mexanizmlar ishlab chiqarilishi darkor.

3. Hududiy darajadagi alohida loyihalarni amalga oshirish bo'yicha yo'naliш. Ushbu yondashuv tarafдорлari xo'jalikni majmuaviy boshqarish sxemalariga qarshi chiqadilar. Bundan tashqari, mintaqaviy integratsiyaning agenti va harakatlantiruvchi kuchi bo'lib hisoblangan xususiy sektor imkoniyatlari kengaytirilib, hududiy biznesda asosiy o'rinni egallay oladigan hamda ASENdan tashqaridagi yirik kompaniyalar bilan jiddiy raqobatlasha oladigan yirik transmilliy kompaniyalarning rivojlanishi uchun qulay shartsharoitlar yaratish zarurati e'tirof etiladi.

ASEAN hududida integratsiyani amalga oshirish bo'yicha yagona nazariy yondashuv ishlab chiqilmagan bo'lsada, ushbu hudud mamlakatlari 2020-yilgacha Iqtisodiy hamjamiyat yaratishga yo'naltirilgan mintaqaviy integratsiya doirasida katta yutuqlarni qo'lga kiritishi mumkinligi bashorat qilinmoqda.

Iqtisodiy hamjamiyat asosini OTO hududida yaratilgan Erkin savdo zonasasi tashkil qilib, uning maqsadi ASEAN doirasida tovarlarning erkin harakatlanishi uchun tashqi imtiyozli tarif rejasini yaratishdan iborat. Ushbu Erkin savdo zonasiga a'zo mamlakatlar o'rtasida qabul qilingan bitim asosida faoliyat yuritadi. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu bitim 1992-yili qabul qilingan vaqtida ASEAN oltita a'zo mamlakatdan, ya'ni Bruney, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur va Tailanddan iborat edi, Vietnam 1995-yili, Laos va Myanma 1997-yili, Kambodja 1999-yili mazkur uyushmaga a'zo bo'ldilar.

ASEAN unga a'zo bo'lmagan mamlakatlar bilan ham erkin savdo to'g'risida bitimlar qabul qilishi mumkin. Shunga binoan, hozirga kelib XXR, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Hindiston bilan erkin savdo bitimlari imzolangan⁶⁰. 2010-yilning yanvaridan boshlab Xitoy-Asean erkin savdo zonasasi faoliyat yurita boshladi. Bundan tashqari ASEAN Yevropa Ittifoqi(Yel) bilan ham erkin savdo hududi tashkil etish bo'yicha muzokaralar olib bordi. Shuni ta'kidlash lozimki, Xitoy va Yel ASEANGa a'zo mamlakatlarning asosiy savdo sheriklari bo'lib

⁶⁰ [Http://www.ita.gov.sg/](http://www.ita.gov.sg/)(1.12.2010):85.3

hisoblanadilar. 2000-yillardan boshlab ASEAN OTO mintaqasi doirasida uchta yetakchi savdo va siyosiy sheriklar – Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasi bilan faol hamkorlik qila boshladi. Shu davrning o'zida ASEANga a'zo mamlakatlar, shuningdek Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasi barcha ishtirokchilar manfaatlarini hisobga oladigan muzokaralarni amalga oshirmoqdalar. Ushbu ittifoq «ASEAN+3» deb nomlana boshladi. Hozirda ushbu ittifoqqaga kirgan mamlakatlar o'rtasida hamkorlik iqtisodiyot va moliya, qishloq va o'rmon xo'jaligi, sog'liqni saqlash, atrof muhitni muhofazalash, siyosat, xavfsizlik, fan va texnologiya, turizm, tabiiy ofatlarga qarshi kurash va h.k. qamrab olgan 20dan ortiq sohalarda amalga oshirilmoqda.

2010-yili ASEAN mamlakatlarining «+3» (Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi) davlatlariga yalpi eksporti 225,4 mlrd.AQSh dollariga, importi 254,7 mlrd.dollarga teng bo'ldi. Global moliyaviy inqirozga qaramay, bu ko'satkichlarning o'sishi davom etmoqda.

Aytib o'tilgan mamlakatlar o'rtasidagi savdo hajmining oshishi ularni integratsion jarayonlarni kuchaytirishga rag'batlantiradi. Masalan, Hitoy-ASEAN erkin savdo hududi aholi soni bo'yicha eng yirik hudud hisoblanib, 1,9 mlrd kishini o'z ichiga oladi. Ushbu hudud 5,8 trln.dollarga teng YaMM bilan iqtisodiyotining salohiyati bo'yicha jahonda uchinchi o'rinni egallaydi, Yet va Shimoliy Amerika erkin savdo hududidan (NAFTA) keyin savdoning umumiy hajmi bo'yicha esa uchinchi bo'lib hisoblanadi.

2015-yilda ASEANning eng muhim savdo sheriklari

5.4.1-jadval

Mamlakat-hudud	Umumiy qiymati, mln.doll.			ASEANning umumiy savdosidagi ulushi, %		
	Eksport	Import	Jami	Eksport	Import	Jami
ASEAN	306086	239324	545411	25.8	21.9	24
Xitoy	133981	212392	346374	11.3	19.5	15.2
Evropa Ittifoqi-27	127916	228160	228160	10.8	9.2	10
Yaponiya	114869	124503	124503	9.7	11.4	10.5
AQSh	129468	83348	83348	10.9	7.6	9.3

Koreya Respublikasi	46310	76564	76564	3.9	7	5.4
Gonkong	77270	14263	91533	6.5	1.3	4.0
Avstraliya	33029	18772	51801	2.8	1.7	2.3
Hindiston	39240	19500	58741	3.3	1.8	2.6
Tayvan	33435	61334	94770	2.8	5.6	4.2
BAA						
Savdo sheriklaming birinchi o‘nligi	1041610	950249	1991859	87.9	87.1	87.5
Boshqa mamlakatlar	143625	140955	284580	12.1	12.9	12.5
Jami	1185235	1091204	2276440	100	100	100

Manba: Top ten ASEAN trade partner countries/regions, 2015. ASEAN Statistics.

Shuni ta’kidlash lozimki, Xitoy-ASEAN erkin savdo hududi ikki yoqlama katta foyda keltirish bilan birga, Sharqiy Osiyo iqtisodiyotining rivojlanishiga, mamlakatlar o‘rtasida madaniy aloqalar va hamkorlikning mustahkamlanishiga yordam beradi.

2010-yili Hitoyda ASEAN mamlakatlari tovarlariga bojaxona bojlarining o‘rtacha stavkalari 9,8%dan 0,1%gacha pasaytirildi, ASEANning olti mamlakatlari (Brunei, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur va Tailand) tomonidan xitoy tovarlariga nisbatan kiritilgan bojaxona bojlarining o‘rtacha stavkalari 12,8dan 0,6%ga pasaytirildi. 2015-yil davomida, Xitoy va ASEANning yangi a’zolari (Vietnam, Laos, Kambodja va M’yanma) bilan o‘zaro savdodagi mahsulotning 90%ga bojlar bekor qilinadi⁶¹.

Xitoy-ASEAN erkin savdo hududi rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi erkin savdo hududlarining Yel va Shimoliy Amerika erkin savdo hududidan (NAFTA) farqlanadigan yangi modeliga aylandi. Birinchidan, ushbu hudud Shimoliy Amerika hududiga o‘xshab bir vaqtda emas, ma’lum davr mobaynida tashkil etilgan. Ikkinchidan, a’zo mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlar

⁶¹ Создание зоны свободной торговли Китай - АСЕАН – образец взаимовыгодного и взаимовыигрышного регионального сотрудничества. URL: <http://Russian.people.com.cn/95181/6857733.html> (3/04/2011).

bo‘lishiga qaramay, ular JST me’yorlari va qoidalariga rioya qiladilar. Erkin savdo hududi ishtirokchilari boshqa mamlakatlar uchun savdo to’siqlarini yaratmaydilar. Uchinchidan, hamkorlik hududning barcha mamlakatlariga ham birday foydali bo‘lishi uchun rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlar taraqqiyoti pastroq sheriklariga yordam berishlari ko‘zda tutilgan.

2010-yilga kelib Xitoy-ASEAN erkin savdo hududi mamlakatlari o‘rtasidagi savdo aylanmasi 160 mlrd dollardan oshib ketdi.

2010-yili Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasining ASEAN mamlakatlari bilan tovar aylanmasi, mln.AQSh doll.

5.4.2-jadval

Mamlakatlar	Xitoy		Yaponiya		Koreya Respublikasi	
	Eksport	Import	Eksport	Import	Eksport	Import
Bruney	140	282	162	3320	62	1237
Vietnam	16303	4741	6518	6959	6828	1782
Indoneziya	14744	13538	9334	21817	7435	7884
Kambodja	905	36	112	143	190	10
Laos	376	337	76	27	47	46
Malayziya	19636	32224	12863	16732	4691	7407
Myanma	2279	646	202	340	213	102
Singapur	25964	26357	18758	12305	14061	12570
Tailand	13326	24846	22259	16029	4986	2090
Filippin	8591	11936	8234	6401	3822	2538
JAMI	102264	114943	78518	84073	42315	38666

Manba: Direction of Trade Statistics International Monetary Fund. September 2011. P.214-215.

ASEAN va Yaponiya o‘rtasida ham savdo - iqtisodiy hamkorlik tobora kengayib va chuqurlashib bormoqda. 2010-yili ikki yoqlama savdo aylanmasi 162,6 mlrd.dollarga yetdi. ASEAN bilan tashqi

savdo aylanmasi bo'yicha Yaponiya Xitoy va AQShdan keyin uchinchi o'rinni egallaydi.

2008-yili Yaponiya va ASEAN o'rtasida ko'p yoqlama hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. Ushbu bitim tovarlar va xizmatlar savdosi hamda investitsiya faoliyati hamda iqtisodiy hamkorlikni tartibga solish masalalarini qamrab olgan. Bitim mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishiga, hududda katta imkoniyatlarga ega samarali bozor yaratilishiga yordam beradi.

2008-yildan boshlab Yaponiya ASEAN mamlakatlaridan import qilinayotgan tovarlarning 93%ga bojxona bojlarini bekor qildi. O'z navbatida, ASEANga a'zo oltita mamlakat (Bruney, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur va Tailand) import qilinayotgan tovarlarning 90%ga, shu jumladan avtomobilgarga bojxona bojlarini bekor qildilar. Bundan tashqari Yaponiya Assotsiatsiya mamlakatlari uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmining ikkinchi manbai bo'lib hisoblanadi.

ASEAN mamlakatlarining yana bir yirik partneri Koreya Respublikasi bilan ham o'zaro foydali savdo-iqtisodiy shartnomalar imzolangan. Koreya Respublikasi va ASEAN o'rtasida savdo muntazam ravishda oshib bormoqdaki, masalan uning hajmi 2005-yildagi 59,2 mlrd.dollardan 2010-yilda 79,9 mlrd.dollarga yetdi.

Koreya Respublikasi va ASEAN mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar mustahkalanib, tezkor suratlarda o'sib bormoqda.

Koreya Respublikasi ASEAN bilan 1989-yildan beri hamkorlik o'rnatgan, uning asosini «ASEAN-Koreya» hamkorlikdaga qo'mita tashkil qiladi. Koreya Kuala-Lumpurda 1991-yilda bo'lib o'tgan ASEAN tashqi ishlar vazirlarining 4-uehrashuvida teng huquqli partner maqomini oldi. ASEAN Bosh Kotibi va Koreya Respublikasi tashqi ishlar vaziri darajasidagi muzokaralar doimiy ravishda olib boriladigan bo'ldi.

2009-yili Koreya Respublikasi va ASEAN o'rtasida investitsion erkin savdo zonasini yaratish to'g'risida bitim imzolandi⁶². Ushbu bitim investitsiya oqimlarining rivojlanishiga hamda ASEAN va

⁶² Южная Корея и АСЕАН подписали соглашение о взаимных инвестициях. URL: <http://Russian.people.com.cn/31618/66701.html> (3/04/2011).

Janubiy Koreya doirasida shaffof va raqobatbardosh investitsiya muhitining yaratilishiga yordam beradi. Shartnomaga quyidagi asosiy moddalar kiritilgan:

- investitsiya rejimini bosqichma-bosqich liberallashtirish;
- investorlar va investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- o‘zaro manfaatli hamkorlikni o‘rnatishga ko‘maklashish;
- ASEAN va Janubiy Koreya o‘rtasida investitsiya oqimini rag‘batlantirish;
- investitsiya qoidalarining shaffofligini ta’minlash;
- investitsiyalar kafolatini ta’minlash.

Shuni ta’kidlash lozimki, ASEAN va Janubiy Koreya o‘rtasidagi hamkorlik savdo bitimlari bilan cheklanmaydi, u hududda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashga ham yo‘naltirilgan. Aynan shuning uchun Koreya Respublikasi ASEANning Janubiy-Sharqiy Osiyoda yadro quroldan xoli bo‘lgan, tinchlik, ozodlik va aralashmaslik tamoyillariga asoslangan hudud yaratish bo‘yicha barcha xatti-harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Terrorizm muammosini hal etish uchun ASEAN va Janubiy Koreya bilan birqalikda xalqaro terrorizm bilan kurashda hamkorlik qilish to‘g‘risida deklaratsiya imzolangan.

Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati doirasida integratsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari yaqin-yillarda uch yo‘nalishda bo‘lishi mumkinligi e’tirof etilmoqda.

Birinchi yo‘nalish – Osiyo-Tinch okeani iqqisodiy hamjamiyatini rivojlantirish Bagordagi (1994-yil Indoneziya) kengashda qabul qilingan ssenariy bo‘yicha amalga oshiriladi. Unga muvofiq erkin savdo zonasini tashkil etiladi va 2020-yilda (sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun ilgariroq muddatda) investitsiyalar harakati sohasi erkinlashtiriladi. Bojaxona tariflarini pasaytirish GATT/JST doirasida erishilgan bitimlarga muvofiq yuz beradi.

Ikkinchi yo‘nalish – mutaxassislarning fikricha, eng ehtimoli yuqori variant Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati uchun mintaqada savdo muammolarini muhokama qilish forumi rolini mustahkamlaydi. Bu holda mavjud kelishuvlarni bajarishning ijrosi munosabati bilan nizolar kelib chiqishi shubhasizdir. Ushbu holatlar tashkilot ishining kuchsizdanishiga olib keladi. Bunday sharoitlarda

boshqa integratsiyalashgan mintaqaviy guruhlarning roli oshadi, chunki submintaqalarda va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi guruhlaridaga ayrim mamlakatlarning integratsiyalashuv darajasi nisbatan yuqori bo'lib, mintaqada integratsiya jarayonlari jadal rivojlani-shining o'ziga xos «lokomativ»lari bo'lishi mumkin. Jumladan, «o'sish uchburchagi» – Janubiy Xitoy iqtisodiy zonası (Xitoy, Gonkong, Tayvan), «o'sish oltin uchburchagi» (Indoneziya, Malayziya, Singapur), Yapon dengizi havzası mamlakatlari iqtisodiy zonası, Hindi-Xitoy iqtisodiy zonası ular asosini tashkil etadi.

Uchinchi yo'naliш – AQSh va Yelda proteksionistik kayfiyatlar ustunlik qilishini istisno etmaydi, bu jahon savdosining jadal sur'atlarda erkinlashishiga to'sqinlik qilishi va Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatida integratsiya jarayonlari miqyosi Osiyo mamlakatlari bilan cheklashi mumkin.

Umuman OTO mintaqasida integratsiya jarayonlarining rivojlanish istiqboli masalasi so'nggi-yillarda AQSh ishtirokida Osiyoning yetakchi davlatlari bilan o'tkazilayotgan Sharqiy Osiyo sammitining asosiy mavzusi bo'lib qolmoqda. Unda yaqin kelajakda Osiyo hududida yaratilishi rejalashtirayotgan ikkita integratsion birlashmalar hususida gap bormoqda. Ularning birincisi – AQSh tomonidan ilgari surilayotgan TRANS Tinch Okean sherkchiligi (TTP) tashkiloti bo'lib, u erkin iqtisodiy hudud varatish yo'li bilan tovarlar va xizmatlar savdosidagi cheklovarni butunlay olib tashlashni kafolatlashga qaratilgan. Unga raqobatchi tashkilot – Mintaqaviy Umumqamrovli Iqtisodiy Sherikchilik birlashmasi (Regional Comprehensive Economic Partnership, RCEP) deb ataladi va uni ASEAN mamlakatlarigina enas, balki birlashmaning sinalgan sheriklari bo'lgan Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi (ya'ni ASEAN+3) bilan birgalikda Hindiston, Avstraliya va Yangi Zelandiya davlatlari kirgan «oltilik» (ASEAN+6) ham qo'llamoqda. Yangi birlashma Xitoy yetakchiligidagi Sharqiy Osiyo mamlakatlari sammiti doirasida 2012-yilning yakunida shakllana boshlandi. Muzokalaraning birinchi ikki raundi 2013-yilning may va sentabr oylarida bo'lib o'tdi. 2014-yilning 27 sentyabrida yakunlangan oxirgi raundda muzokalaralarni 2015-yilda ugatishga qaror qilindi.

RCEP tashkilotining yaratilishi hozirda mavjud bo'lmagan tovar kelib chiqishini baholashning yagona qoidalarini ishlab

chiqishni ko'zda tutadi. Bunday qoidalarning mavjud emasligi kichik va o'rta biznes subyektlarining erkin savdo hududi to'g'risidagi bitimlardan foydalanish samaradorligini pasaytirishga olib keladi, chunki bu biznes hujjatlarini savdo qoidalariiga muvofiqlashtirishni talab qilib, ularga sarflanadigan xarajatlarning oshishiga olib keladi. Hozirgi paytda ASEANning «oltilik»ka kirgan har bir mamlakat bilan savdo bitimi tarkibiga tovar kelib chiqishini baholash uchun o'zaro moslashtirilishi kerak bo'lган 4 ta asosiy qoida kiritilgan. Bundan tashqari, har-yili savdo bitimlari doirasida tariflar o'zgartiriladi, shu tufayli firmalar eng past tariflardan foydalanishni ko'zlagan holda doimiy monitoring o'tkazishga majbur bo'lmoqdalar (bunda tovar kelib chiqish qoidalariiga qarab bojxona bojlari stavkalari e'tiborga olinadi). Agarda mintaqada 109 dan ortiq turli erkin savdo zonalari mavjud ekanligi e'tiborga olinsa, bu holat Osiyo-Tinch Okeani hududidagi savdoni juda murakkablashtiradi. Bu esa uncha katta bo'Imagan firmalarni savdoda imtiyozlarga ega bo'lish uchun har bir hududning huquqiy meyorlarini o'rghanishda vaqt va mablag' sarflashga majbur qilmoqda. Aynan shu masalani hal etish uchun RCEP tashkiloti yaratilmoqdaki, yagona qoidaga asoslangan bitimning tuzilishi kichik biznesga qo'shimcha foyda olish imkonini beradi.

Xotima o'mida shuni takidlash lozimki, jahon xo'jaligi global-lashuvining zamnaviy bosqichida dunyoning eng jo'shqin rivojlanayotgan Osiyo-Tinch okeani mintaqasida kechayotgan integratsiya jarayonlari xususiyatlari va istiqbolini to'g'ri baholagan holda yondashuv O'zbekistonga xalqaro kreditlar olishda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni keng ko'lamli jalb qilishda, milliy mahsulotlarni jahon bozoriga chiqarishda katta yordam beradi.

Tayanch iboralar: OTOIH, Manila dasturi, ASEAN, ASEAN+3.

Nazorat savollari:

1. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi (OTOM)da dastlabki mintaqaviy hukumatlararo iqtisodiy tashkilot – «Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi» Forumi – OTOIH (Asia Pacific Economic

Cooperation Forum – APEC) ning tashkil topishi, uning maqsad va vazifalari nimadan iborat. Qisqacha mazmunini yoritib bering.

2. Manila dasturi: asosiy qoidalar va ularning OTOIH doirasidagi o‘zaro integratsion munosabatlarni chuqurlashtirishdagi roli.

3. OTOIHda savdo va investitsion erkinlashtirish: amalgaloshish yo‘nalishlari va murakkabliklari hamda natijalarini qisqacha yoritib bering.

VI BOB. MDH MIQYOSIDA INTEGRATSION RIVOJLANISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI. O'ZBEKISTONNING INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA ISHTIROKI YO'NALISHLARI

6.1 MDH mamlakatlarining jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvining chuqurlashuvi mamlakatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga, bir hududda joylashgan mamlakatlar o'rtasida integratsion aloqalarning faollashuviga olib kelmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, hududiy integratsiya tashkilotlariga a'zo mamlakatlarning globallashuv sharoitlariga moslashishi, xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan foydalanishi samarali tarzda kechmoqda. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi turli xalqaro va hududiy integratsion tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish orqali mamlakatimizda mavjud tabiiy-iqtisodiy, mehnat va moliyaviy resurslardan, xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan samarali foydalanishga, jahon xo'jalik tizimida o'ziga xos o'rin egallahsga harakat qilmoqda.

Mustaqillik-yillarida O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Markaziy Osiyo hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro va hududiy integratsiya tashkilotlariga a'zo bo'lib kirdi. Bu esa respublikamiz uchun dolzarb hisoblangan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Sobiq Ittifoq davrida MDH respublikalari iqtisodiyotlari yuqori darajada intgeratsiyalashgan, ko'p-yillik tarixiy rivojlanish davomida respublikalar o'rtasida mustahkam hamkorlik munosabatlari shakllangan edi. Bugungi kunda ham mamlakatlar iqtisodiyoti asosiy va yetakchi tarmoqlarining o'xshashligi, ularning yaxlit hududiy birlikka ega ekanligi, suv va energetika manbalarining yagonaligi va ulardan bирgalikda foydalanish zaruriyati, yagona transport va kommunikatsiya tizimining mavjudligi, ekologik

muammolarning bir xilligi MDH respublikalari o'ttasidagi iqtisodiy aloqalarning doimiy bo'lishini ta'minlaydi. Hozirgi paytga kelib mustaqillikni mustahkamlash, iqtisodiyotga bozor munosabatlarini joriy qilish va jahon xo'jalik tizimida o'z o'mini egallash g'oyalari MDH mamlakatlarining iqtisodiy, ma'naviy va intellektual salohiyatlarini birlashtirishni taqozo qilmoqda.

Sobiq Ittifoq davrida MDH mamlakatlari iqtisodiyoti o'zaro kuchli bog'liqligi bilan tavsiflanar edi. Chunonchi, 1990-yilda respublikalararo tovar aylanmasi sobiq Ittifoq yalpi ichki mahsulotining 20 foizini tashkil etgan bo'lsa, Yevropa Ittifoqida bu ko'rsatkich 14 foizga teng bo'lган, xolos⁶³. Sobiq Ittifoqning ayrim respublikalari, xususan, Rossiya, Ukraina, Belorus, Boltiqbo'y respublikalaridan respublika hududida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 80 foizdan ziyodrog'i boshqa ittifoqdosh respublikalarga olib chiqilar edi.

1991-yilning dekabr oyida Belarus, Ukraina va Rossiya Federatsiyasi davlat rahbarlari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini barpo etish to'g'risidagi bitimni imzoladilar. Bu bitimda Sobiq Ittifoqning xalqaro huquq va geosiyosiy tizim sifatida barham topganligi va MDH tashkil topganligi e'lon qilindi. Belarus, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston va Ukraina MDHga a'zo bo'lib kirdilar. 1992-yilda Armaniston, Moldova Qirg'iziston va O'zbekiston, 1993-yilda Ozarbayjon va Gruziya*) MDHga a'zo bo'ldilar.

MDH faoliyatining dastlabki bosqichida (1991-1994-yillarda) MDHga a'zo mamlakatlar iqtisodiy siyosatida milliy manfaatlar ustuvor o'runga ega bo'ldi. Siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgan respublikalar bir vaqtning o'zida ikkita muhim vazifani hal etishlari lozim edi. Birinchidan, iqtisodiyotni bozor munosabatlari asosiga ko'chirish, ikkinchidan, milliy iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish. Bu vazifalarni bajarish yirik kapital mablag'larni talab qilish bilan birga kishilar ongida bozor ruhiyatini shakllantirishni, eski samarasiz aloqalardan voz kechishni, yangi iqtisodiy aloqalarni esa bozor munosabatlari asosida tashkil etishni

⁶³ Вашаков В.А. Россия-СНГ: экономические отношения. М.: Изд. дом «АЛГО», 2002. – с.5

*) So'nggi yillarda (2010-2015 yillar) jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar natijasida Gruziya Hamdo'stlik a'zolari safidan chiqqanligini ta'kidlash joizdir.

taqozo etar edi. Buning natijasida MDH respublikalari o'rtasida o'zaro tashqi savdo aloqalari sezilarli darajada zaiflashdi, MDH mamlakatlarining aksariyati uzoq xorij mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga ustuvorlik berdilar. Ekspertlar fikricha, Sobiq Ittifoq respublikalari o'rtasidagi xo'jalik aloqalarining buzilishi natijasida pirovard mahsulot ishlab chiqarish hajmi 35-40 foizga kamaydi.

MDH doirasida qabul qilingan dastlabki eng muhim hujjat Iqtisodiy ittifoq to'g'risidagi Shartnoma hisoblanadi (1993-yil sentabr). Mazkur hujjatda iqtisodiy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishning asosiy bosqichlari belgilab berildi:

- davlatlararo (ko'p tomonlama) erkin savdo uyushmasi;
- bojxona ittifoqi;
- tovarlar, xizmatlar, kapitallar va ishchi kuchi umumiyl bozori;
- valyuta (pul) ittifoqi.

1994-yilning aprelda erkin savdo zonasasi, 1994-yilning oktyabrida to'lov ittifoqi va Iqtisodiy ittifoqning doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organi sifatida Davlatlararo iqtisodiy qo'mita (DIQ) tashkil etish to'g'risidagi bitim imzolandi.

Uzoq tarixiy rivojlanish mobaynida yuzaga kelgan chuqur integratsion aloqalar, ishlab chiqarishning mamlakatlar bo'yicha ixtisoslashuvi, korxona va tarmoqlar darajasidagi keng tarmoqli kooperatsiya, umumiyl infratuzilmaning majudligi MDH tashkil topishining obyektiv asosi hisoblanadi.

MDH ulkan tabiiy, mehnat va iqtisodiy salohiyatga ega bo'lib, ular uyushmaga a'zo mamlakatlarga yirik raqobat afzalliklarini taqdim etadi va jahon iqtisodiyotida munosib o'rinn egallashga imkoniyat yaratadi. Yer shari hududining 16,3 foizi, jahon aholisining 5 foizi, jahon sanoat ishlab chiqarishining 10 foizi MDH hissasiga to'g'ri keladi. Hamdo'stlik hududida jahon bozorida talab yuqori hisoblangan tabiiy resurslarning yirik zaxiralari mavjud. Faqat Rossiyada aniqlangan neft zaxiralari jahon neft zaxiralarining 13 foizini tashkil etadi. Ozarbayjonda bu ko'rsatkich 10 foizdan ko'proqqa, Qozog'iston va Turkmanistonda qariyb 10 foizga teng. Rossiyada jahon gaz zaxiralarining 35 foizi joylashgan bo'lsa, Ozarbayjon, Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekistonda birgalikda qariyb 20 foiz gaz zaxiralarini joylashgan. Shuni alohida

ta'kidlash lozimki, bu ko'rsatkichlar nisbiy bo'lib, ba'zi manbalarda MDH mamlakatlarining neft va gaz zaxiralariga yanada boy ekanligi e'tirof etiladi. Ekspertlar fikriga ko'ra, Qozog'istonda neft zaxiralari 1-1,7 trln barrelni, yoki jahon neft zaxiralarining 2 foizini tashkil etadi. Boshqa bir ma'lumotlarga ko'ra, birgina Markaziy Osiyoning butun neft-gaz zaxiralarining qiymati 3 trln AQSh dollaridan iborat. Agar bunga Kaspiyning qo'shni rayonlarini ham qo'shib hisoblasak, astronomik ko'rsatkichlarga ega bo'lamiz. Kaspiy dengizida tabiiy gazning umumiylari zaxirasi 1,4 trln kub m ni, aniqlangan neft zaxiralarini 0,7-1 trln tonnani tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, neft va gazning umumiylari zaxirasi bo'yicha MDH mamlakatlari Fors ko'rfazidan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi.

Shu sababli ko'plab xorijlik mutaxassislar fikricha, dunyoda yangi siyosiy va iqtisodiy tartib faol shakllanib borayotgan sharoitda jahondagi kuchlar nisbati ko'p jihatdan yangi mustaqil davlatlar qanday yo'lni tanlashlariga bog'liq.

Toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir ishlab chiqarish bo'yicha Rossiya, Ukraina va Qozog'iston jahonda ikkinchi o'rinni egallaydi. Olmos, boksit, mis, nikel, kobalt va qo'rg'oshin rudalarining asosiy zaxiralari Rossiyada joylashgan bo'lsa, temir rudalari, boksitlar va mis rudalarining yirik zaxiralari Ukraina, Qozog'iston va Gruziyada joylashgan.

Oltin zaxiralari bo'yicha Rossiya va O'zbekiston yetakchi o'rirlarda bo'lib, O'zbekistondagi oltinning jami zaxirasi 40 dan ortiq konlarda 4 ming tonnaga teng. Respublika oltin ishlab chiqarishning umumiylari hajmi bo'yicha dunyoda 7-o'rinni, oltin zaxiralari bo'yicha dunyoda 4-o'rinni, MDHda Rossiyadan keyin 2-o'rinni, kishi boshiga ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 5-o'rinni, MDHda 1-o'rinni egallaydi. Shuningdek, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda ham oltin konlari mavjud. MDHda boshqa qimmatbaho metallar - platina (Rossiya, Qozog'iston va O'zbekiston) va kumushning (Rossiya, Tojikiston va O'zbekiston) ham yirik zaxiralari bor.

Qozog'istonda dunyodagi barcha uran zaxiralarining 10 foizi joylashgan. O'zbekiston bu ko'rsatkich bo'yicha jahonda 7-8 o'rinda turadi. Tojikistondagi uran zaxiralari ularga nisbatan birmuncha kamroq.

Kimyo sanoatini rivojlantirish uchun lozim bo‘lgan qazilma boyliklar xilma-xil. Fosforitning asosiy zaxirasi Qozog‘iston hududida joylashgan. Rossiya va Belarusda eng yirik o‘rmon hududlari (yer sharidagi o‘rmonlarning to‘rtidan bir qismi) va kaliy tuzining eng yirik zaxiralari mavjud⁶⁴.

Yevropa va Janubiy-Sharqiy Osiyoni tutashtiruvchi eng qisqa quruqlik va dengiz (Shimoliy Muz okeani orqali) yo‘li MDH hududidan o‘tib, u XXI asrda eng muhim global iqtisodiy markazga aylanadi.

MDHning raqobatbardosh resurslari jumlasiga, shuningdek, arzon ishchi kuchi va energiya resurslarini kiritish mumkin. MDH bo‘yicha har-yili jahon elektr quvvatining 10 foizi ishlab chiqariladi va iqtisodiy o‘sish uchun muhim shart-sharoit bo‘lib xizmat qiladi.

MDHga a’zo mamlakatlar iqtisodiy integratsiyasining strategik maqsadlari bo‘lib xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash uchun ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va kooperatsiyasini rivojlantirish, Hamdo‘stlikka kiruvchi barcha mamlakatlar aholisi turmush farovonligini yaxshilash hisoblanadi.

MDH doirasida qabul qilingan bitimlar va shartnomalarning muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilinmoqda:

- integratsion aloqalarni rivojlantirish ixtiyorilik asosida va ham ikkiyoqlama, ham ko‘p tomonlama shartnomalardan foydalanish yordamida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoxda;
- hududiy integratsiya o‘zaro manfaatdorlikka asoslanmoqda va hamkor davlatlarga ziyon yetkazmaslikka alohida e’tibor qaratilmoqda;
- zaruriyat tug‘ilganda MDH qatnashchilariga ularning mas’uliyati ostida va aniq iqtisodiy natijalarni ko‘zda tutib jamoaviy yordam ko‘rsatilmoqda;
- hamkor mamlakatlardagi iqtisodiy islohotlar rag‘batlanmoqda va ularga har tomonlama yordam ko‘rsatilmoqda;
- mamlakatlararo munosabatlarda bozor subyektlari orasidagi gorizontal aloqalarga ustivorlik berilmoqda, mikrodarajadagi integ-

⁶⁴ Коинк Л.П., Кохно П.А. СНГ: реалии и перспективы. М : Изд. дом «Юрид. мир ВК», 2001. – с.52

ratsion aloqalarni, iqtisodiy hamkorlikning yangi-yangi shakllarini keng ko‘lamda rivojlantirish ko‘zda tutilmoqda.

Garchi MDH doirasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish sohasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, MDH mamlakatlari iqtisodiyotlarining integratsiyalashuvi past darajada saqlanib qolmoqda.

MDH mamlakatlari eksport-import operatsiyalari tarkibi, %

6.1.1-jadval

Davlatlar	MDH mamlakatlarining mazkur mamlakat bilan eksportdagi ulushi				MDH mamlakatlarining mazkur mamlakat bilan importdagi ulushi			
	1995	2007	2013	2014	1995	2007	2013	2014
Ozarbayjon	45	11	6	4	34	30	24	23
Armaniston	63	19	27	23	50	31	30	31
Belorus	63	55	62	59	66	69	59	60
Gruziya	62	49	-	-	40	39	-	-
Qozog‘iston	55	23	13	14	70	46	46	42
Qirg‘iziston	66	35	50	47	68	55	49	48
Moldova	63	54,5	38	31	68	39	30	27
Rossiya	19	15	14	13	29	22	12	11
Tojikiston	34	24,5	20	26	59	76	48	50
Turkmaniston	49	26	-	-	55	47	-	-
O‘zbekiston	34,5	26	-	-	43,5	40,0	-	-
Ukraina	53	29	35	28	65	53	36	32

Manba: Sodrujestvo Nezavisimix Gosudarstv i strani mira. M.: Statkomitet SNG, <http://www.cisstat.org>

Sobiq Ittifoqda respublikalararo tovar aylanmasi ittifoqdosh respublikalar jami tashqi savdo aylanmasining 69 foizini, Yevropa Ittifoqida unga a’zo mamlakatlar o‘zaro tashqi savdo aylanmasining jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 62 foizni tashkil etsa, MDHda bu ko‘rsatkich 28 foizga teng, xolos.

MDHga a’zo alohida mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatlari turlichay. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha Rossiya alohida o‘ringa ega. MDH aholisining yarmidan ko‘prog‘i, hududining 77,2 foizi,

YalIMning 70,1 foizi va sanoat mahsulotining 61,4 foizi Rossiya hissasiga to‘g‘ri keladi. Iqtisodiy salohiyat bo‘yicha keyingi o‘rinda Ukraina turadi. MDH hududining 2,7 foizi, aholisining 17,1 foizi, YalIMning 14 foizi va sanoat mahsulotining 17,8 foizi mazkur respublika hissasiga to‘g‘ri keladi.

MDH mamlakatlari orasida O‘zbekistonning hissasi birmuncha pastligi bilan ajralib turadi. Xususan, MDH aholisining 9 foizi, hududining 2 foizini egallagan holda O‘zbekistonning MDH yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2,5 foizni, yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi 2 foizni tashkil etadi, xolos. Bu esa hamdo‘stlik doirasida respublikamizning mavjud iqtisodiy salohiyatidan yetarli darajada foydalanimayotganligidan dalolat beradi.

Alohida ko'rsatkichlar bo'yicha MDH respublikalarining salmog'i (%)
6.1.2 jadval.

Mamlakat	Hududi	Aholi	YalIM				Eksport (YalIMga nisbatan % da)				Import (YalIMga nisbatan % da)			
			1991	2007	2014	1991	2007	2014	1990	2007	2014	1990	2007	2014
MDH bo'yicha	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Belarus	1,0	3,7	3,6	3,4	4,1	3,2	4,2	4,6	70	18,7	44	74	74	19,9
Rossiya	77,2	52,6	52,1	50,9	67,7	70,1	70,4	18	35	14,9	18	24	24	8,5
Ukraina	2,7	18,4	17,1	16,0	14,5	14,0	9,3	28	56	12,4	29	52	52	12,2
Oozog'iston	12,3	5,9	5,4	6,1	4,2	5,0	6,7	-	47	25	-	46	46	12,4
Ozarbayjon	0,4	2,6	3,0	3,4	1,3	1,5	2,8	44	44	16,8	39	51	51	6,3
Armaniston	0,1	1,2	1,2	1,1	0,8	0,6	0,6	35	30	5,4	46	47	47	15
Gruziya*	0,3	1,9	1,5	-	0,9	0,7	-	40	27	-	46	39	-	-
Qirg'iziston	0,9	1,6	1,8	2,1	0,9	0,5	0,4	29	39	7,6	50	43	43	27,2
Moldova	0,2	1,6	1,3	1,8	1,3	0,4	0,3	49	54	12,9	51	79	79	28,7
Tojikiston	0,7	1,9	2,4	2,9	0,6	0,4	0,5	28	58	3,6	35	72	72	18,2
Turkmaniston	2,2	1,3	1,7	-	0,7	1,2	1,5	-	47	30,7	-	47	47	22,3
O'zbekiston	2,0	7,3	9,0	10,6	3,0	2,5	3,1	29	38	13,2	48	34	34	11,2

Manba: Sodruzhestvo Nezavisimix Gosudarstv i strani mira. M.: Statkomitet SNG, 2014; <http://www.cisstat.org>

Shunday qilib, MDH mamlakatlarining jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni va roli to‘g‘risidagi mulohazalarni umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash lozimki, bugungi kunda MDH mamlakatlari mineral xomashyo va yoqilg‘i-energetika resurslari zaxiralari bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinlarni egallaganlari holda jahon tayyor mahsulotlar bozorida o‘zlariga munosib mavqega ega emaslar. Bu esa iqtisodiyotga bozor munosabatlarini joriy etgan holda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni, jahon xo‘jalik tizimiga integratsiyalashish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni mantiqiy yakuniga yetkazishni talab qiladi. Bu chora-tadbirlarning muvaffaqiyati esa ko‘p jihatdan MDH doirasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga, MDH hududida yagona iqtisodiy makon barpo etishga, mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirishga bog‘liq.

6.2 MDH doirasidagi integratsion munosabatlar muammolari va istiqbollari

MDH doirasida savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha davlatlar mustaqillikni qo‘lga kiritgan dastlabki-yillardanoq juda ko‘p iliq fikrlar aytilgan, davlatlar rahbarlari tomonidan yetarlicha maqsadga muvofiq bitimlar, kelishuvlar imzolangan bo‘lsa-da, amalda bu jarayonlar oqimi juda sust amalga oshmoqda. MDH respublikalari orasidagi iqtisodiy munosabatlarda dezintegratsion jarayonlar ustun o‘ringa ega bo‘lmoqda. Mamlakatlararo tovar almashinuv hajmining qisqarishi, respublikalar yalpi ichki mahsulot hajmida o‘zaro savdo almashinuv hissasining pasayishi fikrimiz dalilidir.

Nima uchun MDHda dezintegratsiya jarayonlari bugungi kunga qadar davom etmoqda?

Eng avvalo shuni ta’kidlash joizki, ko‘p adabiyotlarda MDH doirasida savdo-iqtisodiy munosabatlar va iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omillar siyosiy sohadan izlanadi. Ba’zi adabiyotlarda integratsiya jarayonlarining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy sabab sifatida mustaqillik eyforiyasi, yangidan qo‘lga kiritilan mustaqillikni qo‘ldan boy

berishdan cho'chigan davlat rahbarlarining pessimistik kayfiyati keltirilsa, ba'zilarida hal qiluvchi sabab sifatida boshqa davlatlarning, xususan, AQShning ta'siri ko'rsatiladi. Bunday mulohazalarda qandaydir ma'noda jon bo'lishi mumkin. Biroq asosiy sabab – bu emas.

Milliy xo'jaliklar integratsiyasi – bu eng avvalo o'zining ichki qonuniyatlari asosida rivojlanadigan iqtisodiy jarayondir. A'zo davlatlarning siyosiy chora-tadbirlari qanchalik muhim bo'lmasin, ular hal qiluvchi emas. Bunday chora-tadbirlar integratsiya jarayonlarini yengillashtirishi yoki og'irlashtirishi, tezlashtirishi yoki sekinlash-tirishi mumkin. Ammo ular shart-sharoit, asos bo'limgan joyda jarayon hosil qila olmaydi. Shu sababli iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni iqtisodiy sohadan izlash lozim.

Ma'lumki, milliy xo'jaliklarning integratsiyalashuvi bozor munosabatlari va erkin tadbirkorlik asosida rivojlanayotgan mamlakatlar orasida yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, integratsiya eng avvalo sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo korxonalarining, banklarning va boshqa xo'jalik subyektlarining bevosita o'zaro aloqalarini yo'lga qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladi. Faqat mana shunday chuqur bog'liqlik ularni asta-sekin hududiy miqyosdagi yirik ijtimoiy-iqtisodiy organizmlarga aylantiradi. Bu esa nafaqat har bir a'zo mamlakatga iqtisodiy jihatdan manfaat keltiradi, balki mamlakatlar o'rtaida iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuviga ham mustahkam poydevor yaratadi va ularni sifat jihatdan yangi darajaga ko'taradi. Bozor munosabatlariga zid, ma'muriy-buyruqbozlik asosida shakllangan iqtisodiy aloqalar esa halokatga mahkum bo'ladi. Bunga yaqqol misol - O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashidir.

Ma'lumki, u hukumatlararo kelishilgan tovarlar ro'yxatiga ko'ra mamlakatlarning bir-biriga tovar yetkazib berishi asosida faoliyat ko'rsatar edi va ko'proq harbiy-siyosiy manfaatlardan kelib chiqqan holda tuzilgan edi. Shu sababdan bu iqtisodiy blok birinchi turkidayoq halokatga mahkum bo'ldi. Shu munosabat bilan MDH respublikalarining barchasi bozor iqtisodiyoti asosida rivojlanish yo'liga o'tmas ekan ular orasidagi integratsion aloqalar rivojlanmaydi. Hozirgi kunda bozor munosabatlariga o'tish jarayoni

mintaqaning har bir mamlakatida har xil sur'atlarda amalga oshmoqda. Jumladan, MDHning ba'zi davlatlarida yalpi ichki mahsulotning katta qismi nodavlat sektorlari tomonidan yaratilayotgan bo'lsa, ba'zilarida davlat sektorining ulushi hali ham yuqori.

Jahon tajribasidan ma'lumki, yuqori darajada sanoatlashgan va diversifikatsiyalashgan milliy xo'jaliklarga integratsiyalashuvi mumkin. Bunday mamlakatlar ham ishlab chiqarish, ham iste'mol uchun mo'ljallangan turli xil ko'rinishga ega bir xil turdag'i yuzlab tayyor mahsulotlarni o'zaro ayirboshlab, bir-birlarini o'zaro to'ldiradilar. Faqat ana shunda xalqaro miqyosdagi tadbirkorlik biznesni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil bo'la oladi. MDH mamlakatlarining aksariyati esa agrar-industrial xarakterga ega iqtisodiyot tizimiga ega. Bu eng avvalo respublikalarning Ittifoq mehnat taqsimotida xom ashyo yetkazib beruvchi baza sifatida shakllanganligi bilan bog'liq. Ittifoqdan meros bo'lib qolgan bu tizim hozirgi kunda ham qishloq xo'jalik va mineral xom ashyo resurslarini qayta ishslash va undan foydalanishda ichki mintaqaviy kooperatsiyaning past darajasini va umuman ichki mintaqaviy savdo-iqtisodiy munosabatlarning nisbatan sust rivojlanishini belgilab bermoqda.

MDH doirasida integratsion aloqalar rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillardan yana biri respublikalar rivojlanish darjasи o'rtasidagi tafovut bilan bog'liq. Ularning rivojlanish darjasи bir-biridan sezilarli farq qiladi.

Milliy valyutalar barqarorligining turli xil darjasи, kapitallar harakatidagi chegaralashlar, transport infratuzilmasining turli xil darjasи va boshqa omillar ham MDHda savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga aks ta'sir ko'rsatuvchi omillardir.

MDH doirasida savdo-iqtisodiy munosabatlar rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammo tashkiliy-huquqiy asos va hamkorlikka a'zo mamlakatlar o'zaro harakat mexanizmining takomillashmaganligi hisoblanadi. Shuningdek, MDHga a'zo mamlakatlar iqtisodiy salohiyatning turli darajada ekanligi, alohida mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darjasи o'rtasidagi tafovut, milliy qonunchilik hujjatarining muvofiqlashtirilmaganligi kabi omillar ham integratsiya imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelmoqda.

Erkin savdo zonalarini tashkil etish, to'lov ittifoqini shakllantirish, yagona kommunikatsion va axborot makonini barpo etish, ilmiy-texnika va texnologik hamkorlikni takomillashtirish asosida umumiyl iqtisodiy makonni shakllantirish orqali MDHga a'zo mamlakatlar o'rta sidagi integratsion aloqalarini yanada rivojlantirish mumkin. A'zo mamlakatlar investitsiya salohiyatlari integratsiyasi, Hamdo'stlik doirasida kapital oqimini samarali yo'lga qo'yish eng muhim muammolardan hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, savdo aloqalari MDH doirasida integratsion aloqalar rivojlanishi uchun asos bo'lib hisoblanadi. Savdo aloqalarining rivojlanishi esa MDHda bosqichma-bosqich erkin savdo zonalari, bojxona ittifoqi, umumiyl bozor va yagona iqtisodiy hudud shakllanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

MDH doirasida iqtisodiy integratsiya jarayonlarining faollashuvi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga quyidagi yo'nallishlarda ta'sir ko'rsatadi:

- MDH doirasida integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida eng avvalo milliy xo'jaliklarning tarmoq tarkibi takomillashadi, chunki iqtisodiy hudud doirasida moddiy ishlab chiqarishning samarali tarmoqlarini tanlash va kapital qo'yilmalarni iqtisod qilgan holda import qilish maqsadga muvofiq bo'lgan mahsulotlar bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishdan voz kechish imkoniyati paydo bo'ladi;

- mintaqaviy integratsion tashkilotga a'zo bo'lib kirgan har bir mamlakatda zamонавија ixtisoslashgan ishlab chiqarish tarmoqlari shakllanadi. Buning natijasida ishlab chiqarish xarajatlari pasayadi, mahsulot ishlab chiqarishning texnik darajasi va sifati yaxshilanadi;

- fan va texnika sohasida yagona siyosat yuritish va integratsiyaning chuqurlashuvi natijasida fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish va uning natijalarini amaliyotga joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi;

- MDH doirasida tovarlar umumiyl bozorining shakllanishi natijasida o'zaro tovar almashinuv hajmi oshadi. Yirik miqdorda ishlab chiqariladigan tovarlar bo'yicha yagona eksport siyosati yuritish natijasida esa ularning jahon bozoridagi mavqeい yaxshilanadi, jahon bozori kon'yunkturasidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanish uchun imkoniyat paydo bo'ladi;

- MDH bo'yicha xizmatlar umumiy bozorining shakllanishi gorizontal iqtisodiy aloqalar rivojlanishini ta'minlaydi, qo'shma korxonalar, birlashmalar, firmalar tuzish imkoniyati yaxshilanadi. Natijada yangi samarali xo'jalik aloqalari vujudga keladi va rivojlanadi;

- mehnat resurslari umumiy bozorining shakllanishi natijasida mamlakatlارaro ishchi kuchi harakati faollashadi, kadrlar tayyorlash va ulardan foydalanish samaradorligi oshadi, bandlik tarkibi takomillashadi.

6.3 O'zbekiston va MDH mamlakatlari o'rtaqidagi integratsion munosabatlar dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar

O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash ko'p jihatdan uning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuviga, eksport salohiyatini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning aniq natijalariga bog'liq. Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichida tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish mamlakatimiz XXI asr boshidagi rivojlanish strategiyasining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tashqi savdoni erkinlashtirish iqtisodiyot ochiqlik darajasining o'sishiga, ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga va raqobatbardoshlikning kuchayishiga, mamlakat eksport salohiyatini oshirishning ichki imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashish bilan bog'liq masalalarni hal etishga alohida e'tibor qarata boshladи. Buning yorqin misoli O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatida keng ishtirok etayotganligidir.

Mustaqillikning dastlabki-yillaridanoq respublikamiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti kabi xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi. Bundan tashqari iqtisodiy islohotlarning dastlabki-yillarida tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha unsurlari yangidan tashkil etildi. Xususan, iqtisodiy islohotlarning boshlarida Tashqi

iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil etildi va u keyinchalik Tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo va investitsiyalar vazirligiga aylantirildi, Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy bankiga asos solindi, shuningdek, boshqa tashqi iqtisodiy aloqalar muassasalari shakllantirildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

Mustaqillik-yillarida tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslarini yaratish bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida» (2000-yilda yangi tahrirdagi), «Xorijiy investitsiyalar to'g'risida», «Xorijiy investorlarning huquqlarini kafolatlash va himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari va bir qator boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu qonuniy hujjatlarda tashqi iqtisodiy faoliyat yuritishning asosiy qoidalari va tamoyillari, uning subyektlari va obyektlari, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalg etishning qonuniy asoslari, xorijiy investorlarning huquq va majburiyatları o'z aksini topgan.

Respublikamiz o'z eksport salohiyatini oshirishda ichki imkoniyatlari va qiyosiy afzallikka ega bo'lgan mahsulotlariga tayanadi. Eksport salohiyatini oshirib borish esa barqaror valyuta tushumlarini ta'minlashga, jahon xo'jalik tizimida o'ziga xos o'rinn egallashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatida MDH mamlakatlari o'ziga xos muhim o'rinn egallaydi. Mamlakatimiz mustaqillikning dastlabki-yillardanoq hamdo'stlik tashkil etish g'oyasini qo'llab-quvvatladı, uning muassisalaridan biri sifatida qatnashdi. Bugungi kunda ham MDH mamlakatlari bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalişlaridan biri hisoblanadi. Shunga qaramasdan, keyingi-yillarda MDH mamlaktlarining O'zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi ulushi pasayish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Buning bir qator sabablari mavjud. Xususan, respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, sobiq Ittifoq davrida vujudga kelgan va ishlab chiqarish hamda tovarlar eksportida xom ashyo mahsulotlari ustuvorligi bilan tavsiflanuvchi iqtisodiyot tarkibining bir yoqlamaligiga olib kelgan samarasiz iqtisodiy aloqalardan voz kechish vazifasi kun tartibidagi asosiy vazifalardan biriga aylandi.

Bundan tashqari yagona to'lov tizimining buzilishi va sobiq Ittifoqning turli respublikalarida joylashgan korxonalar o'rtasida o'zaro to'lovlarni amalga oshirishda qiyinchiliklarning vujudga kelishi, ushbu korxonalar to'lov qobiliyatlarining keskin pasayishi, infliyatsiyaning yuqori sur'atlarda o'sishi ham bu sohadagi muammoning chuqurlashuviga olib keldi. Mana shunday sharoitda sobiq Ittifoq korxonalari bilan samarasiz iqtisodiy aloqalarga barham berish hamda uzoq xorij mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish iqtisodiy inqirozni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanar edi.

Shu bilan birga O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatda MDH mamlakatlariga nisbatan uzoq xorij mamlakatlariga ustuvorlik berishini shakllangan eksport tarkibi ham taqozo etib, eksportning asosiy qismini jahon bozorida barqaror talabga ega bo'lgan xomashyo resurslari tashkil etar edi.

Ikkinci tomondan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlar, shuningdek, importni diversifikatsiyalash siyosatini amalga oshirish va import siyosatiga bozor tamoyillarining joriy etilishi sharoitida asosan rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqariladigan zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyani import qilish zaruriyati ham mamlakatimiz importi tarkibida uzoq xorij mamlakatlari ulushining o'sishiga olib keldi.

Agar 1994-yilda tashqi savdo aylanmasining 58 foizi MDH mamlakatlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2012-yilga kelib bu ko'rsatkich 47,3 foizga teng bo'ldi. Uzoq xorij mamlakatlarining salmog'i esa 1994-2007-yillarda muvofiq ravishda 42 foizdan 52,7 foizgacha o'sdi.

O'zbekiston tashqi savdo aloqalarida MDH mamlakatlari ulushining pasayib, uzoq xorij mamlakatlari ulushining oshishiga, bizning fikrimizcha, quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

- sun'iy rejali baholardan bozor baholariga o'tish tashqi savdo aloqalari samaradorligiga baho berish tizimining sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi. Buning natijasida iqtisodiy islohotlarga qadar samarador hisoblangan juda ko'p aloqalar besamar bo'lib qoldi. Shu bilan birga MDHga a'zo mamlakatlarining har biri nafaqat MDH doirasida, balki uzoq xorijdan ham hamkor tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa mamlakatlarda tovarlar oqimining

qayta taqsimlanishiga olib keldi. Natijada MDH respublikalari o'rtasidagi tovar almashinuv hajmi pasaydi;

- MDH respublikalarida amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish siyosati rivojlangan mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni rag'batlantirdi. Buning asosiy sababi shundan iboratki, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish va modernizatsiyalash yangi texnika va texnologiyalarni keng miqyosda sotib olishni taqozo etadi. Bunday texnika va texnologiyalarni esa faqat uzoq xorij mamlakatlaridan sotib olish mumkin;

- MDH mamlakatlari iqtisodiyotlari tarkibining o'xshashligi o'zaro savdo aloqaları hajmining qisqarishiga olib kelgan sabablardan yana biridir. Gap shundaki, mintaqalari tomonidan eksport qilinadigan tovarlarning aksariyati (yoqilg'i-energetika resurslari, qimmatbaho metallar va boshqalar) deyarli barcha respublikalarda ishlab chiqariladi;

- mamlakatlarda amalga oshirilayotgan import o'rmini bosish siyosati natijasida ko'plab ehtiyojlarni ichki ishlab chiqarish evaziga qoplash imkoniyati paydo bo'ldi. Masalan, O'zbekistonda g'alla va energetika mustaqilligiga erishish don va yoqilg'i resurslari importining sezilarli darajada qisqarishiga olib keldi. Bu mahsulotlarning aksariyat qismi MDH mamlakatlaridan sotib olinar edi;

- XX asrning oxirida MDH mamlakatlarida chuqur iqtisodiy inqiroz yuz berdi va buning natijasida ushbu mamlakatlarda to'lov qobiliyati sezilarli darajada pasayib ketdi. Bu esa tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatdi;

- tovarlarni o'zaro yetkazib berish bo'yicha hukumatlararo savdo bitimlari salmog'i pasaydi va h.k.

Albatta, tashqi savdo aylanmasida uzoq xorij mamlakatlari ulushining o'sib borishi O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari faollashib borayotganligidan, uning jahon xo'jalik aloqalariga kirib borayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, MDH mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bir qator afzallikkarga ega.

Yuqorida o'zgarishlarga qaramasdan, keyingi-yillarda MDH respublikalari bilan tashqi savdo aylanmasining mutlaq miqdori o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, so'nggi-yillarda O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Xususan, 2012-yilda 2000-yilga nisbatan O'zbekistonning MDH respublikalari bilan tashqi savdo aylanmasi 5,4 martaga o'sgan. MDH mamlakatlariga eksport hajmi MDH mamlakatlardan olib kelingan tovar va xizmatlar importidan birmuncha yuqoriq sur'atlarda o'sgan.

Jadval ma'lumotlaridan yana shuni kuzatish mumkinki, 2000-2012-yillar oralig'ida O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan savdo aylanmasida musbat saldo keskin o'sishi kuzatiladi. O'zbekiston va MDH respublikalari o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasining so'nggi-yillarda yuqori sur'atlarda rivojlanishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatdi. Bunda asosiy xomashyo tovarlariga bo'lgan jahon narxlarining o'sishi katta rol o'yndi.

MDH mamlakatlarining O'zbekiston tashqi savdosidagi ulushi

6.3.1-jadval

Mamlakatlar	Eksport		Import	
	2013	2014	2013	2014
Ozarbayjon	0.4	0.7	0.2	0.6
Belorussiya	0.3	0.3	3.3	2.9
Qozog'iston	31.4	35.9	20.1	19.0
Qirg'iziston	2.4	2.3	0.8	1.2
Moldova	0.5	0.4	0.2	0.2
Rossiya	51.8	39.6	60.3	62.3
Tojikiston	2.2	2.2	0.1	0.1
Turkmaniston	2.6	3.2	3.5	3.4
Ukraina	7.9	2.7	9.3	7.8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Masalan, O'zbekiston eksportida asosiy o'rinni egallovchi oltin narxlaring o'sishi 2002-yildanoq boshlangan edi. 2005-yilning boshida esa oltin narxlari so'nggi 16-yildagi rekord darajaga yetdi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2004-yil dekabr oyining

boshida 1 unsiya oltining narxi jahon bozorida 449 dollarni tashkil etdi. Bugungi kunda ham oltin narxlarining o'sishi davom etmoqda. Xususan, 2015-yilning boshida 1 unsiya oltinning narxi 1230 dollardan oshib ketdi.

2000-2008-yillar davomida O'zbekiston eksportida asosiy o'rinn tutuvchi paxta tolasining narxlari ham o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. Ayniqsa, 2003-yilning kuzidan boshlab paxta tolasining narxi yuqori sur'atlarda o'sa boshladi. Buning eng asosiy sababi jahon bozorida paxta tolasiga bo'lgan talabning oshishi va asosiy paxta ishlab chiqaruvchi mamlakatlar – Xitoy va AQShda hosildorfik darajasining past bo'lganligi hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, MDH mamlakatlari orasida O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari Rossiya, Qozog'iston va Ukraina hisoblanib, 2012-yilda jami tashqi savdo aylanmasining 29,0 Rossiya, 11,2 foizi Qozog'iston, 4,1 foizi Ukraina hissasiga to'g'ri keldi.

Mutaxassislar fikricha, O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari bundan buyon o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. Buning eng asosiy sabablari esa quyidagilardan iborat:

- MDH doirasida integratsion aloqalarning kuchayishi, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi tashkiloti faoliyatining takomillashuvi natijasida ushbu tashkilotlarga a'zo mamlakatlar o'rtasida boj to'lovlari miqdori pasayadi, tovar va xizmatlar, kapital va ishchi kuchining erkin aylanishi uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga keladi. Bu esa o'z navbatida tashqi savdo aylanmasining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi;

- yuqorida nomlari keltirilgan tashkilotlarga a'zo mamlakatlar o'rtasida kooperatsiya aloqalarining kuchayishi natijasida o'zaro ichki savdo hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi;

- bugungi kunda MDH mamlakatlarining aksariyati iqtisodiy inqiroz ta'siridan deyarli qutilib, maro iqtisodiy barqarorlikka erishdi va barqaror iqtisodiy o'sish uchun mustahkam poydevor yaratmoqdalar. Bu esa yuqori transport xarajatlarini sarflamasdan O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlarni, ayniqsa, jahon bozorida doimiy talabga ega xomashyo resurslari – paxta tolasi, energetika resurslarini jahon bozori narxlarida MDH mamlakatlariga sotish imkoniyatini beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston va MDH mamlakatlari o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning hozirgi holati tahlili ko‘rsatishiga, bugungi kunda mavjud imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilmayapti. Shu munosabat bilan umuman MDH doirasida, shuningdek, O‘zbekiston va MDH mamlakatlari o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni faollashtirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish lozim. Bu esa mavjud tabiiy-iqtisodiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga va pirovard natijada MDH xalqlari turmush farovonligining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

6.4 O‘zbekiston va MDH mamlakatlari o‘rtasidagi integratsion munosabatlarni rivojlantirish yo‘nalishlari

MDH respublikalari bilan teng huquqli va o‘zaro manfaat-dorlikka asoslangan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Negaki, ushbu mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlan-tirish bir qator muhim afzalliliklarga egadir.

Birinchidan, respublikamiz geografik nuqtayi nazardan anklav davlat hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, O‘zbekistondan bevo-sita eng arzon transport turi hisoblangan dengiz yo‘llariga chiqish imkoniyati mavjud emas. Bu o‘z navbatida transport xarajatlari bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi hamda mahsulot tannarxi va uning raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. MDH mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish esa yirik transport xarajatlarini talab qilmaydi.

Ikkinchidan, MDH O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar uchun yirik bozor hisoblanadi. Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan tayyor tovarlar energiya va material sig‘imining yuqoriligi, sifat darajasining nisbatan pastligi ularning raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli tayyor mahsulotlarni uzoq xorij mamlakatlariga sotish ancha murakkab. Ichki bozor yetarli darajada to‘yinmagan MDH mamlakatlarida esa O‘zbekiston tayyor mahsulotlari raqobatbardosh hisoblanadi.

Uchinchidan, MDH mamlakatlarda bir turdag'i tovarlarni katta miqdorda ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Paxta, meva, sabzavot, ko'mir, gaz, neft, oltin mintaqadagi davlatlarning deyarli barchasida ishlab chiqariladi. Ana shu tarmoqlarda mahsulot miqdori va sifatini belgilash bo'yicha kelishuvlarga erishish, bu mahsulotlarni qayta ishlash va ularni eksport qilish bo'yicha yagona siyosatni yurgizish maqsadga muvofiqdir. Agar MDH respublikalari jahon bozoriga alohida chiqsalar, ular o'zaro raqobatchilarga aylanadilar, ularning bирgalikda harakat qilishi mamlakatlardan iqtisodiyotini bozor konyunkturasiga bog'liqligini pasaytiradi va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

To'rtinchidan, MDH mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish boshqa sohalarda ham hamkorlik munosabatlarning faollashuviga olib keladi. Natijada yirik mablag'lar talab etuvchi ulkan investitsiya loyihamalarini amalga oshirish uchun moliyaviy mablag'larni birlashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Shu sababli MDH mamlakatlari bilan integratsion munosabatlarni rivojlantirish respublikamiz tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

MDH mamlakatlari bilan integratsion munosabatlarni rivojlantirish bir nechta yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin:

Birinchidan, MDH respublikalari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish. Bu yo'nalish o'zaro savdo aloqalari hajmini oshirishni taqozo etib, boshqa hamkorlik shakllari uchun esa asos bo'lib xizmat qiladi.

U o'z ichiga mamlakatlar o'rtaсидаги ikki va ko'p tomonlama savdoda eng qulay sharoitlar rejimini tashkil qilish, ikki tomonlama soliq solishga barham berish va ichki yoki o'zaro valyutalar konvertatsiyasiga erishish haqidagi kelishuvlarni qamrab oladi. Bunday jarayonlarning amalga oshirilishi MDH davlatlari o'rtaсидаги iqtisodiy hamkorlikni sezilarli darajada rag'batlantiradi va o'zaro iqtisodiy aloqalar rivojlanishining keyingi bosqichiga o'tishga imkon beradi.

Erkin savdo zonasining tashkil etilishi MDH mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirishning ikkinchi yo'nalishi hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek erkin savdo zonasini sifat jihatdan yangi darajadagi savdo munosabatlari rejimini tashkil etishga qaratilgan o'zaro imtiyozlar tizimini talab qiladi. Erkin

savdo zonasida mamlakatlar tarif va notarif chegaralashlarni, ya'ni bojxona to'lovi, kvotalar va boshqa to'siglarni olib tashlashni ta'minlaydilar. Yana shuni ta'kidlash joizki, erkin savdo zonasini amal qilishining majburiy shartlaridan biri eksport-import operatsiyalariga solinadigan egri soliqlarning simmetrik formulasidir. Aynan erkin savdo zonasini shakllanishi davrida iqtisodiy munosabatlarni o'zaro liberallashtirish bo'yicha ko'p tomonlama muzokaralarni boshqarishga ehtiyoj tug'iladi.

MDH doirasida integratsion aloqalarni rivojlantirishning yana bir muhim yo'nalishi bojxona ittifoqi hisoblanadi. Bojxona ittifoqi erkin savdo zonasidagi mamlakatlarning uchinchisi mamlakatlarga nisbatan kelishilgan siyosat yuritishini ishlab chiqishdan boshlanadi. Bu yerda so'z yagona bojxona tarifi, uchinchisi mamlakatlardan qilinadigan importga nisbatan yagona himoya chora-tadbirlari, va nihoyat, uchinchisi mamlakatlar va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan yagona savdo rejimi yuritish haqida borayapti. Bojxona ittifoqining yuqori bosqichi - yagona bojxona hududi hisoblanadi. U ichki bojxona chegaralarini asta-sekin bekor qilish va bojxona ittifoqi boshqaruv organlarini tashkil qilishni ko'zda tutadi.

MDHda savdo-iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish va integratsion jarayonlarni faollashtirishning yana bir yo'nalishi hisoblangan umumiy bozor bojxona ittifoqi transformatsiyasi asosida zaruriy iqtisodiy sharoitlar pishib yetilganlik darajasigi qarab shakllanadi. Umumiy bozor sharoitida tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi va kapitallarning hudud bo'y lab erkin harakat qilishiga keng yo'i ochib beriladi. Shuningdek, moliya, bank, sug'urta va boshqa sohalarda muvofiqlashtirilgan siyosat yuritiladi. Bunda milliy qonunchiliklarni unifikatsiya qilish, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda soliq siyosatini uyg'unlashtirish yakunlanadi.

Albatta ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish uzoq vaqt va ko'p mablag' talab qiladi. Ammo MDHga a'zo mamlakatlarning uzoq tarixiy vaqt davomida birgalikda rivojlanganligi, ushbu mamlakatlar o'rtaida umumiy infratuzilmaning mavjudligi, yer-suv va energetika manbalarining yagonaligi kabi omillar integratsion munosabatlarning rivojlanishida qo'shimcha shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonning MDH mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini chuqurlashtirish ham ikki yoqlama, ham ko‘p yoqlama hamkorlik shakllaridan unumli foydalanishni taqozo etadi. Ayniqsa, Rossiya, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishning keng imkoniyatlari mavjud. Bugungi kunda O‘zbekistonning Rossiya bilan tashqi savdo aylanmasi 7 mlrd dollardan oshgan bo‘lsa-da, mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayapti.

Rossiya paxta xomashyosi, ip-kalava kabi O‘zbekistonda yirik miqdorda ishlab chiqariladigan to‘qimachilik xomashyolari, mevasabzavotlar, meva sharbatlari uchun yirik bozor hisoblanishi bilan birga milliy iqtisodiyotimiz uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tovarlar – yog‘och, rangli metallar, yuqori sifatli texnika va texnologiyalar yetkazib berish salohiyatiga ega yirik davlat hisoblanadi. Bundan tashqari Rossiya bilan turli sohalarda qo‘shma korxonalar barpo etish, qo‘shma joyihalarni amalga oshirish mumkin.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdo aloqalaridagi o‘zgarishlar natijasida mintaqalari bilan o‘zaro savdo aloqalarining jami savdo aloqalaridagi salmog‘ida tegishli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmayapti.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning mintaqalari bilan o‘zaro 2012 tashqi savdo aylanmasining jami tovar aylanmasidagi ulushi 1995-yilda 19,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2012-yilga kelib bu ko‘rsatkich deyarli 2 barobar pasaydi.

Bundan tashqari integratsion aloqalarning intensivligini ko‘rsatuvchi ikkinchi ko‘rsatkich - o‘zaro savdo aloqalarining YalMdagi ulushida ham pasayish kuzatiladi. Taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra, bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o‘zaro savdo hajmining O‘zbekiston YalMdagi ulushi, 1,2-1,4 foizni tashkil etadi, xolos. Vaholanki, XX asr 90-yillarining boshida mazkur ko‘rsatkich 6-6,5 foizga teng edi.

Yuqoridagi tahlil natijalaridan shunday xulosa chiqarish mumkinki, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga bog‘liqligi pasaymoqda. Bu esa mintaqalari bozoridan yetarli darajada foydalaniilmayotganligidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyoda nest ishlab chiqarish dinamikasi (mln.tonna)

6.4.1-jadval

Mamlakatlar	1991 mln. tonna	1993 mln. tonna	1995 mln. tonna	1997 mln. tonna	1999 mln. tonna	2005 mln. tonna	2007 mln. tonna	2007-yilda 1991-yilga nisbatan, %	2012 mln. barrel/ kuniga	2014 mln. barrel/ kuniga	
	Qozog'iston	26,6	23	20,5	25,8	30,1	40,1	51,4	193,2	1,606	1,632
Qirg'izis ton	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	100	0,01	0,001
Tojikiston	0,1	0,04	0,03	0,03	0,02	0,02	0,02	0,02	20	0,0553	0,00206
Turkmaniston	5,4	4,9	4,7	4,4	7,2	9,6	10,0	185,2	0,244	0,2429	
O'zbekiston	2,8	3,9	7,6	7,9	8,1	8,0	8,9	317,8	0,102	0,06481	
Markaziy Osiyo bo'yicha	35	31,9	32,9	38,23	45,52	57,82	70,42	201,2	1,607	1,94277	0

Manba: <http://www.cia.gov>

Markaziy Osiyoda tabiiy gaz ishlab chiqarish (mlrd. m³)

6.4.2-jadval

Mamlakatlar	1991	1993	1995	1997	1999	2005	2007	2007 1991- yilga %	2011	2013 mlrd m ³
Qozog'iston	7,9	6,7	5,9	8,1	9,9	11,6	16,2	205,0	20,2	20,4
Qirg'iziston	0,1	0,04	0,04	0,02	0,03	0,03	0,03	30,0	0,01	0,32
Tojikiston	0,1	0,05	0,04	0,04	0,04	0,05	0,03	30,0	0,03	0,13
Turkmanis-ton	84,3	65,3	32,3	35,2	22,9	38,0	53,1	63,0	64,4	84,8
O'zbekiston	41,9	45	48,6	51,2	55,6	56,7	57,6	137,5	62,9	59,63
Markaziy Osiyo bo'yicha	134,3	117,1	86,9	94,6	88,47	106,38	126,06	93,7	147,54	165,28

Manba: <http://www.cia.gov>

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligi faqat savdo sohasi bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Yirik miqdorda ishlab chiqariladigan tovarlar bo'yicha yagona eksport siyosatini yuritish barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun manfaatli hisoblanadi.

6.5 O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jaligi tizimiga iqtisodiy integratsiyalashuvi yo'nalishlari

Jahon xo'jaligi globallashuvining zamonaviy bosqichida O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotini erkinlashtirish sharoitda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlarida kuch-g'ayratni jamlash zaruriyati yuzaga keldi. Yetakchi xalqaro iqtisodiy, moliyaviy, va gumanitar tashkilotlar, ilg'or Yevropa mamlakatlari va AQSh, Osiyo qit'asi davlatlari, MDH mamlakatlari va ayniqsa, Rossiya, shuningdek Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash ana shunday yo'nalish hisoblanadi. O'zbekiston milliy iqtisodiyotining jahon xo'jalik tizimiga chuqur integratsiyalashuvi muammolarini hal qilish uchun respublikaning eksport salohiyatini ancha mustahkamlash, eksport qilinayotgan tayyor

mahsulotlar assortimenti hajmini va turini oshirish va kengaytirish, mamlakatning jahon bozoridan o‘rin olishini faol mustahkamlash zarur. Hozirgi vaqtida amal qilayotgan rag‘batlantirishlar va imtiyozlar bilan birga, milliy ishlab chiqarishning eksportga yo‘naltirilganligini kuchaytirish, import qilinadigan mahsulotlarning o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni oqilona asoslangan holda rivojlantirish bilan uyg‘un ravishda yakuniy mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilishni rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish muhimdir.

Yuqorida aytib o‘tilganlardan kelib chiqqan holda, nazarimizda, davlatlararo iqtisodiy integratsiya – iqtisodiy rivojlanish darajasi bir-biriga yaqin bo‘lgan davlatlar birlashishining obyektiv jarayonidir. U faqat tegishli mamlakatlar tashqi savdosi sohasi, ularning bozor aloqalarinigina (xalqaro hamkorlikda bu ko‘pincha uchrab turadi) qamrab olish bilan cheklanmay, balki mazkur mamlakatlar moddiy ishlab chiqarishi sohasiga chuqur kirib boradi, turli darajada va har xil shakllarda qayta ishlab chiqarish tuzilmalarining tobora mustahkamroq o‘zaro hamkorligiga olib keladi.

Jahon xo‘jalik aloqalarining moddiy-ashyoviy asoslarini u yoki bu mintaqaviy guruhlar yoxud ittifoqlarga birlashgan mamlakatlarning integratsiyaviy salohiyati tashkil qiladi.

Mamlakatning **integratsion salohiyati** deganda, fikrimizcha, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning alohida tomonlari-subyektlari (integratsiyalashayotgan mamlakatlar) amalga oshiradigan xalqaro ishlab chiqarish-iqtisodiy hamkorlik va almashuv predmeti bo‘lgan milliy tabiiy, mehnat, ishlab chiqarish, moliya-kredit, savdo resurslari, ilmiy xodimlar va odamlarning aqliy qobiliyati majmuini tushunish zarur. O‘zbekistonning integratsion aloqalarini jadallash-tirishga xizmat qiladigan omillar va sharoitlar orasidan respublika integratsion salohiyatining quyidagi aniq-ravshan ustunliklarini sanab o‘tish mumkin, ya’ni:

- O‘zbekistonning Yevroosiyo qit’asidagi qulay geostrategik joylashuvi;

- yer, mineral-xomashyo va o‘simgiliklarning ancha katta zaxirasi, shuningdek, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun qulay bo‘lgan tengi yo‘q tuproq-iqlim sharoitlari;

- muhim ilmiy-ishlab chiqarish va eksport salohiyati;

- tegishli davlatlararo koopresiyalashuv va bиргаликдаги investitsiyalar mavjud bo‘lganda ancha qisqa muddatlar ichida tayyorgarlikning yuqori darajasiga ega raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilishga imkon beradigan yirik ishlab chiqarish salohiyati;

- odamlar salohiyati, tez ko‘payib borayotgan bilimli mehnat resurslari, shuningdek, nisbatan arzon (jahon miqyosida olib qara-ganda) ish kuchi mavjudligi;

- rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasi, birinchi navbatda respublikani MDHning boshqa mintaqalari bilan bog‘lab turadigan, avtomobil va temir yo‘l magistrallari, telekom-munikatsiya tizimining mavjudligi;

- mamlakatda chet el kapitalini investitsiya qilish, o‘zaro foydali tashqi iqtisodiy va integratsion hamkorlikning yaxshi kafolati bo‘lgan barqaror siyosat.

Yuqorida ko‘rsatilgan pozitsiyalar bo‘yicha milliy iqtisodiyotning ochiq bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan sharoitida mamlakat integratsiyaviy salohiyatidan samaraliroq foydalanish uchun bu salohiyatning hozirgi holatiga baho berish kerak.

Birinchi navbatda, bu potensialning tarkibiy qismlari bo‘lgan geostrategik joylashuv, tabiiy-xomashyo va mehnat resurslari, shuningdek eksport imkoniyatlari kabilarni tavsiflash lozim.

XXI asr kirib kelishi bilan jahon iqtisodiyotidagi integratsiyaviy moyilliik juda yaqqol namoyon bo‘ldi. Xalqaro mehnat taqsimoti shu darajaga yetdiki, milliy xo‘jaliklar tobora ko‘proq integratsiyalashuv xususiyatini kasb etmoqda. Bu esa xalqaro xo‘jalik faoliyatining baynalmilallashuviga olib kelayotganligi haqida gapirishga imkon beradi. Bu sharoitlarda o‘zaro hamkorlikning an‘anaviy shakllari – xalqaro savdo, kapitallarning ko‘chishi, ish kuchining migratsiyasi - yangi, aniq ifodalangan institutsional shakllarga ega bo‘lmoqda. Bir tomondan, davlatlararo mintaqaviy birlashmalar tuzilmoqda (eng yaqqol misol – Yevrohukumat va Yevroparlamentga ega bo‘lgan Yevropa Ittifoqi), boshqa tomondan – o‘z faoliyatining xususiyati bo‘yicha ham alohida davlatlar, ham butun mintaqalarning hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan yirik transmilliy korporatsiyalar (TMK) keng

miqyos olmoqda. Integratsiya haqida gapira turib, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: «Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv iqtisodiy jihatdan rivojlangan bozor tizimiga ega bo'lgan demokratik davlatlar tushunchasiga muvofiq kelgandagina mumkin bo'ladi. Ayni paytda mamlakatmi zamonaviylashtirish uning, shubhasiz, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, ya'ni xalqaro mehnat taqsimotida o'zining munosib o'rmini topishi, mintaqaviy va global xavfsizlik tizimini yaratish shartlari mavjud bo'lgandagina mumkin bo'ladi».

Yosh, mustaqil davlat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi uchun tashqi iqtisodiy faoliyat va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv muammosi aynan bugun, respublikamiz davlatchiligi shakllanayotgan, jahon xo'jalik tizimida o'z o'rmini izlayotgan bir paytda va sivilizatsiyalashgan demokratik jamiyat qurishda o'ta muhimdir.

Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang'ich shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda dunyo miqyosida va mintaqa ko'lamida-integratsiya jarayonlarida qatnashsa-da, ammo bir muhim qoidaga: «bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. Biz bir subyekt bilan sherikchilikning mustahkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga qarshimiz. Shu sababli O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi intefatsiyalashuvi serqirra jarayondir», deb alohida ta'kidladi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov⁶⁵.

Ekspert salohiyatini rivojlantirish O'zbekistonga XXI asr jahon iqtisodiyotiga xos bo'lgan hamda alohida milliy iqtisodiyotlarning o'zaro bir-biri bilan bog'liqligi va xo'jalik hayotining baynalmilallahuvi bilan tavsiflanuvchi globalizatsiya jarayonlarida faol ishtirok etish imkonini beradi.

Ko'p tomonlama xalqaro iqtisodiy, valyuta-moliyaviy va savdo tashkilotlarining ahamiyati milliy iqtisodiyot uchun ham, jahon iqtisodiyoti uchun ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki aynan ana

⁶⁵ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. 6-tom. T.: «O'zbekiston», 1997. 241-242 betlar.

shu tashkilotlar shunday huquqiy makonni yaratishga yordam beradi, jahondagi tashqi iqtisodiy va integratsion aloqalar shu makon doirasida amalga oshiriladi.

O'zbekistonning BMT, YeXHT, Yel, NATO, Juhon banki, XVF, EKO, OIK, ShHT va boshqa tashkilotlar faoliyatida faol ishtiroki mamlakatimizga ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish borasidagi jahon tajribasidan foydalanish, muhim bo'lgan zamonaviy ilmiy-texnikaviy axborotlar, «nou-xau»larni, beg'araz beriladigan hujjat va materiallarni olish imkoniyatini beradi. BMTning ixtisoslashtirilgan muassasalari turli tarmoqlarda ko'p tomonlama hamkorlikni tartibga solishning tengi yo'q me'yoriy-ijodiy mexanizmi hisoblanadi. Valyuta-moliya va savdo muassasalari savdo hamda valyuta-kredit sohasida juda muhim tartibga soluvchi rolni o'ynaydi va O'zbekistonga davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilishga ko'maklashadi.

Jahon tajribasi sivilizatsiyalashgan integratsiya uyushmalariga integratsiyalashayotgan davlatlar umumiyo rivojlanganligining ma'lum bir darajada bo'lishini nazarda tutishini ko'rsatdi (buni Yel tajribasi ham tasdiqlab turibdi, unga a'zo mamlakatlar o'z ittifoqlariga urushdan keyingi deyarli 50-yil davomida erishishdi).

O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining negizida tashqi aloqalarda ochiqlik, teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik, o'z milliy-davlat mansaatlari ustunligini saqlagan holda o'zaro manfaatlarni hisobga olish, umum e'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlariga rioya qilish va xalqaro standartlarga bosqichma-bosqich o'tish tamoyillari yotadi.

Respublikamizning o'z taraqqiyot modelini takomillashtirish va joriy etishni ishlab chiqishda rivojlangan davlatlar tajribasini o'rghanish sezilarli rol o'ynaydi. Rivojlangan davlatlar tajribasini o'rghanish respublikada islohotlarni yanada samaraliroq amalga oshirish va boshqa davlatlar yo'l qo'ygan xatolarni takrorlamaslik uchun zarurdir. O'zbekiston bozor islohotlarini amalga oshirishning asoschisi hisoblanmaydi. Buning juda ko'p ijobiy tomonlari bor, zero bizning respublikamizga boshqa mamlakatlar yo'l qo'ygan xatolardan saboq olish, shu bilan birgalikda, ularning yutuklarini yurtimiz shart-sharoitlaridan kelib chiqqan xolda joriy qilish imkoniyati berilgan. Alovida mamlakatlar rivojlanish modelidan

ko'r-ko'rona andoza olish kerak emas, ko'plab davlatlar tajribasini ichki shart-sharoitlarga muvofiq ravishda uyg'unlashtirish zarurdir.

Tashqi iqtisodiy siyosat respublikaning jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlashga, uning to'lov balansini yanada yaxshilashga, qulay investitsiya muhitini yaratishga yo'naltirilishi kerak. Buning uchun respublikamizda zarur shart-sharoitlar va negizlar mavjud.

Rivojlanish va taraqqiyot yo'liga o'tgan O'zbekiston juda ko'p nufuzli xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkilotlarining teng huquqi a'zosiga aylandi. Qisqa vaqt ichida respublikamiz Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banklar guruhi, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro elektraloqalari ittifoqi, Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB), Hududiy iqtisodiy hamdo'stlik tashkiloti, Bojxona hamdo'stligi kengashi kabi mashhur xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarga qabul qilindi. Respublikamizning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lib kirishi uchun faol tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Eksport tarkibini xom ashyo resurslaridan O'zbekiston uchun foydaliroq bo'lган eksport ko'rinishlari: qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash orqali tayyorlangan tayyor mahsulotlar, yengil sanoat va ilm talab tarmoqlar tovarlari eksporti yo'nalishiga tubdan o'zgartirish kerak. Xomashyoga yo'naltirilgan eksportni saqlab turish respublika uchun istiqbolli emas. Paxtani esa respublikaning o'z to'qimachilik va yengil sanoati qudratli rivojlangunga qadar eksport qilish darkor. Paxta tolasi bilan emas, balki sivilizatsiyalashgan mamlakatlar sirgari tayyor mahsulot bilan savdo qilish lozim.

Faqat ichki bozorda emas, balki, eng avvalo, jaqon bozorida xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash bosh vazifa bo'lishi kerak.

Jahon bozorlarida allaqachon talabga ega bo'lishga ulgurgan, kiritilgan investitsiyalarni qisqa vaqtida ikki-uch yilda qoplabgina qolmasdan, balki respublikamizga valyuta tushumlarining mustahkam manbai sifatida xizmat qilaigan eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlar ustuvor ravishda rivojlantirilishi darkor.

Eksport salohiyatini kengaytiish, jahon bozorlariga kirib borish uchun, eng avvalo, nodir xomashyolarni qayta ishslash

asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma korxonalarini rivojlantirish, xorijiy hamkorlar bilan mehnat resurslariga – qishloqqa yaqin joylarda ixcham korxonalar tashkil etish zarur. Asosan, bu korxonalarning barchasi ilg'or texnologiyalar bilan jihozlanishi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishi darkor. Bu yo'l orqali bir necha yildan so'ng respublikamiz zamonaviy texnologiyalar, asosini mahalliy aholi tashkil etuvchi zamonaviy ish kuchiga ega bo'ladi. O'zbekiston o'z ishlab chiqarishi negizida mahalliy xomashyolardan tayyorlangan yuqori sifatli tovarlar bilan jahon bozorini egallash kerak. Eksportni kengaytirish bo'yicha strategiyani faol olib borish bilan birga aniq yo'naltirilgan import o'rnini qoplash bo'yicha siyosatini o'tkazish talab qilinadi. Bunda o'zimiz ishlab chiqara oladigan tovar va mahsulotlar importini mumkin darajada kamaytirish kerak. Import o'rnini qoplash dasturi doirasida asosiy e'tiborni oziq-ovqat mahsulotlari va resurslar importi sohasidan ekinlarning yuqori hosil beradigan navlari va bu ekinlarga ishlov beruvchi sanoat texnologiyalari, o'simliklarni himoya qilish vositalari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash uchun zarur bo'lgan zamonaviy asbob-uskunalar, shuningdek, fermer (dehqon) xo'jaliklari uchun texnikalar importi sohasiga ko'chirish kerak. Ilg'or texnologik qurilmalar, ilg'or texnologiya, ishlab chiqarishni qaytadan texnik jihozlash uchun litsenziyalar, shuningdek, eng zarur bo'lgan iste'mol tovarlari, xomashyo va dori-darmonlar importiga ham diqqat-e'tiborni qaratish darkor.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni bundan buyon ham erkinlashtirish bo'yicha aniq bir maqsadga yo'naltirilgan siyosatni olib borish, xo'jalik subyektlariga xorijiy hamkorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri alo-qalarni o'rnatishda katta erkinliklar berish, respublikamizda ishlab chiqarilgan maqsulotlarni xorijda sotish, tovarlar eksporti va importiga yanada imtiyozli tartiblarni joriy qilish – bular siyosatimizning zamonaviy bosqichdagi ustuvor yo'nalishlaridir. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish maqsadida ko'plab tovar turlariga import bojlari allaqachon olib tashlangan, eksport va importga bojxona boji stavkalari sezilarli darajada pasaytirilgan, valyuta tushumlarini taqsimlash tizimi tubdan o'zgartirilgan. Respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy investisiyalarni, to'g'ridan-

to‘g‘ri kapital qo‘yilmalarini ustun ravishda keng ko‘lamda jalb qilish uchun zarur bo‘lgan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratishga, qo‘shma korxonalarni tashkil qilishga, shuningdek, investorlar manfaatlarini himoya qilishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat infratuzilmasini yaratish – bu tashqi aloqalarni rivojlantirish manfaatlariga va shart-sharoitlariga javob beradigan ixtisoslashtirilgan tashqi savdo, lizing, konsalting va sug‘urta firmalari, transport tizimi, aloqa va kommunikatsiya tizimlarini barpo qilish demakdir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning bu va boshqa yo‘nalishlarini amalga oshirish O‘zbekiston iqtisodiyotining tez orada jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvi uchun iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy zamin yaratish imkonini beradi.

Tayanch iboralar: davlatlararo (ko‘p tomonlama) erkin savdo uyushmasi, bojxona ittifoqi, tovarlar, xizmatlar, kapitallar va ishchi kuchi umumiy bozori, valyuta (pul) ittifoqi, dezintegratsiya jarayonlari.

Nazorat savollari:

1. MDH mamlakatlari iqtisodiy integratsiyasi asosiy bosqichlari, yo‘nalishlari va shakllarini sanab o‘ting.
2. MDH ulkan tabiiy, mehnat va iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lib, uning hududida jahon bozorida talab yuqori hisoblangan tabiiy resurslarning yirik zaxiralari qaysilar hisoblanadi?
3. Globallashuv sharoitida MDH mamlakatlarining jahon iqtisodiyotidagi roli va iqtisodiy salohiyatiga baho bering.
4. MDH doirasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning hozirgi holatini tahlil qilish asosida ushbu munosabatlarni takomillashtirishga to‘sqinlik qilayotgan qanday muammolar mavjud?
5. MDH doirasida iqtisodiy integratsiya jarayonlarining faollashuvi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan qaysi yo‘nalishlarda ta’sir ko‘rsatadi?
6. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot asoslarini shakllantirish davrida O‘zbekiston va MDH mamlakatlari

o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillarni sanab o'ting.

7. O'zbekiston va MDH mamlakatlari o'rtasidagi tashqi savdo aloqalarining tovar tarkibidagi o'zgarishlar yo'nalishlarini tushuntirib bering.

8. O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish afzalliklari to'g'risida so'z yuriting.

9. Jahon iqtisodiyotida kechayotgan globallashuv jarayonlarining Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy siyosatiga ijobiy va salbiy ta'siri nimalarda namoyon bo'lmoqda?

10. Nima uchun O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dinamikasiga kutilganidek ta'sir ko'rsatayotgani yo'q?

11. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan integratsion aloqalarni rivojlantirish O'zbekiston uchun qanday afzalliklarga ega?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2014-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir» mavzusidagi ma’ruzasini «Xalq so‘zi», 17.01.2015.

2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi. T.: O‘zbekiston, 2010. – 56 b.

3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari.- T.: O‘zbekiston ,2009-56-b.

4. Karimov I.A. 2014-yil yuqori o‘sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarini safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish-yili bo‘ladi.- T.O‘zbekiston ,2014. 6-b.

5. Nazarova G.G’, N.M.Salixova. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. O‘quv qo‘llanma. T.: TDIU, «Iqtisodiyot», 2011. – 320 b.

6. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учеб. пособие. - М.: Магистр, 2009. - 397 с.

7. A.A. Isadjanov. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. T.: JIDU, 2008, - 185 b.

8. Глобализация мирового хозяйства. Учебное пособие /под. ред. М.Н.Осмовой М.Н., А.В.Бойченко. М.: ИНФРА-М, 2006. - ВИИИ, 376 с.

9. Nazarova va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005. - 224 b.

- 10.Alimov A.M. Xamedov I.A. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. Darslik. 2-nashri. T.: «O'AJBNT» Markazi, 2004.
- 11.Shodiev R.H, Maxmudov E.R. Jahon iqtisodi. Darslik. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, T., 2005.
- 12.Vaxabov A.V. va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma. T. Moliya, 2011.-708 bet.
- 13.Вахабов А.В., Разыкова Г.Х.,Хажибакиев Ш.Х. Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики / Под ред. д.э.н., проф.А.В.Вахабова – Т.: Молия ,2011.-300 с.
- 14.Колесов В.П., Кулаков М.В. Международная экономика: Учебник. - М.: ИНФРА-М, 2008. - 474 стр.
- 15.Мировая экономика: учебник/под ред. А.С.Булатова.-З-е изд., перераб. и доп. –М.:Экономист, 2009. -860 ст.увчс
- 16.Maxmudov E.R. Zamonaviy iqtisodiy tizimlar. JDU, 2011.
- 17.Ломакин. В.К. Мировая экономика: учебник. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. - 671 с.
- 18.Мировая экономика: прогноз до 2020 года / под ред. акад. А.А. Дынкина / Учебник ИМЭМО РАН. – М.: Магистр, 2007. – 429 с.
- 19.Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и практики управления /Под ред. В.В. Попкова. Учебник. М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2007. — 295 с.
- 20.Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации: Учебник. — М.: ЗАО «Экономика», 2007. — 359 с.
- 21.Иванов Н., Гоффе Н., Монусова Г. Глобализация и бедность. // Мировая экономика и международные отношения ,№9,2010.
- 22.Кондратов Д.Перспективы евро для России: плюсы и минусы.// Экономист,№12,2011.
- 23.Красавина Л.Н Тенденции развития международных валютных отношений в условиях глобализации мировой экономики.// Деньги и кредит,№11,2011
24. Перспективы развития мировой экономики. Замедление роста, увеличение рисков.Обзор. Сентябрь 2011.МВФ .Вашингтон ,2011.

25. Бедность 2030 Процветание. Годовой отчет 2013.Всемирный банк.Вашингтон,2013.

26. Доклад о мировых инвестициях, 2011 год: Способы организации международного производства ,не связанные с участием в капитале, и развитие.

27.Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar.O‘quv qo‘llanma. A.V.

28.International Trade Statistcs 2013.World Trade Organization .Swizerland, 2013.

29.World Development Indicators 2012.The World Bank Washington 2012.

30.World Development Risk and Opportunity Managing Risk for Develop 2014World Bank.2014.

31.World Economic Outlook:Transitions and Tensions .October 2013/IMF,2013

32.Vaxobov , Sh.X.Xojiboeiev , Sh.I.Raxmanov, X.A.Usmanova.-Т.: Iqtisod-Moliya ,2014.372 bet.

33.Postindustrial dunyo va globallashuv jarayoni. Jahon Iktisodiyoti va xalqaro munosabatlar M.2000 №3 - 91 bet.

34.Р.Кох Менежмент и финансы от А до Я - СПб «Питер» 1999 г. - С 65

35.Н.Иванов Глобализация ва проблеми оптимальной стратегии развития (Мировая экономика и международные отношения) М.2000 й. №2 - 15 бет.

36.Naisbitt Global Paradox N.Y.. 1994 г. II

37.Фишер Г. Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы. Автореферат докторской диссертации. –М., 2000. – 12 с

38.Игорь Пугач «Экономическое Обозрение» декабрь, 1998 год.

39.«Национальный семинар по наращиванию потенциала в Центральной Азии для регулирования процесса глобализации» ЭСКАТО, Центр экономических исследований Республики Узбекистан, 2003 год

40.«Национальный семинар по наращиванию потенциала в Центральной Азии для регулирования процесса глобализации»

ЭСКАТО, Центр экономических исследований Республики Узбекистан, 2003 год.

41.Георг Фишер, «Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы», М. 2000 год.

42.«Postindustrial dunyo va globallashuv jarayoni». Jahon Iktisodiyoti va xalkaro munosabatlar M.2000 –№3 - 93 bet.

43.Глобализация экономики и интернационализация системы ахраны интеллектуальной собственности .-М .; ИНИЦ Распечатка – 2002.-С 3

44.Гурова М.В Интеллектуальная собственности в инновационном развитии мировой экономики. – Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук.- М.2010,с 12

45.Барабашев А.Г., Бромберг Г.В. Интеллектуальная собственность и государство: зарубежный опыт. – М.: ИНИЦ Роспатента, 2004. – с.80

46.International Trade Statistics 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 52.

47.Европейская интеграция, большая гуманистическая Европа и культура / под ред. Л.И.Глухарева. М.: УРСС, 1999. 46-бет.

48.Восток / Запад. Региональные подсистемы и региональные проблемы международных отношений / под ред. А.Д.Воскресенского. М.: МГИМО. Российская политическая энциклопедия, 2002. 64–65-бетлар

49.Heidel-berg Club (Hrsg). Globalisierung. Stuttgart, 1997. S. 11.

50.Viner, J. The Customs Union Issue. Carnegie Endowment for International Pace. N.-Y., 1950.

51.Mead, J. The Theory of Customs Union. North Holland, 1955.

52.Vanek, J. General Equilibrium of International Discrimination. The Case of Customs Unions. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1965.

53.Kemp, M.A. Contribution to the General Equilibrium Theory of Preferential Trading. Amsterdam: North-Holland Publishing Company, 1969.

- 54.Sorden, W.Max. Economies of Scale and Customs Unions Theory // *Journal of Political Economy*. 1972. Vol. 80. № 3. P. 465 – 475.
- 55.Ethier, W., Horn, H. «A new look at economic integration» // Kierzkowski, H. (ed.). *Monopolistic Competition and International Trade*. Oxford: Clarendon Press, 1984. P. 207-229
- 56.Smith, A., Venables, A.J. Completing the Internal Market in the European Community: Some Industry Simulations // *European Economic Review*. 1988. № 7. P. 1501 – 1525.
- 57.Kreinin, M.E. On the Dynamic Effects of a Customs Union // *The Journal of Political Economy*. 1964. April. Vol. 72. № 2. P. 193 – 195.
- 58.Rivera-Batiz, L.A., Romer, P.M. Economic integration and endogenous growth // *Quarterly Journal of Economics*. 1991. Vol. 106. P. 533–555.
- 59.Syropoulos, C. Rules for the Disposition of Tariff Revenues and the Determination of Common External Tariffs in Custom Unions // *Journal of International Economics*. 2003. Vol. 60. P. 387–416.
- 60.Kindleberger, C.P. European integration and the international corporation // *Columbia Journal of World Business*. 1966. Vol. 1. P. 65–73.
- 61.Yannopoulos, G. Foreign direct investment and European integration: the evidence from the formative years of the European Community // *Journal of Common Market Studies*. 1990. Vol. 28. P.235–259.
- 62.Wooton, I. Towards a Common Market: Factor Mobility in a Custom Union // *The Canadian Journal of Economics*. Vol. 21. № 3. Aug., 1988. P. 525–538.
- 63.Corden, W. Max. Monetary Integration // *Essays in International Finance*. № 93. Princeton University. 1972.
- 64.Baldwin, R.E. On the Microeconomics of the European Monetary Union // *European Economy*. 1990. 1 special edition.
- 65.Mundell, R.A. A Theory of Optimum Currency Areas // *American Economic Review*. 1961. Vol. 53. P. 657–664.
- 66.Kenen, P. The Theory of Optimum Currency: an Eclectic View // Mundell, R., Swoboda, A.K. (eds.). *Monetary Problems of*

the International Economy. Chicago: University of Chicago Press. P. 41–60.

67.Dornbusch, R. Fiscal Aspects of Monetary Integration // American Economic Review. Papers and Proceedings. 1963. Vol. 53. № 2. P. 221–223.

68.Bayomi, T., Eichengreen, B. Ever Closer to Heaven? An optimum Currency-Area Index for European Countries // American Economic Review. 1997. № 41. Vol. 3–5. P. 761–770.

69.Касымова, Н.А. НАФТА: предпосылки создания и тенденции развития // США и Канада. 2001. № 6. 102-бет.

70.Шишков, Ю.В. НАФТА: истоки, надежды, перспективы // Мировая экономика и международные отношения. 1994. № 11. 12

71.Харламова, В.Н. Международная экономическая интеграция: учеб. пособие / МГИМО. М.: Аникл, 2007. 94-бет.

72.Kompas. 1994, № 4. 10 yanvar. 3–5-betlar.

73.Shimoliy Amerika erkin savdo zonasi (NAFTA): muammolar va istiqbollar. Ilmiy konferensiyalar // AQSh: iqtisod, siyosat, mafkura. 1995. № 4. 81-bet.

74.The APEC Region Trade and Investment, Canberra. November 2002. The Economist: Pocket World in Figures, 2002.

75.[Http://www.fta.gov.sg/](http://www.fta.gov.sg/)(1.12.2010).85.3

76.Создание зоны свободной торговли Китай - АСЕАН – образец взаимовыгодного и взаимовыигрышного регионального сотрудничества. URL.: [http/Russian.people.com.cn.95181/6857733.html](http://Russian.people.com.cn.95181/6857733.html) (3/04/2011).

77.Южная Корея и АСЕАН подписали соглашение о взаимных инвестициях. URL.: [http/Russian.people.com.cn.31618/66701.html](http://Russian.people.com.cn.31618/66701.html) (3/04/2011).

78.Вашанов В.А. Россия-СНГ: экономические отношения. М.: Изд. дом «АЛВО», 2002. - с.5

79.Козик Л.П., Кохно П.А. СНГ: реалии и перспективы. М.: Изд. дом «Юрид. мир ВК», 2001. – с.52

80.International Trade Statistics 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 52.

81.World Development Report. Risk and Opportunity Managing Risk for Development. 2014. World Bank. 2014. R. 293-

298; Trade Profiles 2013. VVTO Geneva, 2013. P. 38,122, 193.
ma'lumotlari asosida tuzilgan.

82.Мировая экономика и международные экономические
отношения: учебник. /под ред. Проф. А.С.Булатова, проф.
Н.Н.Ливенцева. -М.: Магистр, 2010. С. 167:

83.International Trade Statistics 2011. WTO. Geneva, 2011;
International Trade Statistics 2013. WTO. Geneva, 2013-yil
ma'lumotlari asosida tuzilgan.

84.Migration and Remittance Flows: Recent Trends and
Outlook, 2013-2016. Migration and DevelopmentBrief. October
2,2013. ma'lumotlari asosida tuzilgan.

85.World Investment Report 2012: Towards a New Generation
of Investment Policies. UNCTAD.Geneva, 2012. R. World
Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan.
New York and Geneva, 2014. P. 9, ma'lumotlari asosida tuzilgan.

ILOVALAR

I-jadval

Jahon xo‘jaligining asosiy mintaqaviy iqtisodiy integratsiya birlashmalari⁶⁶

Nº	Birlashma nomi	A’zo mamlakatlar	Tuzil-gan yili
1.	And guruhi yoki And pakti (CAN)	Boliviya, Kolumbiya, Ekvador, Peru	1969
2.	Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN)/	Bruney, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Tayland, Kombodja, Laos, Myanma, Singapur, Vietnam	1967
3.	Markaziy Amerika umumiy bozori (CACM)	Kosta-Rika, Salvador, Gvatemala, Gonduras, Nikaragua	
4.	Karib hamkorligi va Karib umumiy bozori (CARICOM)	Antigua va Barbados, Bagam orollari, Baryuados orollari, Beliz, Dominikan Respublikasi, Grenada, Gayana, Gaiti, Yamayka, Monserrat, Sant Kits va Nevis, Sant Lutsiya, Sant Vinsent va Grenadiya orollari, Surinam, Trinidad va Tobago	1973
5.	Markaziy Afrika bojxona va iqtisodiy ittifoqi (CEMAC)	Kamerun, Chad, Kongo, Ekvatorial Gvineya, Gabon, Markaziy Afrika Respublikasi	1966
6.	Sharqiy va Janubiy Afrika umumiy bozori (COMECA)	Burundi, Misr, Liviya, Ruanda, Svazilend, Komor orollari, Eriteriya, Madagaskar, Seyshel orollari, Uganda, Kongo Demokratik Respublikasi, Efiopiya, Malavi, Janubiy Sudan, Zambiya, Djibuti, Keniya, Mavritaniya, Sudan, Zimbabve	1994

⁶⁶International Trade Statistics 2014. WTO Geneva, 2014. P. 52.

1-jadvalning davomi

7.	Markaziy Afrika mamlakatlari iqtisodiy uyushmasi (ECCAS)	Angola, Markaziy Afrika Respublikasi, Chad, Burundi, Kamerun, Kongo, Kongo Demokratik Respublikasi, Ekvatorial Gvineya, Gabon, Ruanda Sao Tom va Prins	
8.	G'arbiy Afrika mamlakatlari iqtisodiy hamjamiyati (ECOWAS)	Benin, Burkino Faso, Kabo Verde, Kot d Ivuar, Gambiya, Gana, Gayana, Gvineya-Bisau, Liberiya, Mali, Niger, Nigeriya, Senegal, Serra Lione, Togo	1976
9.	Evropa erkin savdo assotsiatsiyasi (EFTA)	Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya, Shveysariya	1960
10.	Evropa Ittifoqi (EU)	Belgiya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya, Gresiya, Ispaniya, Portugaliya Avstriya, Finlyandiya, Shvesiya, Vengriya, Kipr, Malta, Latviya, Litva, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Estoniya, Bolgariya, Ruminiya, Xorvatiya	1992 (1957)
11.	Fors ko'tfazidagi arab mamlakatlari hamkorligi Kengashi (GCC)	Baxrayn, Quvayt, Oman, Qatar, Saudiya Arabiston, Birlashgan Arab Amirliklari	1981
12.	Janubiy konus mamlakatlari umumiy bozori (MERKOSUR)	Argentina, Braziliya, Paragvay, Urugvay	1991
13.	Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi (NAFTA)	AQSh, Kanada, Meksika	1994
14.	Janubiy Afrika taraqqiyot hamjamiyati (SADC)	Angola, Botswana, Kongo Demokratik Respublikasi, Lesoto, Madagaskar, Malavi, Mavritaniya, Mozambik, Nabimiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Seyshel	1992

1-jadvalning davomi

		orollari, Svazilend, Tanzaniya, Zambya, Zimbabve	
15.	Janubiy Osiyo erkin savdo assotsiatsiyasi (SAFTA)	Bangladesh, Butan, Hindiston, Nepal, Pokiston, Shri-Lanka, Maldiv orollari	1985
16.	Sharqiy Afrika iqtisodiy va valyuta ittifoqi (WAEMU)	Benin, Burkino Faso, Kabo Verde, Kot d'Ivuar, Gambiya, Gana, Gayana, Gvineya-Bisau, Liberiya, Mali, Niger, Nigeriya, Senegal, Serra Lione, Togo	1976

2-jadval

Jahon tovarlar eksportining geografik tarkibi, 1948-2013 yy⁶⁷.

	1948	1953	1963	1973	1983	1993	2003	2014
Qiymati, mird. doll								
Jami eksport	59	84	157	579	1838	3688	7380	18494
Ulushi jamiga nisbatan foiz hisobida								
Jami eksport	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100
Shimoliy Amerika	28,1	24,8	19,9	17,3	16,8	18,0	15,8	13,5
AQSh	21,7	18,8	14,9	12,3	11,2	12,6	9,8	8,8
Janubiy va Markaziy Amerika	11,3	9,7	6,4	4,3	4,4	3,0	3,0	3,8
Braziliya	2,0	1,3	0,9	1,1	1,2	1,0	1,0	1,2
Yevropa	35,1	39,4	47,8	50,9	43,5	45,4	45,9	36,8
Yel*	-	-	24,5	37,0	31,3	37,4	42,3	33,3
Germaniya	1,4	5,3	9,3	11,7	9,2	10,3	10,2	8,2
Fransiya	3,4	4,8	5,2	6,3	5,2	6,0	5,3	3,2
Italiya	1,8	1,8	3,2	3,8	4,0	4,6	4,1	2,9
Buyuk Britaniya	11,3	9,0	7,8	5,1	5,0	4,9	4,1	-
MDH	-	-	-	-	-	1,5	2,6	4,0
Afrika	7,3	6,5	5,7	4,8	4,5	2,5	2,4	3,0
Yaqin Sharq	2,0	2,7	3,2	4,1	6,8	3,5	4,1	7,0
Osiyo	14,0	13,4	12,5	14,9	19,1	26,1	26,2	32,0
Xitoy	0,9	1,2	1,3	1,0	1,2	2,5	5,9	12,7
Yaponiya	0,4	1,5	3,5	6,4	8,0	9,9	6,4	3,7
JSTga a'zo mamlakatlar	63,4	69,6	75,0	84,1	78,4	89,3	94,3	-

* 1963-yilda 6 ta, 1973-yilda 10 ta, 1983-yilda 12 ta, 1993-yilda 25 ta,
2013-yilda 28 ta mamlakat.

⁶⁷ International Trade Statistics 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 24.

3-jadval

MERKOSUR mamlakatlari tovar eksporti⁶⁸

	2012-yil		O'zgarishi, %			
	Qiymati, mlrd dollar	Ulushi %	2009	2010	2011	2012
Eksport						
Jami	340	100,0	-22	29	26	-5
MERKOSUR mamlakatlari o'rtasidagi savdo	49	14,4	-21	34	22	-11
Boshqa	291	85,6	-22	29	26	-3
Import						
Jami	325	100,0	-28	43	25	-3
MERKOSUR	48	14,8	-25	35	20	-11
Boshqa	277	85,2	-28	45	26	-1

4-jadval

**Jahondagi yetakchi integratsion birlashmalarda o'zaro savdoda
tovarlar eksporti (jamiga nisbatan foiz hisobida)⁶⁹**

	1990-y.	1995 y.	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2012-y.
Yel	—	—	67,5	66,8	65,3	48,5
NAFTA	42,6	46,0	55,6	55,8	32,3	37,9
MERKOSUR	8,9	20,5	21,0	12,9	15,7	14,4
ASEAN	20,1	25,5	24,0	24,9	24,6	25,9

⁶⁸ International Trade Statistics 2011. VVTO. Geneva, 2011. P. 37.; International Trade Statistics 2013. VVTO. Geneva, 2013. P. 36.

⁶⁹ Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник. /под ред. Проф. А.С.Булатова, проф. Н.Н.Ливенцева. -М.: Магистр, 2010. С. 167; International Trade Statistics 2011. WTO. Geneva, 2011; International Trade Statistics 2013. WTO. Geneva, 2013-yil ma'lumotlari asosida tuzilgan.

5-jadval

Ayrim iqtisodiy integratsion birlashmalarining asosiy ko'rsatkichlari⁷⁰ (2012-2014-yy.)

	Yillar	Maydoni, min kv. km	Aholisi, mln kishi 2014-2015	YaIM (XQP), trln dollar	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM (XQP), ming dollar	A'zo mamlikatlar soni
YeI	2012	4,3	509,0	17,0	33,4	28
	2014	4,324	508,191	18.124	35,849	
NAFTA	2012	21,8	470,0	19,4	41,3	3
	2014	21,578	471,964	20.162	42,719	
ASEAN	2012	4,5	609,4	3,1	5,1	10
	2014	4,435	625	3,6	5,7	
Bojxona Ittifoq (Rossiya, Belarus, Qozog'iston)	2012	20,0	170,0	3,6	14,7	3


I-rasm

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining global oqimi, 2013-yil⁷¹

Xalqaro aloqalar kuchayib bormoqda
Oxirgi 50 yilda jahon savdo va moliyaviy
aloqalari keskin oshib ketdi

Jahon YaIM siga nisbatan foizlarda

120 ■ Savdo integratsiyasi
■ Moliyaviy integratsiya



⁷⁰ World Development Report. Risk and Opportunity Managing Risk for Development. 2014. WorldBank. 2014. P. 293-298. Ma'lumotlari asosida hisoblangan.

⁷¹ Migration and Remittance Flows: Recent Trends and Outlook, 2013-2016. Migration and Development Brief. October 2, 2013. ma'lumotlari asosida tuzilgan.

6-jadval

Jahon iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan TTXIning rivojlanish dinamikasi, trln. doll.⁷²

Ko‘rsatkichlar	1990	2005–2007 (o‘rtacha- yillik ko‘rsatkich)	2008	2009	2013
TTXIni jalb qilish	0,2	1,5	1,7	1,2	1,5
TTXIni chetga chiqarish	0,2	1,5	1,9	1,2	1,4
Jalb qilingan TTXI hajmi	2,1	14,4	15,3	18,0	25,5
Chetga chiqarilgan TTXI oqimi	2,1	15,7	16,0	19,2	26,3
Jalb qilingan TTXIdan olingan daromad	0,07	1,0	1,1	0,9	1,7
Chetga chiqarilgan TTXIdan olingan daromad	0,1	1,1	1,1	1,0	1,6
TMK filialtarining savdo hajmi	5,1	21,3	33,3	30,2	34,5
Xorijiy filiallarda ishlab chiqarish hajmi	1,0	3,6	6,2	6,1	7,5
Xorijiy filiallardagi jami aktivlar hajmi	4,6	43,3	64,4	53,6	96,6
Xorijiy filiallar eksporti	1,5	5,0	6,6	5,3	7,7
Xorijiy filiallarda band bo‘lganlar soni, mln. kishi	21,5	55,0	64,5	66,7	70,7

Manba: Philip R., Gian Maria Milesi-Ferretti, 2007. «the External Wealth of Nations Mark II: Revised and Extended Estimates of Foreign Assets and Liabilities, 1970-2004», Journal of International Economics. Vol. 73, No 2, 223-50; World Development Indicators.

Izoh: Savdo integratsiyasi yalpi import va eksport hajmining jahon YalM ga nisbatli bilan o‘chanadi.

⁷² World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. New York and Geneva, 2014.. p. 18.

7-jadval

1965-2014-yillarda jahonning demografik rivojlanish dinamikasi

Ko'rsatkichlar	1965-1974	1975-1984	1985-1994	1995-2004	2005-2014
Aholi o'sishi (o'zgarish foizlarda ko'rsatilgan)	2,1	1,7	1,7	1,3	1,2
Kutilayotgan umr uzoqligi (yillarda)	59,0	63,0	65,5	67,6	69,9
Tug'ilish miqdori (har 1000 kishiga)	32,1	27,6	25,7	21,7	19,8
O'lim koeffitsiyenti (har 1000 kishiga)	12,0	10,2	9,2	8,6	8,1
Ishlab chiqarish hajmi o'sishi (foizlarda)	5,0	3,3	3,1	3,6	3,7
Ishlab chiqarish hajmining aholi jon boshiga o'sishi (foizlarda)	2,9	1,5	1,4	2,2	2,5

8-jadval

2014-yil MDH mamlakatlari tashqi savdosi

Mamlakatlar	Eksport	Import	Savdo balansi saldosи	
			2013	2014
Ozarbayjon	23142,4	8696	9989,7	14446,4
Armaniston	1478,933	4255,067	-1962,8	-2776,13
Belarussiya	37518,53	40093,33	-3483,8	-2574,8
Qozog'iston	81288,27	40368,8	27410,0	40919,47
Qirg'iziston	1461,467	5320,8	-3191,1	-3859,33
Moldoviya	2316,133	5154,4	-2229,1	-2838,27
Rossiya	508429,7	288788	156149,1	219641,7
Tojikiston	1035,867	4701,333	-2052,7	-3665,47
Ukraina	55966,67	54895,6	-9713,2	1071,067
MDH bo'yicha barchasi	712638,8	452273,3	170916,1	260365,5

MDH mamlakatlari asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (2014-yilda 2013-yilga nisbatan)

	Yam hajmi	Sanoat mahsulotlari hajmi	Asosiy kapitalga investitsiya	Eksport	Import	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish narxi indeksi	Iste'mol narxlari indeksi
Ozarbayjon	102,8	99,3	98,3	74,5	109,5	95	101
Armaniston	103,5	102,7	100,2	99	101,2	109	103
Belarusiya	101,6	102,0	94,2	99,5	94,5	113	118
Qozog'iston	104,4	100,3	104,2	91,5	84	110	107
Qirg'iziston	103,6	98,4	124,9	93,5	95,5	102	108
Moldoviya	104,6	107,3	102,3	93,5	94	106	105
Rossiya	100,6	101,7	97,3	91	87,5	106	108
Tojikiston	106,9	105,0	124,9	118	107,5	101	106
Turkmaniston	106,7	...	106,1	101,7
O'zbekiston	108,1	108,3	109,6	112	106,1
Ukraina	93,2	89,9	75,9	82,5	69,5	117	112
MDH bo'yicha barchasi	103,2	101,4	103,4	93,6	93,6	107,1	106,8

10-jadval

2014-yilda Xitoyning asosiy savdo sheriklari

O'rin	Savdo sheriklari	Umumiy savdo (mlrd AQSH dollarri)
1	AQSH	521
2	Gonkong	401
3	Yaponiya	312.55
4	Janubiy Koreya	274.24
5	Tayvan	197.28
6	Germaniya	161.56
7	Avstraliya	136.37
8	Malayziya	106.07
9	Braziliya	90.27
10	Rossiya	89.21

11-jadval

Dunyo mamlakatlarining innovatsion rivojlanish bo'yicha xalqaro reytingi

Global innovatsion indeks (GII) 2016 y. ⁷³ .	Texnologik tayyorgartlik indeksi (NRI) 2015 y. ⁷⁴ .	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari indeksi (GITR) 2015 y. ⁷⁵	Global raqobatbar-doshlik indeksi (GCI) 2015-2016 yy. ⁷⁶
1 Shvetsariya	1 Singapur	1 Koreya Respublikasi	1 Shvetsariya
2 Shvetsiya	2 Finlyandiya	2 Daniya	2 Singapur
3 Buyuk Britaniya	3 Shvetsiya	3 Islandiya	3 AQSH

⁷³ http://www.wipo.int/pressroom/rus/articles/2016/article_0008.html

⁷⁴ www.weforum.org/docs/WEF_Global_IT_Report_2015.

⁷⁵ <http://www.itu.int/net4/ITU-D/idi/2015/>

⁷⁶ <http://reports.weforum.org/global-competitiveness-report-2015-2016/the-global-competitiveness-index-2015-2016/>

4	AQSH	4	Niderlandiya	4	Buyuk Britaniya	4	Germaniya
5	Finlyandiya	5	Norvegiya	5	Shvetsiya	5	Niderlandiya
...
25	Xitoy	62	Xitoy	82	Xitoy	60	Xitoy
66	Hindiston	89	Hindiston	131	Hindiston	55	Hindiston
49	Rossiya	41	Rossiya	45	Rossiya	45	Rossiya
69	Braziliya	84	Braziliya	61	Braziliya	75	Braziliya
54	JAR	75	JAR	88	JAR	49	JAR

12-jadval

**Global ITTKI xarajatlarida ayrim mamlakatlar ulushi,
foiz hisobida⁷⁷**

	2012 y.	2013 y.	2014 y.
Jami	100,0	100,0	100,0
Amerika mintaqasi	34,5	34,0	33,9
AQSH	32,0	31,4	31,1
Osiyo mintaqasi	37,0	38,3	39,1
Xitoy	15,3	16,5	17,5
Yaponiya	10,5	10,5	10,2
Hindiston	2,7	2,7	2,7
Evropa mintaqasi	23,1	22,4	21,7
Germaniya	6,1	5,9	5,7
Boshqa mamlakatlar	5,4	5,3	5,3

13-jadval.

ITTKI xarajatlari bo'yicha dunyoning yetakchi mamlakatlari⁷⁸

Mintaqalar va mamlakatlar	ITTKI xarajatlari, YAIMga nisbatan %da			ITTKI xarajatlari, mln. doll. XQP bo'yicha			ITTKI xarajatlari, jamiga nisbatan %da		
	2012 y.	2015 y.	2016 y.	2012 y.	2015 y.	2016 y.	2012 y.	2015 y.	2016 y.

⁷⁷2014 GLOBAL R&D FUNDING FORECAST DESEMBER 2013 www.rdmag.com

⁷⁸ 2016 Global R&D Funding Forecast. Winter 2016, p.5.

AQSH	2,8	2,8	2,8	447	496,8	514	32	26,4	26,4
Xitoy	1,8	2	2	232	372,8	396,3	15,3	19,8	20,3
Yaponiya	3,4	3,4	3,4	160	169,6	166,6	10,5	9	8,5
Germaniya	2,8	2,9	2,9	92	107,4	109,2	6,1	5,7	5,6
Koreya Respublikasi	3,6	4	4	59	74,5	77,1	3,8	3,9	3,9
Hindiston	0,9	0,9	0,9	43	66,5	71,5	2,7	3,7	3,7
Fransiya	2,3	2,3	2,3	52	59,2	60	3,4	3,1	3
Rossiya	1,5	1,5	1,5	38	51,5	50,9	2,5	2,7	2,6
Boshqalar	0,4	0,4	0,4	394	483,7	502,1	23,7	25,7	26
Jami	2	1,6	1,7	1517	1882	1947, 7	100	100	100

14-jadval

**BRIKS, NAFTA va EI ning jahon yuqori texnologik tovarlar
ishlab chiqarish hajmidagi hissasi, %⁷⁹**

	1999	2000	2004	2008	2010	2012	2014
NAFTA	40,4	41,2	36,0	33,0	33,8	31,3	30,9
EI	22,4	19,8	22,9	22,7	18,1	16,8	17,0
BRIKS	5,9	6,1	10,4	17,9	22,0	27,4	31,1
Braziliya	1,2	1,4	1,1	1,7	1,8	1,9	1,7
Rossiya	0,7	0,3	0,5	0,9	1,0	1,1	1,2
Hindiston	0,5	0,3	0,5	0,7	0,9	0,9	0,8
Xitoy	3,4	4,0	8,1	14,5	18,2	23,4	27,3
JAR	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1

15-jadval

**Jahondagi intellektual mulk huquqi savdosida patent
talabnomalarining umumiy soni va rezidentlarning geografik
tarkibi⁸⁰**

	Talabnomalar soni		Rezidentlar ulushi, %		Jahondagi ulushi, %	
	2003	2013	2003	2013	2003	2013
Jahon bo'yicha, jami	1 490	2 567	62,5	66,5	100,0	100,0
	300	900				


⁷⁹ Science and Engineering Indicators – 2016. Appendix (tables 6) маълумотлари асосида хисобланган.

⁸⁰ WIPO statistics database, Oktobert 2014. www.wipo.int

Yuqori daromadli mamlakatlar	1 276 800	1 548 900	66,1	61,0	85,7	60,3
O'rta yuqori daromadli mamlakatlar	177 700	933 900	40,3	79,0	11,9	36,4
O'rta quyi daromadli mamlakatlar	28 600	74 500	29,0	23,2	1,9	2,9
Past daromadli mamlakatlar	7 200	10 600	87,5	84,0	0,5	0,4

2-rasm

AQSH, Xitoy va EI mamlakatlarida ITTKI xarajatlari dinamikasining o'zgarish istiqbollari⁸¹



16-jadval

Janubi-Sharqiy Osiyoning ayrim mamlakatlari innovatsiya siyosati xususiyatlari⁸²

Strategiya	Mud dati	Vazifalari
Yaponiya		
Fan va texnologiyalar ni rivojlantirish Strategiyasi	2013-30 yy.	a) fan va texnologiyalar taraqqiyotini ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirish; b) inson kapitali va manfaatdor tashkilotlarning rolini oshirish; v) innovatsiya siyosatini amalga oshirishning jamiyat tomonidan maqullanganligi (jamiyat hayotida fan, jamiyat uchun fan).
Fan va texnologiyalar	2011-16 yy.	

*2014 GLOBAL R&D FUNDING FORECAST DESEMBER 2013 www.rdmag.com


⁸² OECD (2014), OECD Science, Technology and Industry Outlook 2014, OECD Publishing.
http://dx.doi.org/10.1787/sti_outlook-2014-en мажлумотлари асосида тузишган.

ni rivojlantirishni ng to'rtinchi dasturi		Ustuvor sohalari: atrof-muhit; energiya; sog'iqliqni saqlash va tibbiyot; ijtimoiy muammolar. Miqdoriy ko'rsatkichlar: ITTK xarajatlarini 2020 yilgacha YAIMga nisbatan 4%ga qadar oshirish.
Janubiy Koreya		
Fan va texnologiyalar ni rivojlantirishni ng uchinchi dasturi	2013- 2017 yy.	a) ilmiy tadqiqotlarga sarflanayotgan investitsiyalar hajmi va samaradorligini oshirish; b) milliy innovatsiya strategiyasini amalga oshirishga ko'maklashuvchi texnologiyalarni ishlab chiqish; v) o'rta va uzoq muddatda ijodkorlik faoliyatini kuchaytirish; g) yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini joriy etishni qo'llab- quvvatlash va imtiyozlar ajratish; d) ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadlarining o'zaro mutanosibligini ta'minlash. Miqdoriy ko'rsatkichlar: a) ITTK xarajatlarining iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini 40%ga etkazish; b) fan va texnologiyalar sohasida 640 000 ish o'rmini yaratish.
Xitoy		
Fan va texnologiyalar ni o'rta va uzoq muddatda rivojlantirish milliy dasturi	2006- 20 yy.	a) ilmiy-tadqiqotlar va yangiliklarni joriy etishni kuchaytirish; b) xitoy sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarini qayta qurishda ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari va yangiliklaridan jadal foydalanish; v) atrof- muhit va jamiyat o'ttasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish (atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish); g) ilmiy-tadqiqotlar natijalari orqali amaliyotga joriy etiladigan yangiliklar ustuvorligini ta'minlash. Miqdoriy ko'rsatkichlar: a) ITTK xarajatlarini 2020 yilgacha YAIMga nisbatan 2,5%ga qadar oshirish; b) patentlar va xalqaro havollar bo'yicha birinchi beshlikka kirish.
Fan va texnologiyalar ni rivojlantirishni ng o'n ikkinchi dasturi	2011- 15 yy.	a), ilmiy tadqiqot ishlari ishlari, inson resurslari, ijodiy faoliyat va yangiliklarni joriy etishda o'zaro raqobat muhitini shakllantirish; b) iqtisodiyotni modernizatsiyalashni qo'llab quvvatlash maqsadida yangi texnika-texnologiyalarni joriy etish; v) ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish va uni amaliyotga tadbiq etish jarayonida qatnashuvchi tegishli muassasa va tashkilotlarning funksiyalarini belgilash va ular faoliatlari uchun qulay sharoit yaratish; Miqdoriy ko'rsatkichlar: a) ITTK xarajatlarini YAIMga nisbatan 2,2%ga qadar oshirish; b) ilmiy-

		tadqiqot ishlarni moliyalashtirish, ularga investitsiyalar sarflash darajasini oshirish (ishlab chiqarish korxonalari daromadlarining 1,5% ga qadar); v) ilmiytadqiqot bilan shug'ullanuvchilar sonini har 10 000 xodimga nisbatan 43 nafarga etkazish; g) fuqarolarning ilmiy tajribalarini 5%dan kam bo'limgan darajada oshirish
--	--	--

Dunyoning ayrim mamlakatlarida yalpi ichki mahsulot tarmoq tarkibining sifat o'zgarishi⁸³


3-rasm



⁸³ Акаев А. А. Среднесрочная импортозамещающая модернизация – пусковой механизм стратегии формирования инновационной экономики России. //Модернизация. Инновации. Развитие, №2(14), 2013. С.6

AQSH, Yaponiya va Buyuk Britaniyada mehnat unumdarligining o'sish sur'atlari, %⁸⁴

4-rasm



17-jadval

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosini erkinlashtirish bosqichlari

Yillar	Amalga oshirilgan ishlar
1991-1994	Import o'rmini qoplash siyosati. Tashqi savdoni tartibga solishning huquqiy-institutsional asoslari yaratilishi, notarif usullarning yetakchilik qilishi.
1995-1997	Tashqi savdoni tartibga solishning xalqaro amaliyotiga mos keladigan dastaklarining joriy qilinishi, miqdoriy cheklovlarning qisqarishi va bojxona bojlarini faol qo'llash
1997-1999	Tashqi savdoni erkinlashtirishni chiqurlashtirish, tarif va notarif usullarni soddalashtirish, eksport bojlarning bekor qilinishi, eksportga yo'naltirilgan siyosatning olib borilishi
2000-2003	Tashqi savdo va valyuta bozorini erkinlashtirish, import tarifining uch pog'onali stavkalarini (0:10:30) joriy etish (2002.07.01)
2003-hozirga qadar	Tashqi savdoni erkinlashtirish bosqichi (milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyalashuvi, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish)

⁸⁴ Акаев А. А. Среднесрочная импортозамещающая модернизация – пусковой механизм стратегии формирования инновационной экономики России //Модернизация. Инновации. Развитие, №2(14), 2013. С.8

18-jadval

**2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash
va diversifikatsiyalash, tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlash
bo‘yicha chora-tadbirlar Dasturi**

Investitsiya-larning yo‘nalishi	Loyibalar-ning umumiy qiymati	O‘z mablag‘lari	Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	Tijorat banklari kreditlari	Xorijiy investitsiyalar va kreditlar
Moliyalashtirish manbalari belgilangan va kelishilgan, amalga oshiriladigan va amalga oshirishga tayyorlangan investitsiya loyihalari					
Yangi qurilish	13676.4	2307.3	2492.3	1997.5	6879.4
Modernizatsiya va tiklash	4486.9	2195.7	592.2	859.0	840.0
Boshqa yo‘nalishlar	1476.7	104.6	10.6	34.2	1027.3
Jami	19640.0	4907.6	3095.1	2890.7	8746.6
Dastlabki tarzda ishlab chiqilayotgan, xorijiy investitsiyalarni ja‘b qilish asosida amalga oshiriladigan istiqbolli investitsiya loyihalari					
Yangi qurilish	18711.0				12806.1
Modernizatsiya va tiklash	2258.0				1203.9
Boshqa yo‘nalishlar	200.0				200.0
Jami	21168.9				14210.0
Hammasi	40808.9		17852.3		22956.6

19-jadval

O‘zbekiston eksporti va importi tovar tarkibi, jamiga nisbatan foizda

Eksport				
Yillar	1990	2000	2010	2014
Jami	100.0	100.0	100.0	100.0
Paxta tolasi	59.7	27.5	11.3	7.4
Oziq-ovqat mahsulotlari	5.9	5.4	9.7	11.9
Kimyoviy mahsulot va undan tayyorlangan mahsulotlar	2.3	2.9	5.1	4.6
Energiya va neft mahsulotlari	17.1	10.3	24.8	26.0
Qora va rangli metallurgiya	4.6	6.6	6.8	6.9

Mashina va uskunalar	1.7	3.4	5.5	3.9
Xizmatlar	1.3	13.7	9.1	21.5
Boshqalar	9.4	30.2	27.7	17.8
Import				
Mashina va uskunalar	12.1	35.4	44.4	39.5
Kimyoviy mahsulot va undan tayyorlangan mahsulotlar	9.7	13.6	14.3	15.9
Energiya va neft mahsulotlari	3.1	3.8	6.0	6.2
Qora va rangli metallurgiya	10.2	8.6	8.4	8.0
Oziq-ovqat mahsulotlari	48.9	12.3	10.9	10.8
Xizmatlar	1.5	8.5	4.7	8.0
Boshqalar	14.5	17.8	11.6	11.6

20-jadval

O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining geografik tarkibi

Yillar	1990	2010	2012	2014
Tashqi savdo aylanmasi	100.0	100.0	100.0	100.0
Uzoq xorij mamlakatlari	39.9	56.9	52.8	55.8
MDH mamlakatlari	60.1	43.1	47.2	44.2
Eksport				
Uzoq xorij mamlakatlari	37.7	54.8	45.7	49.7
MDH mamlakatlari	62.3	45.2	54.3	50.3
Import				
Uzoq xorij mamlakatlari	42.6	59.9	61.2	62.0
MDH mamlakatlari	57.4	40.1	38.8	38.0

21-jadval

Uzoq xorij mamlakatlarining O'zbekiston tashqi savdosidagi ulushi

Mamlakatlar	Eksport		Import	
	2013	2014	2013	2014
Avstriya	0.0	0.1	0.9	1.1
Buyuk Britaniya	0.5	0.5	1.1	1.0
Germaniya	0.6	1.0	6.3	7.2
Italiya	0.3	0.3	1.4	1.9

Xitoy	26.8	33.7	28.3	27.7
Koreya	1.1	2.3	23.5	21.7
AQSh	0.7	0.6	3.8	2.9
Turkiya	11.7	13.8	5.2	6.2
Fransiya	1.7	2.0	2.2	1.7
Shveytsariya	0.4	0.2	1.3	1.6
Yaponiya	0.1	0.2	2.4	2.0

22-jadval

O'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar tarkibi, %

Yillar	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015
Xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi, %	21.7	28.3	21.5	20.4	19.3	20.2	21.0
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning (TTXI) jami investitsiyalardagi ulushi, %	14.9	24.6	17.9	16.1	15.0	15.8	15.2
TTXI ning jami xorijiy investitsiyalardagi ulushi, %	68.5	87.0	83.4	78.8	78.0	78.3	73.0

23-jadval

Xorijiy investitsiyalarning tarmoq tarkibi

Yillar	2012	2013	2014
Jami	100.0	100.0	100.0
Ishlab chiqarish	92.6	94.9	94.7
Yoqilg'i-energetika sektori	30.2	35.0	59.9
Metallurgiya	0.5	0.8	0.1
Kimyo va neft-kimyo	4.5	3.7	0.8
Mashinasozlik	2.6	1.4	1.0
Yengil sanoat	3.9	3.6	1.3
Oziq-ovqat sanoati	1.3	1.9	3.5

Qurilish materiallari	1.4	1.0	1.0
Qishloq xo'jaligi	2.8	3.0	2.3
Transport va aloqa	37.9	40.3	22.1
Boshqa tarmoqlar	7.3	4.1	2.7
Noishlab chiqarish	7.4	5.1	5.3

24-jadval

**Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning sanoat tarmoqlari
bo'yicha taqsimlanishi, %**

Yillar	2012	2013	2014
Sanoat, jami	100.0	100.0	100.0
Yoqilg'i-energetika sektori	66.6	72.8	88.1
Metallurgiya	1.2	1.7	0.2
Kimyo va neft-kimyo	10.0	7.8	1.1
Mashinasozlik	5.7	2.8	1.4
Yengil sanoat	8.5	7.5	2.0
Oziq-ovqat sanoati	2.9	4.0	5.2
Qurilish materiallari	3.2	2.2	1.5
Boshqa tarmoqlar	1.9	1.3	0.5

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

BIRINCHI BO'LIM.

JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA OMILLARI

I bob. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi: nazariy asoslari va harakatlantiruvchi kuchlari	6
1.1. Globallashuv jahon iqtisodiyoti baynalminalashuvining eng yuqori bosqichi sifatida	6
1.2. Global jarayonlarning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri.....	13
II bob. Globallashuv va xalqaro savdoning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	24
2.1. Globallashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlar xususiyatlari.....	24
2.2. Globallashuv va liberallashuv – xalqaro savdoninig zamonaviy rivojlanish tendensiyasi sifatida	30
III bob. Global mintaqaviy va milliy moliya bozorlari ..	36
3.1. Jahon moliya tizimi globallashuvining mohiyati va uning oqibatlari	36
3.2. Zamonaviy jahon xo'jaligida moliya tizimining vazifalari va uni tartibga solish zarurati	41
3.3. Jahon moliya bozorining tasnifi	46
3.4. Globallashuv sharoitida xalqaro moliyaviy bozorlar rivojlanishining asosiy xususiyatlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar	57
IV bob. Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlik ..	65
V bob. Globallashuv sharoitida milliy xo'jaliklarning innovatsion rivojlanish zarurati va tendensiyalari	70
5.1. Hozirgi davrda milliy innovatsion tizimni yaratish va takomillashtirishning konseptual asoslari	70
5.2. Jahon xo'jaligi globallashuvining milliy iqtisodiyotlar innovatsion rivojlanishiga ta'sir yo'nalishlari	86

IKKINCHI BO'LIM.
MINTAQAVIY IQTISODIY INTEGRATSIYA
JARAYONLARI

I bob. Global va mintaqaviy integratsiyaning konseptual asoslari.....	103
1.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va uning dinamikasini belgilovchi omillar.....	103
1.2. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari va bosqichlari.....	115
1.3. Globallashuv va mintaqaviylashuv jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va «Yangi mintaqaviylashuv»	118
II Bob. Integratsion jarayonlarning samaradorligi va samarasi.....	127
2.1. Bojxona ittifoqi va erkin savdo zonasida savdoni «tashkil etish» va «bekor qilish».....	127
2.2. Zamonaviy nazariyalardagi umumiy bozor, Investitsiya jarayonlarining roli	138
2.3. Iqtisodiy va valyuta ittifoqining tashkil etilishi. Makroiqtisodiy monetar tahlil.....	145
III bob. Yevropada iqtisodiy integrasiya jarayonlari	152
3.1. Yevropada integratsiya jarayonlarining rivojlanish bosqichlari	153
3.2. Yevropa Ittifoqining shakllanishi, yagona Yevropa akti, Maastricht va Amsterdam shartnomalari	158
3.3. Yevropi Ittifoqining kengayish imkoniyatlari	160
IV bob. Shimoliy Amerika mintaqasida integratsion rivojlanish xususiyatlari	162
4.1. Shimoliy Amerikadagi integratsiyaning boshqa mintaqalardagi integratsiya modellari bilan qiyosiy tahlili ..	162
4.2. NAFTA kelishuvining asosiy qoidalari.....	172
4.3. NAFTAning ijobjiy va salbiy samaralari	180
V bob. Osiyo-Tinch Okeani mintaqasida iqtisodiy integratsiya jarayonlarining o'ziga xos jihatlari va rivojlanish strategiyasi.....	184
5.1. OTOIH: faoliyat maqsadlari va yo'nalishlari. Tashkiliy tuzilmasi	184

5.2. OTOIH Forumi sammitlarida qabul qilingan asosiy qarorlar, xatti-harakatlarning Manila dasturi va ularning mintaqada o‘zaro integratsion munosabatlarni chuqurlash-tirishdagi roli.....	
5.3. OTOIHda savdo va investitsion erkinlashtirish: amalga oshirish yo‘nalishlari va murakkabliklari hamda natijalari ..	191
5.4. Osiyo-Tinch okean mintaqasida integratsion jarayonlar xususiyatlari va strategiyasi	199
VI bob. MDH miqyosida integratsion rivojlanish muammolari va istiqbollari. O‘zbekistonning integratsiya jarayonlarida ishtiroki yo‘nalishlari.....	201
6.1. MDH mamlakatlarining jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni	214
6.2. MDH doirasidagi integratsion munosabatlar muammo-lari va istiqbollari	214
6.3. O‘zbekiston va MDH mamlakatlari o‘rtasidagi integratsion munosabatlar dinamikasi va unga ta’sir etuvchi omillar.....	222
6.4. O‘zbekiston va MDH mamlakatlari o‘rtasidagi integratsion munosabatlarni rivojlantirish yo‘nalishlari.....	226
6.5. O‘zbekiston Respublikasining jahon xo‘jaligi tizimiga iqtisodiy integratsiyalashuvi yo‘nalishlari..... Foydalilaniladigan adabiyotlar	232
Ilovalar.....	237
	246
	253

AVAZ MIRZAMUROTOVICH ALIMOV

**GLOBALLASHUV
VA MINTAQAVIY IQTISODIY
INTEGRATSIYA JARAYONLARI**

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2016

Muharrir:	F.Ismoilova
Tex. muharrir:	M.Holmuhamedov
Musavvir:	D.Azizov
Musahhih:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova

**E-mail: tipografiyaent@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.
Nashr.lits. AIN №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 28.12.2016.
Bichimi 60x84 1/16. «Time Uz» garniturasi.
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 17,5.
Nashriyot bosma tabog'i 17,25. Tiraji 300. Buyurtma №281.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmaxonasi»da chop etildi.**

100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.

45000 -00

65.5
A 501



ISBN 978-9943-11-354-1

9 789943 113541